Yuqoridagi keltirilgan maʼlumotlar asosida shuni takidlash joizki Respublikamiz sharoitida sementbeton qoplamali avtomobil yoʻllarini saqlash ishlarini takomillashtirish uchun bir necha yoʻnalishlarda ishlarni olib borish lozimdir. Shu boisdan sementbeton qoplamali avtomobil yoʻllarining saqlash ishlarini olib boʻyicha bir necha texnologiyalar tavsiya etiladi.

“STROP-M” texnologiyasi va uning qoʻllanilish tasnifi. “STROP-M” singdiruvchi va himoya qiluvchi kompozitsiyasi bu Qozogʻiston yoʻlchi olimlari tomonidan sementbeton qoplamasining yuzasini tashqi taʼsirlardan himoya qilish va qoʻllanilgandan soʻng uning ekspluatatsion koʻrsatkichlarni yaxshilash uchun ishlab chiqilgan. Himoya tarkibi sifatida fosforit kislotasi asosidagi biriktiruvchi ishlatiladi. U yoʻl yuzasida uzoq vaqt davomida eskiradi soʻngra kalsiy gidroksidning 10-15% li eritmasi bilan 1m² yuzaga 0.3-0.4 kg eritma sepiladi. Buning natijasida sovuqqa chidamliligi oshadi. Oʻzgaruvchan haroratning qoplamaga taʼsirini kamaytiradi va sirtini har-xil yedirilishlar va buzilishlardan himoyalaydi. Biriktiruvchi modda birinchi navbatda beton tarkibidagi kalsiy ionlari bilan oʻzaro taʼsir qiladi va reaksiyaga kirishmagan qismi betonning gʻovakliklarida toʻplanadi. Bunda sement toshi bilan beton gʻovakliklaridagi neoplazmalarning bogʻlanishlari hosil boʻladi va kam eruvchan kalsiy vodorod fosfatlar bilan toʻldiriladi. Betonning sovuqqa chidamliligi oshadi[1].

Qalsiy-vodorod fosfatlar oq rangga ega bu ishlov berilgan yuzaning yorugʻligini aks ettirishga imkon beradi va beton plitalarning deformatsiyadan qizishini mos ravishda pasayishini taʼminlaydi. Bu esa yoʻl yuzasida yoriqlar va buzilishlar sodir boʻlishini oldini oladi. Sementbeton gʻovakliklaridagi kalsiy gidrofosfatlar sement

toshiga mahkam bog‘langanligi sababli muzlashga chidamliligini oshiradi. O‘zgaruvchan harorat, quyosh nurlari va issiqlik darajasi ta’sirini pasaytiradi.

Texnologiyaning afzalliklari:

- qoplamaning 30 mm chuqurligiga kiradi;
- suv va quyosh nurlari ta’sirini pasaytiradi;
- mustahkamligini oshiradi;
- muzlashga chidamliligini oshiradi;
- sementbeton qoplamaning xizmat muddatini oshiradi;
- yorug‘likni aks ettirishga qarshilik ko‘rsatadi.



3-rasm: Sementbeton qoplama “STROP-M” texnologiyasini qo‘llash jarayoni

“PAVIX CCC100” texnologiyasi va uning qo‘llanilish tasnifi. “PAVIX CCC100” (AQSh) singdiruvchi birikmasi suvga asoslangan noyob vosita bo‘lib qo‘llanilgandan so‘ng sementbetonning sirt qatlamining ishlash xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi[3]. “PAVIX CCC100” suv o‘tkazmaydigan va betonning g‘ovakliklarida kristallarning hosil bo‘lishini birlashtirgan mahsulot. Birinchidan “PAVIX CCC100” havo bilan reaksiyaga kirishib suvni qaytaruvchi vositani hosil qiladi va bir vaqtning o‘zida betonga kirib betonning g‘ovaklari va o‘shliqlarida kristallar hosil qiladi.

“PAVIX CCC100” qoplama yuzasiga maxsus uskunarlar yordamida plyonka yoki oddiygina cho‘tka bilan purkash yo‘li bilan qo‘llaniladi va qoplamaning xizmat muddatini oshirish va uning texnik xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi.

Texnologiyaning afzalliklari:

- sementbeton qoplama chuqurligigacha kirib boradi;
- suv va reaktiv to‘yinishini pasaytiradi;
- mustahkamligini oshiradi;
- muzlashga chidamliligini oshiradi;

-sementbeton qoplamaning xizmat muddatini oshiradi.



4-rasm: Sementbeton qoplamada “PAVIX CCC100” texnologiyasini qo‘llash jarayoni

3. Deformatsiya choklarini germetiklash. Texnologiyaning tavsifi va qo‘llanilish sohasi: Sementbeton qoplamlarining kengaytiruvchi bo‘g‘inlarini o‘rnatish va germetiklash texnologiyasining so‘ngi 10 yil ichida ishlab chiqilganlari sezilarli afzalliklarni bermadi. Barcha turdagi kengaytiruvchi bo‘g‘inlar uchun yechimlar universaldir va texnologik jarayon barcha zamonaviy uskunalar majmuasi bilan ta‘minlangan. Kengaytiruvchi bo‘g‘inlarning geometrik parametrlari chuqurligi va kengligi bo‘g‘inlar qirralarining gorizont va vertikal harakatlanish chegaraviy qiymatlari qoplamaning qalinligi va transport vositalaridan tushayotgan yuq turiga qarab hisoblab chiqiladi. Monolit sementbeton qoplamlarida quyidagi ketma-ketlikni o‘z ichiga oladi:

- choklarni olmosli uskuna bilan kesish;
- issiq siqilgan havo yuborish;
- chok devorlarini gruntovkalash;
- 170-180°C haroratgacha qizdirilgan bitum-polimer bilan to‘ldirish;
- sirtini mayda dispersli mineral material bilan qoplash.

“BIGUMA”, “Biguma TTL-82”, “Biguma Arctic” (Germaniya) mastika seriyalari -yo‘llar va aerodrom qoplamlarida shuningdek muhandislik inshootlarida choklarni to‘ldirish uchun mo‘ljallangan bitum-polimer materiallardir. Ushbu materiallar turli xil iqlim sharoitlarida ishlaydi.

Mastikaning afzalliklari:

- harorat o‘zgarishi va yemirilishga yuqori qarshilik;
- vaqt o‘tishi bilan qattiqlashmaydi;
- termoplastikaga ega emas (qizdirilganda yumshamaydi);
- ultrabinafsha nurlanishiga qarshilik.



5-rasm: “BIGUMA” mastikasi va “Masterflex-472” germetigini o‘rnatish texnologiyasi

“Masterflex-472” germetigi- sementbeton qoplamalarining deformatsiya va harorat choklarini germetiklash uchun qo‘llaniladigan poliuretan modda.

Germetikning afzalliklari:

- deformatsiyadan keyin tiklanish qobiliyati;
- harorat o‘zgarishi va yemirilishga yuqori qarshilik;
- hatto -30°C dan $+80^{\circ}\text{C}$ gacha haroratda qattiqlashmaydi;
- termoplastikaga ega emas(qizdirilganda yumshamaydi);
- ultrabinafsha nurlanishiga qarshilik;
- bitta komponentli material yengil qo‘llaniladi.

“Crafco Road Saver” silikonli germetiklari-bu noyob tarkibga ega bo‘lgan past modulli to‘ldiruvchi moddalar bo‘g‘inlarni yopish uchun mo‘ljallangan har qanday iqlim sharoitida sementbeton qoplamalarida qo‘llaniladi. Germetiklar ob-havo va namlik ta‘siriga chidamli izolyatsiyani ta‘minlaydigan va astar(gruntovka)ni talab qilmaydigan bir komponentli materialdir. Germetiklar foydalanish uchun 2 xillikda beriladi.

Germetikning afzalliklari:

- ob-havo ta‘siriga mkuammal qarshilik ko‘rsata oladi;
- -46°C da moslashuvchan bo‘lib qoladi;
- vaqt o‘tishi bilan qotib qolmaydi hatto -30°C dan $+80^{\circ}\text{C}$ gacha haroratda ham;
- reaktiv dvigatellardan chiqadigan gaz oqimi ta‘siriga chidamli;
- yoqilg‘i va moylarning vaqti-vaqti bilan to‘kilishi xizmat ko‘rsatishni saqlaydi.

“CRAFCO” polimer bitumli mastikalar bitum asosida har xil polimerlarning qo‘shimchalari bilan issiq holatda ishlatiladigan bir komponentli materialdir. Mastikaning turiga qarab ular barcha yo‘l iqlim zonalarida foydalanishga yaroqlidir. Mastikalar 15-17 kg og‘irlikdagi qattiq briket shaklida yetkazib bariladi va bo‘g‘in qizdirilgandan so‘ng

ular asfalt va sementbeton qoplamalarida choklar va yoriqlarni to'ldirish uchun ishlatiladi.

Afzalliklari:

- ularni qayta-qayta isitgandan so'ng ham ishlash xususiyatlari o'zgarmaydi;
- har qanday iqlim zonalari uchun ishlatiladi;
- past salbiy va yuqori musbat haroratlarda ham yuqori deformatsiya xususiyatlariga ega;
- astar talab qilinmaydi;
- yoqilg'i va moylarning vaqti-vaqti bilan to'kilishi xizmat ko'rsatishni saqlaydi.



6-rasm: "Crafcro Road Saver" silikonli germetigi va "CRAFCO" polimer bitumli mastikasi

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sementbeton qoplamalarida saqlash ishlarini to'g'ri tashkil etishda iqlim omillarini, harorat choklarini to'ldiruvchi materiallarni va muzlashga qarshi materiallarni to'g'ri tanlash bilan qoplamaning xizmat muddatini oshirish, bu orqali esa sezilarli iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

REFERENCES

1. Album-catalog (2017) of new technology and materials used in the automotive industry in the Republic of Kazakhstan. KazdorNII
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. 249 (2022) "On measures to expand the network of cement concrete roads", Tashkent.
3. M. Tyler Ley, Bruce W. Russell, Robert N. Emerson (2013) Temperature effects on concrete pavements in Oklahoma. Stillwater, Oklahoma.
4. T.J. Amirov (2017) Construction of cement concrete pavements of highways and airfields. Sano-standard.
5. V.V. Ushakov, V.A. Maksimov (2022) "Obsnovanie tekhnologii sodержaniya cementobetonnih pokriti avtomobilnih dorog dlya povisheniya sroka ix slujbi", Avtomobil. To Dorothy. Infrastructure 2(35) 105-112.
6. Youn su Jung, Thomas J. Freeman, Dan G. Zollinger (2008) Guidelines for routine maintenance of concrete pavement, USA.

“XXI-ASR” - ELEKTROMOBIL SANOATINING IKKINCHI UYG’ONISH DAVRI

Sherzod Eshquvvatovich Islomov

Jizzax Politexnika instituti, dotsent

sh.islom@list.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada elektromobillarning yaratilishi, XXI-asr boshlarida ikkinchi uyg’onish davrining yuz berishi va uning asosiy sabablari, oxirgi yillarda elektromobil ishlab chiqarish sanoatida yuz bergar o’zgarishlar bo’yicha tahlillar keltirilgan.

Kalit so’zlar: avtomobil, elektromobil, gibridd avtomobillar, avtomobilsozlik. akkumulyatorlar batareyasi, Tesla, BYD, Detroit Electric.

ABSTRACT

This article analyzes the creation of electric vehicles, the emergence of the second renaissance at the beginning of the 21st century and its main causes, as well as the changes that have occurred in the electric vehicle industry in recent years.

Keywords: car, electric car, hybrid cars, automotive industry. batteries battery, Tesla, BYD, Detroit Electric.

KIRISH

Elektromobil – deganda mustaqil elektr energiyasi manbaiga (akkumulyatorlar batareyasi, quyosh panellari, shamol generatorlari, kondensatlar va yonilg’i elementlari) ega bo’lgan, bir yoki bir nechta elektrodvigatellar yordamida harakatlanadigan avtomobil tushuniladi.

Dastlabki elektromobillar ichki yonuv dvigatellari va ichki yonuv dvigatelli avtomobildan oldin paydo bo’lgan. 1828-yilda vengriyalik ixtirochi Anjos Jedlik avtomobildan ko’ra ko’proq skeytbordga o’xshab ketadigan elektr aravachasini namoyish qilgan.

Avtomobillarda elektr energiya manbai sifatida qo’llaniladigan qayta zaryadlanadigan akkumulyatorlar borasida fransuz fizigi Gaston Plante tomonidan birmuncha muvaffaqiyatli qadamlar tashlangan, u 1859 yilda qayta zaryadlanadigan birinchi qo’rg’oshinli akkumulyatorlar batareyasi ixtiro qilingan, lekin ushbu akkumulyatorlar batareyasining xajmi 10 m^3 ni, bir marta zaryad vaqti 500 soatni tashkil qilganligi sababli



avtomobillarda foydalanishing imkoni yo‘q edi. 1881 yilda E. Volkmar elektrodlar sifatida qo‘rg‘oshinli panjaralardan foydalanishni sinab ko‘rdi va birinchi bo‘lib qayta zaryadlanuvchi, xajmi ixcham qo‘rg‘oshin kislotali akkumulyatorlar batareyasini kash etdi. Bu elektromobillar sohasidagi dastlabki eng katta qadamlardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fransuz olimi Gustav Trouvé tomonidan 1881 yil noyabr oyida Parijda bo‘lib o‘tgan Xalqaro elektr ko‘rgazmasida elektromobil ommaga taqdim etildi. Ushbu uch g‘ildirakli elektromobil soatiga 12 km tezlikka erisha olgan va to‘liq zaryad bilan taxminan 26 km masofani bosib o‘tgan.

1894-yilda amerikalik ixtirochilar Morris va Salom oddiy avtomobilga o‘xshash elektromobil yaratdilar. "Elektrobat" nomini olgan ushbu elektromobilda 4 ta g‘ildirak, rul, ikkita yo‘lovchi uchun joylar mavjud bo‘lib, 1,5 ot kuchiga ega 2 ta dvigatel avtomobilni soatiga 32 kmga tezlashtirishga imkon berdi. Elektromobilning umumiy massasi 750 kg ni tashkil qilgan.

1899-yilning aprel oyida poygachi Kamil Genatsi "La Jamais Contente" maxsus elektromobili orqali birinchi bo‘lib quruqlikdagi 100 kilometrlik tezlik chegarasini oshib o‘tdi, rasmiy tezlik 105,882 km/soat.

Bir to‘liq zaryadda eng uzoq masofani bosib o‘tish bo‘yicha rekord "Borland Electric" elektromobilida o‘rnatildi, u Chikagodan Miluokigacha 167 km masofani bosib o‘tdi. Ertasi kuni (to‘liq zaryadlangandan so‘ng) elektromobil o‘z kuchi bilan Chikagoga qaytib keldi, o‘rtacha tezlik 55 km/soat edi.

20-asrning boshlarida elektromobillarni takomillashtirish ishqibozlaridan biri mashhur amerikalik ixtirochi Tomas Edison edi. U "Detroit Electric" deb monlangan elektromobilni bir quvvatlanishda 160 km yo‘l bosib o‘tishni ta‘minlaydigan akkumulyatorni yaratishga ko‘p kuch sarfladi va buni uddaladi.

1914 yilda Edison Ford bilan birgalikda arzon elektromobillarni ommaviy ishlab chiqarishni boshlashni rejalashtirdi. Lekin Edison laboratoriyasida yong‘in yuzaga kelib, elektromobilga oid barcha chizma va ma‘lumotlar yonib ketdi.

So‘ngra Genri Ford 1914 yilda ichki yonuv dvigatellari bilan jihozlangan avtomobillarni ishlab chiqaruvchi zavodida avtomobil ishlab chiqarishning konveyer tizimini ishga tushirdi va mashhur benzin dvigatelli "Model T"ni ishlab chiqara boshladi.


Elektromobilga nisbatan arzon, quvvati va tezligi yuqoriligi ichki yonuv dvigateli bilan jihozlangan avtomobillar elektromobillarni ishlab chiqarish, takomillashtirishga bo‘lgan

extiyojning soʻnishiga sabab boʻlishi bilan birga uzoq vaqt davomida avtomobil bozorida yetakchilik qildi. Bunga elektromobillarning bir zaryad bilan uzoq masofani bosib oʻtolmasligi, zaryadlash jarayonining uzoq davom etishi va zaryad stansiyalarining keng tarqalmaganligi ham sabab boʻldi.


20-asr davomida turli kompaniyalar vaqti-vaqti bilan elektromobillarni ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyishga harakat qilishdi, ammo muvaffaqiyatga erisha olmadilar.

Koʻpgina avtomobil mutaxassisleri 21-asrni elektromobillar sanoatida uygʻonish davri deb atashadi. Yonilgʻining qimmatligi, global isish va halokatli ifloslanish, yonilgʻi zaxirasining cheklanganligi, hususan dunyo boʻyicha aniqlangan gaz zahiralarnig xajmi 179.4 trln m³ ni tashkil qilib, yillik isteʼmol hajmi oʻzgarmaganda oʻrtacha gaz zahirasi 56 yilga, neft zahiralarning hajmi 240 mlrd tonnani tashkil qilib, oʻrtacha zahirasi 52 yilga etishi bashorat qilinishi oqibatida avtomobil ishlab chiqaruvchilarni ekologik toza va xavfsiz boʻlgan elektromobillarni takomillashtirish gʻoyasiga jiddiy qiziqish uygʻotdi.

Jahon bozorida oxirgi yillarda hususan, 2018 yilda dunyo boʻylab 2.1 mln, 2019 yilda 2.2 mln, 2020 yilda 3.0 mln, 2021 yilda 6.6 mln va 2022 yilda 10.1 mln elektromobil sotilgan (73% elektromobil, 27% gibrid avtomobillar), bu 2021-yilga nisbatan 55 foizga koʻp (1-rasm).



1-rasm. 2013-2022 yillarda elektromobil ishlab chiqarish (ming dona) boʻyicha statistik maʼlumotlar



2-rasm. 2022 yilda asosiy elektromobil ishlab chiqaruvchilardagi o'zgarish

Umumiy savdoning yarmidan ko'pi Xitoyga to'g'ri kelgan. 2022 yilda Xitoyda 5,9 millionga yaqin elektrmobillar sotilgan -59 foiz. 2022 yilda BYD Xitoyning elektromobillar bozorida yetakchilik qildi. Undan keyin GM Group, Tesla, Geely Holding va GAC Group joy olgan. 2022 yilda Xitoy bozorida eng mashhur 10 ta elektromobildan oltitasi BYD brendi tomonidan chiqarilgan. 2022-yilda elektromobillar jahon miqyosida yengil avtomobillar umumiy savdosining taxminan 13%ni tashkil qilgan, 2021 yilda bu ko'rsatkich 8.3% edi.

2021 yilga nisbatan 2022 yilda eng yuqori va salmoqli ko'rsatkichni Xitoy qayd etdi, 82%, Bu shimoliy Amerikada 48%ni tashkil qilgan bo'lsa, Yevropada 15%ni tashkil qilgan. Umumiy avtomobil savdosida 0.5%ga pasayish kuzatilgan, hususan Xitoyda 6.2%, Yevropada 5.3% va Shimoliy Amerikada 7.6%. Boshqa davlatlarda bu ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan 11.3%ga o'sgan (2-rasm).

2022 yil yakunlariga ko'ra hozirda dunyo bo'yicha jam 54 ta kompaniyalar elektromobil ishlab chiqarish bilan shug'ullanadilar.


Elektromobil savdosidagi miqdor jihatdan 2021-yilning umumiy statistikasida Tesla yetakchilik qiladi, ammo oxiriga kelib, dunyodagi eng ko'p sotiladigan o'nta elektromobildan yettitasi Xitoy brendlari tomonidan yetkazib berildi.

Xitoyning BYD Auto kompaniyasi 2022 yilda jahon elektromobil bozorining yetakchisiga aylandi: kompaniya 1,86 milliondan ortiq elektromobil sotdi (3-rasm).

2022 yilda yetakchiga aylangan **BYD Co Ltd** (Xitoy) - inglizcha "Build Your Dreams" so'zidan olingan (ruschada

«построй свои мечты») “O‘z orzularingizni quring” ma’nosini bildiradi. Veb sayti: <http://www.byd.com>

BYD asoschisi va doimiy rahbari Vang Chuanfu dastlab 2000 yillarda elektron jihozlar (telefon, smartfon, notbook va elektr uskunalar) uchun batareyalar ishlab chiqargan. BYD kompaniyasi "teskari muhandislik" yoki boshqacha qilib aytganda, nusxa ko‘chirish yo‘lidan borgan. Kompaniya yaponiyaning Sony va Sanyo batareyalarini demontaj qilib, ularning konstruksiyasi va ishlash prinsipini o‘rganishdi, qisman o‘zgartirish va arzon ishchi kuchi tufayli asl nusxadan ko‘ra arzonroq bo‘lgan versiyalarini chiqarishdi. Keyinchalik kompaniyaning mahsulotlari qatoriga Nokia mobil telefonlari, Dell noutbuklari, Black & Decker asboblari va hatto o‘ta yupqa Motorola RAZR flip telefonlari uchun batareyalar ishlab chiqara boshladi.



3-rasm. 2022 yilda elektromobil ishlab chiqaruvchi asosiy kompaniyalar

2002 yilda Chuanfu iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolda qolgan, hukumat zavod va ish joylarini saqlab qolishga jur'at etganlarga qkeng imtiyozlarni berishga tayyor bo‘lgan, “Qinchuan Machinery Works” davlat kompaniyasini bir tiyinga sotib oladi.

Qinchuanning o‘sha paytdagi yagona mahsuloti Hyundai Atosni eslatuvchi va qadimgi Suzuki Alto agregatlari asosida

qurilgan Flyer xetchbeki edi. Ushbu model BYD nomi bilan 2005 yilda sotuvga chiqarildi va jiddiy muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

So'ngra Vang Chuanfu avtomobillarni ishlab chiqishda batareyalar bilan bir xil yo'ldan bordi: u boshqa kompaniyalarning modellarini o'rgandi va o'z versiyalarini yaratdi. Kompaniyada afsona borki, bir kuni Chuanfu yangi "Mercedes-Benz S-Class" avtomobilini zavod darvozasi oldiga haydab kelib, ishchilarga: "Uni vintigacha qismlarga ajratib oling, qismlarning konstruksiyasini va qanday ishlashini o'rganing", deydi.

Shunday qilib, butun dunyo uchun Xitoyda "Teskari muhandislik" ramzi bo'lgan yangi avtomobil zavodi paydo bo'ldi. BYD F3 sedani "Toyota Corolla"ga, S7 krossoveri "Lexus RX", F0 shahar minikari "Toyota Aygo"dan ko'chirilgan va S8 kabriolet Mercedesga o'xshardi.

2022-yilda yetakchi yetkazib beruvchilar reytingida ikkinchi o'rinda taxminan 1,3 million avtomobil yetkazib bergan Tesla joylashgan. 2022-yil oxiriga kelib, Ilon Maskning savdosi yiliga 31 foizdan ko'proqqa o'sdi, global ulushi esa taxminan 12 foizni tashkil etdi.

Kuchli uchlikdan Volkswagen 4% bilan, to'rtichi o'rinni yana bir xitoylik ishlab chiqaruvchi - Wuling 4% bilan joy oldi.

IEA (International Energy Agency) hisob-kitoblariga ko'ra, 2022 yil fevral holatiga ko'ra, jahonda 16 millionga yaqin elektromobillar mavjud, bu barcha transport vositalarining 8,57 foizini tashkil qiladi. Umuman olganda, barcha elektr transport vositalari bir yilda taxminan 30 TVt / soat elektr energiyasini iste'mol qiladi.

XULOSA

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Yevropada elektr energiyasi narxining oshishi va tanqisligi elektromobillarining jozibadorligiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Bundan tashqari Xitoy 2023 yil boshida elektromobillarni subsidiyalashni to'xtatdi. Global zaryadlash infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar va elektromobil sanoatida xom ashyo, xususan, litiy va nikel narxlarining keskin oshishi ham elektromobil savdosiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bularning barchasi elektromobillarining va ularga texnik xizmat ko'rsatish narxining oshishiga olib keladi.

REFERENCES

1. Eshquvvatovich, I. S., & Abdurakhimovich, P. U. (2021). The importance of the level of motorization in the development of

- vehicle maintenance. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(1), 18-26.
2. Islomov, S., & Nomozboyev, O. (2021). Avtotransport korxonalarini innovatsion jihozlashga ta'sir qilivchi ekspluatatsion omillar. Academic research in educational sciences, 2(4), 216-223.
3. Mansurovna, M. L., & Eshquvvatovich, I. S. (2021). Study of the influence of operating factors of a vehicle on accident by the method of expert evaluation. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(1), 10-17.
4. Eshquvvatovich, I. S., & Sattorovich, Q. I. (2021). DETERMINATION OF THE MAIN FACTORS AFFECTING THE TECHNOLOGICAL EQUIPMENT OF MOTOR TRANSPORTATION ENTERPRISES. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(1), 1-9.
5. Islomov, S. (2020). Kichik quvvatli ATKlarda texnik xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Islomov, S. (2020). Республикамизда автомобиль сервисинг истиқболи. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Исломов, Ш. Э., & Мамаева, Л. М. (2022). АВТОТРАНСПОРТ КОРХОНАЛАРИДА АВТОМОБИЛЛАРНИ САҚЛАШ УСУЛИНИ ТАНЛАШ УСЛУБИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3(5), 244-250.
8. Исломов, Ш. Э., & Одилов, Н. Э. Ў. (2022). АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТИ МАЖМУАСИ ИШТИРОКИДА АТРОФМУҲИТ СИФАТИНИНГ ТЕХНОГЕН ЎЗГАРИШИ. Academic research in educational sciences, 3(5), 479-486.
9. Islomov, S. E., & Mamaeva, L. M. (2022). AVTOMOBIL TRANSPORTI VOSITALARIDAN AJRALIB CHIQADIGAN ZARARLI MODDALARNING UMUMIY KONSENTRATSIYASINI ANIQLASH. Academic research in educational sciences, 3(6), 878-884.
10. Eshquvvatovich, I. S., & Abdukarimovich, U. B. (2022). INFLUENCE OF CAR ERGONOMICS ON TRAFFIC SAFETY. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(5), 22-29.



ХИНАЗОЛИН-4-ОН ВА УНИНГ ОЛТИНГУГУРТЛИ ҲОСИЛАСИ СИНТЕЗИ

Ноила Шукуралӣ қизи Узоқбоева

Чирчиқ давлат педагогика университети талабаси

ziyadullayev.91@mail.ru

Азиза Гаппорова

Чирчиқ давлат педагогика университети талабаси

ziyadullayev.91@mail.ru

Самариддин Холмўмин ўғли Адилбоев

Чирчиқ давлат педагогика университети магистранти

samariddinadilboyev@gmail.com

Миржалол Эгамберди ўғли Зиядуллаев

Чирчиқ давлат педагогика университети, Кимё кафедраси доценти

ziyadullayev.91@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мақолада турли биологик фаолликка эга бўлган бициклик хиназолин-4-оннинг синтези ва P_2S_5 билан сувсизлантирилган пиридин муҳитида хиназолин-4-тионлар реакцияси олиб борилган. Реакция жараёнига таъсир этувчи омиллар ўрганилган. Синтез қилинган бирикманинг тузилиши замонавий физик-кимёвий тадқиқот усуллари ёрдамида исботланган.

Калит сўзлар: гетерохалқали бирикма, биологик фаол, синтез, катализатор, харорат, реакция давомийлиги, фаоллантирилган кўмир, хроматография, спектроскопия, қайта кристаллаш.

ABSTRACT

In the article, the synthesis of bicyclic quinazolin-4-one with different biological activity and the reaction of quinazolin-4-thiones in dehydrated pyridine medium with P_2S_5 were carried out. Factors affecting the reaction process were studied. The structure of the synthesized compound was proven using modern physico-chemical research methods.

Keywords: heterocyclic compound, biologically active, synthesis, catalyst, temperature, reaction time, activated carbon, chromatography, spectroscopy, recrystallization.

КИРИШ


Табиий моддалар ва дори воситалари ичида пиримидин ҳалқаси сақловчи бирикмалар кўп учрайди. Сўнгги йилларда пиримидинни бошқа циклик ва гетероциклик бирикмалар билан конденсирланган ҳосилалари, масалан: хиназолинлар, пуринлар, пиридопиримидинлар, фууро-, пирролопиримидинлар синтези, уларни кимёвий ўзгаришлари кенг ўрганилмоқда. Буни сўнгги вақтларда чоп этилаётган мақолаларда ҳам кўришимиз мумкин. Сўнгги йилларда инсектицидлар, фунгицидлар, гербицидлар сифатида ишлатиладиган цианурхлорид ҳамда хиназолин-4-онларнинг кўп сонли ҳосилалари синтез қилинмоқда ва қишлоқ хўжалиги ҳамда тиббиёт соҳасида самарали қўлланилиб келинмоқда. Шу сабабли органик кимё соҳасида олиб борилаётган илмий тадқиқотлар натижасида молекуласида бензопиримидин ҳалқасини сақлаган гетероҳалқали бирикмалар синтезига бўлган қизиқиш ортиб бормоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Хиназолин-4-он молекуласининг биринчи ва учинчи ҳолатлардаги азот атомлари, тўртинчи ҳолатда карбонил гуруҳи, шунингдек, бензол ҳалқасининг мавжудлиги ушбу молекулада турли хил кимёвий ўзгаришлар, жумладан, электрофил ва нуклеофил алмашилиш реакцияларини олиб бориш имконини беради. Бу эса ўз навбатида хиназолин-4-он асосидаги синтез қилинган бирикмалар орасидан ветеринария ва қишлоқ хўжалигида фойдаланиш учун янги препаратларни ишлаб чиқиш учун асос бўлиб хизмат қилади. Бундан ташқари, хиназолин-4-он асосида яратилган турли хил дори воситалари, тиббиётда саратон, гепатит С, рак касалликлари, микроб ва вирусларга ҳамда бошқа касалликларни даволовчи дори препаратлар, қишлоқ хўжалиги учун муҳим бўлган фунгицид, бактерицид ва инсектицидлар сифатида қўлланилмоқда [1. 87-91 б., 2. 93-101 б., 3. 3430-3440 б.].

НАТИЖАЛАР

Ушбу тадқиқот ишида турли биологик фаолликка эга бўлган бициклик хиназолин-4-он ва унинг олтингугурт ва галоген алмашган модификациялари синтез қилинган.



Тадқиқотлар давомида реакция потенциални кенгайтириш мақсадида, бир хил шароитда антранил кислотанинг амидлар билан ўзаро таъсирини ўрганилган. Антранил кислота формаид билан 120-130 °C да осон реакцияга киришган бўлса, бошқа амидлар билан янада қаттиқроқ шароит талаб этилади ва реакция давомийлиги кескин ошиши кузатилади. Бундан ташқари, юқори ҳароратларда жараён антранил кислотанинг сезиларли декарбоксилланиши билан мураккабланиши [4; 78 б., 5; 196 б.]. Реакция механизмини батафсил ўрганиш шуни кўрсатадики, у бир неча босқичларда боради, сўнгра алоҳида босқич натижаларини яхшилаш ва реакцияга бошқа бошланғич компонентларни киритиш мумкин бўлади [6; 435-491 б., 7; 337-343 б.]. Қуйидаги жадвалда хиназолин-4-оннинг турли хил эритувчиларда эрувчанлиги ҳақида маълумотлар келтирилган.

1-жадвал

Хиназолин-4-оннинг эрувчанлиги

№	Эритувчи	Эритувчи миқдори, г/100 мл	
		Ҳарорат, °C	
		25-27 °C	45-47 °C
1.	Сув	эримайди	эримайди
2.	Этанол	9,8	18,9
3.	Метанол	10,5	19,3
4.	Ацетон	8,9	15,6
5.	Хлороформ	4,5	6,6
6.	HCl нинг 5% ва 10% ли эритмалари	эримайди	эримайди
7.	H ₂ SO ₄ нинг 5% ва 10% ли эритмалари	эримайди	эримайди

МУҲОКАМА

Синтез қилинган хиназолин-4-оннинг тузилиши ИҚ-спектроскопик усулда таҳлил қилинди. Бунда хиназолин-4-оннинг таркибида 4-ҳолатда жойлашган C=O гуруҳининг валент тебраниши 1664 см⁻¹ соҳада, 3-ҳолатда жойлашган NH гуруҳи 3436 см⁻¹ соҳада, C=N гуруҳи 1612 см⁻¹, ва C–N гуруҳи 1468 см⁻¹, ароматик ҳалқадаги C=C боғининг валент тебранишлари эса 1558 см⁻¹ соҳаларда намоён бўлиши кузатилди.

Шуни таъкидлаб ўтиш керакки, органик бирикмаларнинг тузилишини таҳлил қилишда ИҚ-спектроскопия усули ёрдамида олинган натижалар ушбу бирикмаларнинг тузилишини кенгроқ таҳлил қилиш учун етарли ҳисобланмайди. Синтез қилинган



бирикмаларнинг тузилишини тўлиқроқ ва ишончли тарзда исботлаш учун ^1H , ^{13}C ЯМР спектрларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади. Шундай экан, ушбу тадқиқот иши давомида, юқорида келтирилган усуллардан фойдаланган ҳолда хиназолин-4-он бирикмасининг ^1H , ^{13}C ЯМР спектрлари олинди.

^1H ЯМР спектрида кучсиз соҳада ароматик Н-2 протони қиймати 7.79 м.у. соҳада бир-протонли триплетлар триплети ($J_1=1.27$, $J_2=2.56$ Гц) кўринишида КС намоён бўлади, Н-5 протон қиймати 8.35 м.у. соҳада синглет ҳолатда, Н-6 протони қиймати 7.50 м.у. соҳада бир-протонли триплетлар триплети ($J_1=1.11$, $J_2=2.19$ Гц) кўринишида кузатилди, Н-7 протони қиймати 7.71 м.у. соҳада бир-протонли дуплет ($J=7.9$ Гц) кўринишида кузатилди, Н-8 протони қиймати 8.20 м.у. соҳада бир-протонли дуплет дуплет ($J=7.9$ Гц) кўринишида намоён бўлиши хиназолин-4-он бирикмасига мос эканлигини тасдиқлайди.

2-жадвал

Хиназолин-4-оннинг айрим физик-кимёвий катталиклари

№	Модда номи	Брутто формуласи	Молекуляр массаси	Агрегат ҳолати	$T_{\text{суюқ.}}$, °C
1.	Хиназолин-4-он	$\text{C}_8\text{H}_6\text{N}_2\text{O}$	146,146	Кристалл	217-218

Тадқиқотларимизнинг кейинги босқичларида синтез қилинган хиназолин-4-онни, P_2S_5 билан сувсизлантирилган пиридин муҳитида таъсирлашуви орқали хиназолин-4-он таркибидаги карбонил гуруҳидаги кислороднинг олтингугуртга алмашилиш реакцияси олиб борилди. Натижада хиназолин-4-оннинг олтингугурт тутган ҳосиласи яни хиназолин-4-тион бирикмаси синтези амалга оширилди. Маҳсулот унуми 82 %.



Ушбу бирикманинг ИК спектри таҳлили қилинганда (KBr, ν , cm^{-1}): (C=S) гуруҳи 763 cm^{-1} , (NH) гуруҳи 3147 cm^{-1} , (C=N) гуруҳи 1597 cm^{-1} , (C-N) гуруҳи 1465 cm^{-1} , ар.х. (C=C) гуруҳи 1686 cm^{-1} соҳаларда намоён бўлиши кузатилди.

^1H ЯМР спектрида кучсиз соҳада ароматик протонлар Н-2 протони қиймати 8.07 м.у. соҳада бир протонли дуплет ($J=1.64$ Гц) кўринишида КС намоён бўлади, Н-5 протони қиймати 8.14 м.у. соҳада бир протонли синглет кўринишида кузатилади, Н-6 протони қиймати 7.57 м.у. соҳада бир протонли триплет ($J^m=1.17$, $J^o=2.3$ Гц) кўринишида кузатилади, ҳамда Н-7 протони қиймати 7.68 м.у. соҳада бир

протонли дуплет дуплет ($J^M=1.25$, $J^O=8.28$ Гц) кўринишида, Н-8 эса 7.85 м.у. да бир протонли триплет ($J^M=1.42$, $J^O=2.69$ Гц) кўринишида КСлар намоён қилганлиги хиназолин-4-тион эканлигини тўлиқ тасдиқлайди.

ХУЛОСА

Бициклик хиназолин-4-он бирикмаси синтези учун қулай шароит 125-130 °С, бошланғич реагентларнинг ўзаро нисбати 1:4, реакция давомийлиги 4 соат бўлганда ушбу гетерохалқали бирикмани микдорий унумларда синтез қилишга эришилди. Хиназолин-4-оннинг 4-холатида жойлашган карбонил гурухидаги кислород атомини P_2S_5 билан сувсизлантирилган пиридин муҳитида таъсирлашуви орқали хиназолин-4-тион синтез қилинди. Синтез қилинган бирикмаларнинг тузилишлари замонавий физик-кимёвий тадқиқот усуллари ёрдамида исботланди.

REFERENCES

1. Osarumwense P.O., Edema M.O., Usifoh C.O. Synthesis and Anagesic activities of Quinazolin-4(3H)-one, 2-Methyl-4(3H)-Quinazolinone and 2-Phenyl-4(3H)-quinazolin-4(3H)-one // Journal of Drug Delivery and Therapeutics, 2020, Volume 10(4-s). –pp. 87-91.
2. M. Komar., M. Molnar., M. Jukic., L.G. Obrovac., T.O.Bernardi. Green chemistry approach to the synthesis of 3-substituted-quinazolin-4(3H)-ones and 2-methyl-3-substituted-quinazolin-4(3H)-ones and biological evaluation // Green Chemistry Letters and Reviews, 2020, Volume 13, No. 2. –pp. 93-101.
3. Elmuradov B.J., Drager G., Butenschon H. Novel π -Extended Quinazoline-Ferrocene Conjugates: Synthesis, Structure, and Redox Behavior // European Journal of Organic Chemistry, 2020, –pp. 3430-3440.
4. М.Э.Зиядуллаев. Технологический процесс получения 3,4-дигидрохиназолин-4-она // Научно-практической конференции молодых ученых посвященной 110-летию академика С.Ю. Юнусова «Актуальные проблемы химии природных соединения» – Ташкент, 2019. –С. 78.
5. М.Э.Зиядуллаев. Технологический процесс получения 3,4-дигидрохиназолин-4-она // Научно-практической конференции молодых ученых посвященной 110-летию академика С.Ю. Юнусова «Актуальные проблемы химии природных соединения» – Ташкент, 2019. –С. 78.
6. Г.А.Швехгеймер. Синтез гетероциклических соединений на основе изатовых ангидридов (2Н-3,1-бензоксазин-2,4-дионон // Химия гетероциклическое соединений, 2001, №4. –С. 435-491.
7. Alafeefy A.M. Some new quinazolin-4(3H)-one derivatives, synthesis and antitumoractivity // Journal of Saudi Chemical Society, 2011, №15. –pp. 337-343.



PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI UCHUN YANGI SHAKLDAGI ZAMONAVIY O'QUV ADABIYOTLARI YARATISH MASALALARI

Utkirjon Maxamadaliyevich Alijonov

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Professional ta'limni o'quv-me'yoriy va metodik muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ANNOTATSIYA

Ta'limning samaradorligiga erishishda o'quv adabiyotlari ta'minotning sifati muhim ahamiyatga ega ekanligi ma'lum. Maqola professional ta'lim muassasalari uchun yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishda uzviylikka amal qilish muammosiga bag'ishlangan. Maqolada professional ta'lim muassasalarini yangi avlod o'quv adabiyotlari bilish ta'minlashning bosqichlari, e'tibor qaratish lozim bo'lgan muammolar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogika, texnologiya, uzluksiz ta'lim, elektron ta'lim, raqamli ta'lim.

АННОТАЦИЯ

Известно, что качество снабжения учебной литературой имеет важное значение в достижении эффективности образования. Статья посвящена о проблеме соблюдения согласованности при создании учебной литературы нового поколения для профессиональных учебных заведений. В статье говорится об этапах обеспечения профессиональных образовательных учреждений знаниями учебной литературы нового поколения, проблемах, на которые следует обратить внимание.

Ключевые слова: Образование, педагогика, технологии, непрерывное образование, электронное обучение, цифровое образование.

ABSTRACT

It is known that the quality of the supply of educational literature is important in achieving the effectiveness of education. The article is devoted to the problem of compliance with the consistency in the creation of a new generation of educational literature for vocational schools. The article talks about the stages of providing professional educational institutions with knowledge

of educational literature of a new generation, the problems that should be paid attention to.

Keywords: education, pedagogy, technology, continuing education, electronic education, digital education.

KIRISH

Bugungi kunda yangi ta'lim paradigmasi professional ta'lim muassasalari o'qituvchilari bilim, ko'nikma va malakalarini – o'qitishning axborot berish darajasidan shaxs shakllanishidagi rivojlanishini boshqarish darajasiga ko'tarishdan iborat. Bu jarayonda yangi o'quv adabiyotlarini yaratishning alohida o'rni bo'lib, u ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda yetakchi vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 6 sentyabr PF-5812-son Farmoni asosida 3 yillik majburiy ta'lim shaklida bo'lgan kasb-hunar kollejlari negizida ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim muassasalari tashkil etildi.

Ushbu tizim xalqaro standartlarga mos tashkil etilganligi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham yuqori baholandi. Tizimga bo'lgan ishonch hamda uni rivojlantirish borasida hozirgi kunda ko'plab xorijiy hamkorlar bilan bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Yevropa Ittifoqi Komissiyasi, YuNESKO, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), Osiyo taraqqiyot banki, Shveysariyaning O'zbekistondagi elchixonasi Helvetas Uzbekistan tashkilotlari bilan professional ta'lim tizimida xalqaro tajribalar asosida kadrlar tayyorlash borasida hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizdagi 330 ta kasb-hunar maktablarida, 166 ta kollejlarda va 208 ta texnikumlarda kasb va mutaxassislik egallash istagida bo'lgan jami 394,1 ming nafar o'quvchi-yoshlar kunduzgi, kechki, sirtqi va dual ta'lim shakllari bo'yicha tahsil olmoqda.

Professional ta'lim muassasalarining axborot-resurs markazlarida bugungi kunda 6,4 mln donadan ortiq kitob fondi mavjud. Shundan, 2,5 mln donadan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalari va 3,9 mln donadan ortig'i badiiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy adabiyotlarni tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Professional ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini yuqori saviyada tashkil qilish uchun davlat ta'lim standarti hamda xalqaro ta'lim standartlariga javob beradigan yangi shakldagi zamonaviy o'quv adabiyotlari yaratish va o'quvchilarga yetkazib berish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida foydalanish uchun tavsiya etilgan o'quv hamda elektron o'quv adabiyotlarning tahlili o'z yechimini kutayotgan masalalardan biriga aylanmoqda. Sababi yangi o'quv tizimini shakllantirishda o'quvchilarni eng so'nggi ma'lumotlar bilan tanishtirib borish talab etiladi. Bundan tashqari iqtisodiyot tarmoqlaridagi o'zgarishlar va texnologik yangilanishlar hamda mehnat bozorida bitiruvchiga qo'yilayotgan talablarning o'zgarib borishi natijasida o'quv adabiyotlarni doimiy yangilab borish taqozo etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 31 avgustdagi PQ-5241-son qaroriga muvofiq oliy ta'lim muassasalari o'zlariga birlashtirilgan texnikumlarni o'quv-metodik materiallar (o'qitish materiallari to'plamlari, didaktik materiallar, praktikumlar, texnologik xaritalar, elektron resurslar, xorijiy o'quv-ilmiy va boshqalar) bilan ta'minlash ishlarini amalga oshirib kelmoqda.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi tomonidan tasdiqlangan Professional ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlarni tayyorlash, nashr etish, yetkazib berish hamda ta'lim muassasalarda foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilash tartibi bilan professional ta'lim muassasalarini yangi o'quv adabiyotlar bilan ta'minlashning huquqiy asoslari yaratildi. Bunda, o'quv adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash, yangi o'quv adabiyotlarni yaratish uchun professor-o'qituvchilardan iborat mualliflar jamoasini shakllantirish, chop etish hamda o'quvchilarga foydalanishi uchun topshirish jarayonlarni qamrab oladi.

Professional ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan kasb va mutaxassisliklarda o'qitiladigan umum kasbiy va maxsus fanlar bo'yicha yangi o'quv qo'llanmalarni yaratishda shaffoflik ta'minlash maqsadida vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali tanlovlar orqali mualliflar tanlab olindi.

Kasb-hunar maktablari o'quvchilari uchun yaratiladigan 58 nomdagi o'quv qo'llanmalarga 145 nafar, texnikumlar uchun 58 nomdagi o'quv qo'llanmalarga 185 nafardan ortiq oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlari hamda soha mutaxassislari tanlovda ishtirok etdi. Yangi yaratiladigan 117 nomdagi o'quv qo'llanmalari Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim

boshqaruv hamda pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining soha mutaxassislari va ekspertlari aniqlagan g'olib mualliflar (jamoasi) tomonidan yangi o'quv reja va dasturlar asosida mazkur o'quv qo'llanmalarni yaratish ishlari olib borilmoqda.

NATIJALAR

O'quvchilarni ta'lim jarayonida yangi ma'lumotlardan foydalanishi, to'liq o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash darajasini oshirib borish maqsadida, tayyorlanadigan kasb va mutaxassisliklar bo'yicha 143 nomda 2,8 ming nusxada, jumladan 2021 yilda 65 nomda, 1,4 ming nusxada, 2022 yilda 78 nomda 1,4 ming nusxada o'quv adabiyotlar chop etilib, o'quv jarayoniga joriy etildi.

Professional ta'lim muassasalarida o'qitiladigan mutaxassisliklar va kasblaridagi fanlar bo'yicha 2023 yil yakuniga qadar 117 nomda 60 601 nusxada yangi o'quv adabiyotlar bosqichma-bosqich nashr etilib ta'lim muassasalariga yetkazib beriladi. Kasb va mutaxassisliklarning o'quv rejasida belgilanadigan fanlar bo'yicha 2030 yilga qadar yangi o'quv adabiyotlar bilan ta'minlanish dastur ishlab chiqilgan.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishning asosiy bo'g'ini - o'quv adabiyotlar bilan ta'minlanishi bilan bir qatorda, sohaga oid turli adabiyotlar, o'quvchilarning qiziqishlari, internet yangiliklari va hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan elektron adabiyotlar ham o'quvchining kasbiy shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shulardan kelib chiqib, elektron adabiyotlar yaratish va undan foydalanish imkoniyatini yaratish hozirgi zamon talablaridan biriga aylandi. Elektron qo'llanmalar didaktikaning asosiy tamoyillarini ishonchli va yuqori darajada joriy qilish imkonini beruvchi, samarali o'qitish vositasi hisoblanadi. Elektron qo'llanmalarni yaratishda zamonaviy texnologiyalarga tayangan holda, o'quvchilar uchun o'rganish usullarini keng joriy qilish borasida ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: animatsiya, ko'p darajali va ko'p variantli topshiriqlar, gipermatnlar va hokazo. Bular foydalanuvchilarning turli doiralari uchun elektron qo'llanmalar mazmuniy qismining adaptivligini ta'minlaydi.

MUHOKAMA

Shu o'rinda aytish joizki, elektron adabiyotlarning farqli xususiyatlari va afzalliklari mamlakatimiz ta'lim muassasalariga kirib kelayotgan zamonaviy kompyuterlar asosida ta'lim muassasalarini axborotlashtirishga intilish jarayoni ta'limda elektron adabiyotlar uchun yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Elektron adabiyotlarni yaratishda



asosiy tamoyillarga amal qilish, ularga qo'yiladigan didaktik, texnik-texnologik, ergonomik, estetik va talablarga rioya qilish tavsiya etiladi.

Professional ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashda ta'lim sifatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash, o'quvchilar bilimni oshirish asosiy komponentlardan bir sifatida yangi yaratilayotgan o'quv adabiyotlar ta'minlanishi hisoblanadi.

Bu borada, o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalar asosida bilimlarini oshirishga xizmat qiladigan yangi adabiyotlarni, ta'lim kontentlarini yaratish, ta'lim muassasalarini metodik ta'minotini mustahkamlash borasida quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

professional ta'lim muassasalarining o'quvchilariga 2030 yilgacha o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash dasturi asosida yangi o'quv adabiyotlar bosqichma-bosqich ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalari tomonidan professional ta'lim muassasalariga o'quv-metodik materiallari va elektron resurslar bilan ta'minlashni kuchaytirish;

professional ta'lim muassasalarining xorijiy til fani o'qituvchilarini bepul o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash;

o'quvchilarni adabiyotlar, o'qitish materiallari to'plamlaridan elektron foydalanish imkoniyatini oshirish maqsadida mobil ilova yaratish;

xalqaro moliya instituti homiyligida Pedagogik innovatsiyalar institutida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilar uchun brayl yozuvidagi o'quv adabiyotlarni chop etish uchun tipografiya ochish;

professional ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarni o'quv, badiiy adabiyotlar, turli ixtisoslik va yo'nalishlardagi adabiyotlar bilan ta'minlab borish.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, professional ta'lim muassasalarini yangi avlod darsliklari bilan ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Professional ta'lim tizimi uchun yangi adabiyotlarni yaratilishida uning zamonaviyligi, eski adabiyotlardan farqlanishi, xorijiy adabiyotlarga mosligi, zamonaviy texnologiyalar asosida yangilab borilishiga hamda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish imkoniyati yuqoriligiga alohida e'tibor berilishi lozim.

Professional ta'lim muassasalariga qo'yiladigan yagona talab sifatli va bilimli kadrlarni yetishtirib berish bo'lib, bu holatda o'quvchilarni sifatli o'quv adabiyotlari bilan ta'minlab borish oldimizdagi asosiy muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

REFERENCES

1. Siddiqova S.G'. Elektron ta'lim resurslarining yangi avlodi: tahlillar, arxitektura, innovatsion sifatlar // Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2019; №1. – B. 91-95.
2. Olimov Q.T. Elektron darsliklar yaratishning uslubiy asoslari.// Kasb-hunar ta'limi.- 2004.- № 1.-B. 69-72.
3. Olimov Q.T. Modulli texnologiya asosida o'quv adabiyotlarini yaratish // Kasb-hunar ta'limi.-2004.-№6-27 b
4. Olimov Q.T., Mirzaxmedov.B.M. Kasb-hunar ta'limi tizimida maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish muommolari. // Uzluksiz ta'lim.-2004.- №5.-B. 22-26.



RAQAMLI ASRDA MEMLARNING MADANIY VA LINGVISTIK TA'SIRI**Hikmat Mashrab o'g'li Anarboev**

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti magistranti

ANNOTATSIYA

Memlar raqamli asrda keng tarqalgan madaniy hodisaga aylandi, bu zamonaviy madaniyat va til evolyutsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqola memlarning tarixi va turlarini, shuningdek, ularning madaniy ta'siri va til evolyutsiyasi imkoniyatlarini o'rganadi. Mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqish va amaliy tadqiqotlarni tahlil qilish orqali ushbu maqola memlarning ko'ngil ochish va xabardor qilish, shuningdek, zararli stereotiplarni saqlab qolish va muhim ijtimoiy va siyosiy muammolardan chalg'itish usullarini ta'kidlaydi. Zamonaviy madaniyatda memlardan foydalanishni tanqidiy baholagan holda, ushbu maqola memlarning ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantirish va raqamli asrda til va madaniyatning davom etayotgan evolyutsiyasiga hissa qo'shish imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: memlar, madaniy ta'sir, til evolyutsiyasi, ijtimoiy media, internet madaniyati, raqamli asr.

ABSTRACT

Memes have become a ubiquitous cultural phenomenon in the digital age, with significant impacts on contemporary culture and language evolution. This paper explores the history and types of memes, as well as their cultural impact and potential for language evolution. Through a review of existing literature and analysis of case studies, this paper highlights the ways in which memes can both entertain and inform, while also perpetuating harmful stereotypes and distracting from important social and political issues. By critically evaluating the use of memes in contemporary culture, this paper highlights the potential for memes to promote positive social change and contribute to the ongoing evolution of language and culture in the digital age

Keywords: memes, cultural impact, language evolution, social media, internet culture, digital age.

KIRISH

Memetika madaniy ma'lumotlar yoki memlarning uzatilishi va evolyutsiyasini o'rganadigan tadqiqot sohasi. Dastlab biolog Richard Dokins tomonidan 1976-yilda chop etilgan "Xudbin gen" kitobida taklif qilingan memlar tushunchasi o'shandan beri tilshunoslikdan

sotsiologiyagacha, raqamli madaniyatgacha bo'lgan sohalarda qo'llanilgan. Memetika g'oyalar, xatti-harakatlar va belgilarning vaqt o'tishi bilan qanday tarqalishi va o'zgarishini, shuningdek, ularning inson bilimi va madaniyati bilan qanday o'zaro ta'sirini tushunish uchun asos yaratadi.

Memetika tarixi:

"Mem" atamasi Richard Dokins tomonidan o'zining "Xudbin gen" kitobida kiritilgan bo'lib, unda u biologik evolyutsiyadagi genlar kabi tabiiy tanlanish orqali rivojlanadigan madaniy replikatorlar sifatida memlar tushunchasini taklif qilgan. [1] Dokins memlarni "madaniy uzatish birliklari yoki taqlid birliklari" deb ta'riflagan, ularni nusxalash va bir kishidan boshqasiga o'tkazish mumkin. Memlarning genlarning madaniy hamkori sifatidagi g'oyasi akademik hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otdi va bu memetika sohasining rivojlanishiga olib keldi .

Memetikani o'rganish sohasi sifatida rivojlantirishga birinchi e'tiborga loyiq urinish 1990-yillarning boshlarida faylasuf va memetist tomonidan "Xudbin meme" ning nashr etilishi bilan bo'lgan. Syuzan Blekmor. [2] Blek morning ta'kidlashicha, memlar madaniy evolyutsiyaning asosiy birligi bo'lib, ular diniy e'tiqodlarning tarqalishidan tortib til evolyutsiyasigacha bo'lgan inson xatti-harakatlarining ko'p jihatlarini tushuntirishi mumkin.

Memlar tushunchasi ham ko'p tanqid va bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Ba'zi olimlar memetika juda reduksionist va madaniy uzatishning murakkabliklarini e'tiborsiz deb ta'kidlaydilar, boshqalari esa replikatorlar sifatida [3] memlarning biologik asosligiga shubha qilishadi. Ushbu tanqidlarga qaramay, memetika turli sohalarda qiziqish va bahs mavzusi bo'lib qolmoqda. [4]

Memetikaning fanlararo tabiati bu sohada ko'plab yondashuv va nazariyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ta'sirli asoslardan biri Dokins tomonidan taklif qilingan ikki turdagi memlar o'rtasidagi farqdir: "yomon" va "foydali" memlar. [5] Zararli memlar o'zlarining tashuvchilariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, masalan, buzg'unchi e'tiqodlar yoki zararli harakatlardir. Boshqa tomondan, foydali memlar o'z egalariga foydali vositalar yoki foydali e'tiqodlar kabi afzalliklarni beradigan narsalardir.

Memetik tanlov g'oyasi bo'lib, unda ba'zi memlar boshqalarga qaraganda ko'proq takrorlanishi va uzatilishi ularning moslashishi yoki moslashishiga bog'liq. [6] Ushbu kontekstda yaroqlilik bir qator omillarni ko'rsatishi mumkin, masalan, aloqa qulayligi, memning hissiy rezonansi yoki muammoni hal qilish yoki ehtiyojni qondirish qobiliyati.

Memetika til va til evolyutsiyasini o'rganishda ham qo'llanilgan. Ba'zi olimlar fonema va grammatik konstruktsiyalar

kabi til tuzilmalarini madaniy uzatish va tanlash orqali rivojlanadigan [7] memlar sifatida ko'rish mumkinligini ta'kidladilar. Boshqalar tilning o'zi uni ishlatadigan odamlar bilan rivojlanadigan [8] memlar majmuasi ekanligini ta'kidladilar.

Memetika atrofidagi munozaralar va munozaralarga qaramay, memlar tushunchasi raqamli asrda, internet madaniyatining yuksalishi va virusli kontentning tarqalishi bilan tobora ommalashib bormoqda. Memlar madaniy ifodaning keng tarqalgan shakliga aylandi, butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar ijtimoiy media va boshqa raqamli platformalarda memlarni yaratadilar va almashadilar.

Mem turlari:

Memlar turli xil shakllarni olishi va turli funktsiyalarni bajarishi mumkin. Memlarning ba'zi keng tarqalgan turlari quyidagilardan iborat:

Rasm makrolari. Tasvir makrolari - bu memning bir turi bo'lib, u hazil yoki istehzoli tasvir bo'lib, unga satirik yoki absurd burilish qo'shiladi. [9] Tasvir makrolariga misol sifatida "Men cheeseburger yeyishim mumkin " seriyasi va "Omadsiz Brayn" memlarini o'z ichiga oladi.

Video: Memlar, shuningdek, "Harlem" memlari kabi qisqa videolar yoki animatsiyalar shaklida ham bo'lishi mumkin. Chayqash "va" Nyan mushuk. [10]

Matnli memlar : Matnli memlar - bu tildan kulgili yoki satirik effektlarni yaratish uchun foydalanadigan memlar, masalan, "Tinchlaning va davom eting" [11] memlari va "Bu yaxshi" komikslari.

Jozibali iboralar. Tushunadigan iboralar - bu memning bir turi bo'lib, u keng tarqalgan va takrorlanadigan, "Sizning barcha bazangiz bizga tegishli" va "YOLO" (Siz faqat bir marta yashaysiz) kabi jozibali yoki kulgili iboradan iborat. [12]

Memlarning madaniy ta'siri:

Memlar zamonaviy madaniyatning keng tarqalgan qismiga aylandi, butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar memlarni yaratadilar va ularni ijtimoiy media va boshqa raqamli platformalarda baham ko'rishadi. Memlar ommaviy nutqni shakllantirish, siyosiy munosabatlarga ta'sir qilish va madaniy ifodaning yangi shakllarini yaratish qudratiga ega.

1: To investigate the relationship between two variables; time spent and exam performance.

2.3 Hypotheses Testing:

The researcher tries to test the following research hypothesis:

A: Null Hypothesis:

$H_0: \rho = 0$ (There is no correlation between the time spent and students' performance in the exam)

B: Alternative Hypothesis:

$H_A: \rho \neq 0$ (There is a correlation between the time spent and students' performance in exams)

3. Research Methodology

The research design for the current study is quantitative. As quantitative research design is used to measure numerical data, it best fits in order to find out whether there is a relationship between the time spent by students and their academic performance. Rahman (2016) stated that the quantitative is the method that lays heavy stress on measuring something or variables that existed in the social world. Furthermore, (Payne & Payne, 2004, p.180) (As cited by Rahman, 2016) opine that, "Quantitative methods (normally using deductive logic) seek regularities in human lives, by separating the social world into empirical components called variables which can be represented numerically as frequencies or rate, whose associations with each other can be explored by statistical techniques and accessed through researcher-introduced stimuli and systematic measurement." For this reason, the current study also investigates to find out whether there is any relationship between the time spent and students' academic performance.

3.1 Instrument for Data Collection

The instrument used for the study is students' exam scores and a questionnaire, distributed to students in their classroom.



Before designing the questionnaire, researchers discussed with students to choose a subject they like the most and then asked how much time they spent normally when studying literature during their undergraduate studies. Most of the students claimed that they studied for (2 & 4) hours normally. Their responses were then collected and analyzed in SPSS 24.00 with their exam scores in the same subject and their cumulative grade point average (CGPA).

4. Results and Discussion

The results of the current study have been analysed using Statistical Package in Social Sciences (SPSS 24.00) to analyse the data and the results have been presented and interpreted through inferential statistics. Researchers applied the following statistical tests to find out correlation and as well as to test the hypotheses.

4.1 Independent t test: the following are the group statistics in an independent t test for a better understanding of the two groups and for taking a look at the means for 2 hours (M=69.9333), 4 hours (M=88.2667), and Std. deviations for 2 hours (SD=7.65755) and 4 hours (SD=5.52225).

T-Test

Group Statistics

	Time Spent	N	Mean	Std. Deviation	Std. Error Mean
Academic	2.00	15	69.9333	7.65755	1.97717
Performance	4.00	15	88.2667	5.52225	1.42584

Independent Samples Test										
		Levene's Test for Equality of Variances			t-test for Equality of Means				95% Confidence Interval of the Difference	
		F	Sig.	t	df	Sig. (2-tailed)	Mean Difference	Std. Error Difference	Lower	Upper
ExamPerformance	Equal variances assumed	1.448	.239	-7.521	28	.000	-18.33333	2.43767	-23.32667	-13.34000
	Equal variances not assumed			-7.521	25.462	.000	-18.33333	2.43767	-23.34919	-13.31748

The results of the independent t test also show that the (sig. (2-tailed) <.050), so it means that they are significantly different.

4.2 Spearman’s Correlation: Spearman’s correlation is one of the nonparametric test of Pearson, and the variables used in Pearson should be only in Interval or Ratio scales of measurement, but for the Spearman, it should be in the ordinal scale of measurement. In the variables selected for this study, although the time is to be measured by Interval, as in the



questionnaire, they were only given two options (**2 hours & 4 hours**) so for this reason, as there is no point in-between these two hours of times, so we need to use it as in the ordinal scale of measurement in SPSS, and when we have variables with ordinal, we need to run them in Spearman's correlation test, instead of Pearson.


4.2.1 The results of the Spearman's test have been reported as follows:

A Spearman's correlation was run to determine whether there is a relationship between the time spent and the academic performances of the students. The results show that Spearman's correlation coefficient, r_s , is .852, which is statistically significant ($p=.000$) and it is to be stated that there is a relationship between the time spent and academic performance, which is statistically significant ($r_s=.852$, $p=.000$). For this reason, as p-value is smaller than alpha level, ($p<.050$), so we reject the null hypotheses and retain the alternative that there is a relationship between the time spent of students and their academic performances.

Correlations			Time Spent	Academic Performance
Spearman's rho	Time Spent	Correlation Coefficient	1.000	.852**
		Sig. (2-tailed)	.	.000
		N	30	30
	Academic Performance	Correlation Coefficient	.852**	1.000
		Sig. (2-tailed)	.000	.
		N	30	30

** . Correlation is significant at the 0.01 level (2-tailed).

As we can see in the following **Scatter/Dot 1**. as well that the students who studied for 2 hours, their mark are in between (55-81), but for the students who spent 4 hours studying, their marks are in-between (79-98) which are higher than the marks of the students who studied only for 2 hours. So based on this, it is to be claimed that there is a relationship between the two variables (marks of the students and the time spent).



Scatter/Dot 1.

The results of the current study are in line with the findings of (Silva et al., 2010) but they analyzed five factors to have positively correlated with students' academic achievements. Due to the potential of researching academic performance for graduates, (Israel & Salau, 2019) investigated students' academic performance during their first, second, and third years of studies. They suggested that having quality graduates, in terms of their academic performance, is a vital issue for higher education institutions and they believe that students with poor results must not be considered as graduates. Researchers investigated different modes of teaching-learning methods to be implemented to make sure that university students' academic performance is improved. For instance, project-based online learning is one such teaching-learning model that can increase students' academic performance (Zen et al., 2022). Additionally, researchers investigated different factors influencing students' academic performance in a Malaysian public university and the results show that there are numerous factors influencing the academic performance of university students such as; active learning, student attendance, and involvement in extracurricular activities (Ali et al., 2009).

The findings of the currents are in line with some of the above-stated research studies conducted in different parts of the world. Particularly, the findings of the current study clearly stated that time spent directly positively influenced students' academic performance and there is a correlation between the time spent and students' performance in exams.

5. Conclusion

The purpose of the current study was to investigate the relationships between students' time spent and their academic performance and to statistically find out the correlation between these two variables. The focus of the current study was on a public university in Afghanistan. The findings of the study revealed that there is a correlation between the two variables (time spent and academic performance). It means that students who studied for a period of 4 hours a day achieved better results in exams when compared with those who studied for 2 hours a day. This means that the better students are involved in studying their university subjects, the better they will achieve their exam performance. Based on the results of the current study, it is suggested that students must be trained on how to effectively manage their study time in order to perform well in their university exams. Additionally, students also need to know that time is a potential factor in their academic success if managed well.

As this study is limited to only one public university, researchers suggest that the findings of the current study could not be generalized to other universities and if researchers wish to do so, it needs to select a bigger sample of different public universities in order to find out some other influencing factors that impact students' academic performance in different levels.

REFERENCES

1. Ali, N., Jusof, K., Ali, S., Mokhtar, N., & Salamat, A. S. A. (2009). The Factors Influencing Students' Performance At Universiti Teknologi MARA Kedah, Malaysia. *Management Science and Engineering*, 3(4), 81–90.
2. Isa, S. G., Dr. Mammam, M. A., Badar, Y. and Bala, T. (2020). The Impact of Teaching Methods on Academic Performance of Secondary School Children in Nigeria. *International Journal of Development Research*, 10(2011), 37382–37385. <https://doi.org/https://doi.org/10.37118/ijdr.18223.07.2020>
3. Israel, A., & Salau, O. (2019). The Impact of Engineering Students' Performance in the First Three Years on Their Graduation Result Using Educational Data Mining. *Heliyon*, January, e01250. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2019.e01250>
4. Johnston, J. M., & O'Neill, G. (1973). The Analysis of Performance Criteria Defining Course Grades as a Determinant of College Student Academic Performance1. *Journal of Applied Behavior Analysis*, 6(2), 1310833. <https://doi.org/10.1901/jaba.1973.6-261>
5. Kusurkar, R. A., Ten Cate, T. J., Vos, C. M. P., Westers, P., & Croiset, G. (2013). How Motivation Affects Academic Performance: A Structural Equation Modelling Analysis.



Advances in Health Sciences Education, 18(1), 57–69.

<https://doi.org/10.1007/s10459-012-9354-3>

6. Mehnaz, K. (2013). Study of Impact of Time Management on Academic Performance of College Students. *IOSR Journal of Business and Management*, 9(6), 59–60. <https://doi.org/10.9790/487X-0965960>

7. Narad, A., & Abdullah, B. (2016). Academic Performance of Senior Secondary School Students: Influence of Parental Encouragement and School Environment. *Rupkatha Journal on Interdisciplinary Studies in Humanities*, 8(2), 12–19. <https://doi.org/10.21659/rupkatha.v8n2.02>

8. Nonis, S. A., & Hudson, G. I. (2006). Academic Performance of College Students: Influence of Time Spent Studying and Working. *Journal of Education for Business*, 81(3), 151–159. <https://doi.org/10.3200/JOEB.81.3.151-159>

9. Owusu-Acheaw, M., & Larson, A. G. (2014). Reading Habits among Students and its Effect on Academic Performance: A Study of Students of Koforidua Polytechnic. *Library Philosophy and Practice*, 2014(1).

10. Payne, G., & Payne, J. (2004). Key Concepts in Social Research. In *SAGE Publications, Ltd.* SAGE Publications, Ltd. <https://doi.org/10.4135/9781849209397>

11. Rahman, M. S. (2016). The Advantages and Disadvantages of Using Qualitative and Quantitative Approaches and Methods in Language “Testing and Assessment” Research: A Literature Review. *Journal of Education and Learning*, 6(1), 102. <https://doi.org/10.5539/jel.v6n1p102>

12. Rajeh, N., Al-qatawneh, S., Eltahir, M., & Althunibat, F. (2020). The Role of Academic Electronic Books in Undergraduate Students’ Achievement in Higher Education. *Heliyon*, 6(November), e05550. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2020.e05550>

13. Silva, E. T. da, Nunes, M. de F., Queiroz, M. G., & Leles, C. R. (2010). Factors Influencing Students’ Performance in a Brazilian Dental School. *Brazilian Dental Journal*, 21(1), 80–86. <https://doi.org/10.1590/S0103-64402010000100013>

14. Soria-vílchez, A. (2021). Students’ Perception and Academic Performance in a Flipped Classroom Model within Early Childhood Education Degree. *Heliyon*, 7(March). <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2021.e06702>

15. Tong, D. H., Uyen, B. P., & Ngan, L. K. (2022). The Effectiveness of Blended Learning on Students’ Academic Achievement, Self-study Skills and Learning Attitudes : A Quasi-Experiment Study in Teaching the Conventions for Coordinates in the Plane. *Heliyon*, 8(January), e12657. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2022.e12657>

16. Wang, R., Harari, G., Hao, P., Zhou, X., & Campbell, A. T.

- (2015). SmartGPA. *Proceedings of the 2015 ACM International Joint Conference on Pervasive and Ubiquitous Computing*, 295–306. <https://doi.org/10.1145/2750858.2804251>
17. Yang, L., & Duan, M. (2023). The Role of Emotional Intelligence in EFL Learners' Academic Literacy Development. *Heliyon*, 9(1), e13110. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e13110>
18. York, T. T., Gibson, C., & Rankin, S. (2015). Defining and Measuring Academic Success. *Practical Assessment, Research and Evaluation*, 20(5), 1–20.
19. Zen, Z., Reflinato, Syamsur, & Ariani, F. (2022). Academic Achievement : The Effect of Project-Based Online Learning Method and Student Engagement. *Heliyon*, 8(April). <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2022.e11509>
20. Zwain, A. A., Teong, L. K., & Othman, S. N. (2012). Knowledge Management Processes and Academic Performance in Iraqi HEIs: An Empirical Investigation. *International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences*, 2(6), 273–293.

KIMYO FANLARINI O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI

Aypara Djoldasovna Kurbanova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

ANNOTATSIYA

Muallif tomonidan maqolada zamonaviy kimyo fanlarida ilmiy bilimlarning integratsiyasini o'rganish muammosi keltirilgan bo'lib, integratsiya mexanizmlarini o'rganish uchun model sifatida zamonaviy kimyoning jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri tanlangan. Bu jarayonlar kimyo fanlarining va boshqa fanlarning turli tarmoqlarining ishlab chiqiladigan integratsiyasi batafsil ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kimyo, integratsiya, fanlararo, mexanizm, intellekt, shakllantirish.

АННОТАЦИЯ

В статье автором представлена проблема изучения интеграции научного знания в современных химических науках, в качестве модели изучения механизмов интеграции выбрана одна из бурно развивающихся отраслей современной химии. Эти процессы подробно рассматриваются как развивающаяся интеграция различных отраслей химических наук и других наук.

Ключевые слова: химия, интеграция, междисциплинарность, механизм, интеллект, формирование.

ABSTRACT

In the article, the author presents the problem of studying the integration of scientific knowledge in modern chemical sciences, one of the rapidly developing branches of modern chemistry is chosen as a model for studying the mechanisms of integration. These processes are considered in detail as a developing integration of various branches of chemical sciences and other sciences.

Keywords: chemistry, integration, interdisciplinarity, mechanism, intelligence, formation.

KIRISH

Yangilanayotgan O'zbekistonda fan va ta'lim amaliyoti o'qituvchiga fanlararo aloqalarni amalga oshirish uchun keng ko'lamlı usullarnı taqdim etadi va o'rganilayotgan materialning



xususiyatlariga, o'quvchilarni tayyorlash darajasiga, kabinetning moddiy-texnik bazasiga, shuningdek talabalar va o'qituvchining laboratoriya ishini bajarish imkoniyatlariga va qiziqishlariga bog'liq bo'ladi.

Fanlararo aloqalarni o'rnatishning ko'rib chiqilgan uslubiy usullari amalda faqat ta'limni tashkil etishning muayyan shakllari doirasida amal qiladi. Fanlararo aloqalarni amalga oshirish usullari va integrativ ta'limni tashkil etish shakli, agar ular birgalikda ta'lim maqsadlariga erishish va maqsadlarga erishishni ta'minlasa, to'g'ri tanlanadi; fan ichidagi va fanlararo aloqalarning birligi asosida talabalarning fan bilimlari va ko'nikmalarini har tomonlama birlashtirish; ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga hissa qo'shadigan dunyo haqidagi yaxlit g'oyani saqlash; talabalarning qiziqishi va bilim faolligini oshirish[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Integratsiyalashgan kimyo ta'limini tashkil etish shakllariga quyidagilar kiradi:

- integrativ o'quv kuni-bu bitta o'quv kuni davomida sinfga o'qitiladigan bir qator fanlar bo'yicha yagona g'oya (muammo) bilan bog'liq umumlashtiruvchi darslar tizimi;

- fanlararo tanlov majburiy maktab kursiga nisbatan fanlararo aloqalarni qo'llash uchun kengroq imkoniyatlar yaratadi;

- darsdan tashqari fanlararo ishlar fanlararo aloqalarning har xil turlarini o'rnatishga imkon beradi va shuning uchun nafaqat o'quvchilarning fan topshiriqlarini chuqurlashtirishga yordam beradi, balki qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, ilmiy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi;

- ta'limni tashkil etishning kompleks shakllari (keng qamrovli ekskursiya, keng qamrovli seminar, bilimlarni ijtimoiy ko'rib chiqish va boshqalar) shaxsni rivojlantirish va tarbiyalashning umume'tirof etilgan muammolarini hal qilish uchun ishlab chiqilgan va talabalarning bir nechta o'quv fanlari bo'yicha bilimlarini umumlashtirish va qo'llashni o'z ichiga oladi[2].

Fanlararo dars fanlararo aloqalar asosida ta'limni tashkil etishning etakchi shakli sifatida tan olingan. Darsda o'qituvchi va talaba birgalikda harakat qilishadi, ya'ni fanni o'qitish orqali talabaning asosiy rivojlanishi va tarbiyasi aynan shu erda sodir bo'ladi[3].

Afsuski, ilmiy tsikl dasturlari o'rganish vaqtida kelishilmagan va o'qituvchi fizika, kimyo yoki biologiyaga tayanmasdan ko'plab tushunchalarni shakllantirishga majbur. Shunday qilib, masalan, kimyo kursida hujayraning kimyoviy tarkibini o'rganayotganda, uglevodlar, yog'lar, oqsillar va nuklein kislotalar dastur talab qilganidek chuqur

o'rganilmagan. Shuning uchun o'qituvchi biologik materialni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan kimyoviy tushunchalarni juda cheklangan vaqtda shakllantirishi kerak[4].

Fanlararo aloqalarni amalga oshirishning muhim sharti tabiiy fanlar o'qituvchilarini maxsus tayyorlashdir. U turli shakllar orqali amalga oshirilishi mumkin: muammoli kurslar, maxsus kurslar, maxsus seminarlar, stajirovkalar va boshqalar.

Ta'limda fanlararo aloqalarni amalga oshirish bo'yicha tabiiy fanlar o'qituvchilari faoliyatining profitsogrammasi quyidagicha ko'rinishi kerak.

O'qituvchi bilishi va bajaraolishi kerak:

Kognitiv tarkibiy qism[5]:

* aralash fanlar kurslarining mazmuni va tuzilishi;

* tegishli fanlarni o'rganish vaqtida muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

* fanlararo aloqalar muammosining nazariy asoslari (FA tasniflash turlari, ularni amalga oshirish usullari, FA funktsiyalari, FA asosiy tarkibiy qismlari va boshqalar).;

* umumiy tushunchalarni shakllantirishda uzluksizlikni ta'minlash, qonunlar va nazariyalarni o'rganish; o'quvchilarda o'quv mehnati ko'nikmalari va ko'nikmalarini shakllantirishga umumiy yondashuvlardan foydalanish, ularning rivojlanishidagi uzluksizlik;

* qo'shni ob'ektlar tomonidan o'rganilgan turli xil tabiat hodisalarining o'zaro bog'liqligini ochib berish;

tabiatshunoslik fanlarining fanlararo aloqalarining maqsadlaridan kelib chiqqan holda aniq o'quv vazifalarini shakllantirish;

* tegishli fanlarning o'quv ma'lumotlarini tahlil qilish; talabalar o'rtasida fan bilimlari va ko'nikmalarini shakllantirish darajasi; qo'llaniladigan o'qitish usullari, o'quv mashg'ulotlari shakllari, fanlararo aloqalar asosida o'qitish vositalarining samaradorligi.

Strukturaviy tarkibiy qism[6]:

* fanlararo aloqalarni amalga oshirishga yordam beradigan maqsad va vazifalar tizimini shakllantirish;

* fanlararo aloqalarni amalga oshirishga qaratilgan o'quv ishlarini rejalashtirish; fanlararo aloqalarning ta'lim va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash;

* fanlararo va integral darslar, kompleks seminarlar va boshqalar mazmunini loyihalash. fanlararo bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda talabalar duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va xatolarni oldindan bilish;

* darslarning uslubiy jihozlarini loyihalash, fanlararo aloqalar asosida o'qitishning eng oqilona shakllari va usullarini tanlash;

* o'quv va kognitiv faoliyatni tashkil etishning turli shakllarini rejalashtirish; o'quv mashg'ulotlarining didaktik jihozlarini loyihalash.

Tashkiliy tarkibiy qism[7]:

* talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatini maqsad va vazifalarga, ularning individual xususiyatlariga qarab tashkil etish;

* fanlararo aloqalar asosida talabalarning tabiiy tsikl fanlariga kognitiv qiziqishini shakllantirish;

* fan to'garaklari va fakultativlar o'rtasidagi ishlarni tashkil etish va boshqarish; nota ko'nikmalariga ega bo'lish; talabalar faoliyatini boshqarish usullari.

Kommunikativ tarkibiy qism[8]:

* aloqa psixologiyasi; fanlararo bilim va ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari; talabalarning psixologik xususiyatlari;

* talabalar jamoasida psixologik vaziyatlarda harakat qilish; sinfda shaxslararo munosabatlarni o'rnatish;

* fanlararo aloqalarni birgalikda amalga oshirish faoliyatida tegishli fanlar o'qituvchilari bilan shaxslararo munosabatlarni o'rnatish.

Orientatsiyaviy tarkibiy qism[9]:

* tabiiy tsikl ob'ektlarini o'rganishda MPS-ni o'rnatish bo'yicha faoliyatning nazariy asoslari;

* tegishli fanlarning o'quv materialida harakat qilish; fanlararo aloqalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradigan o'qitish usullari va shakllari tizimida.

Safarbarlilik tarkibiy qismi[10]:

* kimyo, fizika, biologiyaning fanlararo aloqalarini amalga oshirish uchun pedagogik texnologiyalarni moslashtirish; fizika, kimyo, biologiyani o'qitish jarayonida fanlararo bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun mualliflik huquqini taklif qilish yoki eng mos metodologiyani tanlash;

* muallifni ishlab chiqish yoki fanlararo tarkib muammolarini hal qilishning an'anaviy usullarini moslashtirish;

* o'quv mashg'ulotlarining murakkab shakllarini o'tkazish metodologiyasini o'zlashtirish; kimyo, fizika va biologiyani o'qitishda fanlararo aloqalarni amalga oshirish texnologiyasini o'zlashtirish bo'yicha o'z-o'zini o'qitish faoliyatini tashkil eta olish.

Tadqiqotchilik tarkibiy qismi[11]:

* FA ni amalga oshirish bo'yicha ish tajribangizni tahlil qilish va umumlashtirish; hamkasblaringizning tajribasini umumlashtirish va amalga oshirish; pedagogik tajriba o'tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish.

Kasbga yo'naltirilganlikni tabiatshunoslik fanlari o'qituvchilarini FA larni amalga oshirish faoliyatiga tayyorlash jarayonini qurish uchun asos sifatida ham, ularni tayyorlash sifatini baholash mezonini sifatida ham ko'rib chiqish mumkin[12].

FA larni amalga oshirish usullari va usullari masalasi o'qitish usullarini takomillashtirishning umumiy muammosining bir jihatini hisoblanadi. O'qituvchi o'qitish usullarini tanlashni o'quv materialining mazmuni va o'quvchilarning mavzuni FA lar darajasida o'rganishga tayyorligi asosida amalga oshiradi.

O'quvchilarga fanlararo aloqalarni o'rnatish usullarini o'rgatishning dastlabki bosqichlarida tushuntirish va tasvirlash usuli ustunlik qiladi. O'qituvchi fanlararo tarkibdagi barcha materiallarni o'zi tushuntiradi. Talabalar fanlararo materiallar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirganda, reproduktiv va qisman qidirish usullari va ijodiy fanlararo vazifalarni qo'llash mumkin[13].

FA lardan foydalanish o'quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllari paydo bo'lishiga olib keldi: FA larga ega darslar bu - seminar, fanlararo ekskursiya, bilimlarni ommaviy ko'rib chiqish va boshqalar, fanlararo tarkibga ega darslar shakllan quyidagicha bo'lishi mumkin: ma'ruza; ma'ruza-konferentsiya; rolli o'yinli mashg'ulot; maslahat darsi, muammoli(kyeslarga asoslangan), loyiha himoyasi va boshqalar[14].

FA larning alohida muhim masalalari hali ishlab chiqilmaganligi bilan bir qatorda, ulardan foydalanishda qiyinchiliklar o'qituvchilarning tegishli tayyorgarligi, ularni loqaydligi sababli ham yuzaga kelishi mumkin. Ma'lumki, kimyo o'qituvchilari fizika va matematikani yaxshi o'zlashtirishmagan. Fizika o'qituvchilari kimyo va biologiyadan qobiliyatsiz. Bunday sharoitda ular FA larni amalga oshirish imkoniyatlaridan samarali foydalana olmaydilar.

Asosan, o'quvchilarni o'quv faoliyatida FA lardan foydalanishga o'rgatish metodologiyasi uch bosqichdan iborat bo'lishi mumkin. 1- bosqichda (shartli ravishda ko'payish deb ataladi) o'qituvchining asosiy maqsadi o'quvchilarni tabiiy fanlar bo'yicha olgan bilimlaridan foydalanishga o'rgatishdir. Ushbu bosqichni uch qismga ajratish mumkin:

1- qismh. O'qituvchi tomonidan talabalar tomonidan tegishli fanlardan zarur ma'lumotlarni takrorlash jarayonini tashkil etish.

2 - qism. Ko'rib chiqilayotgan nazariy qoidalarni tasdiqlash uchun har qanday fandan faktlar va tushunchalardan foydalangan holda o'qituvchi tomonidan yangi o'quv materialini tushuntirish.

3 - qism. Yangi materialni taqdim etish, unda o'qituvchi ko'rib chiqilayotgan hodisalarni tushuntirish uchun tegishli fandan tabiiy fanlar nazariyasini jalb qiladi.

O'quvchilarning fanlararo bilimlarga olib o'tish qobiliyatini shakllantirishning birinchi bosqichi quyi sinflarda ko'proq qo'llanilishi mumkin. Ammo ushbu bosqichda FA lardan foydalanishning dastlabki ikkita muammosini hal qilish mumkin, o'qituvchi undan yuqori sinflarda foydalanishi mumkin, ammo yuqori darajalar bilan birgalikda olib boriladi.

Ikkinchi bosqich o'quvchilarga bilimlarni fandan fanga olib o'tilishini o'rgatish, birinchisi kabi, uch bosqichdan iborat. Agar birinchi bosqichda o'qituvchi talabalardan tushuntirish jarayonida jalb qilgan tegishli fan materiallari haqidagi bilimlarni takrorlashni talab qilsa, endi asosiy e'tibor maktab o'quvchilari tomonidan tegishli kurslardan olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda qo'llashga qaratilgan. Shuning uchun ikkinchi bosqichni bilimlardan foydalanish bosqichi deb atash maqsadga muvofiqdir.

4 - qism (barcha bosqichlarning bosqichlari oxirigacha raqamlanadi) o'qituvchi o'quvchilardan tegishli fandan faktik yoki nazariy xarakterdagi individual bilimlarni mustaqil ravishda (sinfda oldindan takrorlanmasdan) takrorlashni talab qiladi. Ushbu talab o'quvchilarning yangi o'quv holati to'g'risidagi bilimlarni qo'llashga tayyorlik darajasini aniqlashga, shuningdek, ularda taniqli psixologik to'siqni engib o'tishga yordam beradi, uning mohiyati talabalar tomonidan, agar kerak bo'lsa, tegishli fan darslarida kurs materialining mazmunini ochib berishda qiyinchilik tug'diradi.

5 - qismda o'qituvchi endi fizika darslarida olingan bilimlarni takrorlashni emas, balki o'quvchilar tomonidan ushbu fan darslarida o'rgangan faktlar va tushunchalarni darslarda yangi o'rganilgan bilimlarni tasdiqlash uchun jalb qilishni talab qiladi, masalan, matematika.

6 - qismda o'quvchilar kursda o'rganilayotgan hodisalarni, masalan, kimyoni tushuntirish uchun fizika darslarida o'rganilgan nazariyani mustaqil ravishda jalb qilishlari kerak.

O'quvchilarni FA lardan foydalanishga o'rgatishning uchinchi bosqichi, bilimlarni fandan, fanga olib o'tish ham bir necha ketma-ket qismlardan iborat. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi talabalarni dunyoning birligini tasvirlash uchun tushunchalar, faktlar, qonunlar va nazariyalarni qo'llashga o'rgatish va fizika va kimyo darslarida o'rganilgan hodisalarni tushuntirish uchun umumiy dialektika qonunlaridan foydalanishdir. Ushbu bosqich oldida turgan maqsadlar tufayli uni shartli ravishda umumlashtiruvchi deb atash mumkin.

* 7 - qism. O'qituvchi tomonidan ushbu fan darslarida o'rganilgan dialektikaning umumiy qonunlari hodisalarining namoyon bo'lishini tushuntirish;

* 8 - qism. O'qituvchi o'rganilayotgan hodisalarning dunyoning umumiy rasmidagi o'rnini tushuntiradi.

* 9 - qism. Ushbu fan darslarida o'rganilgan hodisalarni tushuntirishda o'quvchilar tomonidan dialektikaning umumiy qonunlarini takrorlash;

Yuqoridagilarni umumlashtirib, ta'kidlangan qism va bosqichlar ancha shartli ekanligini ta'kidlashni istardim. Ulardan foydalanish sinflarga ko'ra juda shartli ravishda taqsimlanadi. O'qituvchining amaliy ishida o'quvchilarni bilimlarni fandan fanga olib o'tishga o'rgatish bosqichlari sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Qismlar va bosqichlardan foydalanishning asosiy maqsadi, birinchidan, o'qitishda FA larni amalga oshirish bo'yicha o'qituvchilarning ishini tartibga solishdan iborat, ikkinchidan, ular ishda erishilgan o'quv natijalarini baholashga imkon beradi, uchinchidan, o'quvchilar tomonidan tegishli fanlar darslarida olingan bilimlarga toqat qilish va ulardan foydalanish qobiliyatini baholash imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, har bir davr jamiyat uchun o'z mos ravishda talablarni belgilaydi. Jamiyatning ijtimoiy tartibi pedagogika fani va amaliyotini rivojlantirishning boshlang'ich nuqtasidir. Yangilanayotgan O'zbekistondagi zamonaviy maktab oldida jamiyatga to'laqonli inson – O'zbeistonning intellektual fuqarosi, zamonaviy hayot sharoitlariga moslashgan shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Bugungi kunda jamiyat intellektual, amaliy, ijodiy fikrlaydigan yosh avlodga muhtojdir.

Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanish muammosini o'rganish, tadqiq qilish, ishlab chiqish, uning o'quv jarayoni samaradorligiga ta'sirini o'rganish jarayonida men zamonaviy ta'lim jarayoni zamonaviy jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga qodir degan xulosaga keldim va muvaffaqiyatli natijaning tarkibiy qismlaridan biri bu o'quv jarayonida integratsiyadan tizimli, ko'p qirrali foydalanish ekanligini angladim.

O'qituvchi faoliyatida integratsiya aniq natijalarga olib keladigan ma'lum bir tizim vazifasini bajaradi:

1. Fan doirasida bo'yicha bilim darajasi va sifatini oshirish (bu tajriba natijalari bilan tasdiqlangan).

2. O'quv materialini etakchi g'oyalar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish, o'rganilayotgan muammolar o'rtasida tabiiy munosabatlarni o'rnatish orqali ta'minlanadigan intellektual faoliyat darajasining o'zgarishi.

3. Darsda va darsdan tashqari vaqtda faol va mustaqil ishlash istagida namoyon bo'ladigan o'quvchilarning bilim qiziqishining o'sishi.

4. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilish, buning natijasi ma'lum bir hodisa va jarayonlarga shaxsiy munosabatni aks ettiruvchi o'z tadqiqot ishlari bo'lishi mumkin.

XULOSA

Belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'kidlayman: tadqiqot muammosi bo'yicha uslubiy, pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilindi; fanlararo o'quv materialni jalb qilgan holda tizimli yondashuv asosida kimyo o'qitishning samaradorligi asoslandi; yangi o'quv materiallari va fanlararo materiallardan foydalangan holda kimyo bo'yicha o'quv mashg'ulotlari kursi ishlab chiqildi; fanlararo integratsiya asosida kimyo bo'yicha o'quv materiallarini o'zlashtirish samaradorligi va bu talabalarning tizimli fikrlashidir.

REFERENCES

1. Дендебер С.В., Ключникова О.В. Современные технологии в процессе преподавания химии, Москва 2007 г.
2. Гершунский Б.С. Компьютеризация в сфере образования: проблемы и перспективы. М.: Педагогика, 2002 г.
3. Багрова Н. В. ИКТ как инструмент индивидуализации процесса обучения // Химия в школе. 2012. № 5. С. 78–80.
4. Курбанова А.Дж. Инновационные процессы в химической подготовке// "Экономика и социум", 2022, №2(93) С.-207-210
5. Yodgarov V. Applying ICT for improvement general chemical education// Society and innovations.2021. №4. Page 258-263.
6. Рустамова Х.Н., Эштурсунов Д.А. Роль информационных и коммуникационных технологий в обучении общей и неорганической химии // «Экономика и социум». 2021. №5(84).
7. Kurbanova A.Dj., Komilov K.U. Case-study method for teaching general and inorganic chemistry// Academic Research in Educational Sciences.2021.№6. Pade 436
8. Курбанова, А. Дж. Использование мультимедийных презентаций на уроках химии для непрофильной химии. Academic Research in Educational Sciences, 2022, №3(3), С.-62–68.
9. Бузрукходжаев А.Н., Комилов К.У. Технология проблемного обучения на уроках химии в школе// "Экономика и социум", 2022, №2(93)-2. С.-579-84.



10. Allayev J. Kimyo darslarida o'quvchilarning intellektualqobiliyatlarini rivojlantirish uchun innovatsionpedagogik texnologiyalardan foydalanihs// "Экономика и социум", 2022, №2(93)-2. С.-41-46.
11. Тухтаниёзова Ф.О., Комилов К.У., Формирование универсальных учебных действий у учащихся на уроках химии через дидактические игры// "Экономика и социум", 2002, №2(93)-2. С.- 960-965.
12. Allayev J. Talabalarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda kimyoning roli// Academic Research in Educational Sciences, 2022, №2(3), page 1094-1099.
13. Yodgorov , B. Kimyo mashg'ulotlarida keys texnologiyasi elementlaridan foydalanish. Academic Research in Educational Sciences, 2022, №3(3), Page 273–279.
14. Mirzaraximov , A. A. Kimyo o'qituvchisining mashg'ulot uchun nazariy tashkil etuvchilari. Academic Research in Educational Sciences, 2022, №(3), Page 91–95.



YANGI O'ZBEKISTON YANGI KONSTITUTSIYA – BU MAMLAKATIMIZDA VAKILLIK ORGANLARI FAOLIYATIDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASH KAFOLATI

Farxodjon Anvarjon o'g'li Ibrohimov
CHDPU katta o'qituvchisi

Murodjon Xasanjon o'g'li Sultonov
CHDPU talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada mamlakatimizda “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” davlat doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa konstitutsion islohot va uning zarurati va ahamiyati tahlil qilingan. har biri kiritilgan konstitutsion normaning mazmuni va bugungi kun uchun muhimligini ochib berishga harakat qilingan. bu o'rinda vakillik organlari vakolatlari tizimidagi o'zgartishlarga alohida ahamiyat berilgan.

Kalit so'zlar: Taraqqiyot strategiyasi, konstitutsiyaviy islohotlar, huquqiy va ijtimoiy davlat, prezumpsiya, vakillik organlari, faol va passiv saylov huquqi, xorijiy tajriba, demokratiya, mahalliy hokimliklar.

ABSTRACT

The article analyzes the reforms being carried out within the framework of the "Year of attention to people and quality education" in our country, especially the constitutional reform and its necessity and importance. an attempt was made to reveal the meaning and importance of each of the introduced constitutional norms for today. in this place, special importance is given to changes in the system of powers of representative bodies.

Keywords: Development strategy, constitutional reforms, legal and social state, presumption, representative bodies, active and passive suffrage, foreign experience, democracy, local governments.

KIRISH

Mamlakatimiz umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an'analar bilan yo'g'rilgan o'ziga xos rivojlanish yo'lini aniqlab oldi. Shu asosda davlat-huquqiy amaliyotda jahon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika konstitutsiyaviy



tuzumida xalq hokimiyatchiligi, hokimiyat bo‘linishi prinsplariga mos davlat organlari tizimini shakllantirildi.

Yurtboshimiz aytganidek: “Yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozim”, — deya qayd etdi davlat rahbari.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Quyida eng muhim o‘nta yo‘nalishda ro‘y bergan o‘zgarishlar hujjatdagi ketma-ketlik bo‘yicha keltirib o‘tiladi:

1. O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlasini quyidagicha o‘zgartirildi:

O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Boshqaruvning respublika shakli – davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi. (Konstitutsiya normalariga rasmiy sharhlar hozircha yo‘q, shu sababli undagi norma va tushunchalarga tahririyat umumqabul qilingan doirada, mustaqil izoh berib o‘tmoqda).

Suveren davlat – o‘z hududida to‘laqonli mustaqil hukmronlik va mutlaq yurisdiksiyaga ega bo‘lish deganidir.

Demokratiya esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va o‘z vakillarini saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki ta‘minlanishdir

Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko‘z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo‘ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo‘ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston o‘zini **ijtimoiy davlat** deb e‘lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta‘lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo‘llovga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-

salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerak.

Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo'ladi. Davlat diniy e'tiqodidan qat'i nazar barchaga bir xil munosabatda bo'ladi, dinga oid masalalarda neytral pozitsiyani egallaydi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 154-moddasi bilan, **1-moddadagi qoidalarni qayta ko'rib chiqish mumkin emas**, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o'zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Boshqacha aytganda, bu norma – O'zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

2. Konstitutsiya to'g'ridan to'g'ri amal qiladi

15-moddaga quyidagicha qo'shimcha qo'shildi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi.

Referendumda qabul qilingan qonunga binoan, Oliy sud 3 oy ichida tegishli Plenum qarorini qabul qilishi kerak. Bu qaror asosida sudlar tomonidan konstitutsiya normalarini to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi hujjat sifatida qo'llash yuzasidan yagona sud amaliyoti joriy etiladi.

3. Imtiyozlar qonunda yozib qo'yilishi shart emas

Yangi konstitutsiyaning 19-moddasi (avvalgi 18-modda) – fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat'i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o'zgaroqda:

Eski: Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsplariga mos bo'lishi shart.

Yangi: Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsplariga mos bo'lishi shart.

Bu bilan konstitutsiyaning amalda ishlamay kelgan normalaridan biri real voqelikka moslashtirilmoqda. Amaliyot shundayki, turli jabhalardagi imtiyoz va preferensiyalar nafaqat qonunlar asosida, balki ko'p holatlarda qonunosti hujjatlar – qaror va farmonlar asosida berib kelinyapti.

4. Barcha noaniqliklar – inson foydasiga

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan:

Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Ijtimoiy munosabatlar cheksiz shakllarga ega, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda to‘liq kodifikatsiya qilib chiqish amalda imkonsiz.

Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o‘tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

5. Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin

Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi avvalgi konstitutsiyada quyidagi ikkita norma bilan tartibga solingan edi:

Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Konstitutsiyaning yangi tahririda yuqoridagi ikkita norma deyarli o‘zgarishsiz saqlab qolindi. Shu bilan birga, quyidagicha yangi norma qo‘shildi:

Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin.

Huquqlar cheklanishiga doir bu me‘yorlar, yangi konstitutsiyaning boshqa bir moddasiga asosan, so‘z erkinligi huquqiga ham tegishli. Ya‘ni axborot izlash, olish va tarqatish huquqi faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholi sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va tartibini ta‘minlash, davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirning oshkor etilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida cheklanishi mumkin.

Ta‘kidlash lozim, “ijtimoiy axloq” tushunchasi O‘zbekiston qonunchiligiga hali kiritilmagan. Ushbu tushuncha hamda mazkur modda bo‘yicha inson huquqlari “jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida” cheklanishi bo‘yicha vakolatli organning huquqiy sharhiga zarurat bor. Huquqlar ta‘minlanishi bilan ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash

o'rtasidagi oltin o'rtalik aniq belgilab qo'yilishi kerak. Shu bilan birga, yuqorida aytganimizdek, konstitutsiyaga binoan endilikda barcha noaniqliklar inson foydasiga hal etiladi.

Shu o'rinda, namoyishlarga oid moddani ham eslatib o'tish o'rinli. Bu modda avvalgi holida, o'zgarishlarsiz saqlab qolindi:

Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

6. O'qituvchilar alohida e'tirofda

Konstitutsiyaga o'qituvchilar haqida modda qo'shildi. U ikki banddan iborat:

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo'lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Konstitutsiyada nomi keltirilgan o'qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasi – huquq sohasi vakillari (sudyalar, prokurorlar va advokatlar). Boshqa holatlarda kasb egalari emas, sohalar haqida gap ketgan (masalan, ommaviy axborot vositalari, turli jamoat birlashmalari).

7. Yer xususiy mulk bo'lishi mumkin

O'zbekistonda 2022 yildan e'tiboran qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtda, o'tgan yili e'lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining dastlabki ko'rinishida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni xususiylashtirish zid ekani ishora qilingandi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiylashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi:

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.

Bosh qomusning o'tgan yili e'lon qilingan birinchi loyihasida unga quyidagicha jumlani kiritish taklif etilgan edi: "Iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo'l qo'yilmaydi". Yakunda bu boradagi normalar quyidagicha ko'rinish oldi:

Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.

Hujjatning birlamchi loyihasida mavjud bo'lgan: "Xususiylashtirish natijalari qayta ko'rib chiqilmaydi hamda bekor qilinmaydi" degan normani konstitutsiyaga kiritmaslikka qaror qilindi. Eslatib o'tamiz, amaldagi qonunchilikda ham bunaqa qoida yo'q.

9. Davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar. Prezidentning vakolat muddati 7 yil bo'ldi

O'zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga binoan:

Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Prezidentning "davlat boshlig'i" maqomi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo'lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar o'zgarishsiz qoldirildi. Ma'lumot uchun, prezidentning vakolat muddati 2003 yilda ham 5 yildan 7 yilga uzaytirilgan, 2011 yilda esa qaytib 7 yildan 5 yilga tushirilgan edi.

Bosh vazir nomzodini endi prezident taqdim etadi. Prezident bosh vazir nomzodini taqdim etishdan oldin parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazishi belgilandi. Qonunchilik palatasi prezident taqdim etgan nomzodni ko'rib chiqadi, agar deputatlarning yarmidan ko'pi ma'qullasa, bosh vazir lavozimga tasdiqlanadi. Agar deputatlar nomzodni uch marta rad etsa, prezident bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli. Avvalgi tartibga ko'ra, bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasida eng ko'p o'rinni egallagan partiya taklif qilar, prezident ma'qullagach, nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilardi.

Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi. 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o'zgarish 2024 yilda bo'ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kiradi. Qonunchilik palatasi deputatlari sonini (150 nafar) oshirmaslikka, o'zgarishsiz qoldirishga qaror qilindi.

Bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik votumi bildirishda Senatning ishtiroki bekor qilindi. Endilikda buning uchun deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismi ovoz berishi yetarli (avval har ikki palata a'zolarining uchdan ikki qismi ovoz berishi zarur edi; eslatib o'tamiz, ishonchsizlik votumi e'lon qilinsa, prezident bosh vazirni lavozimidan ozod etadi). Bosh vazir va hukumat a'zolarining hisobotlarini eshitish ham quyi palataning vakolatiga o'tkazildi. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi hukumat

a'zolarini iste'foga chiqarish to'g'risida prezidentga taklif kiritish vakolatiga ega bo'ldi.

Qonunchilik palatasi qonunlar bo'yicha qo'shimcha vakolat oldi. Unga ko'ra, endilikda Senat qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida 60 kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi qonunni prezidentga yuboradi. Qonunlarning prezident tomonidan imzolanishi va e'lon qilinishi uchun belgilangan muddat 30 kundan 60 kunga uzaytirildi. Prezident tomonidan qaytarilgan qonun parlament palatalari tomonidan yana qabul qilingan taqdirda, prezidentning bu qonunni imzolash va e'lon qilish muddati o'zgarishsiz (14 kun) qoldirildi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi va qayta saylanishi mumkin bo'lmaydi. Avvalgi tartibga ko'ra, bu muddat birinchi marta saylanganida 5 yil, keyingisida 10 yil edi.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida, prezidentdan tashqari, Senat raisi, Qonunchilik palatasi spikeri, Oliy sud raisi va o'rinbosari, Sudyalar oliy kengashining raisi va o'rinbosari, Markaziy saylov komissiyasi raisi hamda bosh prokurorga nisbatan ham tatbiq etilmoqda. Hokimlar va kengashlar raislari bo'yicha esa bu qoida surunkasiga ikki martadan ortiq aynan bitta viloyat, tuman yoki shaharda hokim yoki kengash raisi bo'lishni cheklaydi; ya'ni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq turli hududlarda hokim yoki kengash raisi bo'lishi mumkin.

10. Mahalliy davlat hokimiyatidagi o'zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadi

Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo'linish va hokimiyat bo'g'inlarining o'zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

Shunga muvofiq, quyidagi sanalardan boshlab, hokimlarning kengashlarda raislik qilishiga barham beriladi:

viloyatlarda va Toshkent shahrida 2024 yilgi deputatlik saylovlari yakunlari bo'yicha;

tuman va shaharlarda 2026 yil 1 yanvardan boshlab.

Mahalliy kengashlar raislari kengash deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi. Hokimlar esa 5 yil muddatga tayinlanadi, tayinlangan hokimni kengashlar tasdiqlaydi. Shu tariqa, kengash raislari ham, hokimlar ham to'g'ridan to'g'ri aholi tomonidan saylanmaydi.

Kengashlarning vakolatlariga, jumladan, quyidagilar kiradi:

mahalliy budjetni ko'rib chiqish va qabul qilish, uning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

Hokimlar va mahalliy kengashlarning faoliyatini tashkil etish tartibi bo'yicha alohida qonunlar qabul qilinadi. Mahalliy masalalar bo'yicha ularning vakolatlari qanday taqsimlanishi ana shu qonunlarda aks etadi.

Respublikamizda sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik ekinlarining ekiladigan yerning turli darajada sho‘rlangan maydonlari tobora kengayib bormoqda va bu o‘z navbatida fermer xo‘jaliklarga har xil muammolar tug‘dirib, ekilgan ekinlarning yuqori va sifatli hosil olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, mo‘ljallangan rejaga asosan 1 gektaridan olinadigan hosil ancha kam yetishtirilmogda. Bu muammolarni yechishning asosiy maqsadi olimlar chuqur ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan holda ilmiy izlanishlar natijasida yangi sho‘rga chidamli, istiqbolli navlar yaratish va shu navlarni qishloq xo‘jaligiga tavsiya etib, samarali hosil olishdir(B.Qodirov, R.Tillaev 2013).

Adabiyotlardan ma’lumki, sho‘rlangan tuproqlar iqlimi issiq va quruq bo‘lgan mintaqalarda ko‘proq bo‘lib, natriy, kalsiy va magniylarning xlorli sulfat va karbonatli tuzlar shaklida uchraydi. Sho‘r tuproqlar anionlarining nisbatiga ko‘ra asosiy kationlar natriy va kalsiy bo‘lib bu tuzlardan natriy –karbonat (Na_2CO_3), natriy gidrokarbonat (NaHCO_3) o‘simliklarga ko‘proq ta’sir etadi.

B.P.Strogonov(1961) tarkibida tuzning miqdori asosida tuproqlarni bir necha guruhlariga bo‘ladi:

№	Tuproqning sho‘rlanish darajasi	100 g tuproq tarkibidagi miqdori,(g. hisobida)
1.	Sho‘rlanmagan tuproq	0,1 dan kam
2.	Juda kam sho‘rlangan	0,20-0,25
3	Oz sho‘rlangan	0,25-0,50

4.	O'rtacha sho'rlangan	0,50-0,70
5.	Kuchli sho'rlangan	0,71-2 va undan ko'p

To'plangan tuz miqdori va tarqalishiga ko'ra sho'rtob va sho'rxok tuproqlar bo'ladi.

Sho'rtob tuproqlar- tuzlar yerning pastki qoplamida to'planadi.

Sho'rxok tuproqlar- tarkibida 1-3 % gacha tuz to'plagan tuproqlar kiradi. Bunday tuproqlarga qishloq xo'jalik ekinlari rivojlana olmaydi.

METODOLOGIYA

Yuqorida ko'rsatilgan sho'r tuproqlar ta'sirida madaniy o'simliklar ko'proq zararlanadi. Avvalo, urug'larni suvni shimib olib bo'rtishiga, unib chiqishiga, yosh maysalarda ildiz tizimining o'sishiga to'sqinlik qiladi (B.Qodirov, R.Tillaev 2010, Y.Babaev, S.Gusakova, G.Orazboev 2013). Xujayralarda tuzlarning to'planishi protoplazmani zaharlab, barcha fotosintez jarayonlarini va oqsillar sintezini sekinlashtiradi. Natijada to'qimlarda ammiak to'planib, ularni zaharlaydi. Shunga qaramay sho'r tuprokka moslashgan madaniy o'simliklarda salbiy ta'sir darajasini birmuncha kam bo'lib va ularda hujayralar biokolloidlarning fizik-kimyoviy xususiyatlarni, modda alomashinish jarayonlari birmuncha moslashgan bo'ladi. Ayniqsa, o'simlik organlaridagi morfologik va anatomik tuzlanishida ham o'zgarishlar kuzatilib barg sathi kamayib, mezofill qavati qalinlashgan.

O'simliklarning sho'rlikka chidamliligi va hosildorligini oshirish maqsadida olimlar tomonidan o'rganilib bir qancha usullar taklif etilgan.

-Ekin maydonlaridagi tuproqlarni yuvish va tuzdan tozalash, drenaj va zovurlardan foydalanish, yerlarning melioratsiya holatini yaxshilash:

-O'simliklarning xlorli sho'rlikka chidamliligini oshirish, buning uchun urug'larni ekishdan oldin osh tuzining 3-6% eritmasida bir soat saqlab keyin ularni 1,5 soat davomida yuvish va ekish (P.A.Genkel 1976).

-Sho'rlikka chidamli yangi navlar yaratish va tanlash, ulardan foydalanish;

-O'simliklarning sulfat sho'rlikka chidamliligini oshirish uchun urug'larni ekishdan oldin magniy sulfat tuzining 0,2 % li eritmasida 24 soat ivitish va boshqalar;

-O'simliklarning sho'rga chidamliligini orttirish maqsadida kuchsiz borniy kislotasi eritmasi bilan g'ozalariga ishlov berilsa hosildorlik nazoratga nisbatan oshganligi tasdiqlangan (J.X.Xo'jaev 2004).

Olimlarning fikricha o'simliklarning tashqi muhit sho'r tuproqqa chidab va o'zida immunitet hosil qilgan holda hosildorlikning bir muncha oshganligi nimaning hisobiga ekanligining asosiy sababini ilmiy

izlanishlar oqibatida aniqlash kerak bo'ladi (B.Beknazarov 1999, G.A.Burigin 2020, I.P.Goncharova 2020).

O'simliklarning to'qima va hujayralarining tashqi muhitga moslashishi va struktura va o'zgarishlar jarayonida sodir bo'ladigan metabolizmning qayta tashkil etilishi va ularning organellarining soni ko'payishi yoki kamayishi hali ham to'liq o'rganilmagan bo'lib bu borada fanda chuqur ilmiy tadqiqot ishlariga keng amaliy faoliyat sohalari ochiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba o'tkazilgan bug'doy navlari to'g'risida qisqacha ma'lumot.

1. **Nurafshon** navi kuzgi yumshoq bug'doy. O'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan, o'rtapishar, hosildorligi 69,725 st/ga, qimmatbaho non mahsulotida ishlatiladi.

2. **Hayot** navi kuzgi yumshoq bug'doy. O'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan, o'rtapishar, hosildorligi 66,4-68,6 st/ga qimmatbaho don beradi, non mahsulotida ishlatiladi, oqsil miqdori 14,6% kleykovina miqdori 30,2%

3. **BUMBA** kuzgi yumshoq bug'doy o'rtapishar, yuqori hosildorlikka ega 93,3 st/ga.

4. **ANTANINA** yumshoq bug'doy, boshqoq uzunligi 10 smli qiltikli, hosildorligi 1 ga 100 st/ga, sifati yuqori non mahsulotida ishlatiladi.

5. **Yuksalish** o'rtapishar bo'lib qimmatbaho gektaridan 69,3-72,5 st, oqsil miqdori 14,4%, kleykovina miqdori 30,6%.

6. **O'ITI-1** navi o'simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan, kuzgi bug'doy nonbop, oqsil miqdori 30,1 %.

7. **OBOD** navi o'simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan, kuzgi bug'doy nonbop, qimmatbaho, oqsil miqdori 14,4%, kleykovina miqdori 32,4 %.

8. **BARQAROR** navi o'simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan, kuzgi bug'doy nonbop "qimmatbaho" oqsil miqdori 14,3 %, kleykovina miqdori 32,3%.

9. **STIL-18** navi yumshoq bug'doy, hosildorlik yuqori 1ga-120 st/ga sifati kuchli bug'doy non ishlab chiqarishda ishlatiladi.

10. **ODARI**-qattiq bug'doy. Hosildorlik yuqori 105 st/ga makaron mahsulotlariga ishlatiladi.

11. **KRUChA**-qattiq bug'doy, hosildorlik yuqori 1ga-105 st/ga, yuqori sifatli makaron mahsulotlariga ishlatiladi.

Bug‘doy urug‘larini sho‘rga chidamliligini aniqlash metodikasi.

Sho‘rga chidamliligini aniqlash maqsadida tajriba o‘tkaziladigan bug‘doy urug‘lari yaxshilab saralab olamiz va urug‘larni stakanlarga bir xil vaqtda 80 donadan solib, ustiga distillangan suv quyiladi va 24 soat suvga ushlab turiladi. Ertasiga urug‘larni suvdan olib, 20 donadan filtr qog‘oz to‘shalgan chashka Petriga joylashtiriladi.

Eslatma. Har doim filtr qog‘oz ustiga bug‘doylarni qorni bilan joylashtirish zarur. Har bir chashka Petriga 7 ml distillangan suv quyib

22 °S li temperaturada termostatga joylashtiriladi. Va 7 kundan keyin o‘sgan urug‘larni sanab hamda poya ildizining uzunligi o‘lchab olinadi. O‘tkazilgan tajribada bug‘doy navlarining unuvchanlik qobiliyati 95 % dan kam bo‘lmasligi kerak (G.V. Davidova 1989).

Yuqori yuqorida ko‘rsatilgan umumiy ma‘lumotda bug‘doy urug‘larini o‘sish qobiliyati me‘yorida ekanligiga ishonch hosil qilinib, sho‘rga chidamliligi aniqlanadi. Bug‘doy urug‘larini sho‘rga chidamliligini aniqlashda jami tajribaga 250-300 dona bug‘doy urug‘ navlari saralab olinib, filtr qog‘oz joylashtirilgan chashka Petriga 7 ml distillangan suv quyiladi. Tajriba o‘tkazilayotgan urug‘ variantiga 1 %lik NaCl eritmasi quyiladi va hamma variantlarni termostatga 22 °S li temperaturada joylashtiriladi. 5 kundan keyin qo‘yilgan tajribalarni termostatdan olib, hammasini unuvchanligini o‘lchab olinadi va nazorat variantiga taqqoslab urug‘larining sho‘rga chidamliligi aniqlanadi.

Distillangan suvda ungan bug‘doy urug‘ining soni 100% hisobiga olamiz. Tuz eritmasidagi o‘sgan bug‘doy urug‘larining sho‘rga chidamliligining farqini quyidagi formula bilan hisoblab chiqariladi:

R-o‘rganilayotgan sho‘rga chidamlilik nav nomi.

A-sho‘r eritmasida yashab qolgan nihol soni.

B-distillangan suvda o‘sgan nihol soni.

R- A * 100

B

Bug‘doy urug‘larining o‘svchanlik foizi, ildiz soni va poya uzunlik sonlarining bir- biridagi farqlarining belgilari, ya‘ni:

Lim -eng kichkina va katta son.

X-10 ta o‘simlikning foizi va uzunligining o‘rtacha soni. Shu bilan birgalikda tajriba usullarni qo‘llagan holda qilingan laboratoriya sharoitidagi olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga quyidagihka baho beriladi, ya‘ni foizi 0-25% gacha bo‘lsa chidamsiz, 26-50% bo‘lsa gacha o‘rtacha chidamli,



50-75 % bo'lsa chidamli, agarda 75-100 % gacha bo'lsa yuqori chidamli hisoblanadi.

OLINGAN NATIJALAR HISOBOTI

Laboratoriya sharoitida sho'rga chidamlilikni aniqlash maqsadida o'tkazilgan tajribalarga asoslanib, ya'ni bug'doy urug'lariga sun'iy stress omillar qo'llagan holda quyidagi natijalarga erishiladi. Ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishdan oldin tajriba va usullardan eslatganimizdek olib borilayotgan har xil yangi navlar nazorat variantidagi bug'doy urug'larining sifati bir xil bo'lib va undan olingan 7 kunlik yoki yoki kurtaklarning o'suvchanlik foizining soniga qarab bir-birining farqini taqqoslash natijasida aniqlandi. Tajriba o'tkazishdan oldin hamma bug'doy urug'larini yaxshilab tozlab katta-kichikligi bir xilda bo'lishi va kurtaklarning o'suvchanligi 95% dan kam bo'lmasligi kerak. Tajribalarni o'tkazish davomida kurtaklarning o'sish jarayonida fiziologik va morfologik holatini qandaydir o'zgarishlarni kuzatib borish zarur.

O'tkaziladigan tajribalarga quyidagi bug'doy nav urug'lari ishlatildi, ya'ni NURAFShON, O'ITI-1, IK-33, BUM-BA, ANTANINA, OBOD, BARQAROR, K-38, YaNGIHAYoT, STIL va ODARE.

Sho'rga chidamliligini aniqlashda tajriba usullarining natijalarida ko'rsatilganidan nazorat variantidan boshqa barcha bug'doy urug'larini 1% li NaCl eritmasiga solinadi va solishtiriladigan nazorat variantiga oddiy suv ishlatiladi.

Bug'doy navlarining sho'rga chidamliligini aniqlash

№ Del:	Bug'doy navlari	Urug'ning unib chiqishi, %		Ildizning unib chiqish, soni		Ildizning uzunligi, sm		Poya uzunligi, sm	
		lim	x	lim	x	lim	x	lim	x
1.	Nazorat Nurafshon	96-98	100 97	3-5 3-5	3,5 3,7	3-5 3-6	3,9 4,0	3-4 4-5	3,7 3,7
2.	Nazorat O'ITI-1	94-96	96 95	4-5 3-5	5,0 4,5	7-11 4-6	8,1 4,8	4-6 4-5	5,0 4,0
3.	Nazorat IK-33	90-92	98 91	3-5 3-5	3,6 3,2	6-8 3-6	6,9 4,3	4-5 3-5	4,7 3,9
4.	Nazorat BUM-BA	92-94	94 93	3-5 3-5	3,3 3,6	6,9 3-5	7,1 3,8	4-6 3-5	5,0 3,6
5.	Nazorat ANTANINA	94-98	98 96	3-5 3-5	4,5 4,4	6-9 3-4	7,4 3,6	4-6 3-5	4,6 3,6
6.	Nazorat Obod	98-100	96 99	2-5 3-5	4,1 4,1	5-9 3-5	7,4 3,8	4-6 3-5	4,9 3,5
7.	Nazorat Barqaror	100-100	96 100	3-5 3-5	3,5 4,3	5,8 3-5	7,0 4,3	4-6 3-5	4,7 3,8
8.	Nazorat K-38	100-100	100 100	4-5 4-5	4,5 4,5	5-7 4-6	6,2 4,7	4-5 4-5	4,8 4,2

9.	Nazorat Yangihayot	100-100	100 100	4-5 3-5	4,9 3,9	5-7 3-5	5,8 4,2	4-8 3-4	4,5 3,9
10.	Nazorat STIL	100-96	100 98	3-3 3-3	3,0 3,0	5-3 4-3	4,1 3,3	4-2 4-2	3,2 2,5
11.	Nazorat ODARE	94-100	100 97	5-3 5-4	3,3 3,2	4-3 4-3	3,8 3,2	4-3 2-3	3,4 2,3

Jadvaldagi urug' unuvhkanlik ko'rsatkichi foizga nisbatan 7- kuni deyarlik hamma bug'doy navlari sho'rga chidamlilik darajasi yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ya'ni hamma bug'doy navlari nazorat variantiga taqqoslanganda 91-100% ni tashkil qildi. Bug'doy nav urug'lari 7 kunlik maysalarning ildiz unib chiqish soni va ildiz uzunligi hamda poya uzunligi nazorat variant bilan solishtirilganda deyarlik bir xil ko'rsatkichlarni tashkil qildi.

XULOSA

Laboratoriya sharoitida olib borilgan yangi bug'doy nav urug'lari qilingan ilmiy tajribalar asosida sho'rga chidamliligining tekshiruvlar natijasida olingan hisobotlar shuni ko'rsatadiki, hamma bug'doy navlari sho'rga chidamlilik darajasi yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib 91-100% ni tashkil etdi. Tajribadagi ildiz unib chiqish soni va ildiz uzunligi hamda poya uzunligi nazorat variantga nisbatan deyarlik bir xil ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.

REFERENCES

1. N.P.Strogonov kn: " Kurs fiziologiy rasteniy. Priroda ustoychivosti rasteniy k zasoleniyu" .str. 427-430.
2. P.A.Genkel "Zakalivanie rasteniy kak sposob povisheniya membran xloroplastov k obezvoivanie na primere prorostkov pshenisy" Fiziologiya rasteniy 1976.T.23 №5.str. 921-927.
3. J.X.Xo'jaev "O'simliklar fiziologiyasi" 2004.Tuproq sho'rlanishi va uning o'simliklarga ta'siri.Sho'rga chidamlilik bet 208-210.
4. B.Beknazarov "O'simliklar fiziologiyasi" O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. Toshkent 1999.b-535.
5. G.L.Burigin, Yu.V. Krasova i dr., Bakterialonnye makromolekuly kak aktivatorы fitoimmuniteta.str.68-70. Yekaterinburg.2020.
6. I.P. Goncharova, O.A.Bragina, Yu.F.Yakuba,, Mexanizmy zasuxoustoychivosti i metody analiza ustoychivosti po priznaku" str. 144-145. Sb.mater,II mejdu.nauchno-prak-koy konfer.ii 16-18 noyabrya 2020 Yekaterinburg.2020.

7. G.V.Davidova “Opredefinie soleustoychivosti sol po prorostaniyu semyan v solevykh rastvorax” (Metodicheskie ukazaniya.Leningrad 1989. Vsesoyuzniy NII rastenovoustva imeni N.I.Vavilova (VIR) 1989 str.-11.
8. B.Qodirov, R.Tillaev “Sholining “ISKANDAR” navini sho‘rga chidamliligi. AGRO ILM-O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. 2(40) 2016 b-19.
9. B.Qodirov, R.Tillaev “Sho‘rlangan yerda yetishtirilganva iqlimlashgan yangi g‘o‘za navlari urug‘lik chigit sifat ko‘rsatkichlari. 2013.No5. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi.
10. Ya.Babaev, S.Gusakova, G.Orazboeva 2013 “Sho‘rlangan yerda yetishtirilgan iqlimlashgan va yangi g‘o‘za navlari moydorligi. b-19. 3(27) 2013. AGRO ILM-O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2022-YILDA HUDUDLAR BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA TO'G'RI KELADIGAN XIZMATLAR HAJMI VA UMUMIY KO'RSATILGAN XIZMATLAR HAJMI ORASIDAGI JUFT KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILNI AMALGA OSHIRISH

Ikrom Abdurashitovich Shukurov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Oliy matematika kafedrasida assistent
o'qituvchisi, ikrom.shukurov@mail.ru

Feruza Zafar qizi Oydinova

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Turizm ta'lim yo'nalishi 1-bosqich
TFT-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi 2022 yilda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi va umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmi orasidagi muvofiqlik tahlil etilgan. Tahlil natijasida ikkala ko'rsatkich orasidagi bog'liqlik regressiya tenglamasi tuzilib, tahlil qilgan holda ilmiy asoslangan taklif va mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, regressiya, korrelyatsiya, korrelyatsion bog'lanish, regression modelning ahamiyatini baholash, Fisher mezon, Student mezon.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется соответствие между объемом услуг на душу населения и объемом услуг, оказываемых в целом по регионам в Республике Узбекистан в 2022 году. В результате анализа было создано уравнение регрессии связи между двумя показателями, и на основе анализа даны научно обоснованные предложения и комментарии.

Ключевые слова: сервис, регрессия, корреляция, корреляционная связь, оценка значимости регрессионной модели, критерий Фишера, критерий Стьюдента.

ABSTRACT

This article analyzes the correspondence between the volume of services per capita and the volume of services provided in general by region in the Republic of Uzbekistan in 2022. As a result of the analysis, a regression equation of the relationship between the two indicators was created, and based on the analysis, scientifically based suggestions and comments were given.

Keywords: service, regression, correlation, correlational link, estimation of significance of regression model, Fisher's criterion, Student's criterion.



KIRISH

Xizmatlar ko'rsatish sohasi bugun butun dunyoda eng serdaromad tarmoq hisoblanadi. Mamlakatimizda ham ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda mazkur yo'nalishda tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan tashabbuskorlarni kredit mablag'lari bilan ta'minlashda moliya muassasalari muhim o'rin tutmoqda.

2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida 2021-yilda xizmatlar ko'rsatish hajmi qariyb 20 foizga o'sdi.

Ushbu maqolada hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi va umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bog'liqlikni tahlil qilish uchun statistik ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytiga (<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>) murojaat etgan holda olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rganish ekonometrika fanining muhim vazifalaridan biridir. Ushbu tahlilda O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda hududlar bo'yicha ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmi (Y) bilan O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi (X) orasidagi bog'liqlik o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqlik regressiya tenglamasi tuzilgan. Quyida ushbu bajarilgan ishlarni ko'rsatib o'tamiz.

Y - O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda hududlar bo'yicha ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmi, mlrd. so'm.

X - O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi, ming so'm.

Hududlar	Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi, ming so'm, 2022 yil, X	Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd.so'm, 2022 yil, Y
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 310,8	10 421,9
Andijon	5 365,5	17 642,4

Buxoro	7 916,5	15 780,0
Jizzax	5 470,4	7 984,0
Qashqadaryo	4 628,0	15 945,8
Navoiy	8 851,5	9 247,2
Namangan	4 966,6	14 722,6
Samarqand	5 579,2	22 734,9
Surxandaryo	4 640,7	12 878,0
Sirdaryo	5 666,8	5 029,8
Toshkent	8 763,7	25 994,9
Farg'ona	5 578,8	21 960,3
Xorazm	5 307,6	10 303,2
Toshkent sh.	47 218,3	137 358,1

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda hududlar bo'yicha ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmi (Y), O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi (X)

Ushbu statistik ma'lumotlarni tahlil qilish uchun Microsoft Excel dasturidan foydalanildi.

r korrelyatsiya koeffitsiyenti omillarning orasidagi bog'liqlik darajasini ko'rsatuvchi koeffitsiyentdir. r^2 determinatsiya koeffitsiyenti regressiya tahlilining asosiy natijasidir. U erkli o'zgaruvchidan bashorat qilinadigan erksiz o'zgaruvchidagi dispersiyaning nisbati sifatida talqin qilinadi.

r, korrelyatsiya	<i>Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi, ming so'm, 2022 yil, X</i>	<i>Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd.so'm, 2022 yil, Y</i>
Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi, ming so'm, 2022 yil, X	1	-
Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd.so'm, 2022 yil, Y	0,980408333	1

2-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda hududlar bo'yicha ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmi hamda aholi jon

boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi orasidagi korrelyatsion bog'lanish zichligi, muallifning qayta ishlagan ma'lumoti.

$r_{xy} = 0,980408333$ ga teng bo'lganligi sababli X va Y orasidagi bog'lanish to'g'ri va zich deb xulosa qilamiz. $r_{xy} = 0,980408333$ ekanligidan determinatsiya koeffitsiyenti $r_{xy}^2 = 0,961200499$ ekanligi kelib chiqadi. Determinatsiya koeffitsiyentining qiymati X ning o'zgarishi darajasiga mos holda Y ning o'zgarishini anglatadi[1].

Tahlilning keying bosqichi Microsoft Excel dasturidan foydalanilgan holda regressiya tenglamasini $y = a + bx$ ko'rinishda izlaymiz, modelning sifati va ahamiyatini Fisher mezonlari hamda Student mezonlari bo'yicha baholaymiz[2].

	A	B	C	D	E	F	G
1	ВЫВОД ИТОГОВ						
2	<i>Регрессионная статистика</i>						
3	Множественный R	0,980408333					
4	R-квадрат	0,961200499					
5	Нормированный R-квадрат	0,957967207					
6	Стандартная ошибка	6833,826483					
7	Наблюдения	14					
8	Дисперсионный анализ						
9		<i>df</i>	<i>SS</i>	<i>MS</i>	<i>F</i>	<i>Значимость F</i>	
10	Регрессия	1	13883436848	13883436848	297,2823287	7,8274E-10	
11	Остаток	12	560414212,7	46701184,39			
12	Итого	13	14443851061				
13		<i>Коэффициенты</i>	<i>Стандартная ошибка</i>	<i>t-статистика</i>	<i>P-Значение</i>	<i>Нижние 95%</i>	<i>Верхние 95%</i>
14	Y-пересечение	-2897,614719	2380,584901	-1,217186045	0,246929402	-8084,463644	2289,234205
15	Переменная X 1	2,942329597	0,170650189	17,24187718	7,8274E-10	2,570514776	3,314144418

3-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda hududlar bo'yicha ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmi (Y) ning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi (X)ga nisbatan regression tahlili natijasi, muallifning qayta ishlagan ma'lumoti.

3-jadvalga asosan B14 va B15 yacheykadagi qiymatlar $y = a + bx$ regressiya tenglamasining koeffitsiyentlari: $a = -2897,614719$, $b = 2,942329597$. Bundan quyidagi regressiya tenglamasi hosil bo'ladi.

$$y = -2897,614719 + 2,942329597 \cdot x \quad (1)$$

3-jadvaldagi E10 yacheykadagi qiymat Fisher mezonining hisoblangan qiymatini (F_{his}), F10 yacheykadagi qiymat esa Fisher mezonining jadval tekshirish qiymatini (F_{jad}) ifodalaydi. Agar $F_{his} > F_{jad}$ bo'lsa tuzilgan regressiya tenglamasi turi to'g'ri tanlangan hamda statistik jihatdan ahamiyatga ega deyiladi, $F_{his} < F_{jad}$ bo'lsa tuzilgan

regressiya tenglamasi turi noto'g'ri tanlangan hamda statistik jihatdan ahamiyatga ega emas deyiladi [3].

$F_{his} = 297,2823287$, $F_{jad} = 7,827$. $F_{his} > F_{jad}$ ekanligidan (1) regressiya tenglamasi to'g'ri tanlangan hamda statistik jihatdan ahamiyatga ega degan xulosaga kelamiz.

3-jadvaldagi D14 va D15 yacheykadagi sonlar mos ravishda a va b regressiya koeffitsiyentlarining Studentning t mezoni qiymatlarini anglatadi. E14 va E15 yacheykadagi sonlar esa mos ravishda a va b regressiya koeffitsiyentlarining Studentning t mezoni qiymatlarini tekshirish ko'rsatkichini anglatadi. Agar $t_a > t_{aj}$, $t_b > t_{bj}$ bo'lsa tuzilgan regressiya tenglamasi parametrlari statistik jihatdan ahamiyatga ega deyiladi, $t_a < t_j$, $t_b < t_j$ bo'lsa tuzilgan regressiya tenglamasi parametrlari statistik jihatdan ahamiyatga ega emas deyiladi.

$t_a = -1,217186045$, $t_b = 17,24187718$, $t_{aj} = -0,246929402$, $t_{bj} = 7,8274$. $t_a > t_{aj}$, $t_b > t_{bj}$ ekanligidan (1) regressiya tenglamasi parametrlari statistik jihatdan ahamiyatli degan xulosaga kelamiz.

XULOSA

Demak (1) regressiya tenglamasini baholangan model sifatida qabul qilib O'zbekiston Respublikasida keyingi yillar uchun hududlar bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi haqida bashorat qilishimiz mumkin. Ushbu maqolada statistik ma'lumotlarni tahlil qilgan holda regressiya tenglamasini tuzib, tuzilgan tenglamani baholash mezonlari orqali baholab, regressiya tenglamasini baholangan model sifatida qabul qilib, bashoratlash haqida xulosalar keltririldi.

REFERENCES

1. Shodiev T.Sh. va boshqalar. Ekonometrika. –T.: TDIU, 2007. – 270 b.
2. Habibullayev I. Iqtisodiy matematik usullar va modellar: o'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -Toshkent: "Tafakkur-Bo'stoni", 2012. 112 b.
3. Шукуров И.А., Парная регрессия и корреляция, Universum: Технические науки, научный журнал, Выпуск:5(86), май 2021 г. Часть 1.

KIMYOVIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MAQSADIDA FANLARARO INTEGRATSIYAGA ASOSLANGAN TA'LIM

Baxtiyor Orziqulovich Yodgorov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada muallif tomonidan qo'yilgan vazifalarni hal qilishda quyidagi tadqiqot usullari qo'llanilgan: tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish; fanlararo aloqalarni izlash uchun kimyo darsliklari va maxsus ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish; fanlararo aloqalar o'rganishga tizimli yondashuvning asosiy vositalaridan biri bo'lgan o'quv mashg'ulotlari tuzilishini modellashtirish; so'rovnoma, o'quvchilarni maqsadli kuzatish o'quv jarayoni; qidiruv va shakllantirish tajribasini o'tkazish. Natijada o'quvchilarning intellektual qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish ochib berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, maktab, kimyo, fizika, biologiya, matematika, geografiya.

АННОТАЦИЯ

В статье использованы следующие методы исследования для решения поставленных автором задач: анализ психолого-педагогической и методической литературы по проблеме исследования; анализ учебников химии и специальной научной литературы для поиска междисциплинарных связей; моделирование структуры учебного занятия, в котором межпредметные связи являются одним из основных средств системного подхода к обучению; анкетирование, целенаправленное наблюдение за учащимися в учебном процессе; поисковые и методические и проведение формирующего эксперимента. В результате выявляется формирование и развитие интеллектуальных способностей учащихся.

Ключевые слова: интеграция, школа, химия, физика, биология, математика, география.

ABSTRACT

The article uses the following research methods to solve the tasks set by the author: analysis of psychological, pedagogical and methodological literature on the problem of research; analysis of chemistry textbooks and special scientific literature to search for



interdisciplinary connections; modeling of the structure of an educational lesson in which interdisciplinary connections are one of the main means of a systematic approach to learning; questionnaires, targeted observation of students in the educational process; search and methodological and conducting a formative experiment. As a result, the formation and development of intellectual abilities of students is revealed.

Keywords: integration, school, chemistry, physics, biology, mathematics, geography.

KIRISH

Zamonaviy ilm-fanda uning rivojlanishining ikkita asosiy tendentsiyasining o'zaro ta'siri tobora aniq ko'rinib turibdi: ilmiy sohalar va ularga javob beradigan o'quv fanlarining integratsiyasi va differentsiatsiyasi. Shu sababli, jamiyat oldida turgan muammolarni hal qilish fanning turli sohalaridan bilimlarni jalb qilishni talab qilishini ko'rsatish muhimdir. Buni fanlararo aloqalar yordamida amalga oshirish mumkin. Kimyo kursiga tizimli yondoshishda fanlararo aloqalardan foydalanishning ahamiyati uni tabiiy-ilmiy fanlar tizimining elementi sifatida ko'rib chiqishdan kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fanlararo aloqalarning asosiy didaktik funksiyasi tabiatda harakat qiluvchi ob'ektiv munosabatlarning tabiiy fanlar fanlari mazmunida izchil aks ettirishdir.

P. G. Kulaginning fikricha, fanlararo aloqalar o'qitish printsipi bo'lib, unga ko'ra yangi dasturiy materialni o'rganish o'quv fanlarining mazmunini hisobga olgan holda quriladi [1]. N. A. Loshkarevaning ta'kidlashicha, fanlararo aloqalar-bu munosabatlar birligini, ob'ektiv dunyo hodisalarining o'zaro bog'liqligini, ya'ni o'quv jarayonida atrofda voqelikning muhim qonuniyatlaridan birini aks ettirishdir[2]. Yuqorida sanab o'tilganlarga qo'shimcha ravishda, ko'pincha uchinchi ta'rifni topish mumkin: fanlararo aloqalar — o'quv dasturlari, darsliklar va usullarning o'zaro muvofiqligi. E. E. Minchenkovning fikriga ko'ra, dastlabki ikkita ta'rif fanlararo aloqalarning u yoki bu funktsional xususiyatini ochib beradi. Uchinchi ta'rifga kelsak, uni qoniqarli deb hisoblash mumkin emas, chunki u "aloqa", "munosabatlar" iboralarini "muvofiqlik", "aloqa" sinonimlari bilan almashtiradi [3]. Maksimova V. N. "fanlararo aloqalar zamonaviy ilmiy integratsiya sharoitida o'quv predmetining mazmuni va tuzilishini shakllantirishda ayniqsa muhim omil bo'lib, o'quv predmetining tuzilishi ularning turlari va

funksiyalarining xilma - xilligining ob'ektiv manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi"deb hisoblaydi. [4]

O'quv jarayonida fanlararo aloqalar uchta asosiy didaktik muammolarni hal qilishga yordam beradi: 1) o'quv ma'lumotlarining ilmiy darajasini oshirish; 2) bilim qiziqishlarini rag'batlantirish va O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishga faol munosabati; 3) ilmiy e'tiqodlarni tarbiyalash[5]. Fanlararo aloqalar bilimlarning tizimli sifatini shakllantirishga yordam beradi, shuningdek ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun asosdir.

O'quvchilar uchun mavzu bo'yicha tizimli bilimlarni shakllantirish uchun tegishli fanlardan nazariy va empirik ma'lumotlarni jalb qilish kerak. Fanlararo aloqalar kimyo kursining asosiy masalalarini ko'rib chiqishning ko'p o'lchovlilikini kengaytirishga imkon beradi. Fanlararo aloqalar ilmiy bilimlarning fanlararo va fanlararo sintezini amalga oshiradi, deb ishoniladi. Fanlararo sintezda turli xil o'quv fanlaridan olingan bilimlar birlashtirilib, bu talaba shaxsini yanada bilish va rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi[6].

M. A. Shatalovning fikricha, kimyoning boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalaridan foydalanish o'quv materialini tanlashda tizimli yondashuvni amalga oshirmasdan mumkin emas, bunga quyidagilar kiradi[7];

1) ko'p o'lchovli ko'rib chiqish uchun fanlararo materialni jalb qilish kerak bo'lgan masalalarni aniqlash uchun kimyo kursining o'quv materialini tahlil qilish;

2) o'qituvchi o'quv jarayonida foydalanishni o'z ichiga olgan tegishli fanlarning materiallarini tahlil qilish va tanlash;

3) bitta dars tarkibiga kiritilgan fanlararo material miqdorini aniqlash;

4) fanlararo sintezning taxminiy natijalarini bashorat qilish.

O'quv materialini tanlashga kompleks yondashuv asosida kimyo fanini o'qitishda fanlararo aloqalardan foydalanish tajribasi M. A. Shatalovga o'qituvchi faoliyatining bir necha bosqichlarini ajratib ko'rsatishga imkon berdi:

1) har bir mavzu uchun fanlararo materialni o'rganish maqsadlari va ilmiy mazmuniga muvofiq tanlash;

2) fanlararo materialning o'rnini aniqlash, uni taqdim etish mantig'i va o'qitish usullari va vositalarini tanlash;

3) o'quv maqsadlariga muvofiq fanlararo asosda shakllangan O'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash[8]

Tizimli fikrlashni shakllantirish uchun nafaqat o'qituvchi yoki darslik tomonidan o'qituvchiga fanlararo va fan ichidagi aloqalarni ko'rsatish, balki ularni turli xil aqliy operatsiyalarni bajarish

uchun mustaqil izlash, shu jumladan tashqi nutq sifatida harakatni shakllantirish ham muhimdir[9].

Kimyo o'qitishning dastlabki bosqichlarida fan ichidagi va fanlararo aloqalarni mustaqil ravishda izlash va ularni kimyo bo'yicha aniq muammolarni hal qilishda qo'llash qiyin va samarasiz bo'lib chiqadi, bu ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan tasdiqlangan[10].

Treningning ushbu bosqichida ushbu qidiruvni osonlashtirish uchun talaba bir nechta tizim hosil qiluvchi ob'ekt ichidagi aloqalardan foydalanishi mumkin. Kimyoni o'rganishning dastlabki bosqichida o'qituvchining vazifasi talabaga ob'ektning ushbu fanning asosiy ta'limotlariga javob beradigan eng muhim jihatlardan tavsiflashni o'rgatishdir[12].

Asta-sekin ko'proq aloqalarga o'tish amalga oshiriladi va kelajakda maktab o'quvchilari ob'ektning tavsiflash uchun nafaqat ichki, balki fanlararo aloqalarni ham jalb qilishni o'rganadilar. Keyingi bosqichda O'quvchilar o'rganilayotgan ob'ektlar va hodisalarni fanlararo tushuntirish usullarini o'rganadilar[13].

O'rta maktabdagi fanlararo aloqalar O'quvchilarning bilim qobiliyatlari darajasida fanlararo o'zaro ta'sir va uning natijalarini aks ettirishi kerak. Aks holda, o'rganish fanning hozirgi rivojlanish darajasi to'g'risida to'g'ri tasavvur bermaydi va kimyoni o'zlashtirish samarasiz bo'ladi. Fanlararo va fanlararo aloqalarning tabiati va tuzilishi asosan o'xshashdir: o'quv fanlari, fanlar singari, o'rganish ob'ektlari, usullari, nazariyalari va qonunlari orqali bog'lanadi. Masalan, polimerlar kimyo, biologiya va fizikada o'rganiladi; funktsiya tushunchasi matematikani fizika va kimyo bilan bog'laydi; xromatografiya usuli fizikani kimyo, biologiya bilan bog'laydi; elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasi kimyoni fizika bilan bog'laydi va hokazo[14].

O'rganilayotgan mavzuga, bu holda kimyoga bog'liq bo'lgan, oldingi va istiqbolli aloqalar mavjud. Yana bir mezon — bu ma'lumot. Axborot mezoniga ko'ra, haqiqiy, kontseptual va nazariy aloqalar ajralib turadi. Turli xil mavzular: kimyo va biologiya, kimyo va matematika, kimyo va fizika, kimyo va geografiya va boshqalar o'rtasidagi aloqalarning o'ziga xos xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi [15].

Ob'ektlararo aloqalar, birinchi navbatda, ularning tuzilishi bilan tavsiflanadi va ob'ektning ichki tuzilishi shakl bo'lganligi sababli, biz quyidagi bog'lanish shakllarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin: 1. tarkibi bo'yicha; 2. harakat yo'nalishi bo'yicha; 3. yo'naltiruvchi elementlarning o'zaro ta'siri usuli bo'yicha[16].

Fanlararo aloqalarning tarkibi o'quv materialining mazmuni, shakllangan ko'nikmalar, ko'nikmalar va aqliy operatsiyalar bilan belgilanishiga asoslanib, ularning birinchi shaklida biz fanlararo

aloqalarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin: 1) mazmunli; 2) operatsion; 3) uslubiy; 4) tashkiliy[17].

Ikkinchi shaklda biz harakat yo'nalishi bo'yicha fanlararo aloqalarning asosiy turlarini ajratamiz: bir tomonlama, ikki tomonlama, ko'p tomonlama aloqa. Ushbu turdagi bog'lanishlarning barchasi to'g'ridan-to'g'ri (bir yo'nalishda harakat qilish) va teskari yoki kamaytiruvchi bo'lishi mumkin.

Ob'ektlararo aloqalarning uchinchi shaklida, vaqt omiliga ko'ra, quyidagi bog'lanish turlari ajratiladi: 1) xronologik; 2) xronometrik. Xronologik-bu ularni amalga oshirish ketma-ketligi bo'yicha aloqalar. Xronometrik-bu bog'lovchi elementlarning o'zaro ta'siri davomiyligidagi bog'lanishlar.

Metodlar. Maktab ta'limi amaliyotida fanlararo aloqalar muammolarini aniqlash, tavsiflash va bartaraf etish yo'llarini topish uchun o'quv mavzularidagi fanlararo aloqalarning didaktik modelini maktab o'quvchilari tomonidan ushbu aloqalarni o'zlashtirish, o'rnatish faktiga aylantirishning maqbul shartlari, bosqichlari va usullarini intensiv izlash kerak.

Ushbu jarayonning samaradorligi mezonlari O'quvchilarning bilimlarini oshirish va, avvalambor, ushbu bilimlarning izchilligi, ularning harakatchanligi va O'quvchilarning dunyoqarash salohiyatini oshirishdir. Ushbu vazifani bajarish jarayonida mamlakatimiz olim-pedagoglaridan biri G. F. Fedorts tomonidan taklif etilgan usul mening e'tiborimni tortdi. U qidiruv va ijodiy usullardan foydalangan holda fanlararo aloqalar muammolarini aniqlash va hal qilish bo'yicha eksperimental ishlarini olib bordi[16]

Men ish usullaridan birini - qidiruv usulidan foydalandim.

Qidiruv bosqichining vazifasi fanning o'quv mavzularini o'rganishda fanlararo aloqalar muammosini hal qilishda ishlarning haqiqiy holatini aniqlash va aniqlash edi. O'quvchilar tomonidan ajratilgan mavzularni o'rganish jarayonida va undan keyin o'quvchilarga yozma ishlar berildi, ularning savollari ularni fanlararo aloqalar yordamida o'quv mavzularining etakchi qoidalarini ochib berishga yo'naltirdi, ya'ni.O'quvchilar o'quv mavzularining etakchi qoidalarini ochib berish uchun zarur bo'lgan bilimlardan mustaqil ravishda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. boshqa o'quv fanlaridan.

Savollar va topshiriqlarga misollar:

1. Tabiat hodisalarini tushuntiradigan asosiy qonunlarni qanday bilasiz va nima uchun ularni asosiy deb bilasiz?
2. O'pka va to'qimalarda gaz almashinuvining sababi qanday jismoniy hodisa?

3. Bug'lanishning o'ziga xos issiqligi va inson tanasining harorati o'rtasidagi bog'liqlik qanday?

4. Fizika kursining qaysi nazariyasiga asoslanib, fotosintez jarayonining yorug'lik fazasining mohiyatini tushuntirish mumkin?

5. 1 mol glyukozaning oksidlanishi va parchalanishi paytida
($C_6H_{12}O_6 + 6O_2 \rightarrow 6H_2O + 6CO_2$) 28000 kJ energiya chiqariladi.

Avogadro qonuni haqidagi kimyo bilimingizni safarbar qilib, quyidagilarni aniqlang:

a) agar 1 daqiqada 1,5 kJ iste'mol qilsa, bir kishi uchun mushaklar uchun 20 daqiqalik yugurishda qancha gramm glyukoza va qancha litr kislorod iste'mol qilinadi;

b) oyoq mushaklaridagi 2,5 mol glyukozaning to'liq oksidlanishi va parchalanishi natijasida qancha CO_2 ajralib chiqadi (va boshqa vazifalar).

Muhokama. O'quv jarayonini qurish jarayonida o'qituvchining uslubiy ishi ma'lum bir izchillik va izchillikni ta'minlaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun ishlatiladigan shakllar va usullar ko'p sonli taklif qilinishi mumkin. Ishimda men o'quv jarayonida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish sifatini muntazam ravishda kuzatib borish uchun turli xil texnikalardan foydalanaman. Biroq, fan – kimyoni o'qitishda fanlararo yondashuvni qo'llashda fanlararo materialni o'zlashtirish darajasini baholashga imkon beradigan diagnostika materialini tanlash kerak. O'qitishning integral yondashuvi sintezni o'z ichiga oladi – individual o'quv birliklaridan ko'p bo'g'inli tizimga o'tish. Bundan tashqari, o'qitishda sintez mavzu bo'yicha ma'lum bir material darajasida (fan ichidagi integratsiya) va bir nechta o'quv fanlari bo'yicha bilim darajasida sodir bo'ladi.

Turli xil tahlillarda qo'llaniladigan diagnostika mezonlaridan biri bu maktab o'quvchilarining tayyorgarligi. O'qitish talabaning ma'lum bir o'quv davrida olingan o'quv dasturi tomonidan berilgan bilim va ko'nikmalar tizimiga egaligi sifatida qaraladi.

Ta'lim-bu oldingi ta'limning natijasi va keyingi ta'limning muvaffaqiyati uchun shart. V. P. Bospalkoga ko'ra, o'qitishning pastki chegarasi $Ky=0,7$ bilan tavsiflanadi; Agar $Ky < 0,7$, bo'lsa, unda keyingi o'quv jarayoni muvaffaqiyatli bo'lmaydi, chunki talaba mavzu (bo'lim, mavzu) bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega emas.

Turli mualliflar assimilyatsiya qilishning turli darajalarini ajratib ko'rsatishadi. Kontseptual yondashuvimni qurishda men V. N. Maksimova kontseptsiyasiga amal qildim.

Assimilyatsiya darajalari: * tan olish; * yodlash; * tushunish; * ilova; * tematik umumlashtirish; * mavzuni umumlashtirish; * fanlararo umumlashtirish.

Diagnostika ishlarini ishlab chiqishda men rus tili, adabiyoti, geografiyasi, tarixi, biologiyasi, kimyosi, iqtisodiyoti bo'yicha diagnostika testlarida taqdim etilgan metodologiyaga amal qildim. O'quv qo'llanma/ ilmiy. tahririda V. N. Maksimov. Spb. 2001. Ushbu asar nafaqat ish matnlarini taqdim etadi, balki ta'limni bosqichma-bosqich diagnostika qilish texnologiyasi va metodologiyasini ham ochib beradi.

Diagnostika ishining 1 va 2-savollari O'quvchilar tomonidan ilgari o'rganilgan materialni tanib olish va yodlash sifatini tekshirishga imkon beradi. Ushbu savollar haqiqiy materialni mantiqiy qayta ishlashni talab qilmaydigan o'quvchilarning reproduktiv faoliyatini tashkil etishga qaratilgan.

Diagnostika ishining 3 va 4-savollari sizga mavzu materialini tushunish sifatini, shuningdek ushbu mavzu ichida umumlashtirish qobiliyatini tekshirishga imkon beradi. Ushbu vazifalarning bajarilishi O'quvchilarni kognitiv faoliyatning qisman qidiruv darajasiga yo'naltirdi, bu kognitiv muammoni hal qilish uchun zarur mantiqiy operatsiyalardan (tahlil, taqqoslash, isbotlash, xulosalar chiqarish va boshqalar) foydalanishni o'z ichiga oladi.

5 va 6 – savollar o'quv materiallarini turli mavzular, shuningdek turli mavzular darajasida umumlashtirishga qaratilgan. Ushbu vazifalar evristika, ijodkorlik elementlarini o'z ichiga oladi; talabdan moslashuvchanlik, aqlning beqarorligi, yangi o'quv sharoitida allaqachon ma'lum bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi bilimlardan foydalanish qobiliyatini talab qiladi.

Har bir test savollari ball bilan baholanadi. Darajalar bo'yicha assimilyatsiya koeffitsientlari quyidagicha hisoblanadi:

$K_i = s/m$, bu erda s - talabning ish uchun o'rtacha balli, m - berilgan savol uchun maksimal ball.

O'quvchilarning tayyorgarligi formula bo'yicha hisoblanadigan o'rtacha assimilyatsiya koeffitsienti bilan belgilanadi:

$K_y = S/M$, bu erda S - sinf ishi uchun o'rtacha ball, m – nazorat ishi uchun maksimal ball.

Agar $K_y = 0,7$ yoki $K_y > 0,7$, bo'lsa, unda o'quv jarayoni qoniqarli deb hisoblanishi mumkin.

XULOSA

Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanish muammosini o'rganish, tadqiq qilish, ishlab chiqish, uning o'quv jarayoni samaradorligiga ta'siri, men zamonaviy ta'lim jarayoni



zamonaviy jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga qodir degan xulosaga keldim va muvaffaqiyatli natijaning tarkibiy qismlaridan biri bu o'quv jarayonida integratsiyadan tizimli, ko'p qirrali foydalanishdir.

O'qituvchi faoliyatida integratsiya aniq natijalarga olib keladigan ma'lum bir tizim vazifasini bajaradi:

1. Mavzu bo'yicha bilim darajasi va sifatini oshirish (bu tajriba natijalari bilan tasdiqlangan).

2. O'quv materialini etakchi g'oyalar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish, o'rganilayotgan muammolar o'rtasida tabiiy munosabatlarni o'rnatish orqali ta'minlanadigan intellektual faoliyat darajasining o'zgarishi.

3. Darsda va darsdan tashqari vaqtda faol va mustaqil ishlash istagida namoyon bo'ladigan o'quvchilarning bilim qiziqishining o'sishi.

4. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilish, buning natijasi ma'lum bir hodisa va jarayonlarga shaxsiy munosabatni aks ettiruvchi o'z tadqiqot ishlari bo'lishi mumkin.

Har tomonlama fanlararo aloqalar tizimini yanada takomillashtirish ularni amalga oshirish usullarini yanada takomillashtirishni o'z ichiga oladi: maktabda ushbu ishni rejalashtirish; pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish; fanlararo (kompleks) seminarlar, ekskursiyalar, konferentsiyalardan samarali foydalanish; bir vaqtning o'zida turli xil o'quv fanlari va fanlari yordamida tugunli dunyoqarash muammolarini hal qilish mumkin bo'lgan ikki tomonlama darslar amaliyotini kengaytirish, ikki yoki undan ortiq o'qituvchilar ishtirokida olib boriladigan darslarni olib borishni imkoni tug'ililadi.

REFERENCES

1. Беспалько, В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения / В. П. Беспалько. – М. :Педагогика, 1995. – 337 с.
2. Ильин, М. В. Изучаем педагогику : учеб.пособие / М. В. Ильин. – Минск : РИПО, 2002. – 126 с.
3. Atqiyayeva S. I., Komilov K.U. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». 2021, Выпуск №10 (том 3), 684-692 стр.
4. Badalova S. I., Komilov Q. U., Kurbanova A. J. Case technology in chemistry lessons. Academic Research in Educational Sciences. 2020, Vol. 1 No. 1. Page 262-265.



5. Badalova S. I., Komilov Q. U., Kurbanova A. J. Intellectual training of students of technical institute. Academic Research in Educational Sciences. 2020, Vol. 1 No. 1. Page 266-274.
6. Курбанова Г. Дж., Курбанова А.Дж. Интеграция химии и русского языка//Касб-хунартаълими. 2019. №2. 36-40 бетлар.
7. Элмурадов Б., Комилов К.У. Математика для изучения химии в техническом ВУЗе/Материалы международной конференции. Шымкент. 2019.№2.Стр.239-242.
8. Yodgarov B.O, Kurbanova A.Dj., Komilov K.U. Applying ICT for improvement general chemical education//Society and innovations.2021. №4. Page 258-263.
9. Рустамова Х.Н., Курбанова А.Дж., Эштурсунов Д.А., Комилов К.У. Роль информационных и коммуникационных технологий в обучении общей и неорганической химии // «Экономика и социум». 2021. №5(84).
10. Kurbanova A.Dj., Komilov K.U. Case-study method for teaching general and inorganic chemistry// Academic Research in Educational Sciences.2021.№6. Pade 436-443.
11. Komilov K.U., Kurbanova A.Dj. Umumiy va anorganik kimyoni o'qitish jarayonida O'quvchilarni intellektual qobiliyatini shakllantirish// Academic research in educational sciences. 2021. №4-maxsus son, 73-78 b.
12. Atqiyayeva, I. S., Kurbanova A.Dj., Komilov, Q. O., Fayziyev, X. Kimyoni o'qitishda o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishda electron taqdimotlarning qo'llanilish// Academic research in educational sciences. 2021. №4-maxsus son, 47-52 b.
13. Allayev J. Kimyo darslarida o'quvchilarning intellektual kobiliyatlarini rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishi// "Экономика и социум" 2022, №2(93)-2, 41-45 betlar.
14. Kurbanova A.Dj. Kimyo mashg'ulotlarida yangilik kiritish jarayonlari// "Экономика и социум", 2022, №2(93)-2, 207-210 betlar.
15. Matyakubov A.Q. Kimyo darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish// "Экономика и социум", 2022, №2(93)-2, 241-244 betlar.
16. Тухтаниёзова Ф.О., Комилов К.У. Формирование универсальных учебных действий у учащихся на уроках химии через дидактические игры// "Экономика и социум", 2022, №2(93)-2, С.- 960-965.
17. Бузрукходжаев А.Н. Технология проблемного обучения на уроках химии в школе// "Экономика и социум", 2022, №2(93)-2, С.- 579-584.



ПОЛУЧЕНИЕ ВОДНЫЕ ЭМУЛЬЦИИ ИЗ ПОЛИМЕР-ПОЛИМЕРНЫХ КОМПЛЕКСОВ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ

Бахтиёр Орзикулович Ёдгоров

Чирчикский Государственный педагогический университет

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются получение водные эмульсии из полимер - полимерных комплексов (ППК) на основе карбаминоформальдегидных олигомеров (КФО) и карбоксиметилцеллюлозы (КМЦ), и их применение как внутрипочвенного экрана. Показано что по результатам исследований установлено, что при поливах хлопчатника через противofiltrационный экран из ППК, созданный на поверхности почвы, глубинная фильтрация воды ниже расчетного слоя, уменьшается на 35–40 % от поливных норм.

Ключевые слова: полимер - полимерные комплекс (ППК), карбаминоформальдегидная олигомер (КФО), карбоксиметилцеллюлозы (КМЦ), противofiltrационный экран.

ANNOTATSIYA

Maqolada karbamid - formaldegid oligomerlari (KFO) va karboksimetil tsellyuloza (CMC) asosida polimer-polimer komplekslaridan (PPK) suv emulsiyalarini olish va ularni er osti ekрани sifatida qo'llash tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, paxtani tuproq yuzasida yaratilgan PPC filtrlashga qarshi ekran orqali sug'orishda suvning hisoblangan qatlam ostidagi chuqur filtratsiyasi sug'orish me'yorlarining 35-40% ga kamayishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: polimer-polimer kompleksi (PPK), karbamid-formaldegid oligomeri (KFO), karboksimetilseluloz (CMC), filtrlashga qarshi ekran.

ABSTRACT

The article analyzes the production of aqueous emulsions from polymer - polymer complexes (PPCs) based on carbamide-formaldehyde oligomers (CFOs) and carboxymethylcellulose (CMC), and their use as an intra-soil screen. It is shown that according to the results of research, it was found that when watering cotton through an anti-filtration screen made of PPK created on the soil surface, the deep filtration of water below the calculated layer decreases by 35-40% of irrigation norms.

Keywords: polymer - polymer complex (PPK), carbamide-formaldehyde oligomer (CFO), carboxymethylcellulose (CMC), anti-filtration screen.

ВВЕДЕНИЕ

Одним из способов улучшения комплексных свойств полимерно-полимерных комплексов (ППК) является физическая модификация путем введения в их состав различных наполнителей. Это приводит к улучшению прочности, вязкости, эластичности, термостойкости, водостойкости и ряда других важных свойств РПК.

В литературе [2,3] упоминается, что можно управлять свойствами ППК путем изменения природы межмолекулярных связей взаимодействующих компонентов. Взаимодействие исходных веществ при эквимольном равенстве приводит к образованию ППК, а чрезмерное введение одного из веществ приводит к образованию нестехиометрических интерполимерных комплексов (НППК) [4]. В исследовании использовались мочевиноформальдегидный олигомер (МФО), карбоксиметилцеллюлоза (КМС) и избыток МФО в полученном РПК [5]. Эффективность применения наполненного РПК дополнительно повышается за счет использования в качестве наполнителя различных продуктов производства [6].

Физиологические процессы происходящие у растений (обмен веществ, фотосинтез, движение воды, процесс развития) непосредственно связаны с нормой и порядком подпитывания минеральными удобрениями. Минерализация происходит проникновением ионов по закону осмоса по почве, через корни растений, а также с участием в обмене веществ и движении в стволе растений. Ионы, движущиеся в радиальном направлении, впитываются в сосуд ксилема, проводящий через себя органы — минеральные соединения, с транспирацией воды проходят в ствол и листья растений. Как известно, что при минерализации хлопчатника и прочих культур участвуют 13 элементов, в том числе азот, фосфор, калий, кальций, магний и относительно большое количество сера и т. д. [1]. Количество минеральных элементов в стволе растения зависят от их количества в почве, генезиса почвы и развития. Наибольшее количество минеральных веществ на хлопчатнике расположены на листьях, а наименьшее в волокне. При подпитывании основные элементы, как азот, фосфор и калий наблюдались, соответственно, в семенах, коробочках и волокнах, а кальций, магний, сера в листьях хлопчатника. На основе данных, полученных при лабораторных и полевых условиях в разных почвенных и климатических условиях, даны рекомендации и внедрены к производству. Но несмотря на это применяемая норма минеральных удобрений в земледелие для растений подобных хлопчатнику в условиях рыночной экономики не соответствует требованиям. Необходимо

отметить то, что особенно в условиях глубокого залегания грунтовых вод, где значительная часть поливной воды при поливах, в том числе с ней и минеральные удобрения уходят ниже расчетного слоя почвы[7]. Следовательно, заметно снижается эффективность использования подаваемых минеральных удобрений. Для решения в значительной мере проблемы по повышению эффективности использования растениями подаваемых при полива.

МЕТОДЫ

Не смотря на принцип разделения властей, Монтескье считал, что должно быть равновесие среди них, основанной на системе «сдержек и противовесов». Так как каждая власть решает самостоятельно свои государственные задачи, используя правовые средства, они должны уравновешивать друг друга, чтобы не допустить присвоения полномочий верховной власти над каким-либо учреждением. Например, чтобы не допустить деспотическую власть законодательным собранием, исполнительная власть должна ограничивать ее действия. Ведь исполнительная власть, по мнению философа, является подзаконной. Из этого следует, что личность монаха священна и поэтому наделяется правом вето при подтверждении законопроектов, обладает полномочиями законодательной инициативой, а также может созывать и распускать парламент согласно его указу. Но это не значит, что законодательная власть находится под полным управлением исполнительной власти. Полномочия законодательной власти заключается в том, что являясь создателем законов, она вправе контролировать их выполнение и требовать отчет от правительства об управлении. Таким образом, между властями существует взаимосвязь для обеспечения контроля и сдерживания превышения полномочий другой власти.

ВЫВОДЫ

Труд «О духе законов», в котором определялась концепция разделения властей, для представителей буржуазии стала влиятельной политической доктриной, а самого автора данной работы назвали родоначальником этого принципа. Благодаря данной теории и политико-правовым взглядам философа Ш.Монтескье, на сегодняшний день большинство государств регулируют свою деятельность по его принципу разделения властей, а используя систему «сдержек и противовесов» сохраняют

баланс взаимоотношений и равновесия между главенствующими властями.

REFERENCES

1. В.В.Соколов. «Философия Спинозы и современность». Изд-во Московского университета, 1964г. С.397.
2. Ш.Л.Монтескье. «О духе законов». 1748г. С.8.
3. Ш.Л.Монтескье. «О духе законов». 1748г. С.10.
4. Ш.Л.Монтескье. «О духе законов». 1748г. С.148 -149.



РЕСПУБЛИКАМИЗДА ЕТИШТИРИЛАЁТГАН ХУРМО МЕВАЛАРИ ТАРКИБИДАГИ ҚИМИЗАКЛИК (ТАХИРЛИК) ХУСУСИЯТИ

М. А. Назаров, М. Х. Хакимова

Тошкент давлат аграр университети

nazarov@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Ушбу илмий мақолада Хурмо меваси — субтропик ўсимлик бўлиб, унинг жуда кўп турлари бор. Хурмо дарахтлари 18°C совуққа бардош бериши мумкин. Совуқ 20°C етганда унинг бир йиллик новдалари ундан ҳам ошса ер устки қисми кучли зарарланади. Тамопан, Зенжи-мару, Хиакуме, Хурмони экиш схемаси – 6×5 м, кўчатларни экиш март ойи давомида амалга оширилади, Касаллик ва зараркунандаларга қарши курашиш.

Калит сўзлар: Хурмо навлар Тамопан, Зенжи-мару, Хиакуме, Хурмони, Касалликлардан бактериоз, чириш, Грузия, Озарбайжон, Тожикистон, Қирим ва Қора денгиз қирғоқларида ўсади.

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 - 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тўғрисида қонунга кўра кейинги йилларда мамлакатимиз қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилиш, хусусан соҳада давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш, бозор муносабатларини кенг жорий қилиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштирувчи, қайта ишловчи ва сотувчи субъектлар ўртасидаги муносабатларнинг ҳуқуқий асосини мустаҳкамлаш, соҳага инвестицияларни жалб қилиш, ресурстежамкор технологияларни жорий этиш ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларни замонавий техникалар билан таъминлаш борасида муайян ишлар амалга оширилмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Хурмо мевасини ватани Хитой бўлиб у Европага 19 асда кириб келган. Уни “Олов ранг қуёш” ва Хитой шафтолиси” ҳам деб аташади. Хурмо мевасининг бугунги кунга келиб 500 дан ортиқ нави бўлиб бутун дунёга тарқалган, жумладан бизнинг ўлкамизга ҳам 20 асда кириб келган. Ҳозирда юртимизнинг жанубий ҳудудларида кўплаб ер майдонларда етиштириб келинмоқда. Қиски вақт ичида



хурмо меваси фойдали хусусияти билан аҳоли орасида машҳурликка эришди десак муболаға бўлмайди. Айниқса унинг таркибидаги темир ва йод моддалари мавжудлиги бўқоқ касаллигида, анемияда, атеросклерозда, иштаха бузилишида фойдалилиги муҳим жиҳатларидан биридир. Бундан ташқари унинг таркибида С ва Р, калий, темир, фосфор, глюкоза, сахароза, кальций ва магнийлар мавжуд бўлиб инсон организми учун фойдали ҳисобланади.



Ўзбекистон шароитида хурмо октябрь ойининг охирида пишиб етилади (қуйидаги суратда). Бу даврга келиб, хурмонинг меваси ўз навига хос шакл ва ранг олади. Меваси узилгандан сўнг пишиб етилиш даври навларнинг хусусиятидан келиб чиққан ҳолда ҳар хил – 10 кундан 30 кунгача давом этади. Кўп хурмо навларининг барглари кузга келиб рангини ўзгартиради ва тўқ сарикдан оч олов ранггача ўзгаради. Кўпинча баъзи навлари

(Хиакуме ва бошқалар) баргининг ранги ўзгармайди ва яшилликча тўкилиб кетади.

Баъзи навларда барг тўкилиши эрта бошланади – октябрь ойида ва декабрь ойида кеч тўкилади. Ўзбекистоннинг жанубий шароитида кўпчилик навларнинг барглари ноябрь ойида тўкилади. Мавжуд навлардан Гейли ва Гоша навларининг барглари энг кеч тўкилиш, кўпинча кузги совуқ таъсирида тўкилади, бу жараён хурмо мевасининг ҳолатига салбий таъсир кўрсатмайди.

Баҳор ва куз ойлари қулай ёки ноқулай келиши ва ўтиш жараёнида Шарқ хурмосида кечадиган вегетатив жараёнлар 15–20 кунга олдинга ёки кечга силжиши мумкин, шу жумладан, гуллаш даври ҳам 15–17 кунга фарқ қилиши кузатилади.

Шарқ хурмоси куёш нурига жуда талабчан ва куёш нури яхши тушадиган ерда яхши ва бақувват бўлиб ўсади. Куёш нури етишмаса, ҳосилдорлик камайиб, унинг сифати пасайиб кетади. Дарахт шохлари сийрак ва ингичкалашади, барглари тўкилади, меваси майдалашиб, кўп тўкилади.

Хурмонинг қимизаклик (тахирлик) хусусияти

Хурмо мевасининг эти хужайралари эрувчан таннин моддасига эга бўлиши мумкин. Мева истеъмол қилганда бу хужайралар ёрилиб, таркибидаги эрувчан таннин моддасини чиқаради. Таннин моддаси оғиз бўшлиғини қуритиб қўйиш

каби таъсирга (хусусиятга) эга. Бунинг сабаби, таннин моддаси сўлак таркибидаги оксил ва ферментларга ёпишиб олади ва сўлакнинг оғиз бўшлиғи тўқималарини намлаб туришга тўсқинлик қилади. Натижада эса оғиз бўшлиғи қуриши рўй беради. Агар мева таркибидаги эрувчан таннин моддаси қуюлтириш каби усул орқали эримайдиган ҳолатга ўтказилса, оғиз қуришининг олдини олиш мумкин. Асосида шу жараён ётувчи усуллар билан йиғиб олинган қимизак хурмо нави ҳосилига ишлов бериб қимизаклик йўқотилади. Таннин моддасига эга ҳужайраларнинг ёрилиши ва мева таркибидаги таннин миқдори камайишини табиий йўл билан ҳам амалга ошириш мумкин. Мисол учун қишнинг совуғида юмшатиш.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

Ҳосили йиғиб олинганда қимизак бўлмаган хурмо навлари таркибида ҳам таннин моддасига эга ҳужайралар мавжуд бўлади, аммо мева ҳажмига нисбатан уларнинг миқдорий улуши камлигидан ейилганда оғиз қуриши деярли сезилмайди. Изланишлар кўрсатишича, эрувчан таннин миқдори (ЭТМ) 0,3% дан кам бўлганда қимизаклик хусусияти сезилмайди ва мева қимизак бўлмаган ҳисобланади.

Танинлар ёки танин кислотаси - сувда эрийдиган полифеноллар (табиий равишда пайдо бўлган мураккаб органик бирикмалар) кўплаб ўсимлик озиқ-овқатларида мавжуд. Ушбу ном франтсуз тилидан таржима қилинганида "терини сарғиш" деб аталади, бу модданинг асосий қобилиятларидан бирини белгилайди. Умумий характеристика Танинлар сариқ-жигарранг кукундир. Ушбу модда кўпинча ўсимликларда, асосан илдизларда, дарахтларнинг қобиғида, баргларида ва баъзи меваларда учрайди. Эманнинг қобиғида юқори концентрациялар мавжуд. Танин эритмалари бириктирувчи кислоталардир. Озиқ-овқат саноатида у маҳсулотларга мазали таъм, маълум бир ранг ва ҳид беради. Танник кислота виночилик ва пиво тайёрлашда ишлатилади. Унинг бириктирувчи хусусияти туфайли у тиббиётда - тонзиллит, фарингит, терида тошмалар, геморройни даволашда қўлланилишини топилган.

Танинларнинг класифияси Уларнинг кимёвий хоссаларини ҳисобга олган ҳолда танинларнинг 2 гуруҳи мавжуд: гидролизланадиган (сувда эрийди) ва қуюлтирилган. Биринчи гуруҳ вакиллари кислоталар ёки ферментлар билан гидролизлангандан сўнг галли ва эллагик кислоталарни ҳосил қилади.

Қимизак мевалар маълум давр давомида юмшаб, пишиб ўтиб кетса қимизаклигини йўқотади. Аммо юмшаб қолган мевалар билан ишлаш, уларни ташиш ва бир неча кундан



ўзоқроқ муддатга сақлаш мушкул иш. Этилен моддаси мева юмшаш жараёнини тезлаштиради. Чангланишга боғлиқ меваларда уруғ атрофидаги гўшт тўқ сариқ-қизил-жигарранг тус олади. Уруғсиз меваларда эса уруғ бўлиши назарда тутилган жойдаги гўшт рангсиз оқ кўринишда бўлади. Бир неча уруғли меваларда гўштнинг қорайиш ҳолати фақат мавжуд уруғлар атрофида кўзга ташланади.

Дунёнинг кўп минтақаларидаги қимизак бўлмаган хурмо боғларида ҳар 8–16 дарахтга бир чангловчи нав дарахти экилади. Чангловчи дарахтлар боғ бўйлаб муайян тартибда жойлаштирилади. Чангчи қанча кўп ишлаб чиқарилса, чангланиш учун шунча яхши шарт-шароит туғилади, чанг ташувчи асалари ва бошқа ҳашаротлар қанча кўп бўлса, меваларда шунча кўп уруғ шаклланади. Гарчи уруғ шаклланиши мева тўкилишининг олдини олиш учун фойдали бўлса-да, унинг салбий таъсири ҳам бор. Керагидан ортиқча уруғ шаклланиши ҳаддан зиёд мева ҳосил бўлишига ва дарахт кучсизланишига, натижада эса дарахтлар икки йилда бир яхши ҳосил берадиган бўлиб қолишига сабаб бўлиши мумкин. Шунинг учун АҚШнинг Флорида штатида қимизак бўлмаган хурмо боғларида жуда кам чангловчи нисбатидан фойдаланилади, одатда, 20-40 дарахтга бир чангловчи. Бу нисбат билан етарлича мўл ҳосил олиш мумкин ва меваларнинг учдан икки қисми 1 донадан 3 донагача уруғ шакллантира олади.

Хурмо навлари ҳосил йиғим-терими даврида мевалар таркибидаги қимизаклик даражасига қараб гуруҳланади. Қимизаклик даражаси мева хужайра ва тўқималари ривожланишидаги турлича шакллар, мева этилиб ривожланишига унинг таркибида уруғ бор-йўқлигининг қандай таъсир қилиши каби омилларга боғлиқдир.

ХУЛОСА

Умуман олганда хурмо навларини 2 йирик гуруҳга ажратиш мумкин: қимизак мева берувчи ва қимизак бўлмаган мева берувчи навлар. Бу ҳар бир гуруҳ ичида навлар ўз навбатида яна 2 гуруҳга бўлинади: мевасининг ҳолати, яъни тахир бўлиш-бўлмаслиги, чангланиш жараёнига боғлиқ бўлган (чангланишга боғлиқ) ва чангланиш жараёнига боғлиқ бўлмаган, аслида мева ҳолатига чангланиш эмас, балки шу жараён орқали вужудга келадиган уруғлар таъсир кўрсатади. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда боғдорчиликда хурмо навлари тўрт хил гуруҳга бўлинади:

1. Чангланишга таъсирсиз, қимизак бўлмаган (ЧТҚБ).
2. Чангланишга боғлиқ, қимизак бўлмаган (ЧБҚБ).
3. Чангланишга боғлиқ, қимизак (ЧБҚ).



4. Чангланишга таъсирсиз, қимизак (ЧТК).

1-гурухга тегишли Японияда яратилган машхур навлар сифатида қуйидагиларни санаш мумкин.



Эрта пишувчан, кузги эртаки навлар:

- Изу.
- Ичикикен Жиро.
- Маекава Жиро.

Барча нав дарахтлари кучсиз бўлиб, қаторда меъёрдан кўра яқинроқ қилиб экилиши мумкин. Мавсум ўртасида – кеч пишувчи, кеч кузги навлар:

- Фую – дунёда энг кенг тарқалган нав. Мева сифати ва сақланиш муддати меъёрий сифат деб қабул қилинган. Фую ҳосилни, одатда, кўп беради, аммо мевалар тугуш ва ўсиши учун етарлича чангланишни таъминлаш керак бўлади.

- Жиро – Японияда энг кўп етиштириладиган нав, аммо ҳозирги кунда Макаева Жиро нави унинг ўрнини эгалламоқда.

- Сурага – юқори сифатли мева, Фуюга нисбатан икки ҳафта кечроқ пишади: юмшоқ иқлимларда яхши ўсади.

2-гурух. ЧБҚБ – чангланишга боғлиқ, қимизак бўлмаган. Кўп хурмо навлари уруғсиз мева етиштириш хусусиятига эга. ЧБҚБ гуруҳига тегишли хурмо навлари уруғсиз мева етиштирганда мевалар қимизак бўлиб, ранги оч тусда бўлади. Аммо етарлича чангланиш ва уруғланиш рўй берганда, барча уруғлар ривожланиб, қимизак бўлмаган мева етилади ва бу мевани таранг



(техник пишган) ҳолатида ҳам истеъмол қилиш мумкин бўлади (худди қимизак бўлмаган навлар каби). Уруғлар атрофидаги эти тўқ қизғиш-жигаранг тус олади, нисбатан таранг бўлади, ҳатто пишиб етилгандан кейин ҳам. Бу гуруҳнинг энг оммалашган вакили сифатида

эртапишар

Нишимура Васе

навини кўрсатиш мумкин.

3-гуруҳ. ЧБК – чангланишга боғлиқ, қимизак. Худди иккинчи гуруҳ вакиллари каби бу гуруҳ вакиллари мевасининг ҳолати ҳам чангланиш жараёнига боғлиқ бўлиб, уларнинг таркибида уруғлар бўлганда қимизакликни йўқотиш хусусиятига эга. Бу гуруҳга тегишли испаниялик мутахассислар томонидан яратилган Рохо Бриллианте нави ҳозирги кунда Испания боғбонлари орасида оммалашиб бормоқда. Етиштирилган мевалар маҳаллий бозорлар ва Европа Иттифоқи мамлакатларига сотилади. Боғбонлар бу мевалар таркибидаги қимизакликни йўқотиш жараёнини жуда яхши ўзлаштиришган.

4-гуруҳ. ЧТҚ – чангланишга таъсирсиз, қимизак. Бу гуруҳга тегишли мевалар токи юмшагунгача қимизакликни йўқотмайди. Аммо юмшаб қолган мевалар билан ишлаш муайян қийинчиликлар туғдиради, улар жуда осон эзилиб, бузилиб қолиши мумкин. Шунинг учун бундай мевалар қимизаклигини меваларига зарар етказмасдан йўқотиш учун сунъий усулда ишлов бериш талаб қилинади. Бу гуруҳнинг энг таниқли навларидан бири Хиратаненаши. Бу япон хурмо нави яхши ва сифатли ҳосил бериши учун чанглатилиши шарт эмас. Баъзан япон истеъмолчилари қимизаклиги йўқолган қимизак навларни қимизак бўлмаган навларга нисбатан кўпроқ суйиб ейдилар. Хиратаненаши деярли Фую билан бир хил вақтда пишиб етилади, компакт Хиратаненаши номли чатишмаси деярли бир хил хусусиятларга эга. Аммо ҳажми кичикроқ, бу эса, ўз навбатида, боғларда дарахтларни ўзаро зич қилиб экиш имконини беради.

REFERENCES

1. Орипов А., Аббасов Ш. Хурмо етиштириш технологияси- 2013.- 3-4 б.
2. Бобоев И.А. Биоэкологические и физиологические особенности *Punica granatum L.* и *Diospyros lotus L.* в условиях. Диссертация Қозон - 2014 С 6.
3. Габибов Т.Г., Рост и плодоношение интродуцированных сортов хурмы восточной в Южном Дагестане. Махачкала – 2012. С 4.
4. Гафизов Г.К. и др. Способ получения пищевого продукта из выдержанной размягченной хурмы. Вак1, Azərbaycan, 2015.-С-17-20-б
1. Гафизов Г.К., Мамедов Н.А., Технология получения пищевого продукта из выдержанной размягченной хурмы: функциональные возможности и перспективы коммерциализации //Modern economy success № 1, 2017. – С. 25.



РЕСПУБЛИКАМИЗДА ЕТИШТИРИЛАЁТГАН ХУРМО МЕВАЛАРИ ТАРКИБИДАГИ ОЗУҚАВИЙЛИК ҚИЙМАТИ

М. А. Назаров, М. Х. Хакимова

Тошкент давлат аграр университети

nazarov@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Хитой, Япония, АҚШ ва Кореяда хурмо маҳсулотининг асосий қисми етиштирилади. Дунё бўйича хурмонинг 800 дан ортиқ навлари ўрганилиб кўпайтирилган. Бундай нав ва шакллар йирик мевали, серҳосил, уруғчи ва чангчи дарахтлари бир хил муддатда гуллаши билан самарали ҳисобланади.

Калит сўзлар:Зенжи-мару, Хиакуме, Хурмони, Касалликлардан бактериоз, чириш, Грузия, Озарбайжон, Тожикистон, Қирим ва Қора денгиз қирғоқларида ўсади.

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғриси” ги ПФ-60-сон фармонида “Қишлоқ хўжалигини илмий асосда интенсив ривожлантириш орқали деҳқон ва фермерлар даромадини камида 2 баравар ошириш, қишлоқ хўжалигининг йиллик ўсишини камида 5 фоизга етказишда, айниқса, 2026 йилга бориб озиқ-овқат маҳсулотлари ҳажмини 7,4 млн тоннага, қайта ишлаш даражасини мева-сабзавот бўйича 28 фоизга етказиш” га алоҳида эътибор қаратилган. Бу борада, Ўзбекистонда хурмо меваларни турли усулларида қуритиш ва қуритилган хурмони сифати кўрсаткичларини таъминлаш бўйича илмий изланишлар олиб бориш долзарб масала бўлиб ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Жаҳон бўйича Хитой, Япония, АҚШ ва Кореяда хурмо маҳсулотининг асосий қисми етиштирилади. Хурмо бутун Яқин Шарқда асосий озиқ-овқат маҳсулоти саналади. Унинг тарихи милоддан аввалги бир неча минг йилдан бошланади. Ҳозирги кунда ФАО нинг маълумотига кўра “дунёнинг 17 та давлатида хурмозорлар мавжуд бўлиб умумий ер майдони 1 млн гектарни ташкил этади. Мазкур боғлар майдонининг 90% Хитой худудига тўғри келади. Хитойда 8419 га майдонга



экилади ва ҳосилдорлик йилига 112854 минг тонна, АҚШда 89406 минг тонна, Эронда 81685 минг тонна, Покистонда 44770 минг тонна ташкил этаган». Дунё аҳолисини сифатли хурмо меваси билан узлуксиз таъминлаш учун уларнинг юқори сифатли меваларини қуришиб сақлаш долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Хурмо мевасининг озукавийлик қиймати

Қадимдан хурмодан юқори қийматга эга озиқ-овқат сифатида фойдаланилган. Шарқда унинг фойдали жиҳатларини билишган ва уларни истеъмол қилиш саломатликни мустаҳкамлаш ҳамда ўзоқ умрни кўришни ёрдам беради, дея ҳисоблашган. Хурмо ширинликдан кўра кўпроқ нарса саналган. Араб мамлакатларида у «сахро нони» дея аталган, ахир айнан у ҳарбийларга узок юртларга юришларда қувват ва кучни тиклашда ёрдам берган. Хурмода фойдали моддалар кўп. Бу мева таркибида А, Е ва В витаминлари бор. Хурмонинг қадри шундаки, унда инсон организми учун муҳим бўлган ва бошқа меваларда учрамайдиган аминокислоталар бор. Бундан ташқари, хурмо кальций ва фосфор, калий ва магний, темир ва цинк, марганец ва селенга бой. Бу мева юрак қон-томир тизимини мустаҳкамлайди, жигар ва буйрак фаолиятини фаоллаштиради. Хурмо иммунитетни паст одамлар учун ҳам фойдали. Уни юқумли инфекция ва йўталда рационга қўшиш керак. Камқонликка учраган беморлар учун бебаҳо мева. Шунингдек, у чарчоқни олишда аъло воситадир. Унинг таркибидаги модда ва витаминлар организмга фаоллик беради.

Мевачиликнинг халқ хўжалик аҳамияти, асосан, меванинг инсон озиқланишида, қатор касалликларнинг олдини олиш ва даволашда юқори қиймати билан белгиланади. Улар витаминлар, минераллар манбаи бўлиб, метаболизмда муҳим физиологик рол ўйнайди (Омаров, Омарова, 2008).

Мевалар иккиламчи синтезнинг имтиёзли локализатсия зоналари бўлиб, озук моддаларини этказиб беришда ётқизилади.

Ўсимликнинг қолган аъзолари билан солиштирганда, мевалар ва айниқса уларнинг перикарплари (перикарп) антиоксидант салоҳияти юқори бўлган органлар сифатида ишлайди.

Меваларда полифенол гуруҳининг моддалари, каротиноидлар ва иккиламчи синтезнинг бошқа маҳсулотлари кўпроқ тўпланади. Бироқ, уларнинг баъзилари антосиянин гуруҳининг ташувчиси, бошқалари каротиноидлар, учинчиси эса иккаласининг ташувчиси ҳисобланади. Бу функционал ихтисослашув вегетатив органларга нисбатан меваларнинг жуда муҳим хусусиятидир. Антиоксидант салоҳияти нуқтаи

назаридан мевалар ҳайвонлар дунёси билан эволютсияда янада қимматли тузилишга айланди.

Амалий карпологиянинг назарий асоси сифатида мева биогенезининг асосий қонуниятлари, уларни шакллантириш ва сақлаш сифатини таъминлаш муаммоларини ўз ичига олган, амалиётчилар ўзларининг кундалик ишларида имкон қадар кўпроқ эътиборга олишлари керак (Матвиенко, 1990).

Кўпгина меваларнинг истеъмол қилинадиган қисмида 0,4-0,9% минераллар мавжуд, шу жумладан организм учун ҳам тўқималар ва органларни қуриш, ҳам физиологик функцияларни бажариш учун зарур бўлган 60 дан ортиқ макро ва микроэлементлар мавжуд. Мева таркибидаги шакар фруктоза, глюкоза ва сахароза билан ифодаланади, улар таркибида органик кислоталар ҳам мавжуд. Мевалар гидроксиди бирикмаларнинг манбалари бўлиб, кислоталарни зарарсизлантиради ва организм томонидан оқсилларни яхшироқ сўрилишини таъминлайди.

Витаминлар инсоннинг овқатланишида жуда муҳим рол ўйнайди. Уларсиз организмдаги нормал метаболизм вазифаларини бажаради. Мевалар А_б В_б В₂, В₆, витаминлари, аскорбин кислота манбаларидир.

Кўп турли хил витаминлар мавжуд, уларнинг ҳар бири танамизда қатъий белгиланган функцияга эга.

Томорқа ва фермер хўжаликлари ҳисобидан мева етиштириш сезиларли даражада ошганига қарамай, Хозирги кунда хурмога бўлган талаб тўлиқ қондирилмаяпти. Агар илгари оқсиллар, ёғлар ва углеводлар каби озиқ моддаларга асосий эътибор қаратилган бўлса, энди организмнинг метаболик ва ҳимоя фаоллигини, унинг асаб ва қон айланиш тизимларининг ҳолатини тартибга солувчи биологик фаол моддалар ҳам кам аҳамиятга эга. (Омарова, 2004).

Россия Федерацияси Тиббиёт фанлари академиясининг Озиқлантириш институти маълумотларига кўра, катталар ўртача ҳисобда 100-130 кг мева истеъмол қилиши кераклиги аниқланган, лекин аслида у 15-20 кг истеъмол қилади. Булар асосан олма, нок, шафтоли, олхўри, олча, узум ва бошқалар.

Субтропик мевали экинлар орасида хурмо жуда муҳим ўрин тутади.

Шарқ хурмосининг мевалари ўзининг озуқавий қиймати ва таъми бўйича, айниқса тўлиқ пишганида, бошқа кўплаб экинларнинг меваларидан устун туради.

Шарқда бундай мева муносиб ҳурматга эга. Шундай қилиб, шарқ одамлари шифокорларни унутиш учун кунига битта хурмо истеъмол қилиш кифоя деб таъкидлашади. Ва

лотин тилидан таржимада, юқорида айтиб ўтилганидек, хурмо "Худоларнинг таоми" деб таржима қилинган.

Хурмо меваларини турли шаклларда истеъмол қилиш мумкин: янги, қуритилган, консервалар, мураббо ва бошқалар.

Меваларда шакарнинг масса улуши 13 дан 20% гача, пектин моддалари - 0,5-0,6; тола - 0,5%).

Шакарлар глюкоза, фруктоза ва сахароза билан ифодаланади, уларнинг нисбати хилма-хиллиги, этуклиги ва келиб чиқиши мамлакати билан белгиланади. Мевалардаги оксилларнинг масса улуши 0,4-0,8% га, ёғлар 0,1-0,3% га этади.

Хурмо меваларининг жиддий камчиликларидан бири пишмаган ҳолатда танинларнинг юқори миқдори бўлиб, уларнинг таъмини сезиларли даражада камайтиради. Меванинг бириктирувчи таъми улардаги танинлар ва бошқа танинлар мавжудлиги билан боғлиқ, ранги ликопен ва каротиндир. Аммо меванинг бу ҳолати мева пишиши билан йўқолади. Уларнинг таркибидаги танинлар ошқозон-ичак касалликларига, шу жумладан саратонга ижобий таъсир кўрсатади. Шу муносабат билан Шарқ халқлари, хусусан японлар, агар улар озгина тўқилмаса, хурмо емайдилар. Мевалар кўп (3-каротин, унинг таркибида (1,6-6,8 мг / 100 г) барча мевалардан устун туради. Таркибида (3-каротин ва криптоксантин, битта хурмо меваси А витаминига бўлган кунлик эҳтиёжни қондира олади. 100 г меванинг энергия қиймати 63,0-69,0 ккал тенг. (Ларина, 2002).

Хурмо жуда кўп ёдни ўз ичига олади. Халқ табобатида хурмо қадим замонлардан бери ишлатилган. Анъанавий тиббиёт ва бизнинг давримизда хурмо анемия, камқонлик, касалликдан кейин тикланиш учун фойдаланади.

Қуритилган мевалар гипертензияни даволаш учун ишлатилади. Шарқий хурмо унинг 2-3 мевасида истеъмол қилинса, валокордин ўрнини босиши мумкин. Хурмо мевалари сурункали диарея ва ошқозон-ичак трактининг бошқа касалликларини энгишга ёрдам беради.

Хурмо саратон, ўпка касалликлари ва буйрак тошларига қарши профилактика ҳисобланади. У диуретик ва тоник таъсирга эга, асаб касалликлари, ёмон кайфият, депрессия учун тавсия этилади. Хурмо кўриш қобилиятини мустаҳкамлайди ва тананинг қаришини олдини олади.

Парҳезшунослар хурмони паст калорияли парҳез мева сифатида тавсия қиладилар. Хурмо косметологияда юзнинг терисини ёшартириш учун ниқоблар шаклида ишлатилади.

Шамоллаш ва йўталда битта пишган шарқ хурмо мевасининг шарбати билан 3,5 ош қошиқ илиқ сув билан чайқаш фойдалидир.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, хурмо мевалари шифобахш, декоратив хусусиятларга эга бўлган кўп миқдордаги биологик фаол моддаларни ўз ичига олади, бу уни Республикамизнинг жанубида, хусусан, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятларида кенг миқёсда етиштирилиши керак бўлган қимматли субтропик мевали экин ҳисобланади.

REFERENCES

1. Орипов А., Аброров Ш. Хурмо етиштириш технологияси- 2013.- 3-4 б.
2. Бобоев И.А. Биоэкологические и физиологические особенности *Punica granatum* L. И *Diospyros lotus* L. в условиях. Диссертация Қозон - 2014 С 6.
3. Габибов Т.Г., Рост и плодоношение интродуцированных сортов хурмы восточной в Южном Дагестане. Махачкала – 2012. С 4.
4. Гафизов Г.К. и др. Способ получения пищевого продукта из выдержанной размягченной хурмы. Вақ, Azərbaycan, 2015.-С-17-20-б
5. Гафизов Г.К., Мамедов Н.А., Технология получения пищевого продукта из выдержанной размягченной хурмы: функциональные возможности и перспективы коммерциализации //Modern economy success № 1, 2017. – С. 25.



YUK KO'TARISH QURULMASI ELEKTR YURUTMASINI BOSHQARISH VA XIMOYALASHDAGI MUAMMOLARNI ZAMONAVIY YECHIMLARI

Ibrohimxon Saydijamol o'g'li Jalolov

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali assistanti

ibiroximjalolov@gmail.com

Bekjon Zoxiddonovich Quvvatov

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yuk ko'tarish qurulmasi elektr yurutmasini boshqarish va ximoyalashdagi muammolarni zamonaviy yechimlarimlari. Yuk kutarish qurilmalari o'g'ir yuklarni bir joydan ikkinchi joyga kuchirib utqazish qul mexnatini kamaytirib ish unum dorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Yuk kutarish qurilmalari troslarni yemrilishiga elektr yurutmasini ishdan chiqshiga asosiy sabab ishchi hodimlar tomonidan ish jaroyonni tezlashtirish maqsadida meyordan oshiq yuk osish yuk kutarish qurilmalarini ishdan chiqshiga olib keladi bu jaroyonni oldini olish maqsadida yuk kutarish qurilmalariga O'g'irlik datchiklari quyamiz va yuk kutarish qurilmalarimiz meyordan oshiq yuk kutarmaydi

Kalit so'zlar Yuk ko'tarish qurulmasi, asinxron elektr dvigateli, kontroller, datchiklar va chastota o'zgartgich

ABSTRACT

In this article, modern solutions to the problems in the control and protection of the electrical system of the lifting device are presented. Lifting equipment is used to move heavy loads from one place to another and increase productivity by reducing manual . The main reason for the failure of the electrical wiring of the lifting devices is the breakdown of the cables. In order to speed up the work process, excessive load hanging by the workers leads to the breakdown of the lifting devices.

Keywords: Lifting device, asynchronous electric motor, controller, sensors and frequency variable.

KIRISH

Ishlab chiqarish jarayonida, turli xil zavod, fabrikalarda va Energetika tizimida energiya sifati va uning iqtisodiy sarfi bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda barcha



sohalarda kundan kunga yangi loyihalar hayotga tadbiiq etilmoqda, ular orasida energiya resurslaridan tejamkorona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlariga energiya tejamkor uskunalarni tadbiiq etish loyihalari katta ahamiyat kasb etgani holda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda hamda ishlab chiqarish sifatini oshirib, yangi bosqichga olib chiqishda katta ahamiyat kasb etadi. Energiya tejamkor uskunalardan foydalanish energiyani tejash bilan bir qatorda ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirib uning tannarxining arzon bo'lishiga ham asos bo'lib hizmat qiladi. Energiya tejamkor uskunalarni tadbiiq etish loyahasini eng katta ishlab chiqarish tarmog'i hisoblangan sanoat korxonalariga tadbiiq etish hamda u yerda qo'llaniladigan katta quvvatli uskuna va mexanizmlarni energiya tejamkor elektr qurilmalari bilan jihozlash juda katta iqtisodiy samaradorlikka erishishga hizmat qiladi. Jumladan hozirgi kunda juda jadallik bilan kengayib borayotgan metallarni prokatlash sanoatining elektr yuritmalarini energiya tejamkor qurilmalar bilan almashtirish va avtomatlashtirish orqali katta miqdordagi energiya tejamkorligiga hamda ishlash samaradorligini va sifatini sezilarli oshirishga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Respublikasida energiya resurslaridan oqilona foydalanish borasida hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ishlarning qay darajada muhim iqtisodiy asosga ega ekanligini ushbu sohaga doir chiqarilgan prezident farmonlari orqali ham bilish mumkin. Jumladan "Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 iyundagi PQ-5159-sonli Qarori

Ko'tarish krani - yuklarni ko'tarib, ma'lum masofaga tashiydigan, davriy ishlaydigan mashina. Ko'tarish krani ko'tarish konstruksiyasi (ko'priksimon yoki konsol ferma, minora, machta, strela), asosiy yuk kutaruvchi mexanizm (chig'ir. telfer), kuch qurilmalari, elektr jihozlar, yo'naltiruvchi va tu-tib turuchi elementlar (zanjirlar, qavatlar), yukni qamrab oladigan qurilmalar (ilgak, elektromagnit, greyfer va boshqalar) dan tashkil topgan

NATIJALAR

Ko'tarish krani - yuklarni ko'tarib, ma'lum masofaga tashiydigan, davriy ishlaydigan mashina. Ko'tarish krani ko'tarish konstruksiyasi (ko'priksimon yoki konsol ferma, minora, machta, strela), asosiy yuk kutaruvchi mexanizm (chig'ir. telfer), kuch qurilmalari, elektr jihozlar, yo'naltiruvchi va tu-tib turuchi elementlar (zanjirlar, qavatlar),

yukni qamrab oladigan qurilmalar (ilgak, elektromagnit, greyfer va boshqalar) dan tashkil topgan

Yuk ko'tarish qurilmalariga datchiklar urnatgandan keyingi avzalliklari.

Agar biz datchiklar o'rnatdik yuk kutarish qurilmalarimiz ishlash vaqti uzayadi, tez ishdan chiqib tamir talab holatlari kamroq kuzatiladi bu esa korxonaga iqtisodiy jihatdan xarajatlarni kamayishga olib keladi.

Og'irlik datchiklardan yuk kutarish qurilmalarida foydalansak malumkiy korxonalarda yuk kutarish qurilmalari aksariyat hollarda zurqib ishlaydi natijada elektr yurutmasi kuyishi yoki zurqish natijasida yuk kutarish tros lari yemrilishga olib keladi, ogirlik datchiklari urnatsak meyordan oshiq yuk kutarishga zurqishiga yul quymaydi yani yuk kutarish qurilmalarni avtomatik tuxtatadi yoki signal bilan ogoh lantiradi.

Og'irlik datchiklarimiz yuk kutarish qurilmalariga urnatish mobaynida zavod, sexlarning havo sharoiti juda chang bulsa urnatish maqsadga muvofiq bulmaydi.

Og'irlik datchiklari



Energetik ko'rsatgichlar (33kw yuritma o'rnatilgan)	Yuk ko'tarish qurilmasi elektr yurutmasi unumdorligi	
	Yuritma normal ishlagandagi unumdorligi	Yuritma zurqib ishlagan holatiga unumdorligi
1-soatdagi elektr energiya sarfi	60KVA	70KVA
24- soatdagi elektr energiya sarfi	1200KVA	1300KVA
Energiya isrofi (sutka davomida)	5%	20%

Datchik o'rnatilgandan sungi natijalar:

Energetik ko'rsatgichlar (33kw yuritma o'rnatilgan)	Yuk ko'tarish qurulmasi elektr yurutmasi unumdorligi	
	Yuritma narmal ishlagandagi unumdorligi datchik o'rnatilgandan sung	Yuritma zurqib ishlagan holatiga unumdorligi datchik o'rnatilgandan sung
1-soatdagi elektir energiya sarfi	60KVA	0
24- soatdagi elektir energiya sarfi	1200KVA	0
Energiya isrofi (sutka davomida)	3%	0

MUHOKAMA

Yuk ko'tarish qurulmasi elektr yurutmasini boshqaruvida, Elektr yuritgichlarini ishga tushirish usullari uning qo'llanilayotgan sharoitdan kelib chiqqan holda tanlanadi. To'g'ridan to'g'ri ishga tushirish usuli past quvvatli va bosibli yurima va nasoslar uchun, qo'shimcha qarshiliklar ulash orqali ishga tushirish juda chang va sharoiti yoman bo'lgan joylar uchun qo'llaniladi. Ishga tushurish va boshqarishning avtomatik boshqaruvi ish jarayonida texnologik jarayonning o'zgarishini uzliksiz nazorat qilish va elektr yuritgich quvvatini shu asosda boshqarish katta unumdorlikka va energiya tejamkorligiga erishishga yordam beradi. Elektr yuritgich tezligi va quvvatining nominalda bo'lmasligi ortiqcha energiya yo'qotilishiga olib keladi. avtomatik boshqaruv nazorati orqali elektr yuritgichni optimal parametrlarda ishlatishini ta'minlashimiz mumkin. Bu usul har tomonlama zamonaviy, iqtisodiy va energiya tejamkor usul hisoblanib, optimal parametrlarini saqlash orqali elektr yuritgich va texnologik qurilmalarni uzoq vaqt hizmat qilishiga zamin yaratadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiiq qilish orqali nafaqat katta samaradorlik va energiya tejamkorligiga balki ishlab chiqarish jarayonini to'la avtomatlashtirishga erishishimiz mumkin. Yuk ko'tarish qurulmasi elektr yurutmasini boshqarish va ximoyalashdagi muammolarni zamonaviy yechimlarni kurib chiqdik. Texnologik jarayonni avtomatlashtirish orqali ishchilarning mexnatini osonlashtirish, havfli va murakkab sharoitlarda qo'llaniladigan

toblashni boshqarishni soddalashtirish va hizmat muddatini oshirish mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan 2020-yildagi 19-iyunda imzolangan "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-628 sonli qarori 412-I-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 4-5, 118-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda;
2. Тогаев Ахрор Саъдулло угли, Эшонкулов Камол Эшниёз угли, Бакирова Дилбар Тагаевна Ганиев Элбек Улугбек Угли Зависимость рабочих характеристик насоса от частоты вращения
Analytical Journal of Education and Development
<http://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/3302>
3. Shodiyev , O. A., Yuldashev , E. U., Yuldasheva, M. A., Jalolov , I. S. "Konveyer transportini elektr yuritmasini teskari aloqali datchiklari vositasida boshqarish". Academic Research in Educational Sciences, <https://www.ares.uz/uz/maqola-sahifasi/konveyer-transportini-elektr-yuritmasini-teskari-aloqali-datchiklari-vositasida-boshqarish>
4. A. Teshaboyev, S. Zaynobidinov , E. Musayev (2006) "Yarim o'tkazgichlar va yarimo'tkazgichli asboblarni texnologiyasi" Toshkent 5 (323-234)
5. www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/440



KONCHILIK MASHINALARINI ISHLASH UNUMDORLIGINI OSHIRISH CHORA TADBIRLARI

Akmal Bekmurodovich Pardayev

Ahror Sa'dullo o'g'li Tog'ayev

Kamoljon Eshniyoz o'g'li Eshonqulov

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq filali
"Konchilik ishi fakulteti", "Konchilik elektr mexanikasi" kafedrası assistentlari

akmalpardayev5757@gmail.com, kamoljoneshonqulov1993@gmail.com

atogayev636@gmail.com

ANOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqola konchilik mashinalari ishlash samaradorligini oshirishning bugungi kunda amaliy va unumli bo'lgan ayrim metod va usullarining tahliliga bag'ishlanadi. Ushbu maqolaning tadqiqot bo'limida ushbu sohaga yo'naltirilgan bevosita usullardan bir nechtasi keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: konchilik, konchilik mashinalari.

ABSTRACT

This scientific article is devoted to the analysis of some methods and methods of increasing the efficiency of mining machines that are practical and effective today. In the research section of this article, some of the direct methods directed at this field are cited.

Keyword: mining, mining machines.

KIRISH

Hozirgi vaqtga kelib texnologiyalar rivojlangani sari o'z mahsuldorligini oshirish uchun yangi texnologiyalardan foydalanadigan konlar yangilik emas.

2017-yilda 700 dan ortiq soha vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik yirik kon sanoati korxonalari ma'lum darajada, xususan, avtonom va IoT-ga asoslangan texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali raqamli amaliyotlarni boshlagan. Ammo innovatsiyalar sari intilish yo'lida borayotgan yirik, istiqbolli ishtirokchilar tog'-kon sanoatining atigi 10% ni tashkil qiladi, ya'ni qolgan 90% hali ham ortda qolmoqda.

Sanoatni raqamlashtirishni rad etishning asosiy ko'rsatkichi bu raqamlashtirilgan kon aktivlariga ulangan simsiz tizimlar o'rniga qo'lda yoki kabel orqali ishlashni davom ettirishdir.

Haqiqatan ham, simsiz ulanishlar kabi innovatsion konsepsiyalar uchun bir qator tashkiliy to'siqlar mavjud, xususan, konchilikning an'anaviy, xavf va o'zgarishlarni istamaydigan sanoat sifatidagi maqomi, bu potentsial "xavfli" texnologiyalarga sarmoya kiritishga to'sqinlik qiladi.

Kelajakda ochiq usulda ko'mir qazib olishni ilmiy-texnik rivojlantirish konsepsiyalarini shakllantirish hozirgi davrda nihoyatda muhim va hal qiluvchi jihat hisoblanadi. Shu munosabat bilan konlarda texnikalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirishga oid ba'zi mulohazalarni bildirish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Biz eng innovatsion konlarning yangi texnologiyalardan foydalanish usullarini ko'rib chiqamiz va bu texnologiyalarni qo'llash konchilik operatsiyalarini xavfsizroq, samaraliroq va tejamkorroq qilishini ko'rsatamiz.

1. Avtomatlashtirish

Avtonom kon qazish mashinalari qariyb yigirma yildan beri mavjud - Rio Tintoning Pilbara temir konida 2008 yilda 80 ta haydovchisiz Komatsu yuk mashinalari ishlab chiqarilib, ularning konchilik unumdorligi sezilarli darajada oshdi. BHP Billiton va Suncor kabi ko'plab yirik tog'-kon sanoati kompaniyalari bunga ergashishdi - asosan Caterpillar, Sandvik, Komatsu va Atlas Copco'dan sotib olishdi, ular hozirda avtonom kon mashinalari sektoridagi eng innovatsion va muhim kompaniyalarni ifodalaydi.

Ushbu transport vositalari konchilikda inqilob qildi, chunki ular birinchi marta odamlarga masofadan turib texnika bilan aloqa qilish va boshqarish imkonini berdi. Bu ularni yer osti konlarida, shuningdek, inson hayoti xavfi yuqori bo'lgan boshqa xavfli muhitlarda foydalanish uchun ideal qiladi. Ko'pgina avtonom kon qazish mashinalari to'liq avtomatlashtirilgan emas, balki yarim avtonomdir; Boshqacha qilib aytganda, ular o'zlari hal qila olmaydigan muayyan vaziyatlarda hamon insoniy yordamga muhtoj. Ushbu yer osti qazish mashinalari ularni masofadan boshqariladigan asboblardan va kameralar bilan jihozlash orqali avtonom holga keltirilib, foydalanuvchilarga harakatlarni amalga oshirish va atrofdagi hududlarni masofadan ko'rish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda asosiy e'tibor yarim-avtonom kon qazish vositalaridan voz kechib, vazifalarni avtomatik ravishda yoki minimal tashqi nazorat bilan bajara oladigan "avtonom kon tizimi" ni yaratishga, shuningdek, robot texnologiyalari orqali to'liq avtomatlashtirish imkoniyatiga qaratildi.

Avtonom transport vositalari odamlarga texnika bilan masofadan aloqa qilish va ularni boshqarish imkonini berib, konchilikda inqilob qilmoqda.



Yer ostida va yer ustida ishlashga qodir avtonom transport vositalari zamonaviy konchilik uchun zarurdir. Ular baxtsiz hodisalarni kamaytiradi va ishchi kuchi xavfsizligini oshiradi, odamlar uchun juda xavfli bo'lgan tog'-kon zonalarida ishlaydi, tog'-kon sanoati unumdorligini oshiradi (chunki asbob-uskunalar tezroq harakatlanishi va uzoq masofalarni bosib o'tishi mumkin) va mashinalarni boshqarish uchun kamroq operator talab qilinishi sababli xarajatlarni kamaytiradi.

2. Ishchi kuchini kuzatish.

O'rnatiladigan texnologiyalarning yutuqlari ularni konlarda ishchi kuchini kuzatish, nazorat qilish uchun ideal vositaga aylantiradi. Ular, ayniqsa, dalaga texnik xizmat ko'rsatish va real vaqt rejimida mashinani tekshirish bo'yicha ko'rsatmalar va operatorga asoslangan parvarish va xavfsizlikni yaxshilash uchun foydalidir - ayniqsa yer osti konlari uchun. Ushbu taqiladigan qurilmalar RFID xodimlarini kuzatish va barcha xodimlarni real vaqt rejimida ko'rish imkonini beradi, bu esa asosiy ishchilarni bir zumda joylashtirish imkonini beradi. Ular, shuningdek, unumdorlikni qayerda oshirish mumkinligini aniqlash va xodimlarning vaqtini va davomat yozuvlarini kuzatish uchun ishlatilishi mumkin.

NATIJALAR

Ishchi kuchi xavfsizligi nuqtai nazaridan, taqiladigan qurilmalar va ularning IoT-ga asoslangan kengroq monitoring tarmog'idagi roli favqulodda vaziyatlarda javob berish vaqtlarini sezilarli darajada yaxshilaydi, bu ham operatorlarga, ham xodimlarga voqea sodir bo'lganda darhol xabardor bo'lish imkonini beradi. Shuningdek, ular kondagi potentsial xavfli hududlarga kirishni cheklash orqali xavfsizlik muammolarini va kelajakdagi baxtsiz hodisalarni kamaytirishi mumkin. Ishchi kuchini kuzatish, shuningdek, konchilik samaradorligini oshirishga imkon beradi, chunki ishchilar yanada samaraliroq boshqariladi va ish vaqtini qisqartirishi mumkin bo'lgan noxush hodisalar kamayadi yoki hatto butunlay oldini oladi.

3. GPS texnologiyalari

Global Positioning Satellite (GPS) joylashishni aniqlash va navigatsiya tizimlari yaqinda ba'zi tog'-kon kompaniyalari tomonidan o'zlarining ochiq konlarida portlatish teshigi va elektr kabel belkuraklarida ishlab chiqilgan va joriy qilingan. Ushbu GPS tizimlari ekrandagi Harakatlanuvchi Xaritani Display (MMD) orqali real vaqt rejimida burg'ulash uchi yoki belkurak yo'llarining joylashishini aniq, uch o'lchovli vizualizatsiya qiladi. Bu operatorga qazilmani portlatish teshigidan portlatish teshigiga to'g'ri yo'naltirish, kerakli belkurak darajasini saqlab turish yoki uzoq joydan yuzma-yuz turish imkonini beradi. Ko'pincha ekstremal ekologik sharoitlarga bardosh berish uchun

ushbu turdagi tizimlar uchun bardoshli, tasdiqlangan GPS komponentlari kerak. Ochiq konlarda GPS tizimlaridan foydalanishga misollardan biri Kanadadagi ochiq ko'mir va temir ruda konlarida GPSni joriy qilgan AQUILA Mining Systems Ltd.

4. "Raqamli egizaklar"

Aslida, Digital Twins ("Raqamli egizaklar") — bu narsalarning raqamli platformasi bo'lib, u sizga real narsalar, joylar, biznes jarayonlari va odamlarning raqamli tasvirlarini yaratish imkonini beradi. Tog'-kon operatorlari an'anaviy ravishda aktivlar hayoti davomida muhandislik va aktivlar ma'lumotlarini boshqarishni qiyin deb topdilar. Raqamli egizaklar bunga yordam berishi mumkin: ular jismoniy aktivlar, jarayonlar va tizimlarning virtual nusxalari bo'lib, ular tasvirlangan makon yoki tizimda ishlatiladigan IoT qurilmalarining asosiy elementlari va dinamikasini taqdim etadi. Raqamli egizaklar AI (sun'iy intellekt), mashinani o'rganish (sun'iy intellektning kichik to'plami) va dasturiy ta'minotni tahlil qilishdan foydalanib, ularning haqiqiy, jismoniy hamkasblari sifatida doimiy ravishda yangilanib turadigan real vaqt rejimida raqamli simulyatsiya modellarini yaratadilar. Buni soddalashtirish uchun: raqamli egizaklar minalarning real vaqtda "video o'yin" versiyalariga o'xshab, bu bo'shliqlarni haqiqiy va virtual o'rtasidagi o'zaro ta'sirni keltirib chiqaradigan tarzda raqamlashtiradi.

MUHOKAMA

Raqamli egizaklar kon operatorlariga ma'lumotlar yoki monitoring yetishmayotgan har qanday sohalarni aniqlash uchun muhandislik ma'lumotlarini boshqarish imkoniyatlari va yetukligini baholash imkonini beradi, bu ularga raqamlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarini eng katta ehtiyoj va ta'sir sohasiga yo'naltirish imkoniyatini beradi. Umuman olganda, raqamli egizak tizimlar real vaqt rejimida jismoniy aktivlar, tizimlar va jarayonlarning ishlashi va texnik xizmat ko'rsatishni optimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa konchilik unumdorligini sezilarli darajada oshiradi.

5. Masofaviy monitoring

Taxminlarga ko'ra, ko'pchilik konlar keyingi 5 yil ichida OI tizimlari bilan operatsiyalarining kamida bir qismini raqamlashtiradi. Bundan tashqari, kelgusi o'n yil ichida konlarning aksariyati o'zlarining infratuzilmasi va ish oqimlarining raqamli egizaklari bilan ishlashni boshlashlari mumkin. Biroq, bugungi kunda ko'pchilik shaxtalar hali ham virtual operatsiyalarga birinchi qadam qo'yishlari kerak: qo'lda yoki avtomatlashtirilgan kabel o'qishlarini simsiz monitoring tizimlari bilan almashtirish hozirda yanada muhimroq bo'lib bormoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, masofaviy monitoring tizimlari bilan ishlash xarajatlari kamayishining sababi bu faqatgina bu vazifa uchun ishchi, mutaxassis xodimlar yollash, yo'l, benzin xarajatlariga zaruratni yo'qotishigina bo'lmasdan, qolaversa, bunda boshqa texnologiyalarni joriy qilishda zarur bo'ladigan qimmat kabellar va ularni o'rnatishni ham talab qilmasligi hamdir. Shundan kelib chiqib, muhim aktivlar (texnikalar, mashinalar, transport va eng muhimi insonlar xavfsizligi) tejalishi hisobiga sohani rivojlantirish uchun kamroq iqtisodiy xarajatlar qilinadi.

REFERENCES

1. Mislibayev, I. Yer osti konchilik ishlari texnologiyasi: darslik / I.Mislibayev, F.Umarov. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 232 b.
2. «Mines 2 Cities» The Mines 2 Citeies Project (April 2016) accessed 19 April 2016
3. Misliboev I.T., Soliev B.Z. Jabborov O.I. Ma'danli konlarni yer osti usulida qazib olish. O'quv qo'llanma. - T: Faylasuflar, 2014 y
4. <http://www.ngmk.uz> -Navoiy kon-metallurgiya kombinati.
5. <http://www.agmk.uz> -01maliq kon-metallurgiya kombinati.
6. <http://www.uz/rus/industries/cmi.htm> -Ozbekistonning ko'mir qazib olish sanoati.
7. <https://www.worldsensing.com/article/tech-trends-mining-productivity/>
8. <http://www.mine-engineer.com/mining/mineral/mineralindx.htm>.
9. <https://conferencea.org/index.php/conferenceas/article/view/18/15>
10. <https://conferencea.org/index.php/conferenceas/article/view/198/197>



O‘QUVCHILARNING BIOLOGIYA FANIDAN KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO PISA DASTURINING AHAMIYATI

Oygul Odil qizi Rasulova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Genetika va evolutsion biologiya” kafedrasida o‘qituvchisi

Marg‘uba Aminjon qizi Amirova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti talabasi

Nilufar G‘ayrat qizi G‘oyipova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada PISA haqida umumiy tushuncha, PISA dasturining o‘quvchilar hayotidagi roli, mavzularga kreativ yondoshuv, vizual o‘quv materiallari haqida ma’lumotlar keltirilgan. O‘quvchilarning kreativ fikrlashiga ta’sir etuvchi omillar, o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda xalqaro PISA dasturining ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: PISA, kreativ fikrlash, tabiiy-ilmii savodxonlik, test, kompetensiya

ABSTRACT

This article provides an overview of PISA, the role of the PISA program in students lives, a creative approach to topics, and visual learning materials. Factors influencing students creative thinking and the role of the International PISA program in shaping students creative thinking skills were analyzed.

Keywords: PISA, creative thinking, science-literacy, test, competence

KIRISH

Kreativ fikrlash, asosan tanqidiy fikrlash va ijodkorlik bilan bog‘liq. Tanqidiy fikrlash aniq va muntazam ravishda fikrlashni, boshqa narsalar qatorida mantiqiy va ilmiy fikrlash qoidalariga rioya qilishni o‘z ichiga oladi. Ijodga kelsak, bu yangi va foydali g‘oyalarni taklif qilish, muqobil imkoniyatlarni yaratishdir [9].

Maktab o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda xalqaro PISA dasturining ahamiyati muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmonida O‘zbekiston Respublikasi 2030-yilga kelib

PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishishi ko'zda tutilgan [10].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

PISA (*inglizcha - Programme for International Student Assessment*) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini baholovchi dastur hisoblanadi. Bu dastur har 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Ushbu dastur dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. Bu dastur asosidagi baholash tizmi hozirgi kungacha jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018 yillar) tasodifiy tanlov asosida o'tkazilgan va 2009, 2012 yillardagi PISA natijalari o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha yutuqlari quyi pog'onada ekanligi ko'rsatilgan [5;6;7].

PISA da ilmiy savodxonlik o'quvchilar tomonidan savollar berish, yangi bilimlarni egallash, jarayonga kreativ yondashish, ilmiy hodisalarni dalillar asosida tushintirish hamda xulosalash asosida idindifikatsiya qilinadi va tavsiflanadi [4].

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bunda kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan eng muhim ko'nikmalardan biridir [2].

PISA butun dunyodagi 15 yoshli o'quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta'lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo'nalishining baholanishi o'quvchilarda dalillarga asoslangan xulosaga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishga olib keladi. PISA dasturidagi ushbu faoliyat iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan [8].

Nickerson kreativ fikrlashni bo'g'uvchi aynan maktab bilan bog'liq bir qator amaliyotlarni mavjudligini e'tirof etadi va ularga quyigalarni kiritadi:

1. vazifani bajarishning yagona to'g'ri usuli, savolga yagona to'g'ri javob bo'lishi kerak, degan g'oyaning mavjudligi;
2. nufuzli insonlarga bo'ysunish va ulardan qo'rqish kerak, degan munosabatni targ'ib etish;
3. har qanday holatda ham dars rejasiga amal qilish;
4. originallik o'ta noyob hislat ekanligiga ishonib qolish;



5. bilim alohida sohalarga bo‘linishi haqidagi ishonchni targ‘ib etish;
6. qiziquvchanlik va sinchkovlikni ma‘qullamaslik;
7. bilim olish va muammoni yechishning qiziqarli mashg‘ulot bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik [3].

Demak, pedagog ustozlar ham o‘quvchilarning kreativ fikrlashiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Buning uchun pedagoglar dars jarayonida yuqorida keltirilgan kreativ fikrlashni bo‘g‘uvchi omillardan vos kechishi lozim.

PISA tadqiqotida kreativ fikrlash yordamchi omillarining murakkab turkumi borasida ma‘lumot yig‘ish qiyin, lekin amalga oshirsa bo‘ladigan ishdir. PISA ikki qismdan iborat: test va so‘rovnoma. Test qismi o‘quvchilar g‘oya berish, uni tahlil etish va takomillashtirish asosida ma‘lumot beradi. So‘rovnoma ushbu ma‘lumotni o‘quvchi kreativ fikrlashining boshqa yordamchi omillari borasidagi ma‘lumot bilan, jumladan, ijodiy yondashuv (ochiqlik, maqsad sari ishtiyoq va ishonch), maktab muhiti haqidagi tasavvurlari, maktab va uning tashqarisida shug‘ullanadigan faoliyat kabi ma‘lumotlar bilan to‘ldiradi [8].

Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligini aniqlash PISA dasturini bitta bo‘limi bo‘lib, bunda hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasiga ega ekanligi o‘rganiladi. Bu bo‘limning asosiy maqsadi atrofimizdagi olamni tushinish, inson faoliyati natijasida unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish, shunga ko‘ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish hamda biologik hodisalarga kreativ yondashishdan iborat [1].

So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O'qish sqqvodxonligi kitoblardagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish jarayonida tushuntirish zaruriyati tug'alsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatni chalg'itmagan holda shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq oborotlari badiiy matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, hunki uarning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. Soʻzni konteks asosida tushuntirish. Bunda oʻquvchilar tushunmaydigan soʻz ularga tushunarli soʻzlar qoʻllangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. Soʻz maʼnosi lugʼatdan va oʻqish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda oʻquvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, soʻz maʼnosini mustaqil tushunib olishga oʻrgatish muhim ahamiyatga ega.

3. Soʻz maʼnosini shu soʻzning maʼnodoshi yordamida tushuntirish. Masalan, sabo-shabada, mudofaa-himoya, sozanda- musiqachi, diyor-vatan, inshoot-bino, samo-osmon kabi. Soʻzni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu soʻzning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham koʻrsatish zarur.

4. Tanish boʻlmagan soʻz bilan ifodalangan tushunchani tanish boʻlgan soʻz bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgoʻy soʻzini yolgʻonchi soʻziga taqqoslab tushuntirish mumkin. Koʻchma maʼnoda ishlatilgan soʻz va soʻz birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. Soʻzni oʻziga yaqin tushuncha bilan, yaʼni boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntirilgan soʻzning izohi qisqa va aniq boʻlishi kerak. Masalan, oʻzboshimchalik – oʻz xohishicha ish tutish, ishni oʻzi xohlaganicha bajarish; mutaxassis-biror hunar egasi; shunqor-uzoq uchadigan koʻzi oʻtkir qush; mesh-mol terisidan tikilgan idish; guldun-gul solib qoʻyiladigan idish va boshq.

Baʼzi soʻzlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn – bir vaqtning oʻzida donni oʻradigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xoʻjalik mashinasi; ekskavator- bir vaqtni oʻzida yerni qazib, tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aeradrom-samolyotlar turadigan, uchib keladigan yoki kelib qoʻnadigan joy va hok.

6. Soʻzni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan: suvsiz joyda oʻsadiga ninasimon, tikanli oʻsimlik; akula- okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq va boshq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi soʻzlarning maʼnosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun oʻquvchilar oʻrgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega boʻlgan asar qahramoning qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda soʻz maʼnosini tushuntirish ustida ishlash oʻquvchilar lugʼatini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi. Soʻz maʼnosini tushuntirganda soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari yuzasidan yondashilganda maqsadga muvofiq boʻladi deb oʻylaymiz.

Masalan:

Ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) talaffuzi yozilishi har xil bo'lgan bir umumiy tushuncha (ma'no) ifodalaydigan so'zlardir. Sinonimlar bir-biridan qo'shimcha ma'no qirradi, emotsional bo'yog'i, qo'llanishi jihatidan o'zaro farqlanadi. Katta, ulug', buyuk, zo'r, azim, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant sinonimik qatorini tashkil qilgan so'zlardan katta so'zi keng tushunchani anglatib, aniq tushunchaga nisbatan ham, mavhum tushunchaga nisbatan ham ishlatilaveradi. Ulug', buyuk, zo'r, azim, ulkan so'zlari hajmi ancha katta bo'lgan narsalarga, bahaybat, haybatli, so'zlari esa o'lchovi juda katta bo'lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Yirik kam ishlatiladi. Gigant kitobiy uslubga xos bo'lib, asosan joy qurilishga nisbatan qo'llanadi.

Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun badiiy so'zlar bilan ishlatish juda muhim. Kishi lug'atida sinonim so'zlar qancha ko'p bo'lsa, uning til ifodaliligi shuncha ortadi.

O'zbek tili- sinonimlarga boy til. "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" da katta so'zining 11 ta, marta so'zining 13 ta ma'nosi berilgan.

Boshlang'ich sinflarda sinonimlar haqida nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amliy mashq yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda 1-sinfdan boshlanadi: o'quvchilar berilgan so'zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga, 2-3-sinflarda esa berilgan so'zning ikki- uchta sinonimini topib aytishga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchining so'z boyligini oshirish maqsadida ma'nodosh so'zlarga oid quyidagicha mashqlar ishlatiladi:

1. Berilgan ma'nodosh so'zlarni guruhlash. Bunda bir so'z turkumiga oid ikki sinonimik qatordagi so'zlarichiga bir-ikkita boshqa so'z kiritib beriladi. O'quvchilar sinonimlarni ikki guruhga ajratib aytadilar. Buning uchun so'zlar quyidagicha berilishi mumkin: vatan, maqsad, diyor, niyat, mamlakat, murod, yurt.

2. Berilgan so'zga sinonim tanlash. O'qituvchi o'nganda osmon, sifatni o'nganda mazali, fe'lni o'nganda ko'nikmoq so'zlarini aytadi. O'quvchilar so'zlarga sinonim tanlaydilar: osmon-ko'k, samo, falak; mazali- lazzi, totli; ko'nikmoq- o'rganmoq, odatlanmoq, odat qilmoq.

3. Tushib qolgan sinonim so'zlarni o'z o'rniga qo'yib, matni ko'chirish. Bunda yozilishi kerak bo'lgan sinonim so'zlar ro'yxati tekshirish uchun beriladi. O'quvchilar sinonimlarni o'rniga qo'yib, ularni qo'llanishidagi farqni tushuntiradilar.

4. Ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish. Buning uchun sinonim so'zlar qavs ichida beriladi, o'quvchi gapning, mazmuniga mosini tanlab gapni ko'chiradi: Daryo suvini (bahor, ko'klam) toshirar, odam qadrini (mehnat, ish) oshirar. Oltin (o't, olov, alanga)da, odam (ish, mehnat)da bilinadi. Birlashgan (yov, dushman)ni qaytarar.

5. Sinonim soʻzlar qatoridan foydalanib didaktik material tuzish va u bilan mashq ishlash. Buning uchun toʻrtta sinonimik qatordagi soʻzlar tanlanadi va 16 katakka aralsh joylashtiriladi. Oʻqituvchi shu katakchalardagi bir soʻzni aytadi. Masalan, chiroyli. Oʻquvchilar shu soʻzga yaqin maʼnoli soʻz (sinonim)ni katakchalardan topib aytadilar: goʻzal, dilbar, sohibjamol, husndor.

Sinonim soʻzlar qatori bilan soʻz birikmasi tuzadilar: chiroyli shahar, goʻzal manzara, sohibjamol malika va hok.

Xuddi shu tariqa faoliyat jarayonida zid maʼnoli soʻzlar ustida ishlashda ham oʻquvchilarning soʻz boʻyligini oshirishga erishish mumkin.

Qarama –qarshi, zid maʼno bildiradigan soʻzlar zid maʼnoli soʻzlar (antonimlar) deyiladi. Antonimlar belgi bildiradigan soʻzlarda koʻp uchraydi. Antonimik munosabat soʻz bilan frazeologik birlik (ibora) orasida ham boʻladi. (yalqov-yuragida oʻti bor kabi).

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari antonimlar bilan amaliy tanishtiriladi. Antonimlar ustida ishlash matndan antonimni topishdan boshlanadi, keyin maxsus mashqlar ishlatiladi:

1. Berilgan soʻzlarga antonim tanlash. Ot soʻz turkumini oʻtganda : azob..., doʻstlik-..., oq-..., yoshlik-...; sifat oʻz turkumini oʻtganda: dangasa- ..., anqov-..., rostgoʻy- ..., dono-..., kasal-...; feʼlni oʻtganda: kasallandi- ..., yondi-..., boshladi-... kabi beriladi. Oʻquvchilar berilgan otga rohat, dushmanlik, qora, qarilik; sifatga mehnatkash, hushyor, yolgʻonchi, nodon, sogʻ; feʼlga sogʻ aydi, oʻchdi, tugatdi, antonimlarini tanlab, jufti bilan yozadilar.

2. Zid maʼnoli soʻzlarni qatnashtirib gaplar tuzish. Buning uchun oʻqituvchi antonym tanlab gap tuzish uchun soʻz beradi, oʻquvchilar berilgan soʻzga antonym tanlaydilar va ularni qatnashtirib gaplar tuzadilar.

3. Berilgan gapga antonim topib qoʻyish. Oʻqituvchi “Toʻgʻri odam ... soʻzdan or qilur. Yosh kelsa ishga, ...kelsa oshga. Yaxshi gap-moy, ... gap-loy. Gapni oz soʻzla, ishni ... koʻzla” kabi gaplar beradi, oʻquvchilar gap mazmuniga mos antonim topib, gapni oʻqiydilar (yoki yozadilar).

Oʻquvchilar lugʻatini maʼnodosh va zid maʼnoli soʻzlar bilan boyitish oʻz fikrini aniq, ravon va ifodali bayon etishga yordam beradi.

Koʻp maʼnoli va shakldosh soʻzlar ustida ishlash jarayoni va boshlangʻich sinf oʻquvchilariga ushbu soʻzlarni turli xil misollar bilan anglatish ham, oʻquvchi soʻz zahirasi boyib borishiga samarali natija koʻrsatadi. Oʻquvchilarga koʻp maʼnoli soʻzlar koʻp uchrab turadi, ammo ular koʻp maʼnoli soʻz ekanini tushunib yetmaydilar.

O'qituvchi badiiy asar ustida ishlash jarayonida o'quvchilarni ko'chma ma'nodagi so'zlar bilan tanishtirish orqali ayrim so'zlar ko'p ma'noda ishlatilishini tushuntirib boradi. Shu bilan birga, maxsus mashqlar ham ishlatiladi:

1. So'zlarning so'z birikmasidagi ma'nosini qiyoslash : soat yurdi, poezd yurdi, ukam yurdi; tosh yo'l, tosh yurak; kumush qoshiq, kumush osmon, kumush qish.

2. Gaplarni o'qib, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini aytish: Bu yil **yo**z issiq bo'ladi. Sen o'rtog'ingga xat **yo**z.

Boshlang'ich sinflarda ko'p ma'noli va shakldosh (omonim) so'zlar yuzasidan nazariy ma'lumot berilmaydi, bunday tushunchalarni shakllantirishga tayyorgarlik ko'riladi, xolos.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'quvchilar nutqini boyitishda maqollar katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar o'qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatik tahlil va yozuv uchun ham juda qulay materialdir. Ular ixcham, sarmazmun va ta'sirchan bo'ladi; maqollar o'quvchining badiiy didini o'stiradi, nutqqa e'tibor bilan qarashga, to'g'ri, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quv darsliklarida mavzuga bog'liq holda, o'zbek tili darsliklarida esa mashq matnlari ichida xilma-xil mavzularda juda ko'p maqollar berildi. O'quvchilar maqollarni o'qib, o'qilgan asarning axloqiy muammosi bilan, hayotiy sharoit bilan bog'laydilar, ularning majoziy mazmunini, ayrim so'z va iboralar bilan tushuntiradilar. Natijada o'rni bilan maqollardan foydalana boshlaydilar.

Maqollar o'qilgan asarning xulosasi sifatida ishlatilib, ko'pgina asarlarning mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Masalan, "Ovchi, Ko'kcha va Dono" (4-sinf) ertagining xulosasi sifatida "Bilrashgan o'zar, birlashmagan to'zar", "Do'slar ahil bo'lsa, ish oson bo'lur", "Ahillikda hikmat ko'p", "Birlashgan kuch yengilmas" maqollari; "Odobli bo'lish osonmi?" (A.Obidjon) asaridan so'ng

"Odob-kishining ziynati", "Odobli bola-elga manzur", "Ilmning kattasi-odob", "Aql yoshdan, odob boshdan" maqollari beriladiki, bular shu asar mazmunining mag'zini ochib beradi. O'quvchilar maqollarni yoqtiradilar, shuning uchun ham maqollar bilar berilgan topshiriqlarni jon-dildan bajaradilar. O'qituvchi shularni hisobga olib, maqollar bilan xilma-xil mashqlar ishlatish orqali o'quvchilarga so'zlarning majoziy ma'nosini, ko'p ma'no ifodalashini amaliy singdirib borishlari mumkin.

Maqollar yordamida o'rgangan bilim va tushunchalarni mustahkamlash maqsadida takrorlash mashqlarining berilishi ham maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Dastlab maqollar yordamida soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari oʻrgatib borilib, keyingi mashgʻulotlarda maqol tarkibidagi soʻzlardan bir-ikkitasini rasmlarda ifodalash va ushbu rasm orqali maqolni toʻliq shaklini toʻgʻri hosil qilishni ogʻzaki va yozma mashq qilinadi. Ishlash jarayoni oʻquvchi maqolning didaktik ahamiyatini eslash orqali, tafakkur qilishi oshadi va maqolda keltirilgan soʻzlarni endi yanada mustahkam oʻzlashtiradi. Endi maqolda hukm surayotgan chuqur maʼno-mohiyat hamda maqolda ishlatilayotgan soʻzlar orqali soʻzlarning shakli va maʼnosiga koʻra turlari mavzusi haqidagi bilimlari tobora mustahkamlanadi. Bu esa mavzuni oʻzlashtirishni, oʻquvchiga soʻz aytib, yoki soʻzlarni doskaga yozib farqlab tushuntirishdan koʻra osonlashtiradi hamda yaxshi, tez natija koʻrsatadi. Masalan:

1. Dehqon boʻlsang, roshida boʻl,
Choʻpon boʻlsang - qoshida.
2. Bugʻdoy eksang, kuzda ek,
Yaxshi haydab, boʻzga ek. (bugʻdoy hamda kuz fasli ifodali rasmlar bilan)
3. Dehqon boʻlsang, roshida boʻl,
Sipoh boʻlsang – boshida. (dehqon va sipoh rasmi bilan)
4. Joʻxori changda bitar,
Tariq – balchiqda. (joʻxori va tariq rasmi bilan)
5. Paxtaga soya ham kerak emas, hamsoya ham. (gʻoʻza va biror jismning faqat soyasini ifodalayotgan rasm bilan)
6. Sen yerni yer qilsang,
Yer seni sher qiladi. (yer va sher rasmlari bilan)
7. Toshsiz togʻ boʻlmas,
Koʻchatsiz bogʻ (tosh va koʻchat rasmlari bilan)
8. Urugʻ eksang namga ek,
Namga ekmasang, tomga ek. (urugʻ va tom rasmi bilan)
9. Chumchuqdan qoʻrqqan, tariq ekmas. (chumchuq va tariq rasmi bn)
10. Shaftolidan bogʻ qilma,
Echkidan – mol (shaftoli va echki rasmlari bilan)

XULOSA

Yuqorida maqollar dehqonchilikka oid maqollar boʻlib oʻquvchini aynan shu sohadagi dunyoqarashi va leksik boyligini oshirishga xizmat qiladi. Biz ushbu mashqni maqollarning qolgan mavzular bilan bogʻlab amalga oshirsak ham boʻladi. Masaalan: kasb-hunarga oid, hayvonlar haqidagi, mardlik va nomardlik, epchillik-chaqqonlik, yer haqida,



suv haqida, donolik va nodonlik, to‘kin-farovonlik, yetishmovchilik, ota-ona, farzand va (boshqa mavzular) haqidagi maqollar bilan ham amalga oshirish mumkin.

REFERENCES

1. Mirzaqulov T. Grammatika o‘qitishning lingvistik asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1994. – 56 b.
2. Ne‘matov H., G‘ulomov A., Ziyodova T. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1996. – 125 b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-tom. –T.: O‘zME, 2004. – 445-b.
4. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1985. – 65 bet.
5. www.Lex.uz
6. www.ziyonet.uz
7. www.bimm.uz



TOYLANGAN VA TOYLANMAGAN TOLALARNI TOZALASHDA TOZALANGAN TOLALI QATLAM TARKIBIDAGI NUQSONLARNI AMALIY TAJRIBALAR ASOSIDA TAHLIL QILISH

Farrux Faridovich Raxmatullinov

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti,

fara_tashkent13@mail.ru

Abdumalik Pirmatovich Pirmatov

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti,

Baxtiyar Aralbayevich Paluanov

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti doktoranti,

ANNOTATSIYA

Turli xil zichlikdagi (toylangan va toylanmagan) tolalarning tozalash jarayonida tola xossalari o'zgarishini tahlil qilish maqsadida "Paxta tolasini tozalash stendi" konstruksiyasi ishlab chiqildi. Tozalash stendi barabanining tezligi 1100 min^{-1} da tajribalar o'tkazildi. Tajriba rejasiga muvofiq amaliyotda kuchli zichlangan (toylangan) va zichligi kam (toylanmagan) tolalarning tozalash jarayonida tabiiy xossalari o'zgarishi o'rganildi. "Paxta tolasini tozalash stendi" da sinov tajribalar uchun, «Sulton» seleksiyasiga mansub 5-tip toylanmagan va toylangan paxta tolalaridan namunalari tayyorlandi. "Paxta tolasini tozalash stendi" da shakllantirilgan tolali qatlam "chigal tolalar" massasi va miqdorini aniqlash bo'yicha tajribalar nostandart metodika asosida amalga oshirildi. Har bir variant bo'yicha paxta tolasini tozalash stendida tozalangan namunalarda olingan tolali massa tarkibidagi murakkab nuqsonlar miqdori va og'irligi o'rganildi. Toyلانmagan tolalar kuchli zichlanmaganligi va ilashish kuchini kamligi hisobiga, toylangan tolalarga nisbatan, tolali massa tarkibidagi titilmagan tolalar tutamchasi massasi kichik bo'lishi amaliy tajribalar natijasida asoslandi.

Kalit so'zlar. Paxta tolasini, tola xossasi, titilmagan tolalar tutamchasi, Cleanomat tizimidagi CVT-1 tozalash mashinasi, raqamli tavsiflarni aniqlashning statistik usuli.

ABSTRACT

In order to analyze the changes in fiber properties during the cleaning process of fibers of different density, the "Cotton

fiber cleaning stand" construction was developed. Experiments were carried out at a cleaning stand drum speed of 1100 min⁻¹. In accordance with the experimental plan, changes in the natural properties of strongly dense and low-density fibers during the cleaning process were studied. Samples of unpressed and pressed cotton fibers of the 5th type belonging to the "Sultan" selection were prepared for test experiments at the "Cotton Fiber Cleaning Stand". Experiments to determine the mass and amount of "entangled fibers" of the fiber layer formed in the "Cotton fiber cleaning stand" were carried out based on non-standard methodology. According to each option, the amount and weight of complex defects in the fiber mass obtained in the samples cleaned at the cotton fiber cleaning stand were studied. Due to the fact that unpressed fibers are not strongly compacted and have a low frictional force, compared to pressed fibers, the mass of the bunch of unpressed fibers in the fiber mass is small, based on the results of practical experiments.

Keywords: Cotton fiber, fiber properties, tuft of untidy fibers, cleaning machine, statistical method for determining numerical characteristics.

KIRISH

Texnologik jarayonlarda paxta tolasiga ta'sir qiladigan zarbiy kuchlarni kamaytirib, sifatli tola, xomaki va tayyor mahsulot olish imkoniga ega texnologik tizimni paxta-to'qimachilik klasterlarida joriy qilish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega [1].

Paxtani dastlabki ishlash va ip yigirish jarayonlarida hozirda texnologik liniyalarda ishlatilayotgan mashinalarda yaqindan kuzatish ikmonining kamligi tufayli tola xususiyatlarining sezilarli o'zgarishini aniqlashning imkoni yo'q. Xususan, tolalar shikastlanish ehtimoli yuqori va chiqindilar tarkibiga yigirishga yaroqli tolalar qo'shib ketishi mumkin [2,3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ip yigirish jarayonlari ketma-ketligida tayyorlangan xomaki mahsulotlar va ip tarkibida chigal tolalar va nepslarning mavjudligi asosan paxtani dastlabki ishlash texnologiyasining salbiy oqibatlari sifatida ilmiy tadqiqotlar natijasida aniqlangan [4].

Shuningdek an'anaviy usulda, paxta tolasidan ip ishlab chiqarishda tolalarni yuqori darajada shikastlanishiga sabab bo'lgan titish jarayoni ham qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu texnologiyalardagi takroriy mexanik zarbalar tolalarni kuchli shikastlantirib, yigirilgan ipning sifat ko'rsatgichlari pasayishiga sabab bo'ladi [5,6].




Tadqiqot ishlarining tahlilidan ma'lum bo'ldiki, takomillashgan tola tozalash mashinalarida arra tishli garnaturalarning tishlar balandiligi qiyalik burchaklari, tishlar qadami kabi parametrlarning va tozalash barabani aylanishlar sonining oshishi natijasida tozalash jarayonida tola xossalariga ta'sirini aniqlashda amaliy tajribalar deyarli o'tkazilmagan [7].

Eksperimental qism. Toylangan va toylanmagan tola xossalariga titish garnaturalari ta'sirini tadqiq etish maqsadida paxta tolasini tozalash stendi «Industrial Technological Lines» MCHJ bazasida tayyorlandi. Paxta tolasini tozalash stendida tola xossalariga tozalash barabani tezlik ko'rsatkichlari va garnitura turlarini ta'sir darajasini o'rganish rejalashtirildi.

Tolani tozalash stendini tayyorlashda Cleanomat tizimidagi tozalash mashinalarining ishlash prinsiplari va konstruksiyasidan foydalanildi. Tolani tozalash stendining konstruktiv sxemasi 1-rasmda keltirildi.

1-rasmda ko'rsatilgandek paxta tolasini tozalash stendida: ta'minlovchi stolcha 1 da tolali qatlam ta'minlovchi silindrga uzatiladi va undan chiqayotgan tolali qatlam arra tishli barabanda 4 titib olinib nuqson ajratuvchi pichoq 3 ta'sirida iflosliklardan tozalanib, perfo sirt 5 ta'sirida tozalanadi, ajratuvchi pichoq 6 yordamida va tola so'ruvchi ventiliyator 7 yordamida, bunker 8 ga tozalangan tolalar yig'iladi.



1-rasm. Paxta tolasini tozalash stendining konstruktiv sxemasi

1-ta'minlovchi stolcha; 2- ta'minlovchi silindr; 3- nuqson ajratuvchi pichoq 4-arra tishli baraban; 5-perfo sirt; 6-ajratuvchi pichoq; 7-ventiliyator; 8- tola bunker.

Paxta tolasini tozalash stendining texnologik parametrlari ilg'or korxonalarda amalda ishlatilayotgan ko'rsatkichlar asosida shaylandi. Tolani tozalash stendida tozalash barabaniga Graf firmasining uch xil o'lchamdagi qattiq garnaturalaridan foydalanildi [8,9].

Tajriba rejasi bo'yicha tozalash stendida garnituraning bir dyuymdagi tishlar soni 8 dona o'lchamdagi va tozalash barabani tezligi 1100 min^{-1} da turli xil zichlikdagi (toylangan va toylanmagan) tolalarning tozalash jarayonida tola xossalari o'zgarishini tahlil qilish maqsadida TTESI "Yigirish texnologiyasi" kafedrasining o'quv laboratoriyasida tajribalar o'tkazildi.

Tajriba rejasiga muvofiq amaliyotda kuchli zichlangan (toylangan) va zichligi kam (toylanmagan) tolalarning tozalash jarayonida tabiiy xossalari o'zgarishi o'rganildi. "Paxta tolasini tozalash stendi" da sinov tajribalar uchun, «Sulton» seleksiyasiga mansub 5-tip toylanmagan va toylangan paxta tolalaridan namunalari tayyorlandi.

"Paxta tolasini tozalash stendi" da shakllantirilgan tolali taramdagi "chigal tolalar" massasi va miqdorini aniqlash bo'yicha tajribalar nostandart metodika asosida amalga oshirildi.

Odatda tarash mashinasining 1 gr tolali taramiga to'g'ri kelgan chigallangan tolalar miqdori aniqlanib, meyorlar bilan qiyoslanib jarayonga baho beriladi [10,11].

Paxta tolasini tozalash stendi uchun CVT-3 tozalash mashinasidagi kabi toylanmagan va toylangan tolalardan 15 gr li massada tolali qatlam namunalari tayyorlandi.

Har bir variant bo'yicha paxta tolasini tozalash stendida tozalangan namunalarda olingan tolali massa tarkibidagi murakkab nuqsonlar miqdori va og'irligi o'rganildi. Raqamli tavsiflarni aniqlashning statistik usullari yordamida sinovlar soni $n = 100$ ta da aniqlandi va olingan natijalar 1-jadvalga jamlandi [12].

1-jadval

Tajriba namunalari tarkibidagi titilmagan tolalar tutamchasi massasi

No	Massa, mg	No	Massa, mg	No	Massa, mg	No	Massa, mg	No	Massa, mg	No	Massa, mg	No	Massa, mg	No	Massa, mg
Toylanmagan tola namunasi								Toylangan tola namunasi							
1	0,5	26	2	51	4	76	7	1	7	26	12	51	16	76	20
2	0,5	27	2	52	4	77	7	2	7	27	12	52	17	77	20
3	0,5	28	2	53	4	78	7	3	7	28	10	53	17	78	20
4	0,5	29	2	54	4	79	7	4	7	29	12	54	18	79	21
5	0,5	30	2	55	5	80	7	5	7	30	12	55	18	80	22
6	0,5	31	2	56	5	81	7	6	7	31	12	56	18	81	22

7	0,8	32	2	57	5	82	7	7	8	32	12	57	19	82	23
8	0,8	33	2	58	5	83	7	8	8	33	12	58	19	83	23
9	0,8	34	2	59	5	84	7	9	8	34	12	59	19	84	23
10	0,8	35	2	60	5	85	7	10	8	35	12	60	19	85	23
11	0,8	36	3	61	5	86	7	11	8	36	12	61	19	86	23
12	0,8	37	3	62	5	87	7	12	8	37	13	62	19	87	24
13	0,8	38	3	63	5	88	8	13	8	38	14	63	20	88	24
14	1	39	3	64	5	89	8	14	8	39	14	64	20	89	24
15	1	40	3	65	5	90	8	15	9	40	14	65	20	90	24
16	1	41	3	66	6	91	9	16	9	41	14	66	20	91	24
17	1	42	3	67	6	92	9	17	9	42	14	67	20	92	25
18	1	43	3	68	6	93	9	18	9	43	14	68	20	93	26
19	1	44	3	69	6	94	9	19	9	44	14	69	20	94	26
20	1	45	3	70	6	95	9	20	9	45	15	70	20	95	26
21	1	46	4	71	6	96	9	21	9	46	15	71	20	96	26
22	1	47	4	72	7	97	10	22	9	47	15	72	20	97	26
23	1	48	4	73	7	98	10	23	9	48	15	73	20	98	26
24	1	49	4	74	7	99	10	24	12	49	15	74	20	99	26
25	1	50	4	75	7	100	10	25	12	50	16	75	20	100	26

1-jadvalda keltirilgan, tajriba namunalari tarkibidagi chigallangan tolalar massa qiymatlarining katta va kichik qiymati va klasslar orasidagi masofa aniqlandi.

1. Katta va kichik miqdorlar orasidagi faqlarni aniqlash:

Toylanmagan tola namunasi:

$$R = X_{\max} - X_{\min} = 10\text{mg} - 0,5\text{mg} = 9,5\text{mg}$$

Toylangan tola namunasi:

$$R = X_{\max} - X_{\min} = 26\text{mg} - 7,0\text{mg} = 19\text{mg}$$

2. Klasslar orasidagi masofani hisoblash:

Toylanmagan tola namunasi:

$$\Delta X = \frac{R}{K} = \frac{9,5}{8} \approx 1,2\text{ mg}$$

Toylangan tola namunasi:

$$\Delta X = \frac{R}{K} = \frac{19}{8} \approx 2,3\text{ mg}$$

bu yerda, K- klasslar soni tajribalar miqdoridan kelib chiqib 8 qabul qilindi [103; 392-b.].

3. Klasslarning o'rtacha qiymati $\bar{X} = X_{\min} + \Delta X$ formula yordamida aniqlandi.


m_i - klasslarning o'rtacha qiymatiga to'g'ri keladigan tajribalar

soni. Olingan natijalar 2-jadvalga jamlandi va 2-rasmda gistogrammada keltirildi.


2-jadval

Olingan natijalarning statistik tavsiflanishi

Toylanmagan tola			Toylangan tola		
Klasslar	Klasslarning o'rtacha qiymati, \bar{X}_i	m_i	Klasslar	Klasslarning o'rtacha qiymati, \bar{X}_i	m_i
1	0,5	6	1	7,0	6
2	1,7	19	2	9,3	8
3	2,9	20	3	11,6	13
4	4,1	9	4	13,9	22
5	5,3	11	5	16,2	7
6	6,5	22	6	18,5	22
7	7,7	3	7	20,8	8
8	8,9	6	8	23,1	5
9	10,0	4	9	26,0	9
Jami		100			100



toylanmagan tola



toylangan tola

2-rasm. Tajriba namunalaridagi tola tarkibidagi titilmagan tolalar tutamchasi massasi

NATIJAR VA MUHOKAMA

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ikkala variant namunasi tarkibidan ajratilgan 100 ta titilmagan tolalar tutamchasi massasi statistik tahlil qilib o'rganildi. Toyilmagan tolada: 38% ni 0,5 mg-3,0 mg gacha bo'lgan; 42 % ni 4,0 mg – 7,0 mg gacha bo'lgan; 20% ni 8,0 mg-10,0 mg gacha bo'lgan titilmagan tolalar tutamchasi borligi aniqlandi. Toylangan tolada: 44% ni 7,0 mg-14,0 mg gacha bo'lgan; 37% ni 15,0 mg – 22,0 mg gacha bo'lgan; 19 % ni 23,0 mg-26,0 mg gacha bo'lgan titilmagan tolalar tutamchasi borligi aniqlandi.

Toylanmagan tolalar namunasi tarkibidagi titilmagan tolalar tutamchasi massa jihatdan, toylangan tolali namunaga nisbatan kam ekanligi kuzatildi. Toyلانmagan tolalar kuchli zichlanmaganligi va ilashish kuchini kamligi hisobiga, toylangan tolalarga nisbatan, tolali massa tarkibidagi titilmagan tolalar tutamchasi massasi kichik bo‘lishi tadqiqotlar natijasida isbotlandi.

XULOSA

Tolalarni tozalashdagi titilmagan tolalar tutamchasi toylanmagan tolalarda toylangan tolalarga nisbatan massasi jihatdan kichik bo‘lishi, tarash jarayonida alohida tolalarga oson ajralishi va taralgan pilta tarkibidagi nuqsonlarning kamayishiga erishiladi.

REFERENCES

1. A.P. Pirmatov, B.A. Paluanov. Ip ishlab chiqarishda xomashyodan samarali foydalanish imkoniyatlari. Fan, ta’lim, ishlab chiqarish integratsiyalashuvi sharoitida paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, matbaa ishlab chiqarish innovatsion texnologiyalari dolzarb muammolari va ularning yechimi” mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent-2021-21-aprel.
2. Paluanov Bakhtiyar Aralbaevich, Pirmatov Abdumalik, Rakhmatullinov Farrukh Faridovich, Musirov Shuxrat Zivaddinovich. CHANGES OF COTTON FIBER PROPERTIES IN THE GINNING AND AUTOMATIC BALE OPENER. ECB. 2022; 11(1): 4-7. [doi:10.31838/ecb/2022.11.01.002](https://doi.org/10.31838/ecb/2022.11.01.002)
3. Paluanov B., Pirmatov A., Muxtarov J., Kojametov B. Investigation of mechanical damage of cotton fiber in the process of pressing and baling. Universum: texniceskiye nauki № 3 (96) 2022.19-23ст. DOI: 10.32743/UniTech.2022.96.3.13229.
4. Paluanov B, Pirmatov A. Efficient organization of harvesting and processing of cotton seeds. Universum: texniceskiye nauki № 3 (84) 2021g.
5. Muxtarov J.R. Yigirilgan paxta ipi sifatiga tolalar holatining ta’sirini aniqlash usulini takomillashtirish. Diss. Toshkent – 2018.
6. Paluanov, B. A., & Pirmatov, A. P. (2021). Organization of compact spinning technology in textile clusters. Karakalpak Scientific Journal, 4(1), 17-22.
7. Самойлова Татьяна Алексеевна. Разработка методов исследования процессов разьединения, разрыхления и очистки волокнистого сырья с использованием имитационных моделей [Текст]: Дис. ... канд. техн. наук: [Место защиты: Моск. гос. текст. ун-т им. А. Н. Косыгина]. – М., 2017.Ст.11



8. Электрон манба: www.graf-companies.com
9. Trutzschler Cleanomat CVT3/CNT3. Инструкция по эксплуатации. Е Одель “EKD” (Отдел технической документации). Третий выпуск. Сентябрь 1998г. Ст. 1.3.1-1.3.2.
10. Уахиди Абделлах. Повышение эффективности процесса чесания на шляпочной чесальной машине. Автореферат, к.т.н. Санкт-Петербург-2000г. Ст.12-13.
11. А.Г.Севостьянов. Методы и средства исследования механико-технологических процессов текстильной промышленности. Учебник. - М.: МГТУ - 2007. Ст-294-648.
12. Amzayev L.A., Jumaniyozov Q.J., Matismoilov S.L. Tadqiqot uslub va vositalari. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent:2014. 49-54-b.



RAISING CULTURAL AWARENESS IN EFL CLASSROOMS

Nilufar Kurbanova

EFL teacher, Chirchik State Pedagogical University

Email: miss_alisa85@inbox.ru

kurbanova.nilufar@cspi.uz

ABSTRACT

Culture is significant in foreign language teaching and learning studies, regardless of viewpoint. It is well known that culture is expressed through language. While "pure information" is useful, cultural awareness leads to critical thinking. Most often, students grasp the language norms but can't utilise it properly because they don't know the target culture. This article aims to help foreign language teachers and students connect with the target language and culture.

Keywords: culture; teaching culture; foreign language; cultural awareness; culture-based activities, approaches.

INTRODUCTION

We all know that understanding a language requires knowledge of grammar, phonology, lexis, and cultural traits. International communication requires intercultural communication, which may expose us to cultural differences. Every language has distinctions in silence, tone, topic, and speech act functions (e.g., apologies, suggestions, complaints, refusals, etc.). Given the aforementioned, language and culture are intertwined. Language and culture are intertwined and cannot be separated without losing meaning (Brown 1994:164). Smith (1985:2) adds that a fluent and beautiful argument in one culture may sound awkward and circular in another. Language is a social and cultural phenomena since its usage is linked to social and cultural values. Every culture has its own conversational conventions, which can conflict with those of other cultures. Thus, speakers unfamiliar with foreign cultures may have trouble communicating. To tackle communication challenges in the target language in EFL courses, learners must understand the target culture within the syllabus, and teachers must be attentive to their fragility to avoid demotivating them.

What's culture? Cultural definitions vary. Anthropologists describe culture as how people live (Chastain 1988:302). Trinovitch (1980:550) defines culture as "...an all-inclusive system which incorporates the biological and technical behaviour of human beings with their

verbal and non-verbal systems of expressive behaviour starting from birth," which is acquired as the native culture. "Sociolization" prepares the individual for the society's language and non-linguistic norms. According to Brown (1994:170), culture is profoundly ingrained in our being, but language—the means of communication among members of a culture—is its most visible and accessible representation. Thus, changing cultures can alter a person's worldview, self-identity, and ways of thinking, acting, feeling, and communicating. Tang (1999) believes culture and language are one. He suggests that one must think in a language to speak it well, and thought is powerful. Language defines a nation and its people. Language and culture are intrinsically intertwined, thus we can consider shifting from debates about include or excluding culture in foreign language curricula to ones concerning deliberate immersion vs non-deliberate exposure. Culture is a lifestyle (Brown, 1994:163). It shapes our thoughts, feelings, and relationships. A group's "glue" is it. It governs communal behaviour and is instilled in families. It controls our group behaviour, makes us sensitive to status, and helps us understand what others expect of us and what will happen if we don't meet their expectations. Thus, culture helps us understand our own limits and community obligations. Why culture? Cultural orientation may be overlooked by certain teachers. Grammar is used in spoken and written communication. Learning about the target culture is sometimes seen as a threat to native values, and linguistically relevant material is ignored. Since having close contact with the target culture and its speakers is rare for all language learners in our country, learners cannot appreciate the importance of learning the cultural aspects of communication until they visit a foreign country and experience the difficulties. TV serials may teach non-verbal features of target culture, which may be inaccurate or unhelpful for communication. It should be remembered that if the learner's survival abroad depended on learning cultural aspects, the problem could be minimised. However, if the learner or professional has trouble understanding, interpreting, translating, or producing written and oral texts, the problem becomes even more serious. Thus, analysing the original culture is as crucial as knowing the target culture. Conversely, cross-cultural awareness issues are 3 nonverbal communication. The communicatively competent learner's performance depends equally on paralinguistics and proper behaviour. It is overlooked that culture-bound hand-signals, postures, mimics, and other behaviours can also cause misinterpretation. Teaching culture through language in EFL classrooms is automatic. Our students' dialogues or models' styles of address, greetings, formulas, and other utterances and the reading's allusions to culture constitute cultural knowledge. Speaker

gestures, body motions, and distances should promote cultural understanding. When they read foreign literature and discover another way to communicate thoughts, wants, and needs, students' intellectual curiosity is satiated. Knowledge how such patterns interact and their role in the cultural system is essential for cultural knowledge. If language learners want to connect with people from other cultures, they must not only understand how culture affects others' behaviour but also recognise how their own culture shapes their thoughts, actions, and language. Cross-cultural communication requires target culture instruction. An organised inventory of linguistic and extralinguistic aspects of the target culture can help attain this goal. Thus, language could connect cognitive systems (Seelye, 1968). Community culture encompasses all facets of existence. Language learners must acquire culture-specific meanings and functions to master a language. Language is essential to culture if culture is "patterned behaviour" and language is a way of human behaviour. As said before, each culture has a distinct pattern and the behaviour of an individual, linguistic or otherwise, displayed through that is unique. Thus, learning a foreign language will change the learner's behaviour and introduce new values and lifestyles (Lado:1963:110). Language and culture are linked. Language and culture are interconnected, as the form and content of a language reflect its speakers' beliefs, values, and needs. It is also known that pupils who need to gain cultural understanding and sensitivity are usually the least inclined to do so. Teachers should educate pupils about cultural differences, not criticise them. To understand and speak a foreign language like a native, students must master many new categorizations and codifications. The students' native tongue could have made such distinctions for them. All related languages

4 examined seem capable of expressing and distinguishing various kinds of ideas (Rivers, 1982). Foreign language classrooms should emphasise these disparities. Thus, the reasons for familiarising learners with cultural components should be to develop communicative skills, understand the linguistic and behavioural patterns of both the target and the native culture at a more conscious level, develop intercultural and international understanding, adopt a wider perspective in the perception of reality, make teaching sessions more enjoyable, and develop an awareness of cultural differences. Some Key Considerations in Developing Cultural Awareness in EFL Classrooms As mentioned, both learners and teachers of a second language need to understand cultural differences, to recognise openly that everyone in the world is not "just like me," that people are not all the same beneath the skin. Cultural distinctions exist (Brown, 1994:167). Thus, language teachers unintentionally portray



foreign cultures (Rivers, 1981;315). Language and culture are inseparable. Listening to native speakers, reading original texts, or looking at photos of native speakers in nature will bring culture into the classroom. In creating cultural awareness in the EFL classroom, remember that the native language is learnt along with the social group's practises and attitudes, which are expressed through the social group. Understanding a foreign culture should help students of another language use words and expressions more skillfully and authentically; understand levels of language and situationally appropriate; act naturally with people of the other culture while recognising and accepting their different reactions; and help speakers of other tongues feel at home in the students' culture. Most learners gain from cross-cultural living, while some face psychological obstacles and other barriers. Students can gain cultural and self-awareness with guidance from teachers. Language learners may feel alienated from their home culture, the target culture, and themselves. We must use culturally appropriate methods to teach foreign languages to fragile students. Role-play in EFL courses helps students overcome cultural "fatigue" and facilitates cross-cultural discussions and oral communication. Readings, films, simulations, games, culture assimilation, and others

Language teachers might employ 5 capsules and culturgrams for classroom acculturation (Chastain:1988). Teachers can also support students through acculturation by providing therapy. If sensitive and perceptive teachers help learners through the second and third stages of culture learning, they may have a better chance of succeeding in both second language and second culture learning. While teaching culture through language, Seelye (cf. Rivers, 1982: 323-4), suggests that students should be able to demonstrate that they have acquired certain understandings, abilities, and attitudes:

- 3/4 That they understand that people act the way they do because they are using options the society allows for satisfying basic physical and psychological needs.
- That they grasp that social characteristics like age, sex, socioeconomic class, and place of residence affect how people speak and behave.
- That they can demonstrate how people normally act in the target culture's most typical everyday and crisis situations.
- 3 That they are aware that culturally conditioned images are associated with even the most common target words and phrases;
- 3 That they can evaluate the relative strength of a generality about the target culture based on the amount of evidence supporting the statement; and
- 3 That they can locate and organise material about the target culture from the library, mass media, and other sources.

If we want learners to grasp a language, we must assist them become communicatively proficient in it. Successful speaking requires knowing when and how to utilise

correct grammar and vocabulary. Grammatical, discourse, and sociolinguistic competence comprise communicative competence. In other words, all three components are needed if the language course's goal is communicative competence. Sociolinguistic laws of speech depend on social, pragmatic, and cultural factors. Thus, how we express an apology or request in any language may vary on the speaker or hearer's social rank, age, sex, or other social factors. Additionally, pragmatic situational factors may need a speaking act in one culture but not in another. Before studying culture, students must be open to learning about various cultures. Before teaching-learning activities, teachers must often break down cultural obstacles to attain culture goals. Emphasising commonalities between people is one method to start teaching culture positively. After that, discuss contrasts between family members, families, schools, and students.

6 civilizations. Additionally, target language themes should be given in circumstances similar to native ones. Thus, when teaching a culture-specific topic, first language equivalents can boost learning. Culture-based activities assist students understand the target culture. The materials should incorporate target language culture at every level. A cultural series usually begins in elementary school with discussions of the peer group in the other language community's families, living conditions, school, friends, leisure time, festivals, ceremonies, dating, and marriage customs. At intermediate and advanced levels, students may study geographical factors and how they affect daily life, major historical periods, how society is organised, production, transport, buying and selling, city and country life, art, music, dance, and film history, and more. The following topics can be included in the course syllabus: climate, clothing, crime, eating, education, family life, geography, history, holidays, humour, language, leisure activities, meeting people, money, pets, population, religion, social occasions, sports, transportation, vacations, and nonverbal communication. The goal is to raise students' awareness. The parallels are not meant to devalue any of the cultures being studied, but to enrich students' experience and show them that while some culture features are globalised, there is still variation among cultures. Understand and never underestimate its diversity.

CONCLUSION

To develop cultural awareness in the classroom, we must help students distinguish between the cultural norms, beliefs, and habits of the speech community's majority and individual or group deviations from these norms. Students should be able to share their native culture with foreign-speaking acquaintances while receiving real-world content. Use



their foreign language skills. Present, discuss, or allude to in two parallel streams. As indicated above, language instruction is a long process with no guarantees, thus we cannot expect all learners to behave like natives. We want pupils to recognise sociocultural and sociolinguistic contrasts between their first language and the target language. This insight helps teachers and students understand why pragmatic failure and breakdown can occur.

7 communication. Knowing may help us identify a solution. Smith (1985:6) believes studying English does not change one's identity. Students should maintain their ethnic, religious, and political identities. Students want to use English well and be recognised, but they don't have to change who they are. English can be learned without becoming American or British. Morality and familial loyalty need not change.

REFERENCES

1. BROWN, H.D. 1994. " Principles of Language Learning and Teaching". The USA: Prentice Hall Regents.
2. BUYUKKANTARCIOLU, N. 2000. The Role of Cross-Cultural Understanding in Foreign Language Teaching. In 2000 Dil Bilimi ve Dil Ogretimi Dergisi, Kazim Karabekir Egitim Fakultesi, Ataturk Universitesi, Erzurum.
3. CHASTAIN, K.1988. Developing Second-Language Skills, the USA: HBJ publishers
4. CYRISTAL, D. 1992. "An Encyclopedic Dictionary of Language and Languages" USA: Blackwell. 1992 . "A Dictionary of Linguistics and Phonetics"USA: Blackwell
5. CELCE-MURCIA. M. (edit.). 1991. "Teaching English as a Second or Foreign Language" Boston: Heinle and Heinle Publishers.
6. HYMES, D. 1974. Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach, Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
7. JIMANEZ, I. 1996. "Proxemics in the EFL Classroom."In Forum vol. 35.
8. LADO, R. 1963. Linguistics Across Cultures. The University of Michigan Press.
9. N.M.Kurbanova " The need to increase EFL learners' cultural awareness" Volume-11| Issue-4| 2023 Published: |22-04-2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7879114>
10. PAYATOS, F.,1983.New Perspectives in Nonverbal Communication. Pergamon Press. England.
11. RICHARDS, J, et al. 1992 "Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics"UK: LongmanRIVERS, W.M. 1981. "Teaching-Foreign Language Skills", The University of Chicago Press: Chicago.



12. SEELYE, H.H. 1968. Analysis and Teaching of the Cross-Cultural Context. In Birkmair, E.M.(ed). The Britanica Review of Foreign Language Education. Vol.1.Chicago, pp37-81.
13. SMITH, E. L. 1985. "What is the Difference and What Difference Does the Difference Make" In Forum vol.22.
14. TAVARES, R. and Cavalcanti, I. 1996. "Developing Cultural Awareness in EFL Classrooms"\n Forum, vol.34.
15. TANG, Romana.1999. The Place of "Culture" in the Foreign Language Classroom: A Reflection. The Internet TESL Journal, Vol. V, No. 8, August 1999. <http://itesli.org/Articles/Tang-Culture.html>. (05.03.2006).
16. TRIVONOVITCH, G.J. 1980. Culture Learning and Culture Teaching. In Croft, K. Readings of English as a Second Language. Cambridge.
17. Kurbanova, N. (2023). THE NEED TO INCREASE EFL LEARNERS' CULTURAL AWARENESS AT CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1904-1913.

DASTURNING SIKLIK BO'LIMLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Sh. I. Xodiyev, O. B. Farmonov

O'zbekiston Milliy universiteti

ANNOTATSIYA

Transformatsiyalar orqali optimallashtirish algoritmlari va ularni amalga oshirish usullari sohasidagi ma'lum ishlanmalar ko'rib chiqildi. Sikl bo'limlarini transformatsiya yo'li bilan optimallashtirish uchun bazi algoritmlardan foydalanib Python dasturlash tilida skilni optimallashtirish dasturi tuzildi. Skilni optimallashtirishda Python dasturlash tilining kerakli kutubxonalaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Transformatsiya, optimallashtirish, Python, protsessor arxitekturasi, kod/shakl.

KIRISH

Zamonaviy kompyuterlarning ortib borayotgan quvvati nafaqat dasturning tezroq bajarilishiga, balki yangi imkoniyatlarga ham olib keladi. Bundan tashqari, protsessor arxitekturasidagi o'zgarishlar avtomatik optimallashtirishning yangi usullarini yaratish va mavjud usullarni qayta ishlashni talab qiladi. Optimallashtirishni transformatsiya metodlari bilan amalga oshirsa bo'ladi. Transformatsiyalar - bu dasturning funkcionalligini (biror ish bajara olishligini) o'zgartirmasdan uning yo'lini (ishlash usulini) o'zgartiradigan operatsiyalar (amallar). Ular dasturlarning ishlashini yaxshilash uchun dasturiy ta'minotni optimallashtirishda keng qo'llaniladi. Transformatsiyalar manba kodi (source code - dasturchilar tomonidan yozilgan ya'ni inson o'qiy oladigan kod), oraliq shakllar (intermediate presentations) (mashina o'qiy oladigan kod/shakl) va mashina kodi (ikkilik kod, komputerning protsessori orqali amalga oshiriladigan) kabi turli xil dastur shakllarida qo'llanilishi mumkin. Transformatsiya yo'li bilan optimallashtirishdan maqsad dasturlarning to'g'riligini saqlab, ularning ishlashini yaxshilashdir.

Transformatsiya yo'li bilan optimallashtirish computer science (kompyuter fanlari) va software engineering (dasturiy ta'minot muhandisligi) ning muhim bosqichiga aylandi. Ushbu maqolada transformatsiyalarni optimallashtirish algoritmlari ko'rib chiqildi. Asosan sikl optimallashtirishga doir turli xil transformatsiyalarni va ularning qo'llanilishi tasvirlab berildi.

Maqoladi sikl bo'limlarini transformatsiya yo'li bilan optimallashtirish uchun bazi algoritmlardan foydalanib Python dasturlash tilida skilni optimallashtirish ko'rib chiqildi. Skilni



optimallashtirishda Python dasturlash tilining **AST (Abstract Syntax Tree)**, **ASTOR**, **NumPy**, **Numba**, **Cython**, **Intel MKL** kutubxonalaridan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Python-da **AST (Abstract Syntax Tree)** va **ASTOR** ikkita bog'liq kutubxona bo'lib, ular Python manba kodini boshqarish va o'zgartirish uchun ishlatiladi. **AST** o'rnatilgan Python moduli bo'lib, u Python dasturining strukturasi tugunlar daraxti sifatida ko'rsatish yo'lini ta'minlaydi, bu erda har bir tugun funktsiya chaqiruvi, o'zgaruvchilarni tayinlash yoki sikl kabi dasturning bir qismini ifodalaydi. Ushbu daraxtni dasturiy jihatdan tahlil qilish yoki o'zgartirish osonroq bo'lishi mumkin bo'lgan manba kodining soddalashtirilgan versiyasi sifatida qarash mumkin.

ASTOR tashqi Python kutubxonasi bo'lib, **AST** moduliga asoslanadi va **AST**dan Python kodini yaratish, mavjud **AST**ni o'zgartirish yoki **AST**ni turli yo'llar bilan tahlil qilish uchun yordamchi dasturlar to'plamini taqdim etadi. **ASTOR** avtomatik tarzda qayta ishlash, optimallashtirish yoki yangi kodni yaratish kabi kod o'zgarishlarini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin.

AST ham, **ASTOR** ham statik tahlil, kod ishlab chiqarish va refaktoringni amalga oshiradigan vositalarda keng qo'llaniladi. Ular, ayniqsa, **IDE**, **linters**, kod formatlovchilari va kod generatorlari kabi manba kodini manipulyatsiya qilish talab qilinadigan ishlab chiqish muhitlarida foydalidir.

Siklni optimallashtiruvchi algoritmlar yani **Loop Unrolling**, **Loop Fusion**, **Loop Distribution**, **Loop Alignment**, **Loop Interchange** algoritmlar qo'llanildi va sikl qatnashgan kodni Python dasturlash tili yordamida optimallashtirilgan ko'rinishga keldirildi. Bundan tashqari yuqoridagi algoritmlarni qanday ishlatish haqida ham malumotlar va dasturlar keltirildi. **AST** va **ASTOR** kutubxonalari Python kodining mavhum sintaksis daraxti (**AST**) bilan ishlash orqali sikllarni optimallashtirish uchun mustahkam asos yaratadi. Ular sizga kodni **AST**ga tahlil qilish, **AST** tugunlarini kesib o'tish va o'zgartirish va o'zgartirilgan **AST** dan kod yaratish imkonini beradi. Ko'pgina hollarda, **AST** va **ASTOR** sikl optimallashtirishni amalga oshirish uchun etarli. Biroq, siz qo'llamoqchi bo'lgan optimallashtirish usullarining murakkabligiga yoki kodingizning o'ziga xos talablariga qarab, siz qo'shimcha kutubxonalar yoki vositalardan foydalanishingiz mumkin. Quyida shunday kutubxonalar keltirilgan.

NumPy. Agar sizning kodingiz raqamli hisoblashlar va massiv operatsiyalarini o'z ichiga olsa, **NumPy**-dan foydalanish unumdorlikni sezilarli darajada oshirishga olib kelishi mumkin. **NumPy** samarali massiv operatsiyalari, translyatsiya va vektorlashtirilgan hisoblashlarni ta'minlaydi, bu ko'pincha aniq sikllarni almashtirishi mumkin.

Numba. Numba raqamli hisoblashlarni optimallashtirishga ixtisoslashgan Python uchun o'z vaqtida(just-in-time) (JIT) kompilyatoridir. Bu '@jit' bilan funksiyalarni avtomatik ravishda yuqori samarali mashina kodiga kompilyatsiya qilish imkonini beradi. Numba sikllarni optimallashtirishi va raqamli hisoblarni tezlashtirishi mumkin.

Cython. Cython - bu Pythonni C ga o'xshash statik yozish bilan kengaytiradigan dasturlash tili. Bu sizga Pythonga o'xshash sintaksisda kod yozish imkonini beradi va uni C yoki C++ kengaytmalariga kompilyatsiya qilish imkoniyatini beradi. Cython yuqori darajada optimallashtirilgan mahalliy kodni yaratish orqali sikllarni optimallashtirishi va ish faoliyatini yaxshilashi mumkin.

Intel MKL. Intel Math Kernel Library (MKL) ilmiy hisoblash uchun yuqori darajada optimallashtirilgan matematik funktsiyalar to'plamidir. U turli xil matematik operatsiyalarni, jumladan, matritsa operatsiyalarini, Tez Furye Transformatsiyalarini va boshqalarni optimallashtirilgan amalga oshirishni ta'minlaydi. MKL dan foydalanish ma'lum raqamli hisob-kitoblarda unumdorlikni oshirishi mumkin.

Bular sikl optimallashtirish uchun AST va ASTORni to'ldirishi mumkin bo'lgan kutubxonalar va vositalarning bir nechta misollari. Qo'shimcha kutubxonalar yoki vositalarni tanlash kodingizning o'ziga xos talablariga va qo'llamoqchi bo'lgan optimallashtirish usullariga bog'liq. Kodingizni tahlil qilish, ishlashdagi qiyinchiliklarni aniqlash va shunga mos ravishda tegishli vositalarni tanlash muhimdir. [7]

Transformatsiya turlari. Dasturiy ta'minotni optimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan har xil turdagi transformatsiyalar mavjud. Eng ko'p ishlatiladigan transformatsiyalardan ba'zilari:

Loop Transformations (Sikl transformatsiyasi). Loop(Sikl) transformatsiyalari dasturlarda sikllarni optimallashtirish uchun ishlatiladi. Loop transformatsiyalari uchun ko'plab algoritmlar mavjud.

1. **Loop(Sikl)ni ochish** (loop unrolling). Kerakli takrorlashlar sonini kamaytirish uchun halqa tanasini takrorlaydi va shu bilan halqani boshqarish yukini kamaytiradi.

Loop optimization uchun 1-metod **loop unrolling**.

```
def loop_unrolling_optimization(loop_body, unroll_factor):  
    unrolled_loop_body = [ ]  
    for i in range(0, len(loop_body), unroll_factor):  
        unrolled_loop_body.extend(loop_body[i:i+unroll_factor])  
    return unrolled_loop_body
```

Kod ikkita parametrni qabul qiluvchi “loop_unrolling_optimization” funksiyasini belgilaydi: “loop_body” va “unroll_factor”. Ushbu funktsiyaning maqsadi ma'lum bir sikl tanasida siklni ochishni optimallashtirishni amalga oshirishdir.

Funktsiya ichida “unrolled_loop_body” deb nomlangan bo'sh ro'yxat yaratiladi. Keyin, “unroll_factor” qadam o'lchami bilan “loop_body” indekslarini takrorlash uchun for sikli ishlatiladi. Bu shuni anglatadiki, sikl bir vaqtning o'zida “unroll_factor” elementlarini qayta ishlaydi. Loopning har bir iteratsiyasida kod “loop_body” bo'lagini “unrolled_loop_body” ro'yxatiga qo'shadi. Bo'lim joriy indeksdan i dan “ $i + \text{unroll_factor}$ ” ga olinadi, “unroll_factor” elementlarini “loop_body” dan samarali ajratib oladi.

Nihoyat, funktsiya optimallashtirish qo'llanilgandan so'ng sikl tanasini o'z ichiga olgan “unrolled_loop_body” ro'yxatini qaytaradi.

Loop transformatsiyalari qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish va xotiraga kirish usullarini yaxshilash orqali dasturlarning ishlashini yaxshilashi mumkin. [1]

2. Loop Fusion (Skilni birlashtirish). Keshdan(Komputer xotirasida saqlanib qolgan narsalar) foydalanishni yaxshilash va qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish uchun o'xshash operatsiyalarni bajaradigan bir nechta sikllarni bitta siklga birlashtiradi. Kod ikkita parametrni qabul qiluvchi “loop_fusion_optimization” funksiyasini belgilaydi: “loop1_body” va “loop2_body”. Ushbu funktsiyaning maqsadi ikkita berilgan sikl tanasida sikl sintezini optimallashtirishni amalga oshirishdir. Funktsiya ichida + operatori yordamida “loop1_body” va “loop2_body” ni birlashtirish orqali “fused_loop_body” deb nomlangan yangi ro'yxat yaratiladi. Bu operatsiya ikkala halqa tanasining elementlarini bitta ro'yxatda birlashtiradi.

Va nihoyat, funktsiya optimallashtirish qo'llanilgandan so'ng birlashtirilgan sikl tanasini ifodalovchi “fused_loop_body” ni qaytaradi. [6]

3. Loop distribution.

```
def loop_distribution_optimization(loop_body, distribution_factor):
    distributed_loop_body = []
    for statement in loop_body:
        distributed_loop_body.extend([statement] * distribution_factor)
    return distributed_loop_body
```

Bu funktsiya sikl statementlar ro'yxatini (loop_body) va distribution_faktor ni oladi. Loop_body har bir bayonotni ko'rsatilgan distribution_faktor ga ko'ra takrorlash orqali yangi ro'yxatni (distributed_loop_body) yaratadi. Natijada paydo bo'lgan ro'yxatda distribution_faktor ga asoslangan takroriy ko'paytirilgan sikl statementlari mavjud. [2]

4. Loop alignment.

```
def loop_alignment_optimization(loop_body, alignment_factor):  
    alignment = len(loop_body) % alignment_factor # alignment faktorni hisoblash  
    if alignment != 0:  
        alignment_body = loop_body[-alignment:] # alignment tanasini ajratib olish  
        loop_body.extend(alignment_body) # loop tanasini alignment tanasi bilan  
        kengaytirish  
    return loop_body
```

Ushbu kodda 'loop_alignment_optimization' funksiyasi kirish sifatida 'loop_body' va 'alignment_factor'ni oladi. U sikl tanasining uzunligini tekislash koefitsientiga bo'lishning qolgan qismini topib, tekislash koefitsientini hisoblab chiqadi. Agar tekislash nolga teng bo'lmasa, u sikl tanasining oxiridan tekislash tanasini chiqaradi va tekislash tanasini qo'shish orqali sikl tanasini kengaytiradi. Nihoyat, u tekislangan sikl tanasini qaytaradi.

E'tibor bering, alignment factor kerakli tekislash o'lchamini yoki chegarasini ifodalaydi va u muayyan optimallashtirish texnikasi yoki dastur talablariga bog'liq bo'lishi mumkin. [5]

5. Loop Interchange (Siklni o'zaro almashinuvi).

Codening umumiy ko'rinishi

```
def loop_interchange_optimization(loop1_body, loop2_body):  
    new_loop_body = []  
    for i in range(len(loop2_body)):  
        for j in range(len(loop1_body)):  
            new_loop_body.append(loop2_body[i] + loop1_body[j])  
    return new_loop_body
```

Ma'lumotlar joylashuvini yaxshilash va kesh o'tkazib yuborilishini kamaytirish uchun ichma ich joylashgan Ushbu kod "loop_interchange_optimization" funksiyasi ikkita parametrga oladi: loop1_body va loop2_body. Funksiya ichida, sikl almashinuvi natijasida paydo bo'lgan yangi sikl tanasini saqlash uchun "new_loop_body" deb nomlangan bo'sh ro'yxat yaratiladi. "loop2_body" va "loop1_body" bo'yicha takrorlash uchun ikkita ichki o'rnatilgan for sikl ishlatiladi. "loop2_body" va "loop1_body" elementlarining har bir kombinatsiyasi uchun kod "append" funksiyasidan foydalanib, ularning yig'indisini (birlashtirish) "new_loop_body" ro'yxatiga qo'shadi. Nihoyat, funksiya sikl almashinuvini optimallashtirish qo'llanilgandan so'ng, sikl tanasini ifodalovchi "new_loop_body" ni qaytaradi. [4]

6. **Loop-Invariant Code Motion** . Siklda bajariladigan ko'rsatmalar sonini kamaytirish uchun sikl indeksiga bog'liq bo'lmagan kodni sikldan tashqariga ko'chiradi.

```
def loop_invariant_code_motion_optimization(loop_body):
```

```
invariant_code = [ ]
```

```
new_loop_body = [ ]
```

```
for stmt in loop_body:
```

```
if is_loop_invariant(stmt):
```

```
invariant_code.append(stmt)
```

```
else:
```

```
new_loop_body.extend(invariant_code)
```

```
invariant_code = [ ]
```

```
new_loop_body.append(stmt)
```

```
new_loop_body.extend(invariant_code)
```

```
return new_loop_body
```

```
def is_loop_invariant(stmt):
```

```
return True or False
```

Ushbu kodda bizda ikkita funktsiya mavjud. `loop_invariant_code_motion_optimization` funksiyasi kirish sifatida `loop_body` ni oladi, bu original sikl tanasini ifodalaydi.

Funktsiya ichida ikkita ro'yxat yaratiladi: "loop-invariant" kodini saqlash uchun "invariant_code" va "loop-invariant" kod harakatini optimallashtirishdan keyin yangi sikl tanasini saqlash uchun "new_loop_body", "loop_body" dagi har bir holat takrorlanadi. Agar statement "loop_invariant" funksiyasi asosida "loop-invariant" ekanligi aniqlansa, u "invariant_code" ro'yxatiga qo'shiladi. Aks holda, "invariant_code" da saqlangan "loop-invariant" kodi, uni "new_loop_body" ga qo'shish orqali sikldan tashqariga o'tkaziladi. Keyin "invariant_kodlar" ro'yxati qayta o'rnatiladi.

Loopdan keyin "invariant_code" ro'yxatidagi qolgan har qanday siklning o'zgarmas kodi uni "new_loop_body" ga qo'shish orqali sikldan tashqariga ko'chiriladi.

Va nihoyat, funktsiya "loop-invariant kod" harakatini optimallashtirish qo'llanilgandan so'ng, sikl tanasini ifodalovchi "new_loop_body" ni qaytaradi.

"is_loop_invariant" funksiyasi berilgan statementning "loop-invariant" yoki yo'qligini aniqlaydigan to'ldiruvchidir. Agar ibora "loop-invariant" bo'lsa, u "True", aks holda "False" ni qaytarishi kerak.

[8]

7.Strength reduction (Quvvatni pasaytirish) . Qimmatbaho operatsiyalarni (ko'paytirish yoki bo'lish kabi) arzonroq ekvivalent operatsiyalar bilan almashtiradi (masalan, qo'shish yoki bitni almashtirish).

Bu yerda Strength Reduction(Quvvatni pasaytirish) metodi uchun umumiy algorithm(kod)

```
def strength_reduction_optimization(loop_body):
    new_loop_body = []
    for stmt in loop_body:
        if is_expensive_op(stmt):
            new_stmt = replace_expensive_op_with_cheap_op(stmt)
            new_loop_body.append(new_stmt)
        else:
            new_loop_body.append(stmt)
    return new_loop_body
def is_expensive_op(stmt):
    return True or False
def replace_expensive_op_with_cheap_op(stmt):
    return new_stmt
```

Ushbu kodda bizda uchta funktsiya mavjud. "strength_reduction_optimization" funksiyasi kirish sifatida "loop_body" ni oladi. Funktsiyaning ichida quvvatni pasaytirishni optimallashtirishdan so'ng "new loop body" ini saqlash uchun "new_loop_body" deb nomlangan bo'sh ro'yxat yaratiladi. Statement "loop_body" dagi har bir statement ustida takrorlanadi.

Har bir statement uchun kod "is_expensive_op" funksiyasidan foydalangan holda statementni qimmat operatsiya mavjudligini tekshiradi. Agar u qimmat operatsiya ekanligi aniqlansa , kod qimmat operatsiyani arzonroq operatsiya bilan almashtiradi. Natijada yangi statement "new_loop_body" ga qo'shiladi.

Agar statement qimmat operatsiyani o'z ichiga olmasa, original statement new_loop_body ga avvalgidek qo'shiladi. Va nihoyat, funktsiya quvvatni pasaytirishni optimallashtirish qo'llanilgandan so'ng sikl tanasini ifodalovchi new_loop_body ni qaytaradi.

"is_expensive_op" funksiyasi berilgan statementda qimmat operatsiya mavjudligini aniqlaydigan to'ldiruvchidir. Agar statement qimmat operatsiyani o'z ichiga olsa, u "True" ni, aks holda "False" ni qaytarishi kerak.

"replace_expensive_op_with_cheap_op" funksiyasi malum statementdagi qimmat operatsiyani arzonroq operatsiya bilan almashtiruvchi to'ldiruvchidir. O'zgartirishni amalga oshirish va

yangi statementni qaytarish uchun kerakli amalni amalga oshirishi kerak. [strength_reduction] [6]

8. **(Loop Vectorization)** Loop vektorizatsiyasi. Zamonaviy protsessorlarda mavjud bo'lgan parallelizmdan foydalanish uchun bir vaqtning o'zida siklning bir nechta iteratsiyasini qayta ishlash uchun vektor ko'rsatmalaridan foydalanadi.

Bu yerda Loop Vectorization metodi uchun umumiy metod(kod) ko'rsatilgan

```
import numpy as np
```

```
def vectorize_loop(loop_body, vector_size):
```

```
n = len(loop_body)
```

```
# Vektorlashtirishdan keyin qancha iteratsiya qolishini aniqlang
```

```
remainder = n % vector_size
```

```
# Vektorizatsiya bilan mos keladigan yangi sikl tanasini yaratish
```

```
new_loop_body = loop_body[: n - remainder]
```

```
# Vektorlashtirilgan halqa tanasini yarating
```

```
for i in range(0, n - remainder, vector_size):
```

```
# Loop tanasining bir bo'lagini ajratib oling
```

```
slice_body = loop_body[i: i + vector_size]
```

```
# Bo'lakni vektor operatsiyasiga aylantirish
```

```
vector_op = np.array(slice_body)
```

```
# Yangi sikl tanasiga vektor operatsiyasini qo'shing
```

```
new_loop_body.append(vector_op)
```

```
# Qolgan statementlarni yangi sikl tanasiga qo'shing
```

```
new_loop_body.extend(loop_body[n - remainder :])
```

```
return new_loop_body
```

Ushbu kodda “vectorize_loop” funksiyasi ikkita parametрни oladi: original sikl tanasini ifodalovchi “loop_body” va vektorlashtirilgan bo'laklarning o'lchamini belgilaydigan “vector_size”.

Funksiya ichida “loop_body” uzunligi hisoblab chiqiladi va n o'zgaruvchisida saqlanadi. Qolgan o'zgaruvchi vektorizatsiyadan keyin qolgan iteratsiyalar sonini aniqlash uchun ishlatiladi.

“new_loop_body” deb nomlangan yangi ro'yxat original “loop_body”ni n - qoldig'igacha bo'lish orqali yaratiladi. Bu yangi sikl tanasi vektorizatsiya bilan mos kelishini ta'minlaydi.

Keyin sikl 0 dan n gacha - qoldiq oralig'ida “vector_size” qadam o'lchami bilan takrorlanadi. Har bir iteratsiyada vektor operatsiyasi sifatida qayta ishlanishi kerak bo'lgan elementlarning bir qismini ifodalovchi “loop_body” bo'limi chiqariladi.

“create_vector_operation” funksiyasi (kodda ko'rsatilmagan) elementlarning bir qismini vektor operatsiyasiga aylantirish jarayonini ifodalovchi to'ldiruvchidir. Ushbu operatsiya vektorlashtirilgan ko'rsatmalar yoki vektorizatsiyaga xos kutubxonalardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin.

Natijada “vektor_op” vektor operatsiyasi keyin “new_loop_body” ga qo'shiladi.

Loopdan keyin “loop_body” dan qolgan statementlar “new_loop_body” ga qo'shiladi. Nihoyat, funktsiya vektorlashtirishni optimallashtirish qo'llanilgandan so'ng tsikl tanasini ifodalovchi “new_loop_body” ni qaytaradi. [3]

9. Loop Tiling. Ma'lumotlar joylashuvini yaxshilash va kesh o'tkazib yuborilishini kamaytirish uchun katta halqani keshga mos keladigan kichikroq halqalarga ajratadi.

Bu yerda **Loop Tiling** uchun umumiy code:

Ushbu kodda “tile_loop” funksiyasi ikkita parametрни oladi: original halqa tanasini ifodalovchi “loop_body” va har bir tile hajmini belgilaydigan “tile_size” Funktsiya ichida tilelar soni (num_tiles) “loop_body” uzunligini “tile_size” ga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi. Bu hosil bo'lishi mumkin bo'lgan to'liq tilelar sonini aniqlaydi Yangi sikl tanasini tile bilan saqlash uchun “tiled_loop_body” deb nomlangan yangi ro'yxat yaratiladi.

Tsikl 0 dan ‘num_tiles’ oralig'ida takrorlanadi. Har bir tile uchun boshlang'ich va tugatish indeksleri ‘tile_size’ asosida aniqlanadi. Joriy tilega mos keladigan statementlar slicing yordamida “loop_body” dan chiqariladi.

Chiqarilgan tile statementlari har bir statementni alohida-alohida yangi sikl tanasiga qo'shadigan kengaytirish funksiyasi yordamida “tiled_loop_body” ga qo'shiladi.

Tsikldan so'ng, to'liq tile hosil qila olmagan qolgan barcha statementlar “tiled_loop_body” ga qo'shiladi.

Va nihoyat, funktsiya ‘tiled_loop_body’ qiymatini qaytaradi, bu esa tile qo'yish optimallashtirish qo'llanilgandan so'ng tsikl tanasini ifodalaydi.

```
def tile_loop(loop_body, tile_size):
```

```
    num_tiles = len(loop_body) // tile_size
```

```
    # tilelar bilan yangi sikl tanasini yaratish
```

```
    tiled_loop_body = []
```

```
    for tile_idx in range(num_tiles):
```

```
        # Oldingi tile uchun boshlang'ich va oxirgi indexlarni aniqlash
```

```
        start_idx = tile_idx * tile_size
```

```
        end_idx = (tile_idx + 1) * tile_size
```

```
        tile_statements = loop_body[start_idx:end_idx]
```

```

tiled_loop_body.extend(tile_statements)
tiled_loop_body.extend(loop_body[num_tiles*tile_size:])
return tiled_loop_body [loop_tile]

```

10. Loop Strip-Mining. Yuqori xarajatlarni kamaytirish va keshdan foydalanishni yaxshilash uchun halqani kichikroq bo'laklarga ajratadi.

Bu yerda Loop Strip-Mining uchun umumiy algoritm(kod) keltirilgan. Ushbu kodda "strip_mine_loop" funksiyasi ikkita parametрни oladi: original sikl tanasini ifodalovchi "loop_body" va har bir strip o'lchamini belgilaydigan "strip_size".

Funktsiyaning ichida striplar soni (chiziqlar soni) sikl_tanasi uzunligini "strip_size"ga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi. Bu hosil bo'lishi mumkin bo'lgan to'liq chiziqlar sonini aniqlaydi. "stripped_loop_body" deb nomlangan yangi ro'yxat strip mining bilan yangi sikl tanasini saqlash uchun yaratilgan.

Loop 0 dan "num_strips" oralig'ida takrorlanadi. Har bir strip uchun boshlang'ich va tugatish indeksleri "strip_size" asosida aniqlanadi. Joriy strippga mos keladigan statementlar slicing yordamida "loop_body" dan chiqariladi.

"Strip_loop" deb nomlangan satr o'zgaruvchisi chiziqli halqa tanasini qurish uchun yaratilgan. U tarmoqli indeksi (j_strip_idx) uchun strip o'lchami bo'ylab takrorlanadigan for loop statementi bilan boshlanadi. Keyin stripdagi har bir statement ichkariga kiritiladi va satrlarni birlashtirish va birlashtirish operatsiyasidan foydalangan holda "strip_loop" qatoriga qo'shiladi.

Olingan chiziqli halqa tanasini ifodalovchi 'strip_loop' satri 'stripped_loop_body' ga qo'shiladi.

Sikldan so'ng, to'liq strip hosil qila olmagan qolgan barcha statementlar "stripped_loop_body" ga qo'shiladi.

Nihoyat, funktsiya strip mining optimallashtirish qo'llanilgandan keyin halqa tanasini ifodalovchi "stripped_loop_body" ni qaytaradi.

```

def strip_mine_loop(loop_body, strip_size):
# Kerakli bo'laklar sonini aniqlash
num_strips = len(loop_body) // strip_size
# Strip bilan yangi sikl tanasini yaratish
stripped_loop_body = [ ]
for strip_idx in range(num_strips):
# Avvalgi strip uchun bosh va oxiri idexni aniqlash
start_idx = strip_idx * strip_size
end_idx = (strip_idx + 1) * strip_size
strip_statements = loop_body[start_idx:end_idx]
strip_loop = f"for j_{strip_idx} in range({strip_size}):\n"

```



```
strip_loop += '\n'.join([f" {s}" for s in strip_statements])
# Stripni yangi tsiklga qo'sh
stripped_loop_body.append(strip_loop)
stripped_loop_body.extend(loop_body[num_strips*strip_size:])
return stripped_loop_body [6]
```

11. **Loop Reversal.** Keshdan foydalanishni yaxshilash uchun aylanish tartibini o'zgartiradi.

Loopni teskari aylantirish siklni optimallashtirish texnikasi bo'lib, siklni takrorlash tartibini o'zgartiradi.

Bu yerda Loop Reversal uchun umumiy algorithm(kod) yozilgan:

```
def loop_reversal_optimization(loop_body):
```

```
return loop_body[: : -1]
```

Ushbu kodda "loop_reversal_optimization" funksiyasi kirish sifatida "loop_body" ni oladi.

[: : -1] belgisi "loop_body" ro'yxatidagi elementlar tartibini o'zgartirish uchun ishlatiladi. Start : stop : step ni [: : -1] sifatida belgilash orqali funktsiya teskari tartibda "loop_body" elementlarini o'z ichiga olgan yangi ro'yxatni qaytaradi.

Bu funktsiya kirish sifatida sikl tanasini oladi va uning takrorlanishi teskari bo'lgan bir xil sikl tanasini qaytaradi

Misol uchun, agar loop_body [1, 2, 3, 4] bo'lsa, funktsiya [4, 3, 2, 1] ni qaytaradi, bu siklni teskari optimallashtirish qo'llanilgandan so'ng sikl tanasini ifodalaydi.

Statementlar tartibini teskari o'zgartirish orqali, siklni teskari optimallashtirish ba'zan ishlashni yaxshilashi yoki teskari tartib bilan yaxshiroq ishlaydigan maxsus optimallashtirishni yoqishi mumkin. [8]

12. **Parallelization**(Parallelizatsiya): Ko'p yadroli protsessorlarda mavjud parallellikdan foydalanish uchun tsiklni bir nechta bo'g'in yoki jarayonlarga ajratadi.

Parallelizatsiya - siklni optimallashtirish usuli bo'lib, u bir nechta protsessorlar yoki yadrolarda bir vaqtning o'zida bir nechta protsessorlarda yoki yadrolarda siklni takrorlashni amalga oshirishga imkon beradi va bajarish vaqtini qisqartirish orqali ishlashni yaxshilaydi. Pythonning multiprocessing moduli yordamida siklni parallellashtirish uchun umumiy kod:

Ushbu kodda "parallel_loop_optimization" funksiyasi ikkita parametрни oladi: oroginal sikl tanasini ifodalovchi 'loop_body' va parallellashtirish uchun ishlatiladigan jarayonlar sonini ko'rsatuvchi 'num_procs'.

“chunk_size” ‘loop_body’ uzunligini ‘num_procs’ ga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi. Bu har bir jarayon bajariladigan sikl iboralari sonini aniqlaydi.

Har bir parallel jarayon uchun Process obyektlarini saqlash uchun ‘procs’ deb nomlangan ro'yxat yaratiladi.

Keyin, ‘num_procs’ jarayonlarini yaratish uchun sikl ishlatiladi. Har bir jarayon uchun boshlang'ich va tugatish indeksleri ‘chunk_size’ asosida aniqlanadi. Har bir jarayonning maqsadi argument sifatida ‘loop_body’, start va end ni qabul qiluvchi ‘execute_loop_chunk’ funksiyasiga o'rnatiladi.

‘execute_loop_chunk’ funksiyasi ichida sikl ko'rsatilgan diapazondagi (boshidan oxirigacha - 1) sikl statementlarini takrorlash uchun ishlatiladi. Bu jarayon bajariladigan sikl statementlarining bir qismini ifodalaydi. Sharhni parallel ravishda bajarilishi kerak bo'lgan haqiqiy sikl logic i bilan almashtirishingiz mumkin.

Jarayonlar proc.start() yordamida boshlanadi va Process ob'ektlari procs ro'yxatiga qo'shiladi.

Barcha jarayonlarni yaratgandan so'ng, har bir jarayon uchun proc.join() ni chaqirish uchun boshqa sikl ishlatiladi. Bu davom etishdan oldin asosiy jarayon barcha child processlarning tugashini kutishini ta'minlaydi.

Loop bayonotlarini bir nechta jarayonlarga taqsimlash va ularni parallel ravishda bajarish orqali parallel siklni optimallashtirish siklning umumiy bajarilish vaqtini yaxshilashga qaratilgan.

```
import multiprocessing
def parallel_loop_optimization(loop_body, num_procs):
    chunk_size = len(loop_body) // num_procs
    procs = []
    for i in range(num_procs):
        start = i * chunk_size
        end = (i+1) * chunk_size if i != num_procs-1 else len(loop_body)
        proc = multiprocessing.Process(target=loop_body[start:end])
        proc.start()
        procs.append(proc)
    for proc in procs:
        proc.join() [3]
```

REFERENCES

1. Meisam Booshehri, Abbas Malekpour, Peter Luksch . An Improving Method for Loop Unrolling . International Journal of Computer Science and Information Security , Vol. 11 , No.5 , May 2013 .

2. Alfred V. Aho, Ravi. Sethi, Jeffrey D. Ullman .Compilers, principles, techniques, and tools . 1986. ISBN 0-321-48681-1. 1035 pages.
3. Арипов М.М., Ходиев Ш.И. Методы трансляции и преобразования программ. Учебное пособие для ВУЗов. Ташкент, Университет, 2008. - 134 с.
4. <https://arxiv.org/ftp/arxiv/papers/1308/1308.0698.pdf>
5. <https://ieeexplore.ieee.org/document/8117057>
6. <https://www.codingninjas.com/codestudio/library/loop-optimization>
7. <https://learnpython.com/blog/popular-python-libraries/>
8. <https://www.geeksforgeeks.org/loop-optimization-in-compiler-design/>



ЎЗБЕКИСТОНДА СОЛИҚ ТИЗИМИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА УНИНГ ТАКОМИЛЛАШУВ БОСҚИЧЛАРИ

Ахмаджон Хайдарович Худаёров

Тошкент Кимё халқаро университети доценти

ahmadjon.haydarovich@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақола 1991-2019 йилларда Ўзбекистонда солиқ тизимининг ташкил этилиши ва унинг такомиллашув босқичлари ҳақида бўлиб, унда мамлакатимизда иқтисодий жадал ривожлантиришнинг асосий омилларидан бири тўғри солиқ сиёсатини олиб бориш, мазкур мақсадларга эришишга қаратилган солиқ сиёсатини изчил давом эттириш ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: Солиқ, бюджет, молия тизими, ислохот, солиқ сиёсати, инвестиция, тўлов тизимлари, тарихий манбалар, хазина, мустабид тузум, солиқ идоралари, Солиқ кодекси, солиқ юки, солиқ имтиёзлари

ABSTRACT

This article is about the organization of the tax system in Uzbekistan in 1991-2019 and the stages of its improvement, and it talks about one of the main factors of the rapid development of the economy in our country: conducting the correct tax policy, and consistently continuing the tax policy aimed at achieving these goals.

Keywords: Tax, budget, financial system, reform, tax policy, investment, payment systems, historical sources, treasury, authoritarian system, tax authorities, Tax Code, tax burden, tax benefits

КИРИШ

Ўзбекистонда истиқлолнинг биринчи кунларидан бошлаб самарали солиқ тизимини яратишга катта эътибор берилди ва бу масалага ижтимоий-иқтисодий ислохотлар муваффақиятини таъминлашнинг энг муҳим омили сифатида қаралди.

Иттифоқнинг парчаланиши ўзининг иерархик жиҳатдан марказлаштирилган давлат аппарати билан янги иқтисодий тизим – бозор иқтисодий яратишга ва иқтисодий жиҳатдан самарали солиқ тизимини яратишга йўл очди[1].

Ҳар бир мустақил давлатнинг иқтисодий қудратини солиқлар асосида шакллантирилган давлат бюджети, хусусан



унинг молия тизими ташкил этади. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикаси ташқи иқтисодий фаолиятнинг либераллашуви ва давлат томонидан рағбатлантирилиши, солиқ тизимини айна шу мақсадлар учун кўмаклашувчи давлат институти сифатида фаолият юритишини тақозо этарди. Бу вазифани амалга ошириш эндигина мустақилликка эришган Ўзбекистон учун машаққатли кечди.

Биринчидан, тарихдан маълумки Ўзбекистонда солиқ тизими, қарийб 130 йил давомида Россия империяси ва Совет давлати солиқ тизимининг кичик бир бўлаги сифатида фаолият кўрсатиб келди. Солиқ сиёсатининг асосий мақсади Россия, СССР республикалари учун давлат ғазнасини тўлдиришдан иборат бўлди. Солиқ тизими сиёсатини юритиш ваколати фақат марказий ҳокимиятгагина берилган эди. Солиқ сиёсатини ишлаб чиқувчи, солиқ хизматини ташкил этишнинг асосларини белгилаб берувчи малакали маҳаллий кадрлар йўқ эди.

Иккинчидан, республикамиз келажаги маълум миқдорда солиқ тизими фаолиятини тўғри йўлга қўйишга боғлиқ эди. Солиқ сиёсати мамлакатимизда бозор тамойилларига жавоб берадиган, солиқларни бошқаришнинг замонавий методлари ва механизмларининг жорий этилиши, солиқ органларининг яхлит тизимини муносиб равишда яратиш лозим эди.

Учинчидан, солиқ сиёсати умумхалқ манфаатлари асосида ишлаб чиқилиши давр талаби эди. Мамлакатдаги ижтимоий, иқтисодий ва демографик вазиятни ҳисобга олган ҳолда, оғир иқтисодий ва ижтимоий оқибатларнинг олдини олиш учун солиқ сиёсатини юритишда миллий давлат манфаатларининг мақсад, вазифаларини аниқ ва пухта белгилаб олиш зарур эди. Солиқ сиёсатида тажрибаси бўлмаган давлат биринчи кундан бошлаб, қаерда таназзулга учраши, ёхуд муваффақият қозониши мумкин ана шундай жиддий масалани ҳал этишга тўғри келди.

АДАБИЁЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Мақолада тарихийлик, тизимлаштириш, холислик тамойиллари ҳамда қиёсий ва муаммовий-хронологик таҳлил, умумлаштириш каби методлардан, шунингдек республикамиз олимлари тадқиқотларидан фойдаланилган.

Ўзбекистон Республикаси солиқ органлари тизимининг бугунги кунга қадар шаклланиш жараёнини шартли равишда тўрт босқичга бўлиб ўрганиш мумкин:

Ислохотларининг биринчи босқичи 1991-1997 йилларни ўз ичига олган бўлиб, Ўзбекистоннинг ўз мустақил солиқ тизимининг шаклланиши ва солиқларнинг хазинавий



аҳамиятини ошириш, солиқ тизимининг ягона ташкилий асосларини ишлаб чиқиш, солиқларни бозор иқтисодиёти талабларига мослаштириш ва корхоналарнинг ишлаб чиқаришларини рағбатлантиришга қаратилган давридир.

Республикамизда солиқ идораларининг мустақил фаолияти давлат суверенитетига эришмасдан аввал Ўзбекистон ССР Олий Кенгашининг 1991 йил 14 июндаги қарори билан “Ўзбекистон Республикасининг давлат солиқ идоралари тўғрисида”ги[2] Низоми қабул қилинганидан кейин давлат назорати ва бошқарувининг алоҳида тузилмаси сифатида солиқ идораларининг шаклланиши ва мустақил фаолият кўрсатишига асос солинди.

Бунинг асосий сабаби сифатида айтиш мумкинки, Совет иттифоқининг сўнгги йилларида барча давлатларда бўлгани каби, Ўзбекистонда ҳам бюджет тақчиллиги кузатилаётган эди. Жумладан, 1991 йилнинг бошида Республика давлат бюджети тақчиллиги қарийб 7,5 фоиз[3] ни ташкил этган. Бу ўз навбатида, давлат даромадини мустаҳкамлашга қаратилган солиқ механизмнинг ҳуқуқий асосларини ишлаб чиқиш ва уни жорий этиш бўйича амалий чоралар кўрилиши зарурлигини кўрсатди.

Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг мақоми, асосий вазифалари, функциялари ваколат доираси ва фаолиятининг ташкилий асослари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1994 йил 18 январдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қошидаги Давлат солиқ бош бошқармасини Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасига айлантириш тўғрисида”ги Фармонига мувофиқ ташкил этилди[4]. Унинг фаолият йўналишлари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 4 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси тўғрисида”ги Низомга биноан белгилаб берилди[5]. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ушбу қарорига биноан Давлат солиқ қўмитаси солиқ ва божхона сиёсатини амалга ошириш, шунингдек, давлатнинг иқтисодий манфаатлари ва мулкӣ ҳуқуқлари ҳимоясини таъминлаш соҳасида давлат назорати органи эканлиги эътироф этилди.

Миллий солиқ тизимининг шаклланиши 1994 йилда Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг ташкил этилиши билан боғлиқ бўлиб, тизимда янги даврни бошлаб берди.

Ўзбекистон Республикасида солиқ тизимини янада такомиллаштириш ва мустаҳкамлаш, солиқ тўловчиларни ҳисобга олишни тартибга солиш мақсадида[6], 1997 йилнинг 1 апрелидан бошлаб, Давлат солиқ қўмитаси томонидан солиқ тўловчиларнинг

идентификация рақамларини (СТИР) бериш ва қўллаш тизими жорий этилди.

Солиққа тортиш соҳасида давлат томонидан белгиланган барча ҳуқуқий нормаларини бирлаштириш ва давлат солиқ сиёсатининг барча йўналишларини алоҳида меъёрларда белгилаш мақсадида 1997 йилнинг 24 апрелида Ўзбекистонда илк марта Солиқ кодекси қабул қилинди[7] ва у илгари амалиётда қўлланган кўплаб меъёрий ҳужжатларини ўзида умумлаштирди. Ушбу ҳужжатнинг қабул қилиниши билан солиқ тўловчилар ва солиқ органлари ўртасидаги муносабатлар тартибга солинди. Солиқ кодекси солиқ тўловчиларнинг билимларини кенгайтиришга хизмат қилди, солиқ органлари ходимлари учун эса улар олдида турган вазифаларни самарали ҳал қилиш бўйича ягона иш ҳужжатига айланди.

1997 йилнинг июлида ДСҚ солиқ ва божхона вазифалари ажратилди, божхона органлари солиқ органлари таркибидан чиқарилди ва алоҳида тузилмага бирлаштирилди. Ўзбекистон Республикасининг Давлат божхона қўмитаси ташкил қилинди[8].

Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги “Давлат солиқ хизмати тўғрисида” 474-И-сонли Қонуни ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 12 январдаги “Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида” 14-сонли Қарори[9] га мувофиқ, солиқ органларининг асосий функция ва вазифалари белгилаб берилди.

Совет даврида амал қилган эски солиқ тизимидан янги тизимга ўтиш ва уни шакллантириш қийин ва мунозарали жараён дир. Бу, бир томондан, ишлаб чиқаришни тўхтовсиз пасайиши, тўлов қобилиятининг чуқурлашиши, аҳоли турмуш даражасининг пасайиши ва бошқа томондан, бозорни тартибга солиш механизмини босқичма-босқич жорий қилиш, бозорни товарлар билан тўлдириш ва инфляциянинг ўзгариши билан тавсифланган даврни бошидан кечирди.

Бозор иқтисодиётига ўтишда савдо тизимининг эркинлаштирилиши, хусусийлаштирилиш заруриятини туғдирди. Шу сабабдан, соҳага қулай имкониятлар яратилиб, ишлаб чиқариш, савдо хизматини яхшилаш йўлида бир қатор ишлар амалга оширилишига қарамасдан, бу эркинликдан ўз манфаати йўлида фойдаланилганлиги оқибатида, оддий меҳнаткаш истеъмолчининг манфаатларига катта зиён етказилди.

Республикада кичик ва хусусий бизнесни шакллантириш ва ривожлантиришни таъминловчи зарур ҳуқуқий асослар яратилди. Амалдаги қонунчилик



хужжатларида, яъни Президент фармонлари, ҳукумат қарорларида кичик ва хусусий бизнесни солиққа тортиш ҳамда ривожлантириш борасида молиявий ёрдам бериш, бизнесни ташкил этишда имтиёзли кредитлар ажратиш йўлга қўйилган.

Аммо, солиқ сиёсатини амалга оширишда кичик ва хусусий корхоналар ўз ҳуқуқларини яхши билмаганликлари сабабли, уларнинг кўплари ўзларига берилган солиқ соҳасидаги ва бошқа имтиёزلардан фойдалана олмадилар. Шунингдек, ушбу ҳолат корхона ва ташкилотларнинг турли органлар томонидан ўринсиз текширувларига сабаб бўлди. 1991-1997 йилларда тадбиркорлар фаолиятига турли ташкилотларнинг аралашувини қисқартириш бўйича ижобий ишлар амалга оширилди. Бироқ, давлат органлари томонидан тадбиркорлар ва корхоналарнинг хўжалик ишларига аралашшига барҳам берилмади. Масалан: 1997 йилда 29 та давлат органи корхоналарни турли масалалар бўйича текшириш ҳуқуқига эга бўлган[10]. 3700 корхона ва ташкилот бўйича ўтказилган текширувлар таҳлилидан маълум бўлишича, 1995 йилда ва бу йилнинг биринчи ярмида бу корхона ва ташкилотлар 21 минг марта ёки ўрта ҳисобда олганда, уларнинг ҳар бири турли органлар томонидан 5-6 мартадан текширилган. Солиқ органларидан ташқари, энг кўп текширув санитария-эпидемия хизмати (умумий миқдорнинг 17,8 фоизи), банкларга (17,4 фоиз), давлат ёнғин назоратига (11,2 фоиз) маҳаллий ҳокимият органлари ва бошқармаларга (қарийб 7 фоиз) тўғри келган[11].

Шунингдек, Республикада солиқ тизимига алоқадор бўлган зарур қонунлар, меъёрий ҳужжатлар қабул қилинишига қарамасдан, ушбу тизимлар бозор иқтисодиёти талабларига жавоб бермаган. Уларнинг асосий сабабларидан бири, банк, молия идоралари маъсул ходимлари фаолиятида эскича услубда ишлаш ҳукмронлик қилган. Шу билан бирга, хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳолатини яхшилаш, фойда кўрмасдан ишлаётган корхона ва хўжаликларнинг самарали фаолият юритиши, айланма маблағларига эга бўлишига эътибор берилмаган. Молия ва солиқ тизимлари фаолиятининг асосий мақсади ҳар қандай йўл билан белгиланган солиқларни ундириш каби бир томонлама ёндашув кузатилди.

Бундан ташқари, майда солиқ тўловчиларнинг тамагирлик ишлари оммавий ахборот воситаларида ёритилди, аммо йирик солиқ тўловчиларнинг даромадни яшириши, солиқларни тўлиқ тўламаслиги каби ҳолатлари кенг жамоатчиликка ошкор этилмади.

Ушбу босқич ишлаб чиқаришнинг пасайиши, юқори инфляция, даромад даражаси бўйича чуқур тафовут билан

аҳоли турмуш даражасининг пасайиши, ишсизлик муаммоларининг кучайиши, маданият, илм-фан, ахлоқнинг аста-секин таназзулга учраши ва жинойатчиликнинг кўпайиши билан тавсифланади.

Ислохотларнинг иккинчи босқичи 1998 йилдан 2008 йилгача бўлган даврни ўз ичига олади. Бу даврни солиқ тизими асосларини ташкилий-ҳуқуқий мустаҳкамлаш ва ривожлантириш, солиқларни ихчамлаштириш соҳасидаги муҳим босқичнинг бошланиши, тадбиркорлик субъектларини ҳар томонлама рағбатлантириш, улар фаолиятини қўллаб-қувватлаш, солиқ сиёсатини такомиллаштириш ва эркинлаштириш даври, деб аташ мумкин.

Мазкур босқичда солиқ тўловчи юридик шахсларга имкони борича соддалаштирилган, ихчамлаштирилган солиқ тўлаш, солиқ ҳисоботлари ва солиқ тўлаш муддатлари соддалаштириш тизими жорий этилди. Ишлаб чиқариш тармоқлари ва корхоналар бўйнига тушаётган солиқ оғирлиги тобора йилдан-йилга камайиб борди.

Мустақиллик йилларида солиқ тизимининг ислоҳ қилиниши ўз самарасини бериб, кичик ва ўрта бизнес корхоналарининг мамлакат ялпи ички маҳсулот ишлаб чиқаришдаги ўрни ва салмоғи ортиб борди. Бу эса мамлакатимизда солиқ тизимини янада изчил ислоҳ қилишни ва такомиллаштиришни тақозо этди.

2004 йилда ҳам қатор солиқ ислохотлари амалга оширилиб, корхоналарга тушадиган ўртача солиқ юкмаси 2003 йилнинг 1 ярим йиллигидаги 28,4%, 2004 йилда 27,8% пасайган[12].

Аммо, солиқ ва бошқа имтиёзлар билан боғлиқ бир қатор ҳукумат қарорлари қабул қилинганлигига қарамай, жойларда, яъни Фарғона, Навоий, Жиззах ва Сурхондарё вилоятларида солиқ органлари томонидан сиёсат тушунарли етказилмаган, оқибатда Давлат солиқ қўмитасининг ишлари қониқарсиз деб топилган[13].

2005 йилнинг 1 июлидан бошлаб микрофирма ва кичик корхоналар учун илгари тўлаб келинган 4 хилдаги тўлов, ягона солиқ ҳамда бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси, Республика йўл жамғармаси, Мактаб таълимини ривожлантириш жамғармаларига мажбурий ажратмалар ўрнига ягона солиқ тўлови жорий этилиши кичик бизнес зиммасидаги солиқ юқининг сезиларли даражада пасайишига олиб келди[14].

Шунингдек, 1997 йилда қабул қилинган Солиқ кодекси иқтисодий ислохотлар соҳасида бугунги куннинг устувор вазифалари ва талабларига жавоб бермаслиги қайд этилди. Фақат сўнгги

икки йил давомида Солиқ кодекси ва солиқ қонунчилигига юздан ортиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилган[15].

Солиққа тортиш амалиётида узоқ йиллар давомидаги тажрибадан ўтказилган хорижий мамлакатларнинг амалиёти шуни кўрсатадики, тизимда фақатгина солиқларни ундириш асосий вазифа бўлиб қолмасдан, уларни рағбатлантириш ҳам муҳим ҳисобланади.

Шу мақсадда 2007 йил 25 декабрда “Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексини тасдиқлаш тўғрисида”ги 136-сонли Қонуни[16] қабул қилинди. Мазкур қонун билан янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси қабул қилинди ва 2008 йил 1 январдан кучга киритилди.

Иқтисодиётни модернизациялаш жараёнида солиқ тизимини такомиллаштириш борасида қабул қилинаётган Фармон ва Қарорлар солиқ сиёсатини эркинлаштириш, тадбиркорликни ривожлантириш, ижтимоий соҳани рағбатлантириш, солиқ юки[17] ни камайтириш ҳамда солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштиришга қаратилди. Республикамиз солиқ сиёсатида солиқ юкини тобора камайтириб бориш тадбирлари кўрилди ва йилдан-йилга пасайиш тенденцияси кузатилди.

Натижада Республикада ялпи ички маҳсулотнинг мунтазам реал ўсишига эришилган[18]. Солиқ тушумларида ҳам сезиларли ўзгаришлар бўлди.

Солиқ кодексини тайёрлашда жаҳон тажрибасидан келиб чиққан ҳолда, амалдаги ёндашув ва тамойиллар ўрганилган. Унда, аввало, солиқ тизими ва солиқ муносабатларини ягоналаштириш, мамлакат иқтисодиётини барқарор ва мутаносиб ривожлантиришда солиқларнинг рағбатлантирувчи ролини кучайтиришга қаратилгани билан эътиборли эди.

Тадбиркорларни ҳуқуқий ҳимоялаш бўйича ҳукумат даражасида кенг қамровли ишлар амалга оширилди. Бунга асосан текширишлар сони кескин камайтирилди, тадбиркорлик субъектларини молиявий хўжалик фаолиятини текшириш ҳуқуқи фақатгина солиқ идораларида қолдирилди, шунингдек, уларга нисбатан ҳуқуқий таъсир чораларини фақат суд орқали қўлланиши тартиби жорий этилди. Кичик бизнес корхоналарининг ортиқча ҳисоботлар топширилишига чек қўйилди, барча ҳисоботлар топшириш муддатлари чораклик, бир марта қилиб белгиланди ва улар сони 10 мартадан ошққа қисқартирилди[19].

Аммо, бу босқичда қўлга киритилган ютуқлардан ташқари, камчиликлардан ҳам холи эмас эди. Кўп ҳолларда, қабул қилинган қонунлар, фармон ва қарорлар қоғозда қолиб кетди, яққол ижобий ўзгаришлар кўзга ташланмади.

НАТИЖАЛАР

Ислохотларининг учинчи босқичи 2009-2016 йилларни ўз ичига олиб, солиқ тизими фаолиятини такомиллаштириш, солиқ юкини енгиллаштириш, солиққа тортиш тизимини соддалаштириш ва унификация қилиш, солиқ юкини пасайтиришга қаратилган ва изчил амалга оширилаётган сиёсат, солиқ ва бошқа масалаларда имтиёзлар бериш сиёсати давом эттирилди.

Уй-жой қуриш ва реконструкция қилиш бўйича янги ташкил қилинаётган ихтисослаштирилган пудрат ташкилотлари 5 йил муддатга барча турдаги солиқлардан озод этилган[20]. Шунингдек, корхоналарнинг капиталлашув ва инвестиция киритишга йўналтирилайдиган дивидендлари ҳам 5 йил муддатга солиққа тортилмайдиган бўлди.

Давлат органлари ва тадбиркорлик субъектлари ўртасида ўзаро муносабатларнинг бевосита электрон шакллари жорий этилгани туфайли 2015 йилда 42 минг 800 та тадбиркорлик субъекти интернет тармоғи орқали Ягона интерактив давлат хизматлари порталида рўйхатга олинган. Улар 260 турдаги интерактив хизматлардан фойдаланиш имкониятига эга бўлдилар. 2013-2014 йилларда тадбиркорлар ва фуқароларга 102 мингдан ортиқ хизмат кўрсатилган бўлса, 2015 йилда бу кўрсаткич 420 мингдан ошган. Бугунги кунда солиқ ва статистика ҳисоботлари 100 фоиз электрон шаклда интернет тармоғи орқали тақдим этилмоқда[21].

Электрон хизматлар кўрсатишнинг тўлиқ электрон шаклига ўтишда Корея Республикаси, Россия Федерацияси, Франция, Сингапур, АҚШ, Япония ва “Электрон ҳукумат” тизимини жорий қилиш рейтингда юқори ўринларни эгаллаб келаётган бошқа хорижий давлатлар тажрибасидан фойдаланилиб, солиқ органларининг функционал фаолияти таҳлил этиб борилмоқда.

Давлат солиқ хизмати органларида ахборот алмашиш тезлиги (Кбит/с)

1991 йил	1996 йил	2001 йил	2011 йил	2016 йил
0	1,2	3,6	1024	2048

Аммо, юқорида кўрсатиб ўтилган уч босқичда мамлакатда амалга оширилган солиқ сиёсати деярли ўзини оқламади. Масалан, Жаҳон банки томонидан “Price Waterhouse Coopers” билан ҳамкорликда тайёрлаган “Солиқ тўлаш 2010” солиқ тизимлари рейтингда солиқ режими энг қийин бўлган ўнта мамлакатлар рўйхатига 174-183 ўринларни эгаллаган давлатлар орасида Ўзбекистон Республикаси ўрганилган 183 мамлакатдан 178 ўринни эгаллади.

Таққослаш учун МДХ ва Болтиқбўйи давлатлари орасида вазият қуйидагича эди: Эстония - 38, Латвия - 45, Литва - 51, Қозоғистон - 52-, Грузия - 64, Молдова - 101,

Россия - 103, Озарбайжон - 108, Польша - 151, Арманистон - 153, Қирғизистон - 156, Тожикистон - 162, Ўзбекистон - 178 ва Украина - 181-ўрин[22].

Ислоҳотларининг тўртинчи босқичи 2017 йилда Ўзбекистон солиқ сиёсатида тарихий ўзгаришлар даври бўлди. Барча масалалар танкидий кўриб чиқиш асосида, тартиб-интизомни кучайтириш ва шахсий маъсулият ҳамда жавобгарликни ошириш чораларини кўриш орқали амалга оширилган. Солиққа тортиш базаси янада кенгайди. Солиқ бошқаруви учун замонавий тартибга солиш механизмлари жорий этилди.

МУҲОКАМА

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида муҳим вазифалар сифатида жамият ва давлат ҳаётининг барча соҳаларини, шу жумладан, солиқ соҳасида солиқ юкини камайтириш ва солиққа тортиш тизимини соддалаштириш йўлини давом эттириш, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва рағбатлантиришнинг тегишли чораларини кенгайтириш белгиланди[23].

Шу сабабли, 2018 йилдан бошлаб, Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси раисининг Ахборот-коммуникация технологиялари бўйича ўринбосари ва бош бошқармаси ташкил этилди. Янги бошқарма олдига, биринчи навбатда, солиқ органлари фаолиятига АКТни кенг жорий этиш вазифаси қўйилди[24]. Шу билан бирга, назорат қилувчи органлар, манфаатдор вазирлик ва идораларнинг солиқ органларининг Ягона интеграциялаштирилган ахборот-ресурс базасига ўзаро ҳамкорликни яхшилаш ва вақтни тежаш имкониятини яратди.

Солиқ юкини камайтириш орқали адолатли солиқ режимини жорий этиш, солиқ соҳасида берилган имтиёзларини секин аста бекор қилиш, энг кам иш ҳақи миқдоридан келиб чиқиб, солиқ ва бошқа тўловларни белгилашга барҳам бериш сиёсатини давом эттиришда Президент Ш.М.Мирзиёевнинг хизматлари жуда катта бўлди. Инглиз мутахассиси Крис Уэлснинг таъкидлашича, Британияда солиқ ва божхона ишлари бўйича қўмита айнан шундай тузилган: “асосий вазифа мавжуд тизимни сақлаб қолиш ва уни кейинги ҳаракатлар билан йўқ қилиш ўрнига уни такомиллаштиришдир”[25].

Ўзбекистонда йирик инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш ниятида бўлган инвесторлар учун мамлакатда қулай шароитлар яратиш, имтиёзлар бериш, қўллаб қувватлаш, молиявий

ҳавсизлигини таъминлаш мақсадида солиқ тизимини такомиллаштириш бўйича долзарб вазифалар белгиланди.

Умумбелгиланган солиқларни тўловчилар учун солиқ юки даражасининг юқорилиги, қўшилган қиймат солиғини ундиришнинг самарасиз тизими, маҳаллий солиқ ва йиғимларнинг маъмуриятчилиги механизмларининг самарасизлиги оқибатида уларнинг йиғилувчанлик даражаси етарли эмаслиги каби тизимли муаммоларни ҳал қилиш мақсадида 2018 йил 29 июнда Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони эълон қилинди[26]. Унда кенг жамоатчилик муҳокамаси натижалари ҳамда Халқаро валюта жамғармаси, Жаҳон банки ва халқаро экспертларнинг тавсиялари инобатга олинди.

Иқтисодиётга 2019 йилдан бошлаб жорий этилган янги солиқ концепциясининг энг асосий мақсади солиқ юкини камайтириш, содда ва барқарор солиқ тизимини қўллашга қаратилди. Шу йўл билан мамлакат иқтисодиёти рақобатбардошлигини ошириш, тадбиркор ва инвесторлар учун ҳар томонлама қулай муҳит яратишни кўзда тутди.

2019 да қабул қилинган янги Солиқ кодекси[27] да солиқ турлари 13 тадан 9 тага камайтирилди. Солиқларни тўлаш муддатини узайтириш ёки бўлиб-бўлиб тўлашга рухсат бериш бўйича енгиллаштирилган механизмлар киритилди. Шу билан бирга солиқ кодекси нормаларини ҳар бир солиқ ходими, тадбиркорлар ва солиқ тўловчилар пухта ўзлаштириши, бунинг учун уларни мунтазам равишда ўқитиш белгиланди[28].

ХУЛОСА

Умуман олганда, Ўзбекистон Республикаси солиқ органлари тизимининг бугунги кунга қадар шаклланиш жараёнининг таҳлилий хулосаси шундан далолат берадики, 1991-1997 йилларда Ўзбекистоннинг ўз мустақил солиқ тизими шаклланиб, солиқ тизимининг ягона ташкилий асослари ишлаб чиқилди. 1998 йилдан 2008 йилгача бўлган даврда эса солиқ тизимининг ташкилий-ҳуқуқий асослари мустаҳкамланиб ривожлантирилди. 2009-2016 йилларда солиқ тизими фаолияти такомиллаштирилди, аммо, юқорида кўрсатиб ўтилган уч босқичда мамлакатда амалга оширилган солиқ сиёсати деярли ўзини оқламади. 2017 йилда Ўзбекистон солиқ сиёсатида тарихий ўзгаришлар даври бўлди. Барча масалалар танқидий таҳлил асосида, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик чораларини кўриш орқали амалга оширилди. Солиққа тортиш

базаси янада кенгайди. 1991-2019 йиллар давомида солиқ юки пасайиб борди. Солиқ юкининг камайтириш ҳисобига эса барчага бир хил адолатли солиқ режимини жорий этиш сиёсати давом этмоқда.

Мустақиллик йилларидаги солиқ тизими шартли равишда тарихий тўртта босқични босиб ўтди.

Биринчи босқичда мустақил солиқ тизими шаклланди ва унинг ягона ташкилий асослари ишлаб чиқилди. Бунинг натижасида мустақил солиқ сиёсатини олиб бориш, бошқариш, солиққа оид ҳуқуқбузарликларга қарши курашувчи муассасаларнинг мажбуриятлари, ваколатлари ва хизмат вазифалари ажратилди.

Иккинчи босқичда эса солиқ тизимининг ташкилий-ҳуқуқий асослари мустақамланди ва ривожлантирилди. Қабул қилинган қонунлар, кодекслар, қарорлар ва бошқа ҳуқуқий меъёрий ҳужжатлар мамлакатда солиқ тизимидаги қонун устуворлигини таъминлади, солиқ тўловчи ва ундирувчилар ўртасидаги муносабатларни тартибга солди.

Учинчи босқичда, замон талабларидан келиб чиққан ҳолда, интерфаол солиқ хизматлари: солиқ ва статистика ҳисоботларини электрон шаклда интернет тармоғи орқали тақдим этиш, ягона интерактив давлат хизматлари портали хизматларидан фойдаланиш тизими яратилди.

Тўртинчи босқичда, Ўзбекистон солиқ тизими танқидий кўриб чиқиш асосида, тартиб-интизомни кучайтириш ва шахсий маъсулият ҳамда жавобгарликни ошириш орқали амалга оширилди. Солиққа тортиш базаси хорижий инвесторларни жалб қилиш ҳамда тадбиркорларга кенг имкониятлар яратиш орқали янада кенгайди. Солиқ юкини камайтириш ҳисобига эса барчага бир хил адолатли солиқ режимини жорий этиш сиёсати шакллантирилди.

REFERENCES

1. Супруненко С.А. История становления и развития системы налогообложения Украины. Экономика и современный менеджмент: теория и практика // XXI междунар. науч. практ. конф. – Новосибирск: СибАК, 2013. – С. 112.

2. [https://nrm.uz/contentf?doc=209787_o%E2%80%98zbekiston_ssrning_davlat_soliq_idoralari_to%E2%80%98g%E2%80%98risida_nizom_\(o%E2%80%98zr_oliy_ke ngashining_19991_yil_14_iyundagi_qarori_bilan_tasdiqlangan_\)&products=1_zakon_odatelstvo_respubliki_uzbekistan](https://nrm.uz/contentf?doc=209787_o%E2%80%98zbekiston_ssrning_davlat_soliq_idoralari_to%E2%80%98g%E2%80%98risida_nizom_(o%E2%80%98zr_oliy_ke ngashining_19991_yil_14_iyundagi_qarori_bilan_tasdiqlangan_)&products=1_zakon_odatelstvo_respubliki_uzbekistan)

3. Мустақиллик йилларидаги тараққиёт. Давлат солиқ қўмитаси ахборот хизмати. –Тошкент, 2016. – Б. 6.



4. ЎзМА, М – 18 – фонд. 1– рўйхат, 1– йиғмажилд, 1– 4 варақ.
5. <https://lex.uz/docs/804330>.
6. Ўзбекистон Республикаси Хукуматининг қарорлари тўплами, 10 – модда.1997, 3– сон. – Б.4.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997, 4 – 5 – сонга илова. – Б.1 – 50.
8. <https://lex.uz/docs/828354>
9. <https://lex.uz/docs/632969>
10. Обломуратов Н. Худаёров А. Президент Ислам Каримов асарларида солиқ сиёсатини такомиллаштиришнинг ижтимоий – фалсафий ва тарихий аҳамияти. – Тошкент: REN– Poligraf, 2008. – 13. Б.
11. ЎзМА, М – 37– фонд, 1– рўйхат, 136 – йиғмажилд, 20 – варақ.
12. ЎзМА, М – 37 – фонд, 1– рўйхат, 8631 – йиғмажилд, 14 – варақ.
13. ЎзМА, М – 37 – фонд, 1 – рўйхат, 8959 – йиғмажилд, 1– варақ.
14. Ўзбекистон давлат солиқ тизими – ислохот ва ривожланиш йўлида. – Тошкент, 2007. – Б.74
15. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2005. – Б. 89.
16. <https://lex.uz/docs/1286558>.
17. Маблағларни бошқа фойдаланиш мумкин бўлган йўналишлардан олиб, солиқларни тўлаш учун йўналтириш орқали вужудга келадиган иқтисодий чегирмалар даражаси бўлиб, одатда солиқ тўловчининг муайян даврда бюджетга тўланган солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йиғиндиси сифатида намоён бўлади. Мамлакат миқёсида солиқ юки даражасини солиқларнинг ялпи ички маҳсулотдаги салмоғи орқали ифодаланади. Иқтисодий иборалар луғати бўйича услубий қўлланма. – Самарқанд: “СамДУ”, 2011. – Б. 58.
Албатда дунёдаги бундай ўзгаришлар Ўзбекистон учун ҳам бегона эмас. Ўзбекистон Республикасининг мустақилликни қўлга киритиши биланоқ глобаллашув ва маънавият соҳаси муҳим тадқиқот объектига айлана бошлади ва ўз навбатида Марказий Осиё атрофидаги сиёсий жараёнларнинг жадаллашуви ҳам мамлакатимизнинг мазкур соҳага бўлган қизиқишини ниҳоятда кучайтирди. Айтиш жоизки, бунинг баробарида мураккаб глобал жараёнларнинг ОАВда чуқур таҳлилий материал сифатида берилиши республикамиз жамоатчилиги учун долзарб муаммога айланди. Мазкур вазифани амалга оширишда геёсиёсий тадқиқотларнинг асосий илмий йўналишлари бўйича янги илмий –амалий тавсия ва таклифлар ишлаб чиқиш, уларни таҳлил қилишдан иборат бўлади.

Миллий қадриятларимизда жаҳоннинг бошқа халқларига ўхшамайдиган урф-одатлар, расм-русмлар, маросимлар ва



анъаналардаги ўзига хослик ҳам бор. Маълумки, кадриятлар маълум шароитларда шаклланади. Шу сабабли улар мааллий, миллий, минтақавий шакллар ва умуминсоний мазмунда мавжуд бўлади. Маҳаллий кадриятларнинг энг етукли ва умуммиллий манфаатларга мослари аста –секин сараланиб умуммиллий даражага кўтарилди. Бугунги тифизлашган ахборот замон ва маконида уларни асрашдек ғоят долзарб масала турибди.

Жумладан, бугунги глобаллашув жараёнларида цивилизациялар тўқнашуви муаммога айланаётган бир пайтда Ўзбекистон ёшларини ғоявий жиҳатдан тарбиялашни такомиллаштириш, ахборот асрида умуминсоний кадриятларни асраб қолиш масаласи ғоят аҳамият касб этадиган вазифадир. Бу эса ўз навбатида замонавий ахборот маконида ҳаракат қилишни мураккаблаштириб, ички ва ташқи ахборот алмашинувида бир қатор қийинчиликларни келтириб чиқарди.

Жамиятимиз ёшлари билим олишлари учун фойдали, зарур маълумотларни қабул қилиш билан бир қаторда маънавий кадриятларимизга қарши йўналтирилган, ахборотларга ҳам дуч келмоқдалар. “бугунги кунда инсон маънавиятига қарши йўналтирилган бир қарашда арзимас бўлиб туюладиган кичкина ҳабар ахборот оламидаги глобаллашув шиддатидан куч олиб, кўзга кўринмайдиган, лекин зарарини ҳеч нарса билан қоплаб бўлмайдиган улкан зиён етказиши мумкин”. [1].

Шў ўринда шахс, жамият ва давлатнинг ахборот соҳасидаги манфаатлари нималардан иборат эканлигини аниқлаштириб олсак.

Шахснинг ахборот соҳасидаги манфаатлари унинг ахборотга эга бўлиш, қонунан таъқиқланмаган фаолиятни, яъни жисмоний, маънавий ва интеллектуал ривожланиш жараёнида ахборотдан фойдаланиш борасидаги конституцион ҳуқуқларининг амалга оширилишининг таъминланишини назарда тутди. Шу билан бирга шахснинг ахборот билан боғлиқ муҳим эҳтиёжларидан бири унинг шахсий хавфсизлигини таъминлайдиган персонал маълумотларнинг ҳимояланганидир.

Жамиятнинг ахборот соҳасидаги манфаатлари қуйидагича изоҳланади:

-қонунга хилоф равишда ижтимоий онгга ахборот воситасида руҳий таъсир кўрсатишга, уни чалғитишга йўл қўймаслик;

-жамиятнинг маънавий, маданий ва тарихий бойликларини, мамлакатнинг илмий ва илмий техникавий салоҳиятини асраш ҳамда ривожлантириш;

-миллий ўзликни англашни издани чиқаришга, жамиятни тарихий ва миллий анъаналар ҳамда урф –одатлардан узоқлаштиришга, ижтимоий-сиёсий вазиятни

барқарорлаштиришга, миллатлараро ва конфессиялараро тотувликни бузишга қаратилган ахборот экспансиясига қарши ҳаракат тизимини барпо этиш;

-мамлакатда кечаётган маънавий янгиланиш жараёнларида ижтимоий ҳамжиҳатликка эришиш;

Умуман олганда жамиятнинг ахборот соҳасидаги манфаатлари шахс манфаатларининг давомий қисми сифатида ижтимоий мувозанатга эришиш ва уни сақлаб туришда ўз аксини топади.

Давлатнинг ахборот соҳасидаги манфаатлари эса қуйидаги аспектларни ўз ичига олади.

-ахборот хавфсизлигига нисбатан мавжуд таҳдидларга қарши аракатлар юзасидан иқтисодий, сиёсий, ташкилий ва бошқа турдаги чора-тадбирларни амалга ошириш;

-давлат сирларини ва давлат ахборот ресурсларини рухсатсиз тарзда фойдаланишдан муҳофази қилиш;

-конституциявий тузумни зўрлик билан ўзгартиришга, ҳудудий хлитликни, давлат суверинтетини бузтишга, ҳокимиятни босиб олишга ёки қонуний сайлаб қўйилган ёки тайинланган ҳокимият вакиллари ҳокимиятдан четлатишга ва давлат тузумига қарши бошқача тажовуз қилишга очикдан-очик даъват этишни ўз ичига олган ахборот тарқатилишига қарши ҳаракатларни амалга ошириш.

Соддароқ қилиб айтганда, давлат манфаатлари ахборот инфратузилмасининг уйғун ривожланиши, шахс ва фуқароларнинг ахборот олиш ва ундан давлат суверентети ва ҳудудий яхлитлигига дахл этмаган ҳолда сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий барқарорликни таъминлаш йўлида фойдаланиш борасидаги конституцион ҳуқуқ ва эркинликларини амалга ошириш учун шарт-шароитлар яратиш, қатъий ҳуқуқий тартибни ўрнатиш, тенг ҳуқуқли ва ўзаро манфаатли халқаро ҳамкорликни ривожлантиришдан иборат. “Ахборот хавфсизлиги тушунчаси ахборот маконининг фуқаролар, ташкилотлар ва давлат манфаати йўлида шакланиши ва ривожланишини таъминловчи ҳолат сифатида изоҳланади” [2].

Бугун айрим давлатлар хадеб ўз мафқурасини бошқа мамлакат ва халқларниқидан устунлигини уқтиришга аракат қилишмоқда. Миллатлар, айниқса ёшлар орасида ижтимоий тармоқлар орқали ўз қадриятлари ва маънавиятлари, нотўғри қарашларини сингдиришга бўлган уринишлари давом этмоқда. Бугун дунё глобаллашуви туфайли борган сари “кичрайиб” маданий ва миллий чегаралар емирилмоқда. Ана шундай вазиятдан эса дезинформациялар туфайли бир юртда яшовчи турли

мафкура ва динга эътиқод қилувчилар орасида ихтилофлар чиқиши ҳеч гап эмас.

Интернетнинг ижобий томонлари кўп бўлгани каби унинг салбий томонлари ҳам талайгина. Мисол учун, портловчи моддаларни яшаш инструкциялари, осонликча ўз жонига қасд қилиш йўллари, антсемитизм кабилар. Демокримизки, айниқса ёш ўспиринларнинг ўргимчак тўридан фойдаланишини доимо кузатиб бориш лозим. Акс холда, ундаги баъзи маълумотлардан рухий таъсирланиш баъзи салбий натижаларга олиб келиши мумкин. Фикримизча шахснинг фикр тарбиясига эътиборни қаратиш, улар маънавий оламининг дахлсизлигини таъминлашда аамиятга эга, чунки “...қаерда ...юксак ақл идрок ва тафаккур хукмрон бўлса, ўша ерда маънавият қудратли кучга айланади” [3]. Халқни халқ, миллатни миллат сифатида танитувчи инсонларни бирлик ва барқарорлик йўлида бирлашишига ундовчи умуминсоний қадриятларимизга таҳдид солувчи ахборотлар таъсирига тушиб қолмаслик учун бизда кучли онг ва юксак тафаккур, илмий ёндошув таъбири билан айтганда ахборотни филтрлашни ўрганишимиз ва ўзгартиришимиз заруриятини бугунги замоннинг ўзи исботлаб турибди.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 14 декабрь куни Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” нутқидан.
2. Шавкат Мирзиёев—Эркин ва фаровон, демократики Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. “Ўзбекистон” 2017 йил.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. Тошкент:Маънавият, 2008. Б. 115.
4. Охунжон Сафаров Мэлс Махмудов "Оила Маънавияти "Тошкент «Маънавият» 2000й.
5. Ziyonet.uz
6. Интернет нашрлари.
7. Муҳаммад ал-Бухорий. Обественный отношения какцель международного информационного обмена. Т.:ТашГИВ, 2000, Б.55.



SPORT MENEJERINING PROFESSIONAL SIFATLARI VA BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK SHARTLARI

Abror Akbarjonovich Mamadaliyev

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

mamadaliyev010@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sport menejerining professional sifatlarini baholashni nazariy tomonlari bayon etilgan. Shuningdek, uning mazmunidan sport maktablarida faoliyat yuritayotgan “direktorning ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari”ning professional kompetensiyasi bo‘yicha ekspertlar bahosi va ilmiy xulosalar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: sport maktabi, sport menejeri, professional sifatlar, boshqaruv kompetensiyalari, ekspert baholash.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONDITIONS FOR ASSESSING THE PROFESSIONAL QUALITIES AND MANAGERIAL COMPETENCIES OF A SPORTS MANAGER

ABSTRACT

This article describes the theoretical aspects of assessing the professional qualities of a sports manager. It also includes an assessment of experts and scientific conclusions on the managerial competence of the “Deputy Director for the Development and Selection of Mass Sports”, working in sports schools.

Keywords: sports school, sports manager, professional qualities, management competencies, expert assessment.

KIRISH

Rejalashtirilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqot muammosi O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” [1] va “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” [2] Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF–5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [3], 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi



to‘g‘risida” [4] Farmonlari, 2023-yil 7-apreldagi PQ–144-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [5] qarorida nazarda tutilgan ustuvor vazifalar, yangitdan qabul qilingan lavozim majburiyatlari va kasb standartlari – zimmasiga yuklangan funksiyalarni samarali va yuqori professional darajada bajarishga qodir sport menejerlarini tanlash hamda sport tashkilotlarini ana shunday mutaxassislar bilan ta‘minlash, tizimli rag‘batlantirish ishlarini olib borish, zamonaviy raqobatbardosh rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat bosqichiga olib chiqishda rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ilg‘or boshqaruv tajribasini milliy qadriyatlarimizga uyg‘unlashtirgan holda amaliyotga tatbiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Zamonaviy rahbar kim, u qanday talablarga javob berishi kerak?”, degan savol kun tartibida muhim masala hisoblanadi. E.G‘oziyevga [6] ko‘ra, “Rahbar qiyofasining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Rahbarning biografik tavsifi.
2. Rahbarning yetakchi kompetensiyalari.
3. Rahbar shaxsining psixologik xususiyatlari.
4. Rahbarning kasbiy tajribasi” [6; 143 b.].

I.I. Maxmudov [7], “boshqaruv psixologiyasining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan boshqaruv jarayonida rahbarlik bilim, ko‘nikma va malakalarining rivojlanib borib professionalizmga aylanish jarayoni mexanizmlarini tahlil qilar ekan, ... boshqaruv professionalizmini shakllantirishga erishishning eng maqsadga muvofiq va samarali yo‘li – bu baholash texnologiyalarini qo‘llash orqali rahbar kompetentligini rivojlantirish” [7; 304 b.], – degan asosli xulosaga keladi.

E.N. Sattarov [8] fikricha, “Kompetentliklar jamlanmasi optimal bo‘lishi va xulq-atvorning kalit standartlarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak. Masalan, tadqiqotchilar kuzatishlariga ko‘ra, keyingi yillarda modellardagi kompetentliklar soni 30 ta va undan ko‘p miqdordan 8-12 tagacha kamaydi. Korporativ darajaga va kompaniyaning tashkiliy strukturasi darajasiga asoslanib, an‘anaviy tarzda kompetentliklarning quyidagi ko‘rinishlari farqlanadi:

- professional kompetentliklar;
- boshqaruv kompetentliklari;
- korporativ kompetentliklar [8; 69-bet].

Yangi O‘zbekiston va uchinchi Renessans davri yangi avlod boshqaruv tizimi rahbarlik lavozimlariga nomzodlar

(da'vogarlar, zaxira kadrlar) loyiqqligini aniqlash, baholash va muayyan lavozimlarga tavsiya etish texnologiyasini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bunda boshqaruv jarayoni sof ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lgani hamda personalni boshqarishdagi konsepsiyalarga muvofiq insoniy munosabatlar va (yoki) insonni boshqarish(human being management)ni nazarda tutgani sababli, uning tamoyillarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Ya'ni boshqaruvning turli sohalari o'zining spesifik xususiyatlariga ega bo'lib, unda muvaffaqiyatli boshqaruv faoliyatini yuritish rahbar shaxsidan o'ziga xos shaxsiy xislatlarning shakllanganligini talab qiladi. Qator ilmiy-amaliy psixologik tadqiqotlarda aniqlashicha, muvaffaqiyatli va samarali boshqaruv faoliyati ko'p jihatdan shaxsda rahbarlikka oid qobiliyat va psixologik xususiyatlar (kompetentlik)ning shakllanganligi bilan belgilanadi.

Shu jihatdan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi sport menejerlari uchun zaruriy deb hisoblangan, ya'ni talab etiladigan psixologik xislatlar (kompetensiyalar) majmuasi namunasi-standartini yaratish va konkret nomzodni psixologik baholash orqali bu standartga qanchalik mos kelish kelmasligini aniqlash talab etiladi. Tadqiqotning ana shu o'rnida O.E. Hayitovning "Rahbar psixologik kompetentligini ekspert baholash metodikasi"dan foydalanildi [9].

Metodika orqali sport faoliyati boshqaruvi sohasidagi kompetensiyalar darajasini tushuntiruvchi ijtimoiy-psixologik shartlar, ya'ni sport menejerining mavjud individ va shaxsiy sifatlari (jumladan, ijtimoiy-kommunikativ va liderlik sifatlari, axloqiy va boshqa xususiyatlari) tizimi, professional (jumladan, kognitiv va ijtimoiy-informatsion, autopsixologik, maxsus, ijtimoiy-psixologik) kompetensiyalari mazmunini yoritishda qo'l keladi hamda ijtimoiy-psixologik tajriba asosida sport menejeri qobiliyatini baholashga asos bo'ladi.

NATIJALAR

Tadqiqot ishimizda, O.E. Hayitovning "Rahbar psixologik kompetentligini ekspert baholash" metodikasi 254 nafar sport maktablari rahbarlari(ekspertlar)dan onlayn ko'rinishda, maxsus platformada "Direktorning ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya ishlari bo'yicha o'rinbosari"ni professional sifatlari baholab chiqildi.

1-jadval.


Direktorning ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya ishlari bo'yicha o'rinbosarini professional kompetensiyalarini ekspert bahosi (n=254)

8.	Hurmatli ekspert, Siz qo'l ostingizda faoliyat yuritayotgan ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosaringizning kasbiy sifatlari reestrini qanday ketma-ketlikda baholaysiz?		
8.1.	Jumladan, professional kompetensiyalari doirasida: (1 dan 15 gacha)	Absolyut tanlov	Ekspertlar tanlovi (rang)
042	Kelajakni ko'ra olish qobiliyati	31	2
043	Har xil turdagi axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlay olish qobiliyati	10	7
044	Rejalashtirish qobiliyati	20	4
045	Sport ta'limi sohasiga doir muammolar tadqiqida tizimli tahlil yuritish qobiliyati	25	3
046	Vaqtning to'g'ri taqsimlash qobiliyati	20	4
047	Sport ta'limi sohasiga doir masalalar yechimini topishda modellashtirish usulidan foydalana olish qobiliyati	33	1
048	Tashkilotchiligi	31	2
049	Istiqbolni belgilash yo'lida to'g'ri bashorat qila olish qobiliyati	5	9
050	Tavakkalga tayyorligi	20	4
051	Dadilligi	5	9
052	Avanturachiligi yoki osongina muvaffaqiyatga erishishni ko'zlashi	5	9
053	Keragidan ortiq qiziquvchanligi, fanatligi	8	8
054	Mas'uliyatliligi	13	6
055	Muvaffaqiyatga nisbatan ishonchi va yo'nalganligi	13	6
056	Mag'lubiyatdan ijobiy xulosa chiqara olish qobiliyati	15	5

Ekspert baholash natijalariga ko'ra, ekspertlar sport menejerlarining kasbiy sifatlari reestrindagi 15 ta professional kompetensiyalarni 1 dan 15 gacha ranglab berishdi. Aniqlanishicha, 15 ta professional kompetensiya 9 ta rangda baholanib, kuchli uchlikdan to'rtta kompetensiya o'rin egallagan. Jumladan, "sport ta'limi sohasiga doir masalalar yechimini topishda modellashtirish usulidan foydalana olish qobiliyati" kompetensiyasini 33 nafar ekspert (12,99 foiz), sport menejerlarining "kelajakni ko'ra olish qobiliyati" va "tashkilotchilik" kompetensiyalarini 31 nafardan ekspert (12,20 foiz), "sport ta'limi sohasiga doir muammolar tadqiqida tizimli tahlil yuritish qobiliyati"ni 25 nafar ekspert (1-rangda) baholab berishgan (1-jadvalga qarang).

Ekspertlar tomonidan sinaluvchilarning “individ sifatleri reestri”dan “kuch-quvvati, shijoati va ruhiy sog‘lomligi” kompetensiyasi (152 nafar) 1-o‘rinda ranglangan. Axloqiy xususiyatlar ichida esa “o‘z so‘zida tura olishlik” (198 nafar) muhim kompetensiyasi sifatida baholangan (1-, 2-rasmlarga qarang).


71 nafar ekspert “ish faoliyatini tashkillashtirish va yuritish yuzasidan tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bo‘yicha savodxonlik”ni, 56 nafar ekspert “ma‘lumotlarni baholash mezonlari xususidagi bilimdonlik”ni, 41 nafar ekspert esa “o‘z fikrini mustaqil tarzda dalillash qobiliyati”ni kasbiy sifatleri reestridagi “kognitiv va ijtimoiy-informatsion kompetensiyalar” ichidagi eng muhim ranglilar deb e‘tirof etishgan.




1-rasm. Direktorning ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosarini “Individ sifatleri reyestri”ni ekspertlar tomonidan ranglanishi

Shuningdek, kasbiy reestrning “autopsixologik kompetensiyalari” doirasida eng muhim deb ranglangan kuchli uchlikni quyidagi: o‘rinbosarning “maqsad sari sobitqadamligi”ni 35 nafar ekspert, “chidam-bardoshliligi”ni 28 nafar ekspert, “Maqsadga yo‘nalganligi” va “Qo‘yilgan maqsadi sari olg‘a borish qobiliyati”ni 21 nafar ekspert ustuvorlikda baholashgan. “Maxsus kompetensiya”lar doirasida 115 nafar ekspertning fikricha, “sport ta‘limi sohasi bo‘yicha tizimli monitoringni yurita olish qobiliyati”ning yaxshi shakllanganligi o‘ta muhim holatdir. “Ijtimoiy-psixologik kompetensiya”lari doirasida esa 63 nafar “o‘zgarishlarga tezkorlik bilan moslashuvchanligi va unga nisbatan yo‘nalganlik”ni, 56 nafari esa “istiqbolli fikrlash, ya‘ni yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holat bo‘yicha zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish kompetensiyasi”ni, 51 nafari “qayishqoqlik”ni muhim boshqaruv kompetensiyasining tarkibiy

komponenti sifatida baholashgan.



2-rasm. Direktorning ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya ishlari bo'yicha o'rinbosarini "Axloqiy sifatleri"ni ekspertlar tomonidan ranglanishi



3-rasm. Direktorning ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya ishlari bo'yicha o'rinbosarini "Shaxsiy sifatleri reyestri"ni ekspertlar tomonidan ranglanishi



Shuningdek, 50 nafar ekspert tomonidan “sport menejerlarining boshqaruv kompetensiyalari ichida “nizo, ixtiloflarni bartaraf eta olish qobiliyati”ni, 38 nafar ekspert esa “zaruriy ma’lumotlarni qo‘lga kiritish qobiliyati”ni, 20 nafar ekspert fikricha, “muloqotmandlik” 1-rangli, eng muhim ijtimoiy-kommunikativ sifatlardir (3-rasmga qarang).

MUHOKAMA

Nazariy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, kompetensiyalar deganda, sport menejerining muayyan vazifalarni maksimal darajada sifatli va samarali bajarishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari, mahorati, shuningdek, xatti-harakat va fe‘l-atvori sifatlari nazarda tutiladi.

Amaliy jihatdan yondashadigan bo‘lsak, har qanday “kompetensiyalar modeli” – bu kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishiga ko‘ra o‘ziga xos ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan kompetensiyalar ro‘yxatidir. Nazarimizda, kompetensiyalar modeli jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlarning boshqaruv darajasi, lavozimi va bajaradigan vazifalariga, ya’ni bir so‘z bilan aytganda “Jismoniy tarbiya va sport sohasining tarmoq malaka ramkasi”da keltirilgan kasbiy va xulq-atvor talablarini aniq belgilab beradi.

XULOSA

1. Sport boshqaruvi kadrlari kompetensiyalarini qayta ko‘rib chiqish va milliy qadriyatlarni hisobga olgan holda xalqaro standartlarga moslashtirish, son va sifatiga alohida e’tibor qaratish lozim;

2. Adragogika (katta yoshlilar ta’limi) qoidalariga tayangan holda sport boshqaruvi kadrlari malakasini oshirishda ta’sirchan trening texnologiyalarini keng ko‘lamda joriy etish zarurati sezilmoqda. Bunda asosiy e’tiborni tinglovchilarning tayanch (hard skills) bilimiga emas, balki yumshoq (soft skills) bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratish talab etiladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” O‘RQ-394-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/2742233>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” O‘RQ-576-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/4571490>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari



to‘g‘risida” Farmoni // <https://lex.uz/docs/3578121>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ–144-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori // <https://lex.uz/ru/docs/6426456>

6. Ғозиев Э., Тошимов Р. Менежмент психологияси: Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Университет”, 2001. – 143 б.

7. Махмудов И.И. Бошқарув профессионализми: психологик таҳлил / И.И. Махмудов; Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. – Тошкент: Академия, 2011. – 304 б.

8. Саттаров Э. Ўзбекистон Республикаси прокуратураси раҳбар кадрлар захирасини шакллантириш тизимининг ижтимоий психологик такомиллашуви: Психол. фан. док-ри (DSc) ... дис-я: 19.00.03; 19.00.05. – Тошкент: ТДПУ, 2022. – 226 б.

9. Ҳайитов О.Э. Олий таълим муассасаси ўрта бўғин раҳбарлари психологик компетентлигини моделлаштириш: Психол. фан. док-ри (DSc) ... дис-я: 19.00.05. – Тошкент: ТДПУ, 2020. – 250 б.

“QUTADG‘U BILIG” DOSTONINING MANBALARI VA UNING O‘RGANILISHI

Zilola Olimjon qizi Abdusodiqova

JDPU 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d., dotsent Surayyo Eshonqulova

ANNOTATSIYA

Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlar adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, ulug‘ mutafakkir shoir va davlat arbobidir. Shoir qalamiga mansub “Qutadg‘u bilig” dostoni turkiy yozma badiiy adabiyotning ilk yirik namunasi bo‘lib, Yusuf Xos Hojibdan bizgacha yetib kelgan yagona adabiy meros sanaladi. Unda o‘z davrining yetuk donishmandi, taraqqiyparvar ziyolisi bo‘lgan ijodkorning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy, falsafiy-irfoniy qarashlari majmuasi o‘ziga xos uslubda badiiy ifodalangan.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, adabiyot, Qutadg‘u bilig, pandnoma.

KIRISH

Yusuf Xos Hojib hayoti va faoliyati haqida juda oz ma’lumot saqlanib qolgan. Aniqrog‘i, uning hayot yo‘li to‘g‘risida muallifning o‘z asari – “Qutadg‘u bilig” (Saodatga yo‘lovchi bilim) dagi ayrim ishoralar asosida ma’lum tasavvurlar hosil qilish imkoniyatiga egamiz. Muallifning ismi Yusuf. Muallifning ismi Yusuf ekanligi va boshqa ma’lumotlarni shu asarning o‘zidagina olamiz: – Kitab izisi Yusuf ulug‘ Hajib o‘ziga pand berur, Yusuf Xas Hajib teb ati javi yazilmish. Asar mazmunidan ma’lum bo‘lishicha, Yusuf Balasog‘unda tug‘ilgan, ma’lumotli o‘z davrining butun ilmlaridan boxabar bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shoir qoraxoniylarning yirik madaniy markazlaridan va poytaxt shaharlaridan biri Bolosog‘un (Quz O‘rdu)da tug‘ilgan. Dostonning muqaddimasida adib o‘zi dunyoga kelgan yurtni quyidagicha tasvirlaydi:

Munuqi tarug‘laq qut urdi eli,

Tub-asli, nasabdin yuramish tili.

Mazmuni: Buning tug‘ilgan eli Quz O‘rdudir, Tub-asli, nasl-nasabidan tili so‘z ochdi.

Shoir dostonni yozgan paytida yoshi ellikdan oltmishga tomon borayotganini qayd etadi:

Tegurdi manga ellik yashim,
O'qir oltmish emdi manga kel teyu.

Asarda "Qutadg'u bilig"ning yozilish tarixi haqida keltirilgan ishoralar Yusuf Xos Hojibning tug'ilgan yilini aniqlash imkonini beradi. Shoir dostonida bu haqida quyidagi satrlarni bitib qoldirgan:

Yil altmish eki erdi to'rt yuz bila,
Bu so'z so'zladim man tutib jan sura.

Tugal o'n sakkiz oyda aydim bu so'z,
O'durdum, adirdim, so'z evdib tera.

Keltirilgan iqtibosdan ma'lum bo'lishicha, adib "Qutadg'u bilig"ni hijriy 462 (1069-1070) yilda yozib tugatgan. Asarni yozish uchun bir yarim yil vaqt sarflangan. Shoir dostonni yozishga kirishganda yoshi ellikda ekanligini nazarda tutsak, uning hijriy 410 (1019) yilda tug'ilganligi ma'lum bo'ladi. Muallif "Qutadg'u bilig" dostonining, Bolosog'unda yoza boshlagani, uni Qashqarda nihoyasiga ytkazganligini ham eslatib o'tadi.

Yusuf Xos Hojib o'z asarini qoraxoniylar hukmdorlaridan Tavg'ach Bug'roxon (Tavg'ach ulug' Bug'ro qoraxon Abo Ali Hasan binni Arslonxon)ga taqdim etadi. Hukmdor shoir mehnatini yuksak qadrlab, unga —Xos Hojib (muqarrub, eshik og'asi) unvonini beradi. Shundan keyin u Yusuf Xos Hojib nomi bilan taniladi.

O'z davrining peshqadam donishmandlaridan biri bo'lib yetishgan Yusuf Xos Hojib fors-tojik, arab tillarini, badiiy adabiyot, tarix, falakkiyot, geometriya, matematika, tibbiyot, geografiya kabi fanlarni chuqur o'zlashtirgan. Muallifdagi ana o'sha bilimdonlik dostonida yorqin izlarini qoldirgan. Jumladan, u dostonida zamonasining buyuk olimlarining axloqiy-falsafiy qarashlari, tib ilmiga doir noyob mulohazalarni targ'ib qiladi, zamondoshlarini aniq fanlarni o'rganishga da'vat etadi. "Qutadg'u bilig" dostoni qoraxoniylar hukmronligi davrining ma'naviy ma'rifiy talabi, ehtiyoji sifatida vujudga keldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, Qashqardan Amudaryogacha bo'lgan hududni qamrab olgan qoraxoniylar mamlakati markazlashgan yagona hokimiyatga ega emas edi. U bir necha mayda hokimliklarga bo'linib ketgan edi. Bular orasida poytaxti Qashqar bo'lgan Sharqiy Turkiston, yana biri poytaxti Bolosog'un bo'lgan Yettisuv, keyinchalik Movarounnahr istilo qilingandan so'ng poytaxti avval O'zgand, keyinroq Samarqand bo'lgan Movarounnahr dastlabki yirik hokimliklardan edi. Bular yana bir qancha mayda

hokimliklarga ham bo'lingan. Qoraxoniylar sulolasining bosh hukmdori "tavg'achxon" yoki "tabg'achxon", hokimliklar boshliqlari esa "Ilekxon" deb atalar edi. Ilekxonlar tavg'achxonga rasman qaram bo'lib, ular o'z hududlarini kengaytirish, rasmiy qaramlikdan qutilishga harakat qilardilar. Shuning natijasida o'zaro toj-taxt kurashlari avj olar, mamlakat bundan katta talofot ko'rar edi. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonini yozar ekan, avvalo, markazlashgan davlatni barpo etish, tavg'achxon va Ilekxonlar o'rtasidagi ixtiloflarni tugatish g'oyasini badiiy ifodalashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shu bois adib didaktik mazmunga ega bo'lgan bu asarda davlatni idora qilish usullari, jamiyatdagi turli toifa, tabaqa, ijtimoiy guruh vakillarining, jumladan, tavg'achxon, Ilekxonlarning fe'l-atvori, davlat qurilishi, ijtimoiy tabaqa vakillarining jamiyatdagi o'rni kabi siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy masalalarni yoritishga alohida ahamiyat beradi. "Qutadg'u bilig"ning bu xususiyatlari uni nizomnoma, siyosatnoma maqomidagi bir asar darajasiga ko'taradi. Yusuf Xos Hojib bu asarni yozishdan maqsad xalq oldidagi yana bir burchni ado etish ekanligini dostonning muqaddimasida quyidagicha qayd etadi:

Arabcha, tojikche kitoblar o'kush,

Bizin tilimizche bu yung'i uqush.

Mazmuni: Arabcha, tojikcha bunday kitoblar talaydir, Bizning tilimizda esa bu jamlangan zakovatdir. Shoir o'rinli e'tirof etganidek, arabcha, tojikcha kitoblar ko'p bo'lib, bizning tilimizda mazkur kitob donishmandlikning ilk namunasi edi. "Qutadg'u bilig" dostoni o'z davrida keng shuhrat qozongan, turkiy tildagi eng yaxshi asar sifatida baholangan. Mazkur pandnomaning turli joylarda turlicha nomlar bilan atalganligini muallifning o'zi asar muqaddimasida faxr bilan ta'kidlaydi. Bu kitobni chinliklar "Adabul-mulk" (Hukmdorlar odobi), mochinliklar (sharqiy turkistonliklar) "Oyinul-mamlakat" (Mamlakatning tartib usuli), Sharq elining kattalari "Ziynatul- umaro" (Amirlar ziynati), eronliklar "Shohnomai turkey" ba'zilar "Pandnomai muluk" (Hukmdorlar nasihatnomasi), turonliklar esa "Qutadg'u bilig" deb nomlaganlar.

Mana shunday qimmatli asar mavjudligi haqidagi dastlabki xabar XIX- asrning birinchi choragida paydo bo'ldi. Bu asarning hijriy 843 (1439) yilda Hirotda uyg'ur yozuvi bilan Hasan Qara Sayil Shams tomonidan ko'chirilgan nusxasi Turkiyaning Tugot shahriga, bu yerdan esa hijriy 879 (1474) yilda Abdurazzoq Shayxzoda baxshi uchun Fanari o'g'li Kadi Ali tomonidan Istanbulga keltirilgan. Uni mashhur tarixchi va sharqshunos Xammer Purgshtall Istanbulda sotib olib, Vena saroy kutibxonasiga keltiradi. Shundan so'ng bu asar haqidagi

birinchi xabar va uning ba`zi namunalari 1823-yilda fransuz sharqshunosi Jaubert Amedee tomonidan nashr etilgan.

1870-yilda esa venger olimi Vamberi “Qutadg‘u bilig”ning eng muhim qismlarini “Uyg‘ur tili obidalari” va “Qutadg‘u bilig” nomi bilan nashr qildi va nemis tilidagi tarjimasini berdi. 1890-yildan boshlab esa bu asarni mashhur rus sharqshunos olimi Radlov tekshira boshladi. 1896-yilda kitobning arab yozuvi bilan ko‘chirilgan ikkinchi nusxasi Qohirada topildi. 1890-yilda Radlov uyg‘ur yozuvi bilan ko‘chirilgan Vena nusxasining faksimilesini, 1891-yilda shu faksimilesining tekstini manjur yozuvi bilan nashr qildirgan edi. Qohira nusxasidan ko‘chirma olgach, u ikki nusxani solishtirish imkoniyatiga ega bo‘ldi va 1910-yilda “Qutadg‘u bilig”ning transkripsiyasi bilan nemis tiliga qilingan mukammal tarjimasini nashr ettirdi. Nihoyat “Qutadg‘u bilig”ning arab yozuvi bilan ko‘chirilgan uchinchi nusxasi haqidagi dastlabki malumot 1914-yilda e`lon qilindi. Sharqshunos olim Valizoda 1913-yilning kuzida o‘z shaxsiy ishi bilan Qo‘qonga safarga otlanadi va mazkur safarida Qozon universiteti qoshidagi arxeologiya, tarix va etnografiya jamiyati tomonidan Sharq qo‘lyozmalari haqida ma`lumot to‘plash topshirig‘ini oladi. U 1914-yil 20-aprelda Farg‘ona ekspeditsiyasi haqida mazkur jamiyatga qilgan hisobot ma`ruzasida namanganlik Muhammadhoji Eshon Lolaresh ismli kishining shaxsiy kutubxonasi “Qutadg‘u bilig”ning arab alifbesi bilan yozilgan nusxasi mavjud ekanligi haqidagi xabarni aytgan. Bu esa “Qutadg‘u bilig”ning Namangan nusxasi haqidagi dastlabki ma`lumot edi. Bu xabar e`lon qilinganidan so‘ng o‘zbek olimi Fitrat 1924-yilda Muhammadhoji Eshon Lolareshdan mazkur nusxani olishga miyassar bo‘ladi va shu yilning o‘zidayoq bu nusxani Toshkent asosiy kutubxonasiga keltiradi. Oradan bir yil o‘tgach, “Maorif va o‘qitguvchi” jurnalida “Qutadg‘u bilig”ning Namangan nusxasi haqida Fitratning maqolasi bosilib chiqadi. 1928-yilda esa u bu asarning ayrim parchalarini izohlar bilan nashr qiladi. Umuman, “Qutadg‘u bilig” turkshunos olimlarning diqqatlarini o‘ziga jalb qilgan edi. Jumladan, bu asarning til xususiyatlari, vazn va qofiya usullari, til va fonetik sutrukturasi haqida ilmiy ishlar qilingan.

“Qutadg‘u bilig”ni o‘rganishda A.A.Valitovanning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir. Birinchi bo‘lib bu asarni boy bir tarixiy manbaa sifatida o‘rganish ishini boshlab bergan A.A.Valitova bu sohada beqiyos yutuqlarni qo‘lga kiritgan. A.A.Valitovanning tekshirishlari turkshunoslikka qo‘shilgan katta hissadir. “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”da “Qutadg‘u bilig”ning ayrim parchalari va lug‘atlarining berilishi bugungi kunda bu asarni o‘rganishda yana ilgariga qarab qo‘yilgan dadil qadam hisoblanadi. Shuni ta`kidlab o‘tish kerakki, “Qutadg‘u bilig” haqida qanchalik ko‘p ilmiy ishlar qilingan



bo'lishiga qaramay hali turli masalalar sohasida ko'pgina ilmiy izlanishlar qilish mumkin.

“Qutadg‘u bilig”ning uch qo‘lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri uyg‘ur yozuvida ko‘chirilgan bo‘lib, Venada saqlanadi. Arab yozuvidagi ikki qo‘lyozmadan biri Qohirada, ikkinchisi Toshkentda saqlanmoqda. “Qutadg‘u bilig”ning qo‘lyozmalarini o‘rganish, matnini nashrga tayyorlash sohasida Hammer Purgshtall, Jauberg Amedi, Herman Vamberi, R.Arat, V.Radlov, S.Malov, O.Valitova singari sharqshunos olimlar qimmatli ilmiy tadqiqotlar yaratdilar.

O‘zbekistonda “Qutadg‘u bilig”ga oid ilk ishlarni professor A.Fitrat boshlab berdi. Olim uning ayrim parchalarini “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1926) kitobida nashr ettirdi. S.Mutallibov, G‘.Abdurahmonov, N.Mallayevlar ham A.Fitrat an‘anasini davom ettirdilar. 1971 yilda “Qutadg‘u bilig”ni transkripsiya va hozirgi o‘zbek tiliga tabdili bilan Q. Karimov nashr qildirdi. Shuningdek, asarni hozirgi o‘zbek tilida (nazm-u nasrda) bayon qilib, bolalarbop qisqartirilgan nashrini (-Toshkent: Yulduzcha, 1991) prof. B.To‘qlijev amalga oshirdi. Yana “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni” turkumida “Qadimiy hikmatlar” kitobi tarkibida “Qutadg‘u bilig”ning kattagina qismi (G‘. G‘ulom nomidagi ASN, -Toshkent: 1987. 89-413-betlar) nasriy bayonda o‘quvchilarga taqdim etildi. Bu dostonni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish hamda nashr ishlari davom ettirilmoqda.

“Qutadg‘u bilig” haqida so‘z yuritilgan asarlarda uning mavzu qamrovi va ifoda tarzi haqida fikrlar bayon qilingan. Masalan, Najib Osimbek: “Qutadg‘u bilig” mavzu e‘tiborila “Siyosatnoma”ning aynidir. Turk avzoining mashhuri o‘lan o‘n birli vaznda va tarzi masnaviyda yozilmish o‘lan bu asari nafis beshinchi asri hijriyidagi turk jamoatining haqiqiy bir tasvirini, afkori ma‘naviya va siyosiyasini go‘stariyur”, desa, H.Tavfiq, M.Ehson, H.Oliylar o‘zlarining “Turk adabiyoti namunalari»da uning masnaviy shaklda yozilganligini qayd qilish bilan cheklanishadi. Shu xil fikrlarni boshqa ko‘p tadqiqotlarda ham ko‘rish mumkin.

Asarda masnaviy bilan bir qatorda qasida janrida yozilgan boblar ham mavjud. Dostonning 71, 72 va 78 boblari (ular 44, 40, 37 baytdan iborat) g‘azal shaklida yozilgan, ya‘ni dastlabki bayt bilan keyingi barcha baytlarning juft misralari qofiyalanib kelgan. Dostonning har bir bobi nihoyasidagi to‘rtliklarni (ular ikki yuz atrofida) garchi ruboiy uchun qabul qilingan hazajda emas, mutaqorib she‘riy vaznda yozilgan bo‘lishiga qaramay, mazmuniga ko‘ra ham, shakliga ko‘ra ham ruboiy janriga nisbat berish mumkin.

XULOSA

Xullas, asarning janr jihatdan murakkabligi deyarli barcha tadqiqotlarda eʼtirof etilgan. “Qutadgʻu bilig” tarkibidagi ayrim oʻrinlar uni boshqa janrlarga ham yaqinlashtiradi. Yusuf Xos Hojibning oʻzi bu haqda asarning nasriy muqaddimasida “Adlqa Kuntugʻdi elig at berib padshah oʻrniga tutmish, davlatqa Aytuldi at berib, vazir oʻrniga tutmish, aqlqa oʻgdulmish at berib, vazirning oʻgʻli erinda tutmish turur, qanaatqa oʻzgʻurmish at berib qarindashi teb aymish turur. Taqi anlar ara munazara savali-javabi kecharteg soʻzlamish turur”, deydi. Sheʼriy muqaddimada esa asarning “turkcha qoʻshiqlar”dan iborat ekanligiga ishora bor:

Bu turkcha qoʻshuqlar tuzattim senga
oʻqurda unitma, dua qil menga.

REFERENCES

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. –T.: Fan. 1971
2. Vohidov R.J., Eshonqulov N.R. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. 1-qism. –T.: Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi. 2006.



TURKIY MUMTOZ ADABIYOTDA MUSAMMAT JANRINING SHAKLLANISHI HAMDA TAKOMILI

Maftuna Odiljon qizi Abdumajidova

JDPU 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d., professor v.b. Surayyo Eshonqulova

ANNOTATSIYA

“Shoirlik shunday san’atki, bu san’at orqali hayajonlantiruvchi tushunchalar hosil qilinadi va ta’sirchan o’xshatishlarni bir-biriga bog’laydi. U shunday yo’lda kichik ma’noni kattaga, kattani kichikka aylantiradi. Chiroylikni xunuk libosda ko’rsatadi, xunukni chiroyli jilvagar qiladi” [1;47] deb Nizomiy Aruziy Samarqandiy she’r ilmining mohiyati haqidagi bobida juda o’rinli fikr bildirgan. Albatta, bu yerda fikr so’zning badiiylik tabiatiga ko’chadi, uningcha shoirlik oddiy kasb emas, balki usta san’atkorlik darajada ekanini, xunukni jozib bir tarzda jilvagar qilish, kezi kelganda, go’zalni xunuk libosda tasvirlay bilish mahorati unda hunar kabi mavjud bo’lishi lozimligini uqtirgan. Shoirning qalbidagi mana shunday to’lqinlantiruvchi tuyg’uni so’z orqali boshqalarga ham o’lasha olish hunariga Abdurauf Fitrat ta’biri bilan aytganda “go’zal san’atlar” [19;69] ga adabiyotni, ya’ni she’riyatni kiritish mumkin.

Kalit so’zlar: adabiyot, san’at, mumtoz she’riyat, janr, she’riyat.

KIRISH

XV asr olimi V.Tabriziy fikricha, she’riyat uchga bo’linadi. Ular **qasida**, **masnaviy** va **musammat**dan iborat. **Musammat** musallas (uchlik)dan muashshargacha (unlikkacha) bo’lgan she’r janridir. Ushbu janrning ulushi, uning miqdor va hajmi adabiyot tarixining boshqa bosqichlaridan jiddiy tarzda farqlanmaydi. Bu davr adabiyotida g’azal, masnaviy va qasida janrlari bilan birgalikda musammatning turli navlarida shoirlar ijod qilishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mumtoz adabiyotimiz tarixida musammatlarning o’ziga xos o’rin bor. Sababi **musammat** – o’zbek mumtoz she’riyatining g’azaldan keyingi eng faol janrlaridan biridir. Janr atamasi birinchi marta “Qobusnoma” asarida tilga olingan bo’lib, bunda asar muallifi – Kaykovus ibn Iskandar musammatni shoirlarning zarur usullari doirasida yoritadi [6;122]. Nazariy jihatdan esa musammat ilk bor XI asrning ko’zga ko’ringan she’rshunoslaridan Umar Roduyoniyning “Tarjimon ul-balag’a” asarida asoslanadi [7;72]. Xullas, mumtoz adabiyotida musammatlarning janr sifatida shakllanishi XI asrga to’g’ri keladi. Shundan keyin bu janrni o’rganishga bo’lgan qiziqish yanada rivoj topib, buning samarasida Rashididdin Vatvotning “Xadoyiq us-sehr”, (XII asr) Shams Qays Roziyning “Al-mo’jam” (XII asr), Hoja Nasriddin Tusiyning “Asos ul-iqtibos” (XII asr), Toj al-Haloviyning “Daqoiq ash-she’r” (XIV),

Sharafiddin Romiyning “Xaqoiq al-daqiq” (XIV asr), Vahid Tabriziyning “Jame’ muxtasar” (XV), Shams Faxriyning “Me’yori jamoli”, Xusayn Voiz Koshifiyning “Badoye’ ul-afkor”, Muallim Nojining “Istilohati adabiya”, Qabul Muhammadning “Haft qulzum”, Atoulloh Xusayniyning “Badoye’ us -sanoye” asarlarida musammat haqida u yoki bu darajadagi fikrlar yuzaga keladi [8;208-209]. Bu mulohazalarga o‘zbek adabiyotshunoslaridan A.Fitrat [15;52], M.Shayxzoda [18;284], R.Orzibekov [12;69], O.Nosirov [11;113], tojik adabiyotshunoslaridan R.Musulmonqulov [7;178], rus sharqshunoslaridan Ye.Bertels [3;59], M.Braginskiy [4;360] kabi olimlar o‘z asarlarida munosabat bildirib o‘tadilar.

Ma’lumki, musammat arabcha so‘zidan olingan bo‘lib, “ipga o‘tkazilgan marvarid” degan ma’noni bildiradi. Musammat deganda, musallas, murabba’, muxammas, musaddas, musabba’, musamman, mustasne’, muashshar shakllarining umumiy nomi anglashiladi. Musammat she’r bandlarining baytdan tashqari turlarini anglatuvchi umumiy atama hisoblanadi.

Manbalarda ilk musammatlar yaratgan shoirlar sifatida Manuchehri Damg‘oniy (vaf. 1040) va Qatron Tabriziy (XI asr o‘rtalari) nomlari tilga olinadi. Keyinchalik esa Lomeiy Gurgoniy, Abdulvose’, Hoja Imodi Faqeh, Azhariy kabi shoirlar she’riyatida ham musammatlarning go‘zal namunalari yuzaga keladi. O‘zbek mumtoz she’riyatida musammat yozish esa Hofiz Xorazmiy va Gadoiy ijodiyotidan boshlanadi. Kuzatishlarimiz Hofiz Xorazmiyning musammat she’riy shakllaridan bo‘lgan 9 bayt 45 misradan iborat muxammas yaratganini ko‘rsatadi [20;259]. Bu haqda fidoyi olim Hamid Sulaymonov xayrli ishlarining davomchisi, Xorazmiy she’riyatini maxsus o‘rgangan adabiyotshunos Mo‘minjon Sulaymonov shunday yozadi: “Hofiz Xorazmiyning tarkiband va muxammasi, ikki mustazodi garchi son jihatidan kam bo‘lsa ham, bu janrlarning o‘zbek adabiyotidagi dastlabki mumtoz namunasi hisoblanishi bilan qimmatlidir” [14;12]. Ilmga bu kabi yangi fikrlarning kelib qo‘shilishi ba’zi munozarali o‘rinlarga aniqlik kiritadi.

Musammatlarning vujudga kelishida g‘azalda musajja’ san’atini qo‘llash hamda muvashshah va zajal kabi arab she’riyatidagi bandli she’r shakllarining ta’siri kuchli bo‘lgan [14;30]. Bu san’atni har tamonlama chuqur o‘rgangan, maxsus tadqiqot ishi olib borgan adabiyotshunos B.Sarimsoqov saj’ni turkiy xalqlar she’riyatini yuzaga keltirgan omillardan biri sifatida baholaydi [13;40], qofiyaning saj’ orqali paydo bo‘lganini aytadi [13;38], shuningdek, rus sharqshunosi I.Yu.Krachkovskiy fikrlariga tayanib, saj’ tufayli eng avval aruz bahrlaridan biri – rasaj kelib chiqqan, – degan mulohazani bildiradi [13;19].

Saj’ning musammatga ta’siri haqida Atoulloh Xusayniy shunday yozadi: “Rashididdin Vatvot deptur: “Bu san’at andog‘ bo‘lurkim, shoir bir baytni to‘rt teng bo‘lakka bo‘lgay, uch bo‘lagining oxirida saj’ bergay va to‘rtinchi bo‘lakda qofiya keltirgay. Bu she’rni musajja’ deb ham atalar. Yana depturlarkim, porsiyalar musammatni o‘zga nav’da ayturlar va ul andog‘turkim, bir qofiyada besh misra aytqaylar va oxirgi oltinchi misrani she’rning asosi bo‘lmish o‘zak qofiyada bergaylar. Porsiyalar nazdida eng mashhur bo‘lgan musammat

o'shuldur. Oldingilarin musajja' derlar va bilmaslarkim, qadimiy va haqiqiy musammat uldur" [17;74]. Rashiddin Vatvotning asari bilan bevosita tanish bo'lgan adabiyotshunoslardan biri yuqoridagi fikrga quyidagicha munosabat bildiradi: "Agar biz muallif" musammatning qadim va asl turi o'shaldir" deganda mazkur janrni qadimgi saj'li va xalqona she'rlarga aloqadorligiga ishora qilgan desak xato qilmaymiz. Bu ishoraga va boshqa xulosalarga tayangan holda aytish mumkinki, eng qadimgi zamonlarda odamlar saj' san'ati vositasida turli she'riy parchalarni saj'li qofiyaga solib kuylab yurganlar va keyinroq bu san'at qonuniyati asosida mustaqil musammat janri paydo bo'lgan" [7;73]. Shuningdek, "Tarjimon ul-balog'a" asarining muallifi Umar Roduyoniy ham saj' san'ati va musammat omuxtaligi haqidagi fikrlarini bayon qilganki [7;72], u va bu kabi mulohazalar bizga ham musammatning paydo bo'lishi va rivojida saj'ning roli katta bo'lgan degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Musammatlar dastlab tasmit nomi bilan atalgan [12;92]. Jumladan, sharq she'riyati qonuniyatlarining bilimdoni Atoullloh Xusayniy o'zining "Badoye' us-sanoye" asarida: "Arabiyat arboblardir bir jamoasi depturlarkim, tasmit lug'atta marvoridni ipga tizmaktur, istilohta ersa andin iboratturkim, baytning ja'mi juzvlarin yo ba'zisin qofiyaga hilof qilib saj'lag'aylar va bayt marvorid ipdek va saj'langan juzvlar anga tizilgan donalardek bo'lg'ay", – deb yozadi va uning to'rt turiga izoh beradi [17;74].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turkiy adabiyotshunoslikda musammatlar haqidagi ilk ma'lumot Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan bo'lib, muallif musammatlarning murabba', muxammas, musaddas, musamman va muashshar kabi besh turini keltirib o'tadi [2;20]. M.Shayxzoda o'z asarida Muallim Nojining "Istilohati adabiya" kitobidan olingan quyidagi ta'rifni keltiradi: "Musammat deb vazn va qofiyalari bir bo'lgan, bir sira misralarga aytiladiki, ularda har bandning so'nggi bir yoki ikki misrayi yuqoridagi misralar bilan qofiyalanmaydi. Agar misralarning banddagi soni to'rt bo'lsa, – "murabba' ", besh bo'lsa "muxammas", olti bo'lsa – "musaddas", yetti bo'lsa – "musabba' ", sakkiz bo'lsa – "musamman", to'qqiz bo'lsa – "mutassa' ", o'n bo'lsa – "muashshar deb ataladi" [18;284].

Adabiyotshunos O.Nosirov musammatning lug'aviy va istilohiy ma'nosini Qabul Muhammadning "Haft qulzum" asaridan olingan quyidagi so'zlari bilan izohlaydi: "Bilgilki, tasmit lug'atta ipga o'tkazilgan marvoridni anglatadi. Istilohda shundayki, oldin yozilgan misralar oxiriga vazn va qofiyaga muvofiq misralar qo'shadilar. Aksariyat (musammat) sakkiz xil bo'ladi deb hisoblaydilar: musallas, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, tasne', mashru' " [11;113]. Vahid Tabriziyning "Jame' muxtasar" asarida musammat she'r turi sifatida talqin qilinib, tarkibida 4 dan 10 gacha misra bo'lishi mumkinligi e'tirof etilgan [5;37]. Adabiyotshunos Abdurashid Abdug'afurov "Alisher Navoiy musammatlari" nomli maqolasida mazkur janrga shunday ta'rif beradi: "Qofiyalanishda g'azal sistemasini saqlagan va har bandi 3, 4, 5, va hokazo o'nga yaqin misralarni jamlovchi

bandlardan tashkil topgan she'riy shakllar musammat deyiladi. Boshqacha aytganda, musallas, murabba', muxammas, musaddas, musamman, mutassa' va muashsharlar musammatdir" [1;27].

Kuzatishlar musammat haqidagi eng mukammal ta'rif va ma'lumot Xusayn Voiz Koshifiyning "Badoye' ul-afkor fi sanoye'ul - ash'or" risolasida mavjud, – deb hisoblab, unda berilgan quyidagi ta'rifni keltiradi: "Musammat shuldurki, barcha misralar bir-biriga mos qofiyalar bilan ta'minlanadi, faqat oxirgi misra qofiyasi boshqacha bo'ladi" [7;31]. Biz ham mana shu ta'rifni to'la va mukammal deb hisoblaymiz, bu va yuqorida keltirilgan nazariy asoslarga tayangan holda: "Arab tilida ipga o'tkazilgan marvarid ma'nosini anglatuvchi musammat – har bandi 3 misradan 10 misragacha bo'ladigan, 1-banddan boshqa bandlarining oxirgi bir yoki ikki misrasi yuqoridagi misralar bilan qofiyalanmaydigan, lekin vaznda bir bo'lgan she'riy shakllarni jamlovchi janrdir", – deya ta'rif beramiz va quyidagi turlarga tasnif qilamiz: **musallas, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mutassa', muashshar**. Bular orasida 5 ta she'riy shakl, ya'ni murabba', muxammas, musaddas, musamman, muashshar ham Koshifiy asarida mukammal ta'rif topadi. Undan oldingi she'rshunoslar musammatning 3 turigagina izoh berganlar [7;32]. Musammat she'riy shakllari ichida musabba' va mutassa' yozish ancha kam uchraydi.

Musammatlarning yaratilishiga qarab tasnif qilinishida ham bir-biriga zid fikrlarga duch kelamiz. Jumladan, "O'zbek klassik she'riyati janrlari" kitobining musammatga doir qismini yozgan adabiyotshunos Ozod Nosirov musammatlarni: 1. Mustaqil musammatlar (tab'i xud musammatlar); 2. G'azal asosida yaratiladigan musammatlar (tazmin musammatlar), – deb guruhlariga ajratadi. Tavsif berish jarayonida esa o'z g'azaliga musammat bog'lash hodisasini ham birinchi, ham ikkinchi guruh sirasida yoritadi [11;114-116]. Bunday noizchilik oqibatida muallifning o'zi ham Navoiyning g'azal asosida yaratilgan musammatlarini "mustaqil yaratilgan", – deb xatolikka yo'l qo'yadi. Bu tasmitlar mustaqil emasligini adabiyotshunos Abdurashid Abdug'afurov "Alisher Navoiy musammatlari" maqolasida aniq dalillar asosida isbot qiladi [1;28]. Qolaversa, g'azal asosida yaratiladigan musammat va tazmin musammat bir narsa emas, shuning uchun ikkisidan biri yozilishi kerak deb o'ylaymiz. Biz O.Nosirov va boshqa mualliflarning fikrlarini kuzatganimizda, ularning hech birida mustaqil va tazmin musammatlarni bir-biridan ajratuvchi muhim xususiyatlarni aniq ko'rsatilmaganligining guvohi bo'ldik. Yuqorida zikr qilingan nuqsonlar takrorlanmasligi va bizning tadqiqotimizga bu masala bevosita tegishliligini hisobga olib, musammatlarni quyidagicha tasnif qilishni lozim topamiz:

1. Mustaqil musammatlar.
2. Tazmin musammatlar.

Mustaqil musammatlar – tom ma'nodagi mukammal tasmitlar bo'lib, ular g'azal asosida yaratilmasligi, yoki tazmin tariqasidagi musammatlardek o'zga she'rdan jumla, misra, bayt kiritilmasligi bilan ajralib turadi. Ko'pincha bu tur musammatlarda:

1. Bandlardagi oxirgi misra bir xil takrorlanadi;
2. Ko'pchilik g'azal asosida yaratiladigan musammatlardek, birinchi banddagi oxirgi ikki misra radifi bir xil bo'lmaydi;
3. Taxallus oxirgi bandning yuqori qismlarida beriladi, g'azal maqta'idagidek so'nggi bandning keyingi ikki qismidan birida berilmaydi.

Tazmin musammatlarda – bir she'r o'zga bir she'rga qisman yoki to'liq iqtibos (ba'zan juz'iy o'zgarishlar bilan) qilinadi. Bu tur musammatlarni “g'azal asosida yaratiladigan musammatlar” deb atamaganimizning sababi bor. Chunki, bular bir hodisa emas, balki g'azal asosidagi musammat tazmin musammatning bir turidir. Fors-tojik mumtoz poetikasiga bag'ishlangan asarda e'tirof etilishicha, tazmin borasidagi fikrlarni nafaqat rivojlantirgan, balki ilmiy boyitishga ham ulkan hissa qo'shgan Xusayn Voiz Koshifiy o'zining “Badoye' ul-afkor” asarida tazminning bir qancha turlari qatorida oldin hech bir manbada kuzatilmagan, bir she'r butunlay boshqa she'rga singdirilgan va bir butunlik hosil qilgan, yangi taxmis va tasdis turlariga izoh va misollar keltiradi [8;69]. Demak, tazmin musammatlar to'liq yoki noto'liq bo'lishi mumkin.

To'liq tazmin musammatlarda rubobiy asar tartib va tuzilishi jihatidan to'liq iqtibos qilinadi (ayrim o'zgarishlar bundan istisno). Mumtoz sharq she'riyatida o'z va o'zganing g'azaliga musammat bog'lash bunga yorqin misoldir.

Noto'liq tazmin musammatlarda ibora, jumla, misra yoki faqat bir bayt she'r ichiga kiritiladi. Tazmin musammatlar borasida yana bir jihatni alohida aytib o'tishni lozim deb topamiz. Tazmin faqat o'zga shoir she'ridan olinmaydi. Hoh o'z g'azalidan, hoh o'zganing g'azalidan, jumla, misra yoki baytidan she'rga iqtibos olinishi mumkin. She'rshunos Hoji Nosir tazmin haqida: “Tazmin shoir o'z fikrini tasdiqlash, rivojlantirish maqsadida qofiya, radif, vaznda mos keltirish sharti bilan o'zga bir she'rdan parcha keltiradi”, – deb yozadi. “Shuni alohida ta'kidlash zarurki, bu o'rinda o'zganing she'riga emas, o'zga she'rga (she'ri digar) urg'u berilgan, chunki shoir ko'pincha o'z she'ridan ham iqtibos olishi mumkin” [8;69]. Atoulloh Xusayniy ham o'z asarida: “Tazmin o'zgalarning she'ridin olinishi shart emastur. Demak, ta'rifda o'zganing she'rin demastin, o'zga she'rni deyilsa, yaxshiroq bo'lur erdi. Ammo mazkur ta'rul jihattin to'g'ridurkim, shuarovu fusaxoda o'z she'rin tazmin etish odati bag'oyat ozdur, aning uchun ham ta'rifda ani e'tibor qilmapturlar”, – deya tanqidiy fikr bildiradi [17;246]. Bizningcha, yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarning o'zi ba'zi lug'at va adabiyotlarda tazmini faqat o'z va o'zganing she'ridan parcha kiritish ma'nosida sharhlanishiga javob bo'la oladi [16;23].

XULOSA

Ushbu faslda ilmiy kuzatishlar natijalari quyidagicha umumlashirildi:

1. Musammatning yozma adabiyotdagi ilk namunalari dastlab XI asr fors tojik shoirlari Manuchehriy va Qatron Tabriziy ijodida ko'zga tashlansa, turkiy mumtoz she'riyatda musammat yozish Hofiz Xorazmiy va Gadoiy devonlarida uchraydi.

2. Musammat janrining paydo bo'lishida **saj'** san'atining roli katta. Musammat janrining mustaqil musammatlar (tab'u xud) va tazmin turlari bor. Tazmin musammatlar to'liq va noto'liq tazmin ko'rinishlariga ega. Mumtoz adabiyotimiz tarixida musammatlarning murabba', muxammas, musaddas va musamman turlari keng tarqalgan.

REFERENCES

1. Abdug'afurov A. Alisher Navoiy musammatlari // O'zbek tili va adabiyoti. 1978. №1.
2. Ahmad Taroziy. Funun ul-balog'a. 1436.
3. Бертельс Е. Навои и Джамии. – М.: Наука, 1965.
4. Брагинский М. Из истории персидско таджикской литературы. – М.: Наука, 1972.
5. Вахид Табризий. Джамии мухтасар. –М.-Л., 1959.
6. Kaykovus. Qobusnoma. –Т.: Istiqlol, 1994.
7. Musulmonqulov R. Asrogi suhan. –Dushanbe: Irfon, 1980.
8. Мусулмонкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика X-XV вв. –М.: Наука, 1989.
9. Musulmonqulov R. Nazariyai adabiyot. –Dushanbe: Irfon, 1994.
10. Nizomiy Aruziy Samarqandiy. Nodir hikoyatlar (Chahor maqola). –Т.: 1986.
11. Nosirov O va boshqalar O'zbek klassik she'riyati janrlari. –Т.: O'qituvchi, 1979.
12. Orzibekov R. O'zbek adabiyotida g'azal va musammat. –Т.: Fan, 1976.
13. Sarimsoqov B. O'zbek adabiyotida saj'. –Т.: Fan, 1978.
14. Sulaymanov M. Hofiz Xorazmiy va o'zbek lirik she'riyatining rivoji: Filol. fanlari nomzodi dis.aftoref. –Т.: 1996.
15. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. –Т.: O'qituvchi, 1995.
16. Xalliyeva G. Ogahiy musammatlari. Monografiya. – Т.: Mumtoz so'z, 2019.
17. Xusayniy Atoulllo Mahmud. Badoye' us-sanoye'. –Т.: Adabiyot va san'at, 1981.
18. Shayxzoda M. Asarlar olti jildlik. IV jild. G'azal mulkinging sultoni. –Т.: Adabiyot va san'at, 1972.
19. Hamidulla Boltaboyev. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. 1-kitob. –Т.: 2008. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,
20. Hofiz Xorazmiy Devon. II kitob. –Т.: O'z. M.K., 1981.
21. Yusupova D. Ogahiy taxmislari// Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni. Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. –Т.: Navoiy universiteti nashriyot matbaa uyi, 2020.



TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING IJTIMOYIY-TARIXIY GENEZISI

Ilhomjon Ruzmatovich Kurbanov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs magstranti

Shavkat Xurramovich Tog'aev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, f.f.n.

ANNOTATSIYA

Maqolada ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning ijtimoiy-tarixiy genezisi ochib berilgan. Shuningdek maqolada, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkillashtirish, boshqarish va aniq maqsadlarga yo'naltirish usullari, samaradorlik mexanizmlari hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlashdagi o'rini ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, ma'naviyat, ma'naviyatsizlik, ijtimoiy-gumanitar fanlar, fanlarni o'qitish zaruriyati, jamiyat, ta'lim, tarbiya, oliy ta'lim, ma'lumotlilik, ta'lim muassasalari, huquq, kontsepsiya, nazariya, ta'limot, demokratiya.

ABSTRACT

The article reveals the socio-historical genesis of the organization of spiritual and educational work in educational institutions. The article also analyzes the methods of organization, management and direction of spiritual and educational work in educational institutions for specific purposes, the mechanisms of efficiency, the place of spiritual and educational work in ensuring the effectiveness of education and training.

Keywords: New Uzbekistan, Third Renaissance, spirituality, lack of spirituality, social and human sciences, the need for teaching sciences, society, education, upbringing, higher education, education, educational institutions, law, coordination, theory, training, democracy.

KIRISH

Jahon ilm-fanida yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish va doimiy o'rganiladigan ilmiy-nazariy tadqiqotlar sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda esa ilmiy jamoatchilik tomonidan ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, ta'lim-tarbiyaning maqbul yo'llarini aniqlashga doir qator kontsepsiyalar, nazariyalar, ta'limotlar, yondashuvlar ilgari surilmoqda. Shu jihatdan olganda, yoshlar tarbiyasini zamonaviy



ilmiy-nazariy uslublarini aniqlash jahon ilm-fani oldida turgan muhim kontseptual ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston strategiyasi asosida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, Uchinchi Renessans poydevori barpo qilinmoqda. Ushbu islohotlarning asl maqsadi insonning munosib turmush darajasini ta‘minlash, uning manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq. Buning uchun avvalo, “biz yoshlarning orzu-intilishlari, ilg‘or g‘oya va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish maqsadida boshlangan ishlarimizni nainki davom ettiramiz, balki ularni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘taramiz”. Chunki, O‘zbekiston kelajagi yoshlar intellektini yuqorilashishiga bog‘liq. Shu sababli, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni zamonaviylashtirishni ilmiy-nazariy asoslarini va amaliy mexanizmlarini yanada takomillashtirish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil qilishning ijtimoiy mexanizmlari, funktsiyalari va mezonlari bugunga kelibgina ilmiy tadqiqot mavzuiga aylanayotgani yo‘q.

Mamlakatimizda, S.Agzamxodjaeva, A.Ashirov, J.Tulenov, I.Imomnazarov, I.Jabborov, Y.Jumaboev, E.Yusupov, X.Shayxova, T.Maxmudov, Mahmud Sattor, A.Jalolov, S.Otamuratov, E.Umarov, Z.Qodirova, A.Sharipov, U.Qorabaev, J.Yaxshilikov, N.Muxammadiev, A.Erkaev, O.G‘aybullaev A.Erkaev, Q.Nazarov, S.Otamurodovlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan[1].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Jamiyat ma‘naviy qadriyatlarini tarkibida yoshlar ma‘naviy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlarini o‘rganishning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma‘naviy, mafkuraviy ta‘limotlarga metodologik asos bo‘lish imkoniyatlari bilan izohlanadi. Ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkillashtirish, boshqarish va aniq maqsadlarga yo‘naltirish usullari, samaradorlik mexanizmlari ko‘rsatilgan

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etishning yangicha ilmiy metodologiyasini uch turda olib borish maqbulligi maqolada isbotlangan. Ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkillashtirish, boshqarish va aniq maqsadlarga yo‘naltirish usullari, samaradorlik mexanizmlari, moddiy va ma‘naviy madaniyati darajasi, uning tabiatni muhofaza qilish sohasidagi amaliy faoliyati, emotsional his-tuyg‘ulari, faolligi va mas‘uliyati – jamiyat real ma‘naviy voqeligidan kelib chiqqan va uni ifodalaydigan dunyoqarash shakllarinining ma‘naviy-madaniy asoslarini rivojlantirish xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishni milliy ilmiy asoslari mustaqillik sharofati bilan qayta tiklandi. Busiz yangi taraqqiyot sari odimlash mushkulligi mustaqillikning ilk yillarida aniq bo'lib qoldi. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li kontsepsiyasida "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-ahloqiy negizlari" ilmiy asoslari ishlab chiqildi.

Bugungi kunga kelib ma'naviy sohadagi voqelik va jarayonlarnihuquqiy tartibga solish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish va bundazamon talablarini, Yangi O'zbekistonning mustahkam poydevorini qo'yish ehtiyojlarini hisobga olish zarurati yetilgan. Jumladan, O'zbekistonning 2022-2032 yillarga mo'ljallangan ma'naviy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishni va uni davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirishni davr talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Bu muhim vazifa, o'z navbatida, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijodiyot sohalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotdagi ta'sirchanligini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni taqozo etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish nuqtai nazaridan bunday jarayon jamiyat ma'naviy hayotining bir bosqichidan ikkinchisiga o'tish davri bo'lib, bu boradagi o'zgarishlarning bir sifat va mazmundan ikkinchisifat va mazmunga aylanishi bilan bog'liq ishlarni tizimli va yanadasamarali bajarishimiz lozim"[3].

O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot yo'lini asosini tashkil etuvchi bu kontsepsiya asosida ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish tizimi shakllantirildi. Ta'limda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish jarayoni mustaqil O'zbekistonning milliy shart-sharoitlarni to'la aks ettirishi muhim deb qaraldi. O'tmish an'analari sodiqlik xususiyatlari talaba yoshlar ongiga singdirilishi muhimligi hisobga olindi. Chunki, endigina mustaqillikka erishgan xalqimizda yangi xayot yo'liga qadam qo'yishda ba'zi ixtiloflar sezilib turardi. Aholiga mustaqillik bergan imkoniyatlarni, ajdodlarimizning bir umrlik orzularining ro'yobi, bizga berilgan imkoniyatlarni aniq yetkazish va tushuntirishda ta'lim muassasalarining o'rnini muhim edi. Oliy ta'limni bitirib yangi hayot yo'liga qo'yan yosh mutaxassislar yangi hayot, yangicha qarash, zamonaviylik asosida qoloqlik sarqitlarini yengib o'tishda aniq talablar bilan yo'g'rtirilishi nazarda tutildi. Bu maqsadlarga erishishda ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirib borish jarayoniga alohida e'tibor qaratildi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ta'lim muassasalarida tashkil etish tizimi faqatgina mustaqillik davri bilan yuzaga kelgan emas. Buning genezisi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish asosan Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari tarixida aniqroq aks etgan manbalar ko'p. Shunga ko'ra biz magistrlik tadqiqotimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish tizimini: 1) qadimgi davr; 2) o'rta asrlar davri; 3) Amir Temur va temuriylar

davri; 4) xonliklar davri, 5) chor Rossiyasi va jadidizm davri; 6) Sovet ittifoqi davri; 7) mustaqillik davridan iborat deb topdik.

Qadimgi davr. Ilk ma'naviy-ma'rifiy ishlar "Avesto"da aks etgan va Zardo'sht ta'limoti orqali targ'ib qilingan. Bundan uch ming yil oldin vujudga kelgan "Avesto" orqali uning asoschisi Zardo'sht mintaqada yagona oliy ta'lim markazini tashkil etgan. Zardo'sht ta'limoti ilk boshlang'ich ta'limot sifatida ish boshlasa-da, shogirdlarini bir joyga yig'ib, alohida ta'lim markazini tashkil etishi o'sha davrning oliy dargohi vazifasini o'tagan. Ilmiy markazda shogirdlar yuqori darajali ilmga ega bo'lgan va ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot bilan shug'ullangan. Natijada, odamlar tasavvuridagi ilk aqliy va madaniy o'zgarishlar bevosita "Avesto" orqali umuminsoniy qadriyatlar maqomini egalladi. Jumladan:

Birinchi, "Avesto" turli qabilalar, guruhlar o'rtasida mavjud bo'lgan ko'pxudolik hayot tarziga nuqta qo'yib, yakkaxudolik g'oyasini ilgari surdi. Bu diniy ta'limotda inson qanday guruh, urug', qabila yoki irqqa mansub bo'lmasin, yer yuzining qaysi hududida yashamasin, u yolg'iz Allohning bandasi va yagona Alloh uning asraguvchisidir, degan g'oyaga olib keldi. Yakkaxudolik orqali "Avesto" turli qabila va urug'larni yagona e'tiqod, yagona maslak va yagona g'oya orqali birlashtirib, umumiy manfaatlar atrofida jipslashishiga da'vat etdi.

Ikkinchi, turli qabila va urug'lar o'rtasidagi azaliy nizolar, kelishmovchiliklar va hamda manfaatlar to'qnashuviga yakkaxudolik orqali chek qo'yib, umumiy maqsadlar, umumiy g'oyalar, yagona e'tiqod atrofida birlashishiga olib keldi. Jamoa bo'lib yashashga da'vat etdi. Natijada kishilik jamiyatining ilk shakllanish bosqichiga asos solib, boshqaruv tizimining vujudga kelishiga, dastlabki davlatchilikni shakllanishiga kuchli ta'sir ko'satdi.

Uchinchi, "Avesto" odamlarni ezgulikka, yaxshilikka da'vat etuvchi ilohiy imdod, ruhiy va ma'naviy mukammal manba sifatida dunyoga keldi[4]. Shuning uchun ham "Avesto" dunyo ta'limotida mukammal ilmiy nazariya sifatida tan olinadi. Eron va Turon ulkasida katta yagona birlikni amalga oshirilishi Zardo'shtiylikning boqiy "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" g'oyasi orqali erishildi. *Ma'naviy-ma'rifiy ishlar Avestoga qadar ham bo'lsa-da, ularning roli yuqori darajasiga ko'tarilmagan. Ta'lim markazida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etilishi jarayoni Zardo'sht ilmiy markazi asosida rivojlangan va arablar bosqini davriga qadar o'zining mavqeini saqlab turgan.* Xattoki, Iskandar Zulqarnayn bosqini davrida ham "Avesto" ma'lum qismini saqlab qoldi va ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotidan to'xtamadi.

Markaziy Osiyoda oliy ilmiy markazlar Arablar bosqini davridan keyin taraqqiy etib bordi. Jahon tamaddunida muhim bo'lgan katta ilmiy markazlarning aksariyati Movaraunnahar

hududida joylashdi. Hattoki, Iroqdagi “Bayt-ul Hikma”ni tashkil etilishida Markaziy Osiyo ilmiy markazining roli yuqori bo‘ldi. Arab madaniyati Markaziy Osiyo ilmiy merosi nazariyasi orqali takomillashdi. Chunki, Markaziy Osiyo qadimdan dunyo taraqqiyotidagi muhim geosiyosiy hudud vazifasini bajargan. Qadimgi Turon (keyinchalik arablar bosqinidan keyin Movaraunnahr – daryoning u tarafi) hududlarni bog‘lovchi geostrategik o‘lka sifatida Misr, Yaqin Sharq, Yevropa, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tadi. Eng qudratli imperiyalar bo‘lgan Eron Ahamoniylar saltanati, Grek Makedon davlati, Arab Xalifaligi, Chingiziylar davlati qudratini kuchayishida Markaziy Osiyo mintaqasining roli nihoyatda katta bo‘ldi. “Buyuk ipak yo‘li” chorrahasida joylashgan mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-kommunikatsiyaviy, harbiy, madaniy-ma‘rifiy, me‘morchilik, qishloq xo‘jaligi va intellektualizatsiyada boshqa hududlarga qaraganda ba‘zaviy salohiyatga ega edi. Shu sababli mintaqada jahon geosiyosatiga kuchli ta‘sir etuvchi qudratli davlatlar faoliyat yuritgan. Masalan, Somoniylar (874-999), Qoraxoniylar (999-1141), G‘aznaviylar (962-1186), Saljuqiylar (1038-1308), Xorazmshoxlar (1097-1231) davlati shular jumlasidandir.

O‘rta asrlar davri IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo jahon tsivilizatsiyasini boshlab bergan hudud sifatida tarixda qoldi. Ba‘zi tadqiqotchilar bu davr tsivilizatsiyasini arablar siyosati natijasi, deya baholashadi. Bu bir tomondan nisbiy xulosalarni keltiradi. Mintaqada qadimdan katta ilmiy maktab sifatida shuhrat qozongan Zardo‘shiylik ta‘limoti ancha takomillashgan bo‘lib, Aleksandr Makedoniskiy bosqini davrida Ellin madaniyati bilan tsentizlashdi. Arablar bosqini davrida mahalliy intellektualizatsiya islom ta‘limoti bilan qorishishi evaziga yuqori ilmiy salohiyatli hududga aylandi. Natijada islom madaniyati eng yuqori bosqichga ko‘tarildi. Arablarning Ispaniyaga kirib borishi esa, jahon tsivilizatsiyasini ko‘tarilishiga olib keldi. Shu nuqtai nazardan – agar Markaziy Osiyo ilmiy tafakkuri bo‘lmaganda – islom madaniyati bunchalik obro‘ qozonmas edi, agar islom madaniyati bo‘lmaganda – dunyo bunchalik taraqqiyotga erisholmagan bo‘lar edi, degan xulosalarni qanchalik haqiqat ekanligini e‘tirof etish joizdir[5].

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida ko‘plab madrasalar bunyod etildi. Mintaqaning mashhur shaharlari: Buxoro, Samarqand, Nasaf, Gurganch, Shoshkent, Kesh, G‘azna, Xuroson, Marv, Poykent, Sabzavor, Farg‘ona vohasida ko‘plab madrasalar faoliyat olib borgan. Madarasa usha davrning oliy dargohi sifatida tan olingan. O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasida, madrasa (arabcha, darsa - o‘rganmoq) – musulmonlarning oliy o‘quv yurti – ekanligi, maktabxonani bitirganlar qabul qilingani[6, 376-377] e‘tirof etilgan. Shuningdek, O‘zbek tilining izohli lo‘g‘atida O‘rta Sharq mamlakatlari va chor Rossiyasining ko‘pchilik musulmonlar yashaydigan hududlarida diniy oliy o‘quv yurti[7, 571] deb izohlanadi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo hududida oliy o‘quv yurtlari soni ancha ko‘p bo‘lgan va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etilishi samarali bo‘lgan. Masalan, o‘z

davrining Ma'mun Akademiyasi[8, 537] nomi bilan mashhur bo'lgan ilmiy markazning Xorazmda tashkil etilishi vohaning qanchalik ilmiy qudratga egaligini ko'rsatadi.

Hududda ta'limning rivojlanishii jarayonining tezlashishi ko'plab qomusiy olimlar va faylasuflarni, adabiyotshunoslaru-tarixchilarni, olimu-fuzalolarni yetishtirib chiqardi. Shular jumlasiga, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abulabbos ibn Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abul Qosim Firdavsiy, Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy, Qozizoda Rumiy, Mahmud ibn Umar Zamaxshariy, Muhammad an-Nasafiy, tasavvuf namoyondalaridan Najmiddin Kubro, Bahauddin Naqshband, Zamahshariy, Axmad Yassaviy, Burhoniddin Marg'iloniy, Moturudiy, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Abu Hamid al-G'azzoliy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mu'in Nasafiy va boshqalar o'zlarining ma'naviy-ma'rifiy merosini qoldirdi. Asosan o'qitish jarayonida birinchi e'tibor tarbiyaga qaratilgan va ta'lim berilgan. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish tizimi shunga qarab belgilangan va yo'naltirilgan. Ta'lim tarbiya berishda odob-ahloq, halol-harom, savob-gunoh tushunchalarining falsafiy, diniy mohiyatidan puxta ta'lim berilgan. Shu bilan birga toliblarga oliyjanoblilik, mardlik, poklik, mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik, vatanparvarlik, mehribonlik, ma'rifatparvarlik, xalollik, oilaparvarlik, kamtarlik, milliy boshqaruv va qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash ustuvorlashib borgan, hamda qat'iy talab qo'yilganligi, o'sha davrning ma'naviy-ma'rifiy ishlarining muhim mezoniga aylangan. Tasavvufchilar nazariyasida esa, ruhiyatni, hirsni, nafsni poklash va jilovlash, aqlni charxlash orqali to'g'ri hayot yo'lini tanlash kabi tarbiyaviy mexanizmlar takomillashtirilib borilgan. Natijada Markaziy Osiyo mintaqasida gumanistik g'oyalar, qarashlar va amaliy harakat tizimi boshqa hududlardan alohidaligi bilan ajralib turgan. Fan va madaniyat o'z davrining yuqori cho'qqisiga erishgan. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan mashg'ul kishilar soni ortib va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy taraqqiyot takomiliga yetib borgan.

Chingizxon bosqini davrigacha Markaziy Osiyo hududi eng gullagan madaniyat markaziga aylangan edi. Chingiziylar hukumronligi davrida esa ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy hayot orqaga ketdi. Mintaqaning yetuk allomalari Iroq, Misr, Eron va boshqa shaharlarga chiqib ketdi.

Amir Temur va temuriylar davri Amir Temur va temuriylar davrida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish qayta tiklandi va ancha ravnaq topdi. Samarqand, Buxoro, Kesh, Nasaf, Xorazm, Isfara, Sabzavor, Xuroson va boshqa shaharlarda ilmiy markazlar qayta tiklandi va yangilari bunyod etildi. Musulmon olamining buyuk ijod namoyondalari to'plandi. Shaharlar qayta bunyod etildi. Ijod ahliga shart-sharoitlar yaratildi. Madrasa,

maktablar so'ngi jihozlar bilan jihozlandi. Kutubxonalar, Madaniyat markazlari faoliyati kengaydi. Dunyoning eng mashhur asarlari keltirilib, fors va arab tiliga tarjima qilindi. Ilm ahlining soni ortib ma'naviy-ma'rifiy ishlarni salmog'i yuqoriladi. Bu davrda Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahriddin Muhammad Bobur, Ali Qushchi, Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Sayfi Saroyi, Muhammad Solih, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, Abdurazzoq ibn Ishoq Samarqandiy, Kamoliddin Behzod[9, 48]lar ilmu urfon namoyondalari sifatida faoliyat yuritdi.

Xonliklar davri. Temuriylar davridan keyin ilm-fan bir oz susaysa-da, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va ular rivojlanishdan to'xtamadi. Faqat xonliklar davriga kelib, tabiiy va aniq fanlar dunyo ilmu-fanidan ortda qola boshladi. Asosiy e'tibor diniy, ma'naviy-marifiy ishlarga qaratildi. Shu sababli odob-ahloq, mehr-oqibat, ishonch, e'tiqod masalalari boshqa mintaqalarga qaraganda ancha yuqorilab bordi. Natijada Markaziy Osiyo bozorlarida aldash, o'g'irlik, talonchilik illatlari diyarli uchramagan. Xonliklar davrida ham ta'lim-tarbiya jarayonini asosiy mohiyatini oliyanoblilik, mardlik, poklik, mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik, vatanparvarlik, mehribonlik, ma'rifatparvarlik, xalollik, oilaparvarlik, kamtarlik, milliy boshqaruv va qonunlarga itoatkorlik ruhi ustuvorligini saqlab qolgan. Bu davrda Boborahim Mashrab, So'fiy Olloyor, Maxtumquli, Munis Xorazmiy, Uvaysiy, Zokirxoja Namangoniy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Akmal Toshkandiy, Nodira, Umarxon, Gulxaniy, Berdaq, Abay, Anbar Otin, Ahmad Donish kabi ma'rifatparvarlar ta'limoti va tariqati muhim ahamiyat kasb etgan.

Chor Rossiyasi va jadidizm davri. Chor Rossiyasi bosqini Markaziy Osiyo mintaqasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tizimiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarda keskin yangilanish joriy etilishi zaruriyatga aylandi. Bir tomondan chor Rossiyasi bosqini, ikkinchi tomondan, samarasiz eski ta'lim yangi jadid maktablarini yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Jadidizm Turkiston ma'rifatparvarlik harakatining yuqori bosqichi bo'lib, uning namoyondalari mamlakatni feodal tarqoqlikdan chiqarish, milliy mustaqillikka erishish uchun kurash olib borgan. Jadidlar harakatida milliy ziyolilarning deyarli barcha ilg'or vakillari qatnashgan. Turkistondagi jadidchilik harakatining namoyandalari mazkur harakat vujudga kelgan dastlabki paytlardayoq faqat ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surishmagan. Jadidlarning ijtimoiy qarashlarida siyosiy masalalar, xususan, mustaqillikka erishish hamda, qudratli davlatni tashkil etishda chet davlatlar bilan xalqaro munosabatlarda tenglashish g'oyalari muhim o'rin tutgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida harakat vujudga kelgan dastlabki yillardan boshlab, Turkistonda milliy davlatchilikni qayta tiklash haqidagi g'oyalari ilgari surilgan va uni amalga oshirish harakatlari kuchaygan. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor bo'lgan: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga



o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr guruppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop etish; o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Jadid namoyondalarining asosiy qismini talaba yoshlar tashkil etgan. Ular ham Sharq, ham G'arb madaniyati yutuqlarini egallashga intildilar, o'qidilar va o'zlarini ham shunga da'vat etdilar. Jadidlar xorijga chiqib, turli mamlakatlardagi madaniyat va ta'lim taraqqiyoti darajasini ko'ra oldilar, ularni solishtirdilar va bu zehni yoshlarda jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga keltirish istagi paydo bo'ldi. Natijada, jadidlarning diqqat markazida birinchi bosqichda ta'limni isloh etish vazfasi qo'yildi. Ular bunday islohotlarni o'tkazish zaruratini nafaqat, nazariy jihatdan isbotlab berdilar, balki yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, o'quv zallar ochib, darsliklar yozib, o'z g'oyalarini amalga oshirishga katta kuch sarfladilar. So'ngi ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki jadid maktablari 1898 yilda Qo'qonda Salohiddin domla, 1899 yilda Toshkentda Manon Qori va shu yili Andijonda Shamsiddin domlalar tomonidan ochilgan. XX asr boshlarida bu harakat tezlik bilan rivojlanib ketdi. Milliy ziyolilarning o'zagini tashkil etuvchi jadidchilikning ko'zga ko'ringan namoyandalari – Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Ubaydulla Asadullaxo'ja o'g'li, Abdulla Avloniy, Toshpo'lat Norbo'taev (Toshkent), Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Muin SHukrullo, Abdulqodir SHakuriy (Samarqand), Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jaev, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Xo'jaev (Buxoro), Nosirxonto'ra Komolxonto'raev, Ishoqxonto'ra Ibrat (Namangan) kabilar harakatning yetakchilari edilar[10].

Jadidchilar yangi uslubdagi maktablarni ochib, xalq maorifini rivojlantirish, ta'limni tubdan isloh etish orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirish va takomillashtirish. Bunda ko'plab vazifalar maktablar zimmasi va ziyolilarga yuklatildi. Shu vaqtgacha musulmon dunyosida sira ham ko'rinmagan ilg'or va tezkor o'qitish "Savtiya" (tovush) usuliga asoslangan jadid maktablari tashkil etilishidan boshlandi. Bu maktablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o'qish va yozishni o'zlashtirdi. Diniy va dunyoviy ta'lim-tarbiya hamda ilm o'zaro uyg'unlashtirildi. O'quvchilar qulay partalarda o'tirib, xarita, rasmlar yordamida tez savod chiqardi va diniy-dunyoviy ilmlarni o'rgandi. Jadid maktablarida Qur'oni karim, matematika, geografiya, falakkiyot, ona tili, rus tili, arab tili, musiqa, jismoniy tarbiya, tarix va boshqa fanlar o'qitila boshlandi. Jadid maktablari to'rt (boshlang'ich) va yetti yillik etib belgilandi. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonovning yetti yillik maktabini bitirgan yoshlar dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o'zlashtirgan holda jadid maktabida o'qituvchi, masjidlarda imom bo'lish, madrasa va xorijdagi dunyoviy oliy o'quv yurtlarida o'qish, savdo va boshqa

korxonalarda kotib bo'lib ishlash malakasiga ega bo'lganlar. Bunday yetti yillik maktablar Toshkentdan tashqari, Qo'qon, Samarqand kabi yirik shaharlarda ham ochiladi. To'rt yillik maktablar katta-kichik barcha shaharlarda ochilgan va ularni soni hududlarda ko'paytirilgan. Chunki, to'rt yillik maktablar savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan. Jadid maktablari pullik etib belgilangan. Bu o'rinda har bir ota-ona o'zlarining boylik va kambag'allik darajalarini shariat asosida belgilab pul bergan. 35 foizgacha kambag'al va nochorlarning bolalari tekin o'qitilgan. Bundan tashqari jadidlarning o'zlari tashkil etgan xayriya jamiyatlari ham maktablarni mablag' bilan ta'minlab turgan va mablag'larning asosiy qismi xorijga o'qishga yuborilganlarning ta'minotiga ishlatilgan. Jadid maktablari qat'iy nizom, dastur va darsliklarga asoslangan. Dastur, darslik va qo'llanmalarni o'zlari yaratgan. 1917 yilning boshlarida o'lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ortiq o'quvchi bo'lgan. Oliy ta'limning asosi – universitet tashkil etish uchun Toshkent shahar Dumasidan ham foydalandilar va 1918 yilda Musulmon xalq dorilfununini ochishga muvafaq bo'ldilar[11]. Jadid maktablarining ochilishiga rus amaldorlari, musulmon mutassiblari qattiq qarshilik qilgan. Shunday bo'lsada jadidlar ta'lim tizimini rivojlantirishga va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishga erisha olgan.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish faqatgina ta'lim jarayoniga tayanib qolinmadi balki, milliy matbuot va jurnalistikani rivojlantirish orqali tizimlashtirildi. Jadidchilikning ilg'or namoyandalari tomonidan Toshkentda Ismoil Obidiy "Taraqqiy" (1906), Munavvarqori Abdurashidxonov "Hurshid" (1906), Abdulla Avloniy "Shuhrat" (1907), Saidkarim Saidazimboev "Tujjor" (1907), Ahmadjon Bektemirov "Osiyo" (1908), Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev "Sadoi Turkiston" (1904-1915) gazetalarini va Abdurahmon Sodiq o'g'li "Al-Ishoq" (1915) jurnalini nashr etishga muvaffaq bo'ldilar. Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy "Samarqand" (1913) gazetasi va "Oyna" (1913-1915) jurnalini, Qo'qonda Obidjon Mahmudov "Sadoi Farg'ona" (1914) gazetalarini chiqardi. Bu gazeta va jurnallar doimo maxfiy politsiya "oxranka"ning ayg'oqchilari kuzatuvini, taqibi ostida bo'lgan. Jadid matbuoti 1917 yil fevralda rus podshosi taxtdan ag'darilgach, yanada rivojlandi. Juda qisqa vaqt oralig'ida, fevraldan oktyabrgacha Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov "Najot" (1917), A.Battol "Sho'roi islom" (1917), Abdulla Avloniy "Turon" (1917), Ahmad Vali Zakidiy va Munavvarqori Abdurashidxonov "Kengash" (1917), "Ulug' Turkiston" (1917), Qo'qonda Bo'lat Soliev "El bayrog'i" (1917) gazetalarini, H.H.Niyoziy "Kengash" (1917), Ashurali Zohiriy "Yurt" (1917) jurnalini, Samarqandda Shohmuhammadzoda "Hurriyat" (1917) gazetalarini chop etdilar. Buyuk millatparvar jadidlar, matbuot orqali millatni o'z madaniy-iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqbolga ishonch ruhini o'yg'otishga muvaffaq bo'ldilar. Shuning bilan birga

ular milliy muxtoriyat va jumhuriyat g'oyasini, millatlararo tenglik va qonqardoshlikni targ'ibot qilishni to'g'ri yo'lga qo'yadilar[12].

Sobiq sovet ittifoqi davri. Sovet hukumati davrida ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish jarayoni zamonaviylashtirildi va takomillashtirilib borildi. Ammo, ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'naltirish mexanizmlarining asosiy mohiyati soxtalashtirildi. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mohiyatida oliyjanoblilik, mardlik, poklik, mehnatsevarlik, to'g'risozlik, vatanparvarlik, mehribonlik, ma'rifatparvarlik, xalollik, oilaparvarlik, kamtarlik, boshqaruv va qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash ustuvor bo'lsa-da, siyosiy biqizlik, tarixiylik va milliylikda soxtakorlik mavjud edi. Siyosiy bilimlar chegaralandi. Milliy udumlar, an'analardan uzib qo'yildi. Umumiy sovet grajdanligini shakllantirishning tizimlashtirilgan sun'iy nazariyasi va amaliyoti targ'ib qilindi. 70 yil davomida O'zbekiston aholisi ushbu soxta ta'limotlar asosida shakllantirildi. Aholining aksariyat qismi soxta sovet mafkurasi ta'sirida ulg'aydi.

XULOSA

Maktablarda ta'lim to'g'ri taqsimlantirildi, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari ko'paytirildi. Zamonaviy ta'lim joriy etildi. Bepul ta'lim tizimi davlat muhofazasiga olindi. Ta'limga qamrab olish 100 foiz amalga oshdi. Aniq, tabiiy fanlar rivojlandi. Siyosiy jihatdan esa, manqurtlashtirish jadallashtirilib borildi. Maktablarga jalb qilish 100 foizga qamrab olinsada, o'quvchilarning asosiy qismi turli hasharlar va majburiy mehnatga jalb qilindi.

Mustaqillik davri. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishning milliy modeli shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan "Milliy ma'naviy tiklanish" kontseptsiyasi ishlab chiqildi. I.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li" asarida "Milliy ma'naviy tiklanish" kontseptsiyasining nazariy va amaliy asoslari yoritib berildi. Ushbu asarda mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy – ahloqiy negizlarini "O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi"- deb ko'rsatilgan va quydagilar belgilangan:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insoning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik[13].

Ushbu kontseptsiya mamlakatdagi barcha ta'lim muassasalarida ma'naviy yangilanish tizimining asosiy ustqurmasi

sifatida belgilandi. Unda ko'rsatilgan to'rtta negiz "O'zbek modeli"ning asosiy tarkibini tashkil etdi. To'rtta negiz asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish tizimi ishlab chiqilib asosiy dasturlarda quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish zaruriyati ko'rsatildi: birinchidan, ma'naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish, millatimizning o'z-o'zini anglashiga erishish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini izchillik bilan mustahkamlash; ikkinchidan, mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish; uchinchidan, ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni tarbiyalash, sog'lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish; to'rtinchidan, milliy-ma'naviy salohiyatimizning jahon tsivilizatsiyasidagi o'rnini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyati tizimi rivojiga hissa qo'shish; beshinchidan, yoshlar ma'naviyatini milliy istiqloq g'oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish; oltinchidan, insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boylklarni milliy-ma'naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirishdan iborat.

Milliy – ma'naviy tiklanish kontseptsiyasi asosida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun[14], shu asosda esa, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"[15], ishlab chiqilib ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish jarayoni takomillashtirilib borildi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tartibi 2020 yil 19-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 2020 yil 7-avgustda Senat tomonidan maqullandi[16]. Yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi tasdiqlandi. Yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda belgilangan vazifalar haqida keyingi paragraflarda to'xtalishni ma'qul topdik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo mintaqasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish qadimiy merosga ega. Asrlar davomida shakllanib kelgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish jarayoni 7 davrdan iborat bosqichni bosib o'tdi. Mustaqillik davrini ham ikki qismga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Ammo biz mustaqillik davrini ikkinchi qismini alohida davr sifatida emas, balki, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishini takomillashtirish jarayoni kengaytirish lozim.

REFERENCES

1. Nazarov Q. Ma'naviyatshunoslikning dolzarb masalalari. –Toshkent: 2010. – B.24.
2. Boysunov J. O'zbekistonda yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari. – Buxoro, 2023. – B.49.
3. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B.440.
4. Avesto. Jo'rayev N. va boshqalar. - Toshkent: 2015. –B.700.
5. Omonov B., Ochilova G. Markaziy Osiyo mintaqasining tabiiy-geografik va geosiyosiy imkoniyatlari// QarDU xabarлари. – Qarshi, 2018. №4. –B.95-96.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.5. – Toshkent: 2003. –B.376-377.
7. O'zbek tilining izohli lo'g'ati. II jild, – Toshkent: 2020. –B.521.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 5-tom, – Toshkent: 2003. –B.537.
9. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. –Toshkent: 2005. – B.48-150.
10. Solieva Lobar Rasulovna (2023). Features of the use of innovative educational technologies in improving the modern education system of Uzbekistan. World Bulletin of Social Sciences. – pp.144-147.
11. Eshov B.J., Yunusova X.E., Xoliqova R.E., va mualliflar jamoasi. O'zbekiston tarixi. 2-jild. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2017. –B.215.
12. Omonov B. Ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakatining g'oyaviy-siyosiy yo'li. Ijtimoiy fanlar ilmiy, ijtimoiy va tarixiy jurnal // Qarshi.2022. №3, -B.69-76.
13. Kandov Bahodir Mirzayevich (2022). The Role of Education and the Mahalla Institute in Forming the Personality of the Person. Central asian journal of theoretical & applied sciences. – P.515-521.
14. Kandov Bahodir Mirzayevich. (2022). The role of ideological education in the prevention of spiritual threats. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). Vol. 3No.06, June 2022. – P. 27-30.
15. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). Family is the Most Important Social Factor of Ideological Education. Miasto Przyszłości. Special Issue. –pp.66-69.
16. Kandov Bahodir Mirzaevich, Kuyliyev Tulkin (2022). Socio-Philosophical Issues of Introducing the National Idea into the Minds of the Youth of New Uzbekistan in the Context of Globalization // TELEMATIQUE. Volume 21 Issue 1, – P. 6847-6853.
17. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2023). The essence of universal human values and their influence on changes in the spiritual life of youth. Open Access Repository. – pp.796-803.
18. Ikramov Ravshan Aktamovich, Kandov Bahodir Mirzayevich. (2022). The role of the media in the formation of legal culture.



European Journal of Humanities and Educational Advancements. Vol.3.No.6. (2022). – pp.24-26.

19. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). The Role of Education and the Mahalla Institute in Forming the Personality of the Person. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. –pp. 515-521.

20. Туганова Луиза (2022). Конституция ва тенглилик принципи жамият нигоҳида. Academic research in educational sciences. –pp. 630-636.

21. Tuganova Luiza Djurayevna (2022). Reforms to protect the rights and interests of women in the renewed Uzbekistan is a priority direction of state policy. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – pp. 1014-1021

22. Авазбек Йулдошев (2023). Значение Кластерного Подхода В Образовании. Miasto Przyszłości. Vol.31. –pp.48-50.

23. Solieva Lobar Rasulovna (2023). THE ESSENCE AND CONTENT OF THE CONCEPT OF VALUE AND ITS ROLE IN THE SOCIAL LIFE OF SOCIETY. Web of scientis: international Scientific research journal. Vol.4, Iss. 3. – pp.824-831.



METHODOLOGIES FOR TEACHING ENGLISH IN EARLY CHILDHOOD EDUCATION

Shohsanam Doniyorovna Asiljonova

PhD student, shohsanamasiljonova7@gmail.com

Institute for Retraining and Advanced Training of Preschool Education Personnel and Manager

ABSTRACT

The goal of this paper is to share a previous study aimed at establishing the main basis when choosing the best approach and the most appropriate methodologies to teaching English as a Second Language in Pre-Primary Education.

Keywords: Methodologies, language teaching, early childhood education, Total physical response.

INTRODUCTION

In the English Teaching Process (ETP), it is essential to determine whether a given method focuses on acquiring or learning the language.

It is essential to emphasize the significance of Pre-Primary education. According to Wilder Penfield's 1959 Critical period hypothesis (as cited in Asher & Garcia, 1969), there is a critical period after which it becomes exceedingly challenging to acquire a second language at the level of a native speaker. This would explain why it is so challenging for adults to learn a new language, distinguish between sounds, and produce them. The purpose of this section is to emphasize the significance of incorporating Early Childhood Education (ECE) methods that facilitate the development of English skills in subsequent years by emphasizing the importance of establishing solid foundations early on.

When the ETP seeks to teach English as a Second Language (ESL), the path and rate of the student's progress should be taken into account. The rate is the rate at which a language is acquired (Myles, 2011).

Regarding the Second Language Acquisition (SLA) process, Myles (2011) contends that teachers should be more concerned about their students' rate of learning due to the pedagogical issues that are implicit. Teachers must observe what enables students to comprehend and acquire a language more quickly, as well as their capacities at various developmental stages. From this, they will be able to adapt the learning path and select the most suitable methodologies based on the circumstances (Myles, 2011).

According to Taylor, linguists have demonstrated that there is no singular optimal method for everyone in all contexts and that there is no teaching method that is inherently superior to the others. In addition, applying the same methodology to all students is not always possible or appropriate.

Teachers and students must have a solid understanding of the various instructional approaches. In addition, there are a number of factors that must be considered when selecting the most effective method, including age, objectives, environment, learning styles, needs, context, prior knowledge, mother tongue, aptitudes, backgrounds, ambitions, attitude, as well as the duration and frequency of the lessons. It also implies motivation, commitment, time, and effort.

Richard and Rodgers (1986) stated that a language teaching method is theoretically related to one approach, either as a theory of the nature of the language or as a theory of the nature of language learning, by designing and then implementing procedures. In Early Childhood Education (ECE) settings, some of the following second-language-teaching strategies from the last fifty years could be utilised:

(a) The Community Language Learning method (Krashen, 1982) seeks to establish strong personal ties between the teacher and the student, regardless of learning boundaries, by employing the native language, translating it into English, and promoting repetition and familiarity with the new concepts.

(b) In the Silent Way method, the teacher attempts to utter as few words as possible in order to help students feel at ease and find the appropriate words to express themselves. Even if a pupil were to say "I'm going to the loo," they would be in control of what they are attempting to communicate without using their native language.

(c) The Direct Method is conducted wholly in English, and students are strongly encouraged to respond in English as well, using their native language only in exceptional circumstances. At Colegio San Patricio, it was explicitly observed that by the conclusion of the Pre-Primary period, students are able to address and understand their teachers in English perfectly, thereby enhancing their English acquisition.

(d) The Audio-lingual method is predicated on adapting classroom habits to English learning. Promoting dialogue in all circumstances. For instance, during the morning rituals of singing, praying, reviewing the calendar and the weather, and establishing classroom norms, etc. This method supports the notion that in order to acquire a language, it must first be heard and comprehended before being seen in written form.

(e) The Suggestopedia method consists of conveying that the English language is straightforward, avoiding or eliminating

mental barriers to English learning, and utilizing singing or simple activities.

(f) The Communicative language teaching method (CLT) creates situations for students to communicate effectively in various settings, such as school, shopping, the street, or the doctor's office, by suggesting concepts, facts, or locations and inviting other students to participate, thereby boosting their confidence in speaking English in a variety of settings.

g) The Immersion method entails studying school subjects in an English-speaking environment and acquiring English as a means to "survive" This method may adhere to Krashen's (1982) Natural Approach, which emphasises the similarities between acquiring the native language and the second language. There would be no corrections necessary because they would evolve naturally.

The difference between the Immersed Method and the Direct Method is that in the Immersed Method, students learn the language in an English-speaking environment that is made comprehensible to them, whereas in the Direct Method, students learn the language in an English-speaking environment that is natural and native-like.

(h) Although the Task-based Language Learning method can be used in early childhood education, it is primarily used in middle and high school. Students engage with specific vocabulary for a number of weeks and are then evaluated using tasks. This method is more effective in Pre-Primary as task-command activities, such as "Give me the apple" or "Stand up, sit down."

Pre-primary teachers must bear in mind that children develop language comprehension first, then begin responding in their native language, and then gradually begin speaking the second language when they feel secure and are prepared to speak longer sentences. Keep in mind that if students frequently speak their mother language, they may become confused, stop making an effort to use English because they know the teacher understands them, and wind up speaking in their mother tongue.

In addition to these eight methodologies, there are three others used in ECE when teaching in the native language: cooperative learning, problem-based learning, and total physical response. However, as children are already accustomed with these methods, it is important to investigate the possibility of incorporating them into the English Teaching Process.

Cooperative Learning

Using the Cooperative Learning (CL) approach to education entails organizing the classroom into a number of groups that work together and share academic and social

experiences, while fostering inventive, intellectual, and open-ended tasks. In the CL approach, teachers switch from imparting information to facilitating their students' learning. (Ross & Smyth, 1995) A group is successful when all members work cooperatively while acquiring self-esteem, social skills, forming a stronger connection with classmates, and outperforming when learning individually.

Several studies have evaluated the efficacy of cooperative learning as an instructional strategy and proposed methodologies including problem sets, laboratories and projects, jigsaw, peer editing, and peer-led team learning (Feldman & Brent, 2007). In addition, laboratories and projects can be adapted to the ECE classroom through the development of experiments, projects, or group art in which students assist one another in following the teacher's instructions and conversing in English.

This CL approach works well with the maternal tongue and can be adapted to English Teaching Processes once the students have been exposed to the language beforehand, particularly with children who are immersed in the English language.

Problem Based Learning

Problem-Based Learning (PBL) is a strategy used to engage students in real-world challenges and encourage them to solve problems using strategies and prior knowledge. Instead of being passively informed, students actively work with the information and participate in class. According to research (Stanford University, 2001), PBL also enhances students' problem-solving abilities as they ruminate on factors, facts, and consequences and process diverse information in various situations.

PBL in ECE settings cannot be implemented in the same manner as in Primary or Secondary Education, nor can it be implemented in the same manner as infants do in their regular mother tongue classroom. However, this strategy could be adapted to English instruction. For instance, posing a scenario in which they must identify a bodily part in English, or utilising a circumstance that may arise in the classroom and how to handle it, such as how to say sorry or thank you. Using a PBL approach would primarily aid in the development of comprehension skills and encourage children to speak even a few words in order to participate, share their ideas, and propose solutions to everyday problems.

Total Physical Response

Children are always active and eager to play. The Total Physical Response (TPR) method emphasizes aural comprehension by requiring students to actively respond to specific commands. For instance, "Close your eyes", "Touch your nose", and "Sit down" (Richards & Rodgers, 1986).

Using TPR activities in the ECE classroom encourages physical activity among children. This method's procedures would resemble activities and sports that are motivating and pleasurable methods for teaching and learning the English language. Individually or in groups, TPR activities can be conducted by asking children for commands while the rest of their companions attend and process the information. During my student teaching field experience, this was the most frequently employed and children's favorite method.

White paper project

The White paper initiative, created by Ana Garcia de la Fuente, director of the Art and Visual Programme at Colegio San Patricio, aims to achieve a personalised education through the uncomplicated and enjoyable teaching of a second language. It is based on the Content and Language Integrated Learning (CLIL) methodology, and its goals in Early Childhood Education (ECE) are to develop English oral comprehension and the artistic language as a means of allowing children to express themselves in a bilingual environment while enjoying talking about themselves and strengthening the teacher-student bond.

The White Paper initiative consists of three activities geared towards the acquisition, not the learning, of the language through natural teacher-student communication. There are three components to these activities. First, a group conversation in which the instructor and students discuss a topic of interest and develop their listening and speaking skills. During the conversation, the students make connections between the presented information and their prior knowledge. They organise their thoughts and share them along with their knowledge and even their emotions. Second, each pupil would create a free-form drawing to express his or her ideas, feelings, and thoughts. During the first few months, it was observed that the students' drawings were rather simplistic. However, as they continued to use this methodology, the students came to realize that their teacher was interested in learning more about them, and their drawings became more intricate and creative. The third step is the One-to-One conversation. The interaction consists of the instructor and student discussing the drawing in English. It is a significant educational moment that encourages English language speaking and comprehension skills, as well as their individual learning construction process, as well as learning about their innate abilities, experiences, feelings, personality, likes, concerns, and friends and family situations (Salinas, 2016).

Correction Methods

The significance of errors in the learning process can be attributed to teachers not caring about the learning rate of their

students, what motivates them to learn, which methodology to employ, how to adapt it to the characteristics of each group, and the knowledge that should be acquired.

In addition, some professors disregard certain student errors, deeming them insignificant. Typically, instructors should first attempt to help students enjoy and feel secure speaking the language. Then, once they are confident, they can use the following methods to correct their English errors without influencing their confidence:

Eco Method: Mr. Stevens, a primary school educator at the school, proposed this approach. It is used during a one-on-one conversation with a pupil who correctly repeats their error. For instance, if a student states, "Yesterday I went to the park," and the teacher responds, "Really? You VISITED the park? What did you do?" The teacher would emphasize the word "went" by articulating it louder, slower, and with a smile, so that the student would associate it with the error and try to recall it for the next time (Mr. Stevens, personal communication, April 13, 2016). During the project's development, this method was used with five-year-old children, some of whom would reiterate "Yes, I went to the park" to demonstrate that they had received the feedback and made the correction without having to interrupt the conversation. In addition, it was demonstrated that other students who were listening also received the feedback and later stated, "I went to the park, too."

Peer-to-peer: Some students have a higher level of English development than others, and some speak English at home; therefore, it is crucial that all students are receptive to corrections and suggestions from their classmates and are encouraged to share their English speaking abilities and comprehension. If they needed to communicate with the instructor, they could determine how to do so collectively.

Student's developed methodology

The significance of errors in the learning process can be attributed to instructors not caring about their students' learning rates, what motivates them to learn, which methodology to employ, how to modify it to the characteristics of each group, and the knowledge to be acquired.

In addition, some professors disregard certain errors made by students, deeming them insignificant. Generally speaking, instructors should first endeavour to help students appreciate and feel confident speaking the language. Then, once they have gained confidence, they can utilize the following techniques to correct their English errors without affecting their confidence:

Eco Method: This strategy was proposed by Mr. Stevens, a primary school teacher at the institution. During a one-on-one conversation with a student who correctly repeats their error, this

phrase is employed. For example, if a student says, "Yesterday, I went to the park," and the instructor responds, "Really? You have VISITED the park? What did you do?" The instructor would emphasize the word "went" by pronouncing it louder, slower, and with a smile, so that the student would associate it with the error and attempt to recall it the next time (Mr. Stevens, personal communication, April 13, 2016). During the development of the project, this technique was utilized with five-year-old children, some of whom would repeat "Yes, I went to the park" to demonstrate that they had received the feedback and made the correction without interrupting the conversation. In addition, it was demonstrated that other students who were listening also heard the feedback and subsequently stated, "I went to the park, too."

Peer-to-peer: Some students have a higher level of English development than others, and some speak English at home; therefore, it is imperative that all students are receptive to corrections and suggestions from their peers and are encouraged to share their English speaking abilities and comprehension. They could determine collectively how to communicate with the instructor if they needed to.

CONCLUSION

In conclusion, we can say that all the methods developed so far are designed to teach kindergarten children a foreign language in an easy and convenient way during preschool education. Each of them has its own conveniences and advantages. It should not be forgotten that which of these methods to use depends on the teacher and his skills. The language teacher chooses methods based on the group of students, atmosphere, age of children, living conditions and mentality. In this process, the training program and the scope of topics are also important. The method chosen correctly by the language teacher gives its result.

REFERENCES

1. Dryden, G. & Vos, J. (1997). *The Learning Revolution*. Auckland, NZ: The Learning Web.
2. Dryden, G. & Rose, C. (1995). *Fundamentals*. United Kingdom: Accelerated Learning Systems.
3. Gardner, H. (1998). *Speech*. American Education Research Conference. San Diego, April.
4. Kotulak, R. (1996). *Inside the Brain*. Andrews and McMeel.
5. Shohsanam Asiljonova "Teaching English to preschool children using environmental concepts". *O'zbekistonda Fanlararo*

Innovatsiyalar Va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, Issue 10 1st part, 2023, 433-438.

6. Shohsanam Asiljonova Doniyorovna (2022). "Speaking for English language learners: overcoming the barriers that impede". Матеріали хii всеукраїнської студентської науково-практичної конференції, 2022, с 218-222.

7. Shohsanam Asiljonova Doniyorovna., Institute for retraining and advanced training of preschool education personnel and manager., Proceedings of International Educators Conference 2 (1), 598-605



YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA IJTIMOIIY-MADANIY VA MA’NAVIY AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Bahriddin Asrorovich Muqimov

“Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqotlar universiteti Gumanitar fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, Yangi O‘zbekistonda Yoshlarda ijtimoiy-madaniy va ma’naviy axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning maqsad va vazifalari yoritilgan. Maqolada, Yangi O‘zbekistonda ma’naviyat-ma’rifat kengashlari faoliyati va Movarounnahr tarixida davlat rahbarlari va olimlarning jamiyat qadriyatlariga bo‘lgan qarashlari, ilm-ma’rifatga munosabati borasidagi sa’yi-harakatlari dalillar bilan keltiriladi. Bu sohada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qilgan qarorlar va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asoslanib xulosalar berilgan. Shuningdek maqolada, yoshlarda vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma’suliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, mafkura, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, ilm, vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma’suliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik, yoshlar.

ABSTRACT

This article highlights the goals and objectives of the formation of socio-cultural and spiritual and moral values among the youth of New Uzbekistan. The article with evidence presents the activities of spiritual and educational councils in New Uzbekistan and the efforts of statesmen and scientists in the history of Movarounnahr regarding ideas about the values of society and their relationship to science-enlightenment. In this area, conclusions are drawn on the basis of resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan and resolutions of the Cabinet of Ministers. Also, the article highlights the formation of such qualities among young people as loyalty to the Motherland, enterprise, willpower, ideological immunity, kindness, responsibility, tolerance, legal culture, non-standard thinking, diligence.

Keywords: New Uzbekistan, spirituality, ideology, enlightenment, education, upbringing, science, loyalty to the Motherland, enterprise, will, ideological immunity, kindness, responsibility, tolerance, legal culture, innovative thinking, diligence, youth.



KIRISH

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga dunyo miqyosida shunday o'zgarishlar sodir bo'lmoqdaki, ushbu o'zgarishlar butun boshli xalqni, millatni, elatlarni boringki, butun insoniyatning hayotini o'zgartirib yubormoqda. Ushbu o'zgarishlar jarayonida axloqiy madaniyat va axloqiy munosabatlarning o'rni juda katta hisoblanadi. Bularning barchasiga ta'lim tizimida olib boriladigan sifatli ta'lim-tarbiya orqali erishiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yosh avlodni axloqiy tarbiyalash masalalari azaldan Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tajribasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, ko'plab mutafakkirlarimiz asarlarida xalqimizning murakkab tarixiy-madaniy tajribasi mobaynida yuz bergan voqea hodisalar mohiyatini jamiyatning ilk bo'g'ini bo'lgan oiladan izlash an'anasini uchratamiz. Xususan, oila va oilaga oid fikrlar Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya", "Geodeziya", "Hindiston", "O'tgan avlodlar obidalari", Abu Ali ibn Sinoning "Axloq", "Axloq fani", "Olila xo'jaligi", Alisher Navoiyning "Hayrat-ul-abror", "Mahbub ul-qulub" asarlarida o'z ifodasini topgan. Mamlakatimiz boshiga tushgan ko'pgina achchiq qismatlar dastavval oila tarbiyasidagi kamchiliklar oqibati ekanini ma'rifat ahllari yaxshi anglashgan. Fitratning "Oila yoki oilani boshqarish tarbiyalari" asarida bu haqda ibratli mulohazalar ilgari suriladi. "Har bir millatning saodati va izzati, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq" deb yozadi u, tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila mustaqilligi kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi"[4].

Keyingi yillarda yoshlar ma'naviyatini shakllantirishga oid bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan M. Quronov, J.G'. Yo'ldoshev, O. Musurmonova, m. imonova, u. mahkamov, s. nishonova, n. almetov, d.ro'ziyeva, N. Egamberdiyeva, Sh. Shodmonova, Sh. Xalilova kabilarning qator ishlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni ma'naviy-axloqiy madaniyatini kamol toptirish, milliy tarbiya va

komil insonni voyaga yetkazishning ilmiy-pedagogik asoslari ishlab chiqilib, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ularning ilg'or g'oyalari keng foydalanildi

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishdan asosiy maqsad, ularni ona Vatan oldidagi burchi, o'z taqdiri uchun mas'ul ekanligi, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilari hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalashdan iborat. Oila ta'lim tarbiya maskani bo'lib, milliy g'oya va ma'naviyatni yoshlar ongi va qalbiga singdirish aynan oiladan boshlanadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi va bu jarayon yuksak ma'naviyatlikni talab etadi. Mustaqillik yoshlar kamolotida yangicha talablar ham qo'ydi. Har qachongidan ko'ra ko'proq ichki va tashqi go'zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi.

Yoshlardagi faqat tashqi ko'rinish estetik madaniyatning yaxshi bo'lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqdan pokiza, ma'naviy dunyosi boy, saxovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo'lishi kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar talab etila bohladi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma'naviy sohalarida ham islohotlar olib borish zaruriyati nazarda tutildi. "Biz uchun, degan edi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov, "...ma'naviy, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma'naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo'lishi lozim"[5]. Binobarin sog'lom avlod tarbiyasi faqat jismoniy jihatdan chiniqqan, kamol topgan yoshlarnigina emas, shuningdek sharqona axloq-odob va umumbashariy va ma'naviy qadriyatlar asosida kamol topgan insonni ham nazarda tutmog'i lozim. Zero buyuk alloma Abdulla Avloniy aytganidek: "tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo saodat, yo falokat masalasidir"[6, 138-140]. Hayotga ongli munosabatda bo'ladigan, mustaqillik g'oyalari va maqsadlaridan faxrlanadigan inson turmushi va faoliyatida estetik zavq, ulug'vorlik shakllanadi va taraqqiy etadi. Shuning uchun O'zbekiston mustaqillikka erishgach, islohotlarni keng ko'lamda ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jabhalarda avj oldirib yuborgan ekan, bu islohotlar negizini uch ming yillik davlatchilik tariximiz, ma'naviy merosimiz va milliy mentalitetimiz xususiyatlari tashkil qildi va uni og'ishmay amalga oshira boshladi. Ana shu maqsad yo'lida ta'lim va madaniyat sohalarida, aqliy va ma'naviy salohiyatlarni mustahkamlash bo'yicha bosqichma-bosqich islohotlar rejalashtirildi va hayotga tadbiiq etildi.

Axloqiy hayot, jumladan, axloqiy madaniyat va axloqiy tarbiyaning bosh substansional elementi inson va uning birliklari ekan, bu borada E.T.Dalkonovning quyidagi falsafiy fikrlarini keltirish mumkin: "Inson va uning birliklari. Ular madaniy borliq yuzaga kelishining

sub'yektlari yaratuvchisi va tashuvchilari hisoblanadilar. Ular vatanparvarlikning ham sub'yektlari hisoblanadilar. Inson tanasining biomadaniy hodisa sifatida va demakki, uning ijtimoiy munosabatlarga bo'ysungan holda va o'ziga xos madaniylashgan jismoniy kuch sifatida namoyon bo'lishi vatanparvarlikning biomadaniy irodaviy zamini bo'lib xizmat qiladi. Agar biomadaniy organizm insonning birinchi tomoni bo'lsa, ijtimoiy ruhiyat va faoliyat qobiliyatining jihatlaridan hisoblanadi. Demak, inson madaniy borliqning yaratuvchisi va avloddan-avlodga tashuvchisi ekan, u vatanparvarliksiz yuz bermaydi"[7, 12]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tabiri bilan aytganda, "Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaydigan yana bir masala, bu farzandlarimizni mustaqil fikri, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir"[2, 295-297]. Demak, vatanparvarlik axloqiylik tamaddunlaridan biri hisoblanadi. Axloqiylik esa insonlarning ijtimoiy madaniy qismi tarkibiga kiradi. Axloqiy tarbiya va axloqiy madaniyat mohiyatan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida namoyon bo'ladi. Axloqiy madaniyatning bosh maqsadi esa insonni haqiqatga olib borish, uni komil shaxs sifatida tarbiyalash masalasidir. Shu asnda axloqiy madaniyat ijtimoiy hayot bilan bevosita munosabatga kirishadi. Axloqiy madaniyatni rivojlantirish bu sohada dunyo xalqlari to'plagan tajribalarini o'rganish va ijtimoiy hayotga tadbiiq etish dolzarblik kasb etadi.

Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib kelgan. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham qimmatbaho an'analarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'analarini avaylab qabul qilganlar. Har bir xalqning o'ziga yarasha urf-odatlar, marosimlari bo'ladi. Marosimlar jamiyat, xalq va shaxs hayoti faoliyatidagi muhim o'zgarishlar ijtimoiy ahamiyatga molik voqea hodisalar bilan bog'liq bo'lib, ular ibrat orqali tarbiyalash, ruhiy-estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi. Marosimlarda milliy, diniy urf-odatlar va rasm-rusumlar ham o'z ifodasini topadi. O'zbek xalqining paydo bo'lishi tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy an'analari, urf-odatlar, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega. Ular xalqning ma'naviy ehtiyojlari zaminida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib o'z mazmunida shu xalqning orzu-o'ylari, istaklari, turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun ham har bir xalq, millat va elat ularni ko'z qorachig'iday avaylab-asrashi, taraqqiy ettirishi, kelgusi avlodlarga ma'naviy qadriyat sifatida yetkazmog'i lozim.



Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusumlariga baho beriladi. Milliy ma'naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir.

Ma'naviyat, milliy qadriyatlar va istiqloq g'oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega.

O'zbek xalqi jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shgan millatlar qatoridan faxrli o'rinni egallaydi. Madaniy yodgorliklar, me'morchilik san'ati namunalari, qadimiy qo'lyozmalar-milliy ma'naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrlil va muqaddas bo'lgan boyliklardir. Ularni avaylab asrash kelajak avlodga yetkazish ma'naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir. Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat, diniy qadriyatlarga munosib o'rin egallaydi va milliy o'zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar askari hollarda o'zaro bog'liq bo'lib, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

Har bir xalq, millat yaratgan ma'naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o'ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, urf-odat va marosimlarda to'laqonli namoyon bo'ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi., milliy o'zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan g'oyalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiya va ta'limning milliy xususiyatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimida o'z o'rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog'liq ekanligi qanchalik haqiqat bo'lsa, ularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umume'tirof etilgandir. Milliy tarbiya xalqning o'z-o'zini saqlash va istiqbolini ta'minlash omilidir. Barkamol avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning o'rni juda katta. O'zbek xalqining yoshlari milliy g'oya, qadriyatlar bilan yo'g'rilgan tarbiyani olishi kerak.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi qachon boshlanadi? Bunday ta'lim tug'ilishdan boshlanishi kerak. Bolani oilada ham, maktabda ham mehr-oqibat va muhabbat, mehr-oqibat va poklik muhiti o'rab olishi kerak. Ma'naviyat hodisasini tushunishga intilish bizni madaniyat g'oyasiga olib boradi. Madaniyat bolaning butun ichki va axloqiy dunyosiga - kelajakka intilish, qadriyat yo'nalishlari, qiziqishlari va ehtiyojlari, his-tuyg'ulari va ongiga ta'sir qiladi. Ularga muvofiq, inson hayotning barcha sohalarida harakat qiladi, bu uning ijtimoiy va axloqiy yetukligini belgilaydi, ya'ni ma'naviy kamolot. Samimiyluk va mehr-oqibat, mehr va mehr-oqibat, ertangi kunga ishonch va



Vatan ravnaqi yo'lida bunyodkorlik mehnati ana shunday insonga xos fazilatlardir. Rostlik va rostgo'ylik, adolat va kattalarga hurmat, o'zgarlar manfaati uchun xizmat qilishga tayyorlik – insonning mana shu fazilatlari uning ma'naviyatining eng yaxshi o'lchovidir.

Axloqiy tarbiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: jamiyat bilan aloqadorlik, unga bog'liqlik, o'z xatti-harakatlarini jamiyat manfaatlari bilan muvofiqlashtirish zarurati ongini shakllantirish; axloqiy ideallar, jamiyat talablari bilan tanishish, ularning qonuniyligi va asoslilikini isbotlash; axloqiy bilimlarni axloqiy e'tiqodga aylantirish, bu e'tiqodlar tizimini yaratish; barqaror axloqiy tuyg'ularni, yuksak xulq-atvor madaniyatini shakllantirish - insonning odamlarga bo'lgan hurmatining asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida; axloqiy odatlarni shakllantirish. "Shaxsning axloqiy tarbiyasi" murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, pedagogik va ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi.

Axloqiy tarbiya uchun ijobiy axloqiy tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uni to'plash uchun bolalarning muloqoti va birgalikdagi faoliyati alohida ahamiyatga ega. Ammo tajriba faqat xatti-harakat yuqori maqsadlar uchun amalga oshirilganda maqsadga olib keladi. Axloqiy tarbiya - axloqiy ongni shakllantirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish va axloqiy xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini rivojlantirishning maqsadli ikki tomonlama jarayoni. U axloqiy ongni shakllantirish, axloqiy tuyg'ularni tarbiyalash va rivojlantirish, axloqiy xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Agar inson o'z harakatini taroziga solib, o'ylab ko'rsa, masalani bilgan holda ish tutsa, o'zi oldida turgan muammoni hal qilish yo'lini to'g'ri tanlasa, xulq axloqiy hisoblanadi. Shaxsning axloqiy xulq-atvori quyidagi ketma-ketlikka ega: hayotiy vaziyat - u tomonidan yaratilgan axloqiy va hissiy tajriba - vaziyatni axloqiy tushunish, xatti-harakatlar, tanlov va qaror qabul qilish motivlari - irodaviy rag'batlantirish - harakat. Axloqiy tarbiya o'z vazifasi sifatida o'ziga, boshqa odamlarga, jamiyatga nisbatan burch, mas'uliyat hissini shakllantirishdan iborat. Vatan. Bu fazilatlar odamlarda faqat o'z mehnati, har bir insonning, birinchi navbatda, o'ziga nisbatan sabr-toqati evaziga paydo bo'ladi. Axloqiy shaxsni axloq me'yorlari, qoidalari va talablari o'z qarashlari va e'tiqodlari, xatti-harakatlarning odatiy shakllari sifatida namoyon bo'ladigan shaxs deb hisoblash mumkin.

Ammo, dunyoda axborot almashinuvining o'sishi bilan globallashuv madaniyat, ilm-fan sohasiga kirib keldi. Natijada millat madaniyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy tahdidlar insoniyat oldiga yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Chetdan kirib kelayotgan, mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlar ongini individualizm, egotsentrizm g'oyalari

bilan zaharlovchi ushbu ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishimiz zarur. Bebaho boyligimiz milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirgan holda ma'naviy tahdidlarni oldini olishga erishishimiz mumkin. Ma'naviyat haqida gap ketganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, u eng avvalo, millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. Shunday ekan globallashuv jarayonida mamlakat milliy madaniyatiga rahna soluvchi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda insonlarni yuksak ma'naviyatli bo'lishi muhim omil hisoblanadi. Buning uchun jamiyatda ma'naviy-mafkuraviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish zarur. Ya'ni, birinchidan, mamlakat kelajagi bo'lmish yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish; ikkinchidan, manaviy tahdidlarni aynan nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab yetish; uchinchidan, atrofimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmasdan, dahldorlik hissini oshirish.

Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin. Jumladan, ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishi bo'lgan "ommaviy madaniyat" niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun xavf soladi. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o'tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanib, behayo film va suratlar olib yurishlari, bularning barchasi inson ma'naviy kamolotiga ulkan zarar keltiradi. Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Bunda:

- ularda, turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;
- yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalarini bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;
- yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.

Shundagina biz yoshlarimizni, shu bilan birga xalqimizni har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlaymiz, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantira olamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy ma'naviyatga tayanish uchun inson, avvalo, o'zligini anglab yetmog'i lozim. Zero, bu milliy o'zligimizni anglab



o'z manfaatlaridan ustun qo'ya oladigan, kerak bo'lsa Vatan uchun jonini fido qila oladigan yoshlarni talab etadi.

Jamiyatni rivojlantirishda yoshlar tomonidan ma'naviy axloqiy fazilatlarining o'zlashtirilishi ularning jamiyatdagi o'rini belgilab beradi, shuningdek, jamiyatning barqaror bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy axloqiy qadriyatlar insoniylik xususiyatining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishida mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. Agar mehnat turlari insonlarning qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab taqsimlansa, deyarli har biro dam o'zi biladigan kasbni maromiga yetkazib bajaradi, qolaversa u o'z ishi bilan jamiyat ravnaq topishiga muayyan hissa qo'shadi. Jamiyat rivojiga olib keladigan ma'naviy axloqiy sifatlari o'zaro bir-birini tushunish va anglash, mehr-oqibat, ezgulik, adolatlilik, sahovatpeshalik, oila va Vatanga muhabbat, sadoqat, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, halollik, e'tiqodlilik, diyonatlilik va boshqa shunga o'xshash yuzlab ezgu fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Jamiyat hayotining barqaror rivoji insonlardagi bir-biriga bo'lgan ishonch, ijtimoiy adolat tamoyillari asosida yashash, qonunlarning ustuvorligiga ahamiyat berishda yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'naviy axloqiy sifatlarga ega bo'lgan inson milliy va umuminsoniy fazilatlarini qadrlaydi, uni boyitib, kelgusi avlodlarga to'laqonli yetkazishga kamarbasta bo'ladi.

REFERENCES

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B.440.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T., „O'zbekiston“-2007y, 295-297-b.
3. Boysunov J. O'zbekistonda yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari. – Buxoro, 2023. – B.49.
4. Yoqubov S. Axborot jamiyati: xayolot emas, haqiqat. Tafakkur-2007, 4-son
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. Ma'naviyat, 2008, 138-140-bet
6. Zokirov B. G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari. Tafakkur-2007, 2-son
7. Dalkonov E.T. Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishning bog'liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy falsafiy tahlil). Falsafa fanlari nomzodi...dissert. Avtoreferati.-T., 2011. 12-bet.
8. Solieva Lobar Rasulovna (2023). [Features of the use of innovative educational technologies in improving the modern education system of Uzbekistan](#). World Bulletin of Social Sciences. – pp.144-147.



9. Kandov Bahodir Mirzayevich (2022). [The Role of Education and the Mahalla Institute in Forming the Personality of the Person](#). Central asian journal of theoretical & applied sciences. – P.515-521.
10. Kandov Bahodir Mirzayevich. (2022). The role of ideological education in the prevention of spiritual threats. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). Vol. 3No.06, June 2022. – P. 27-30.
11. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). [Family is the Most Important Social Factor of Ideological Education](#). Miasto Przyszłości. Special Issue. –pp.66-69.
12. Kandov Bahodir Mirzaevich, Kuyliyev Tulkin (2022). Socio-Philosophical Issues of Introducing the National Idea into the Minds of the Youth of New Uzbekistan in the Context of Globalization // TELEMATIQUE. Volume 21 Issue 1, – P. 6847-6853.
13. Ikramov Ravshan Aktamovich, Kandov Bahodir Mirzayevich. (2022). [The role of the media in the formation of legal culture](#). European Journal of Humanities and Educational Advancements. Vol.3.No.6. (2022). – pp.24-26.
14. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). [The Role of Education and the Mahalla Institute in Forming the Personality of the Person](#). Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. –pp. 515-521.
15. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2023). [The essence of universal human values and their influence on changes in the spiritual life of youth](#). Open Access Repository. – pp.796-803.
16. Tuganova Luiza Djurayevna (2022). [Reforms to protect the rights and interests of women in the renewed Uzbekistan is a priority direction of state policy](#). Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – pp. 1014-1021
17. Туганова Луиза (2022). [Конституция ва тенглилик принципи жамият нигоҳида](#). Academic research in educational sciences. –pp. 630-636.
18. Авазбек Йулдошев (2023). [Значение Кластерного Подхода В Образовании](#). Miasto Przyszłości. Vol.31. –pp.48-50.
19. Qandov Bahodir. (2022) Avestoda axloq va inson huquqlari muammolari // International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. –p. 330-334.
20. Kandov Bakhodir Mirzaevich. (2022) Forms and Features of the Manifestation of Spiritual Threats / Miasto Przyszłości. –pp. 75-79.
21. Solieva Lobar Rasulovna (2023). [THE ESSENCE AND CONTENT OF THE CONCEPT OF VALUE AND ITS ROLE IN THE SOCIAL LIFE OF SOCIETY](#). Web of scientis: international Scientific research journal. Vol.4, Iss. 3. – pp.824-831.



YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNING TASHKILY-USLUBIY ASOSLARI

Baxtiyor Shuhrat o‘g‘li Ochilov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Ravshan Aktamovich Ikramov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrası dotsenti, f.f.n.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamonaviylashtirish uslublarini Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida tashkillashtirish zaruriyati ilmiy tahlil qilingan. Yangi O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning yangicha ilmiy metodologiyasini uch turda olib borish maqbulligi haqida fikrlar berilgan. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkillashtirish, boshqarish va aniq maqsadlarga yo‘naltirish usullari, samaradorlik mexanizmlari hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlashdagi o‘rnini maqolada ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Yoshlar, ma’naviyat, ma’naviyatsizlik, ijtimoiy-gumanitar fanlar, jamiyat, ta’lim, tarbiya, oliy ta’lim, ma’lumotlilik, ta’lim muassasalari, huquq, kontsepsiya, nazariya, uslub, ishontirish uslubi, ta’limot.

ABSTRACT

This article scientifically analyzes the need to organize methods for the modernization of spiritual and educational work in educational institutions based on the development strategy of New Uzbekistan. Opinions were expressed on the acceptability of three types of new scientific methodology for organizing spiritual and educational work in educational institutions of the new Republic of Uzbekistan. The article reveals the methods of organization, management and management of spiritual and educational work in educational institutions, the mechanisms of efficiency, as well as the place of spiritual and educational work in ensuring the effectiveness of education.

Keywords: New Uzbekistan, youth, spirituality, lack of spirituality, social and humanitarian sciences, society, upbringing, training, higher education, education, educational institutions, law, coordination, theory, method, method of persuasion, teaching.



KIRISH

O‘zbekistonda tarbiyani insonparvarlashtirish va demokratlashtirish printsipi yoshlarning ijodiy faollik va mustakilligini rivojlantiradi, ularning ijtimoiylashuvida, foydali ishlarni amalga oshirishda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi. “Biz Yangi O‘zbekiston taraqqiyetining hozirgi rivojlanish bosqichidaijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma‘naviy-ma‘rifiyjabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham muhim ahamiyatgaega ekanini yaxshi anglaymiz”[1]. Yoshlarda ijodiy faollik, aqliy zakovat, axlokiy salohiyat, ilmiy dunyokarashni shakllantirish, ularda keng kamrovli ijtimoiy foydali ishlarga faol ishtirok etishlarini shakllantirishda ta‘lim muassasalarida olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarining o‘rni beqiyos. Shu sababli, bugungi kunda ta‘lim-tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniya, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san‘atigacha, bir so‘z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta‘sir o‘tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma‘naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonining muhim muammosi ta‘lim-tarbiyaning insonparvar paradigmalarni ishlab chiqish hisoblanadi. “Ta‘lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchunzarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxtaegallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz”[1]. Bu paradigmalarni zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatga mos kelishi lozim. Shundagina u ko‘p madaniyatlikka asoslangan ta‘lim jarayoni oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal eta oladi. Uning yechimlarini topish ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish shunchaki tarbiya jarayoni emas, tarbiya va ta‘limni takomillashtiruvchi nazariy va amaliy chora-tadbirlar mexanizmi sifatida tushunish joiz. Chunki, bu jarayonda nazariya va amaliyot o‘zaro mujassamlashadi. Ta‘lim muassasalarida nazariy jihatdan olingan bilimlar chora-tadbirlarni uyushtirish orqali o‘quvchilar, talabalarda ko‘nikma takomillashib boradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil qilishning ijtimoiy mexanizmlari, funksiyalari va mezonlari bugunga kelibgina ilmiy tadqiqot mavzuiga aylanayotgani yo‘q. Qadimgi va o‘rta asrlarda mazkur muammoning turli jihatlari mutaxassislar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. Jumladan, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abulabbos ibn Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Muhammad an-Nasafiy, Najmiddin



Kubro, Bahauddin Naqshband, Axmad Yassaviy, Burhoniddin Marg'iloniy, Abu Hamid al-G'azzoliy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Nizomiddin Shomiy, Komil Xorazmiy, Nodira, Gulxaniy, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Abdurauf Fitrat, Ishoqxonto'ra Ibrat.

MDH davlatlarining ko'plab olimlari ma'naviy madaniyatning voqelikda rivojlanish sababiyatlari, turli xalqlar tafakkuridagi kombinatsion o'zgarishlar, ayrim andozalarning yangicha tasavvur va milliy ruhdagi istak-mayllar bilan bog'liqligini ko'rsatib berishgan. Jumladan, Yu.Borev, L.Gumelyov, A.Guseynov, V.Lektorskiy, I.Ilinskiy, M.Kagan, I.Imomnazarov, E.Yusupov, X.Shayxova, S.Otamuratov, Z.Qodirova, Q.Nazarov, asarlarida ushbu jihatlarga chuqur e'tibor qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkillashtirish, boshqarish va aniq maqsadlarga yo'naltirish shart-sharoitlardan kelib chiqib aniq maqsadlarga yo'naltirilmog'i zarur. Chunki, ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni ortib borishi, ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu sababli, targ'ibot ishlarini zamonaviylashtirish muhim ahamiyatga ega. Ma'naviyat va ma'rifat sohasining quroli ham, vositasi ham, usuli ham – targ'ibot (odamlarni rag'batlantirish), tashviqot (shavqlantirish). Demak, bugun targ'ibot – odamlarni yagona shior ostida ma'naviy rag'batlantirishi, tashviqot – "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" shavqini aks ettirishi kerak.

Targ'ibot odamlarda yangi bilim, tuyg'u, orzu-istaklarni hosil qilish, to'g'ri asoslangan fikr, e'tiqodni mustahkamlash, noto'g'ri shakllangan stereotip, qarash, yanglish xulosalarni o'zgartirishni ham ko'zda tutadi. Shunday ekan, masalaga ilmiy-amaliy yondashuv inson psixologiyasining tuzilishini bilishni, targ'ibotning usul, shakl, texnologiya va vositalarini ijtimoiy psixologiya va pedagogika, sotsiologiyaning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda tanlash va amalga oshirishni taqozo etadi. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son qarori ijrosini ta'minlashga bag'ishlangan yig'ilishida qayd etilganidek, "yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o'z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish"[2] vazifasi ustuvorlashmoqda. Bu esa, avvalo, targ'ibotning ilmiy-amaliy printsiplarini aniqlab olishni taqozo etadi. Quyida sharhlanayotgan targ'ibot printsiplari milliy g'oya targ'iboti hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tajribasidan kelib



chiqqan holda takomillashtirib boriladi. Bu o'z-o'zidan jamoatchilik fikrini o'rganishni to'g'ri yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Jamoatchilik fikrini o'rganish muayyan jamiyatdagi odamlarning xohish istagi, kayfiyati, muammolar va ularning yechimlari bo'yicha ma'lumot olish va jamoatchilik fikrini boshqarish imkoniyatini beradi. Jamoatchilik fikri bu muayyan bir jamiyatdagi yoki davlatdagi mavjud holat bo'yicha insonlarning fikrlari va xulosalari yig'indisi hisoblanadi.

Shu sababli ma'naviyat targ'ibotchisi doimo jamoatchilik fikrini o'rganib borishi, targ'ibot tashviqot ishlarida to'plangan ma'lumotlar asosida muayyan xulosalar chiqarishi, har doim o'z ma'ruzalarini jamoatchilik fikri asosida tayyorlashi va unga ijobiy ta'sir ko'rsatish va uni boshqarishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aynan jamoatchilik fikrini o'rganish orqali mavjud muammolar bo'yicha aniqroq, ishonchliroq va batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Muammoga turlicha rakurslardan nazar tashlash imkoniyati yuzaga keladi. Muammo haqidagi ma'lumotlaringizni reprezentativligi oshadi. Natijada muammolarni bartaraf etish bo'yicha ham eng to'g'ri tashxisni qo'yish mumkin bo'ladi. Jamoatchilik fikri o'zgaruvchan bo'lib, uni boshqarish uchun muntazam o'rganib borish va unga asoslangan holda muammolar yechimini topishga harakat qilish xalq va mahalliy vakillik organlari o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Muammolarni hal etish osonlashadi, mahalliy rahbarlarning xalq oldidagi obro' e'tibori ortadi, legitimligi ta'minlanadi.

Hozirgi kunda jamoatchilik fikrini o'rganuvchi "Ijtimoiy fikr" markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Oliy o'quv yurtlarida jamoatchilik fikri asosiy tadqiqot ob'ekti bo'lgan Sotsiologiya fani o'qitilar edi. Keyingi yillarda Sotsiologiya fani oliy o'quv yurtlaridan olib tashlandi. Bu ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish tizimiga tubdan ta'sir ko'rsatadi. Sotsiologiya fanini joriy etishdan maqsad jamoatchilik fikrini ilmiy asoslangan tadqiqot usullari yordamida o'rganishni tizimli yo'lga qo'yish va malakali mutaxassislarni tayyorlash, jamoatchilik fikrini boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iboratdir. Jamoatchilik fikrini o'rganishda sotsiologik tadqiqot usullaridan keng foydalaniladi. Busiz muammolar yechimini aniqlash mushkul. Umumta'lim maktablarida ijtimoiy va ma'naviy muhitni aniqlashtirish tizimi o'z-o'zidan sotsiologik va psixologik uslublar asosida amalga oshishi tabiiy. Shu sababli ham oliy ta'lim talabalariga Sotsiologiya, Psixologiya fanlari o'qitilishi zarur. Ammo, hozirgi vaqtda oliy ta'lim talabalariga Sotsiologiya fani o'qitilmayapti. Sotsiologiya fani oliy ta'limda qisqartirilishi maqsadga muvofiq emas. Ta'lim muassasalarida baholanishning diyarli 30 foizi test shaklida o'tkaziladi. Oliy ta'limda Testologiyaga doir fanlar o'qitilishi kerak bo'ladi. Bu fan

O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida o'tilgan emas. Shu sababli ham test o'tkazish tartibida ko'plab muammolar mavjud.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda, uni amalga oshirishdagi muammolar yechimida Sotsiologiya fanining xizmati beqiyos. Oliy ta'limni bitirgan talabalar umumta'lim maktablari va professional ta'limda faoliyati davrida sotsiologik bilimlari ancha az qotadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda sotsiologik tadqiqotning So'rov usulibidan foydalanishning samaradorligi ancha sezilarli bo'ladi. So'rov usulidan jamiyat a'zolarining ijtimoiy voqea, hodisa va jarayonlarga munosabatini bilish, fikrini o'rganish, mavjud muammolar haqida axborotlar olishda foydalaniladi. So'rovlar og'zaki va yozma bo'lishi mumkin. Yozma so'rov turi bu Anketa hisoblanadi. Anketa savollari orqali respondentlardan olinadigan javoblarni umumlashtirib, guruhlashtirish bilan tadqiq etilayotgan ijtimoiy muammo to'g'risidagi jamoatchilik fikri oydinlashadi. Ma'lumotlarning ishonchliligi tadqiqotchining anketa savollari tuzishdagi mahorati bilan bog'liq. Anketa savollari respondentlarning umumiy saviyasi(respondent xarakteri, yoshi, kasbi, ma'lumot darajasi va ruhiy jihatlari)dan kelib chiqib sodda, tushunarli va javob berish uchun qulay tuzilgan bo'lishi kerak.

Sotsiologik tadqiqotning Intervyu uslubidan foydalanishning ham samaradorligi ancha yuqori bo'lishi amaliyotda isbotlangan. Intervyudan bu qadar keng ko'lamda foydalanishda radio, televidenie, kundalik matbuotning roli katta bo'lmoqda. Ayniqsa, hozirda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida kundalik hayotimizda ro'y berayotgan jiddiy o'zgarishlar to'g'risidagi ommaning ijtimoiy fikrini aniqlashda intervyu olishning salmog'i ortmoqda. So'rov usulining bu turida intervyu ikki asosiy funktsiyani bajaradi: 1) muayyan voqea-hodisa, jarayon to'g'risida ma'lumot yig'iladi; 2) shu bilan birga, ob'ektga – respondentga intervyu orqali ta'sir ko'rsatiladi. Sotsiologik tadqiqotlarda intervyu o'ziga xos xususiyatlarga ega. Eng avvalo, shuni ko'rsatib o'tish lozimki, intervyu orqali empirik ma'lumotlarni yig'ish shaxsning individual jihatlari bilan ro'baro kelinadi. Shu orqali respondent to'g'risida, uning tadqiq etilayotgan muammo to'g'risidagi qarashlari, fikri to'g'risida axborot olinadi. Beriladigan savollarga nisbatan respondentning ruhiy reaksiyasi kuzatiladi va hisobga olinadi. Intervyu olishda tadqiqotchi respondent bilan yaqin, samimiy, yuksak ahloqiy muomalada bo'lishi shart. Beriladigan savollar avvaldan puxta o'ylangan, respondentning shaxsiyatiga tegmaydigan, mazmunli bo'lishi talab qilinadi. Bunday shartlar respondentning intervyu so'roviga jiddiy munosabatda bo'lib,

beriladigan savollarga to'la va har tomonlama javob berishini ta'minlaydi.

Sotsiologik tadqiqotning Ishontirish uslubidan foydalanish bugungi kunda yaxshi samara beradi. Bu uslubdan qadimdan ajdodlarimiz foydalanib kelgan. Ayniqsa o'sib kelayotgan yoshlarda ishonchni o'yg'otish davr zaruriyatidir. Mustaqilligimizning bebaho ne'matligiga tinglovchilarni ishontirish, ularda iftixor, O'zbekistonning Buyuk kelajagiga ishonchning yanada mustahkamlanishini ta'minlaydi. Ishontirish uslubidan maqsadli foydalana olish tizimli yo'lga qo'yish kerakki, tadbirdan chiqayotgan yoshlarimizning ishonchi kirayotganidagidan kuchayib, mamnun chiqsin. Buning uchun targ'ibotchi-trenerning o'zida yuksak ishonch bo'lishi va shu bilan boshqalarga ibrat bo'lishi eng muhim vosita hisoblanadi. Qachonki targ'ibotchining o'zi ishonchsiz ohangda, mimikada, kayfiyatda gapirilsa, demak, tinglovchilarni ham ishontira olmaydi. Targ'ibot aks natija berishi ham mumkin bo'lib, samaradorlik 0 (nol)ga teng bo'ladi.

Buning uchun hamma o'z hayotida ko'rib, guvohi bo'lib turgan misollardan foydalanish lozim. Umumiy emas, balki xususiy misollardan, ya'ni "jamiyat shunday bo'lyapti" deyish emas, "mening hayotimda shunday o'zgarishlar yuz berdi" kabi misollardan foydalanish tinglovchini fikrlashga undaydi. Ishontirish oson kechadi.

Dolzarb yangiliklardan foydalanish usuli. Bu uslub odamlarning ongiga tez va soz kirib borishga xizmat qiladi. Dolzarb yangilik biror voqeaga daxldor, manfaatdor aholi qatlamlari – ziyolilar, fermerlar, yoshlar va hokazolarni tez qamrab oladi. Tez yoyiladi. Ularning qarash va e'tiqodlariga ta'sir qiladi. Tez va amaliy natija beradi. Buning uchun yoritiladigan voqea-hodisani tanlashda ularning aholi ko'pchilik qismi uchun muhimligidan kelib chiqiladi.

Tushunarlik uslub. Targ'ibot nazariyasida "Nutqida 10 ta tushunarsiz so'z ishlatgan notiq bankrotga uchraydi", degan naql bor. Bu bejiz emas. Targ'ibotchi ko'proq kundalik hayotimizda ishlatiladigan so'zlardan foydalansa, nutqi tushunarli bo'ladi. Rasmiyatchilik odamni bezdiradi. Tingovchilar bilan rasmiy majlis o'tkazayotgandek ohang, mimika, kayfiyat, holat va metodda emas, go'yoki shunchaki do'stona suhbat qilayotgandek erkin va samimiy tarzda tadbir o'tkazish targ'ibotchining foydasiga hal bo'ladi.

Kuzatish usuli. Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish usuli empirik ma'lumotlarni yig'ish uchun muayyan maqsadni ko'zlagan holda, oldindan puxta o'ylab, muntazam amalga oshiriladi. Bu usulda tadqiqotchi tadqiqot ob'ektidan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Kuzatish usuli natijasida to'plangan ma'lumotlar ob'ektivligi va hayotiyliigi bilan alohida ahamiyatlidir. SHu bilan birga, kuzatish usulidan olingan ma'lumotlarda sub'ektiv ta'sir ham bo'lishi mumkin. Ammo bu tadqiqotchi(kuzatuvchi)ning ob'ekt bilan

bog'liq o'zgarishlar dinamikasiga nisbatan reaksiyasiga va bu o'zgarishlarni qanday qabul qilishiga bog'liq.

Bu usulning asosiy afzalligi tadqiqotchi ob'ekt haqida bevosita o'zi guvohi bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bu jihatdan ushbu usul haqqoniy ma'lumotlar to'plash uchun eng maqbul usul hisoblanadi. Ammo kuzatish usulida ko'pincha tadqiq etilayotgan voqelikni qayta kuzatish imkoniyati bo'lmaydi. SHuningdek, kuzatish orqali tadqiqotchini qiziqtirgan savoliga kuzatiluvchining fikr va xulosalarini bilish juda qiyin.

Kuzatish usulida tadqiqotchi tadqiqot ob'ektining xususiyatidan kelib chiqib, o'z kuzatuv faoliyatini tashkil qiladi. Kuzatishning bir qancha turlari mavjud.

Kuzatish ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Ochiq kuzatishda kuzatilayotgan guruh oldindan ogohlantirib qo'yiladi, yopiq kuzatishda esa ob'ekt o'zini kuzatilayotganligidan xabardor qilinmaydi.

Harakat ko'lamiga ko'ra, chegaralanmagan kuzatish ya'ni kuzatuvchi aniq bir harakat rejasiga asoslanmagan holda amalga oshiradi, chegaralangan kuzatish, bunda kuzatuvchi tadqiqoti aniq chegaralangan dasturga asoslanadi.

Kuzatish joyiga ko'ra, Dala sharoitida kuzatish ob'ekti qilib sotsial voqelikning u yoki bu tomoni, jarayoni olinadi. Laboratoriya sharoitidagi kuzatishda esa ob'ekt qilib ob'ektiv voqelikka ma'lum bir darajada moslashtirilgan model' olinadi.

Bevosita ichkaridan kuzatish ya'ni tadqiqotchi kuzatayotgan ob'ektda ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadi, tashqaridan kuzatishda esa tadqiqotchi ob'ektga nisbatan mustaqil bo'ladi va ob'ektdagi o'zgarishlarga bevosita ta'sir ko'rsata olmaydi.

Sotsiologik kuzatishlarda doimo asosiy ob'ekt inson bo'lib, agar u tadqiqotchining maqsadini sezib qolsa, xulq atvorini o'zgartirishi mumkin. Bu esa ob'ekt haqida aniq ma'lumot olish imkoniyatini keskin pasaytirib yuboradi. Shuning uchun bu usuldan ob'ekt haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishda ko'proq foydalaniladi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning asosiy uslublaridan biri Ma'naviy targ'ibot-tashviqot usulidir. Ma'naviy targ'ibot-tashviqotning ikki an'anaviy yo'li mavjud. Birinchisi – insoniy fazilatlarni ulug'lash, yuksak ma'naviyatli kishilar hayoti va faoliyatini ta'riflash, ulardan ibrat, namuna qilib ko'rsatish orqali kechadi. Ikkinchi yo'l esa illatlarni qoralash, ulardan xalos bo'lishga da'vat, targ'ib-tashviq orqali amalga oshadi. Bu vosita birinchisiga nisbatan samaraliroq. Shu sababli ham erishilgan yutuqlarni xolisona e'tirof etib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar tanqidiy nuqtai-nazardan baholanishi lozim. Jamiyatni yangilashdan ko'zlangan bosh

maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi qator masalalardan iborat. Ushbu bunyodkor g'oyalar ongi va qalbiga singdirilgan jismoniy va ma'naviy sog'lom avlodni voyaga yetkazish esa bir yillik yoki o'n yillik ish emas, bunga hatto bir avlod umri ham kamlik qiladi. buni anglab yetmaslik, qandaydir xomhayollar bilan yengil-elpi targ'ibot-tashviqot yuritish ko'zda tutilgan katta maqsadlarni obro'sizlantirib qo'yadi[3, 21].

Barkamol avlod sog'lom oilaviy muhitda voyaga yetadi. bunga erishish uchun – birinchi navbatda, ma'naviy targ'ibot-tashviqot ishlarini ota-onalar ongi, ularning farzandlariga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yo'naltirmoq lozim. Ma'naviy targ'ibot-tashviqotda ulug' ajdodlarimizning hayot yo'li, qoldirgan merosini bir yoqlamalikka berilmay, to'g'ri va haqqoniy aks ettirmog'imiz darkor. Lekin, bunda o'tmishdagi siymolar bilan cheklanib qolmay, bugungi kun qaxramonlari, ilg'or zamondoshlarimizdan o'rnak olish ham muhim ahamiyatga ega. Toki, ular yoshlar uchun ibrat namunasi bo'lsin. Chunki, targ'ibot-tashviqotda faqat o'tmishdan misol keltirish bilan cheklanib qolinsa, bu – kechagi kun bilan yashash bo'ladi. Ma'naviy targ'ibot-tashviqot borasida eski davrdan qolgan quruq, siyqasi chiqqan va'zxonlikdan voz kechib, davlatimiz bugun boshidan kechirayotgan murakkab va mashaqqatli hayot haqiqatiga tayanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng zamonaviy, ta'sirchan usul-uslublaridan foydalangan holda ish olib borishni hayotning o'zi talab qilmoqda[3, 20-21].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning samarali uslublaridan foydalanish, aniq foydalanishni tashkil etish maqsadga muvofiq. Biz magistrlik ilmiy tadqiqotimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning Sotsiologik so'rov, Intervyu, Ishontirish, Dolzarb yangiliklardan foydalanish, Tushunarlilik, Kuzatish, ma'naviy targ'ibot-tashviqot usuliblarining samaradorligi haqida fikr yuritdik. Ushbu uslublar bugungi kunda samarali uslub ekanligini isbotlab ko'rsatdik va ilmiy tahlil qildik.

REFERENCES

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B.440.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-



- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori. Xalq so‘zi, 2021 yil, 28 mart.
3. Nazarov Q. va b. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. –Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2021. – B.816.
 4. Nazarov Q. Ma’naviyatshunoslikning dolzarb masalalari. –Toshkent: 2010. –B.20-21.
 5. Kandov Bahodir Mirzayevich (2022). The Role of Education and the Mahalla Institute in Forming the Personality of the Person. Central asian journal of theoretical & applied sciences. – P.515-521.
 6. Kandov Bahodir Mirzayevich. (2022). The role of ideological education in the prevention of spiritual threats. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). Vol. 3No.06, June 2022. – P. 27-30.
 7. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). Family is the Most Important Social Factor of Ideological Education. Miasto Przyszłości. Special Issue. –pp.66-69.
 8. Kandov Bahodir Mirzaevich, Kuyliyev Tulkin (2022). Socio-Philosophical Issues of Introducing the National Idea into the Minds of the Youth of New Uzbekistan in the Context of Globalization // TELEMATIQUE. Volume 21 Issue 1, – P. 6847-6853.
 9. Solieva Lobar Rasulovna (2023). Features of the use of innovative educational technologies in improving the modern education system of Uzbekistan. World Bulletin of Social Sciences. – pp.144-147.
 10. Ikramov Ravshan Aktamovich, Kandov Bahodir Mirzayevich. (2022). The role of the media in the formation of legal culture. European Journal of Humanities and Educational Advancements. Vol.3.No.6. (2022). – pp.24-26.
 11. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). The Role of Education and the Mahalla Institute in Forming the Personality of the Person. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. –pp. 515-521.
 12. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2023). The essence of universal human values and their influence on changes in the spiritual life of youth. Open Access Repository. – pp.796-803.
 13. Tuganova Luiza Djurayevna (2022). Reforms to protect the rights and interests of women in the renewed Uzbekistan is a priority direction of state policy. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – pp. 1014-1021.
 14. Туганова Луиза (2022). Конституция ва тенглилик принципи жамият нигоҳида. Academic research in educational sciences. –pp. 630-636.
 15. Авазбек Йулдошев (2023). Значение Кластерного Подхода В Образовании. Miasto Przyszłości. Vol.31. –pp.48-50.



16. Kandov Bahodir Mirzayevich (2022). [Formation of a constitutional and legal culture is a guarantee of human rights](#). International Conference on Advances in Education, Social and Applied Sciences London, U.K July 9th. – P.103-107.
17. Bahodir Qandov (2022). O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati barqarorligini ta’minlashda oiladagi axloqiy tarbiyaning o‘rni // International Conference on Advance Research in Humanities. May 28th 2022. – P. 335-339.
18. Qandov Bahodir. (2022) Avestoda axloq va inson huquqlari muammolari // International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. –p. 330-334.
19. Nazarov Nasriddin (2021). Relationship between the Ethnom" Sir" and the Syrdarya Hydronym in Orkhun Writing // Psychology and Education Journal, 58 (2), - P. 1319-1326.
20. Solieva Lobar Rasulovna (2023). [THE ESSENCE AND CONTENT OF THE CONCEPT OF VALUE AND ITS ROLE IN THE SOCIAL LIFE OF SOCIETY](#). Web of scientis: international Scientific research journal. Vol.4, Iss. 3. – pp.824-831.
21. Kandov B.M. (2022). Features of Increasing the Legal Awareness and Legal Culture of Young People. Miasto Przyszłości. Special Issue. –pp.108-111.



GEOGRAFIYA FANLARINI O‘QITILISHIDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XORIJIY TAJRIBA

Z. N. Tojiyeva

O‘ZMU Iqtisodiy va ijtimoiy eografiya kafedراس professori, g.f.d.

M. M. Ibroximova

CHDPU 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada mamlakatimizda geografiya fanlarini o‘qitish jarayonida yangicha zamonaviy yondashuvlardan munosib foydalanish masalalari tahlil qilingan. Bu boradagi Finlandiya, Germaniya, Rossiya, Fransiya, Angliya, Yaponiya kabi davlatlar tajribalarining o‘ziga xos xususiyatlari, bu mamlakatlarda mazkur fanning o‘qitilishidagi asosiy zamonaviy yondashuvlar o‘rganilgan. Amaliy tarzda o‘qitiladigan mavzulardagi metodlar, bu mashg‘ulotlarni sayohat-ekskursiya tarzida olib boriladigan joylar uchun qo‘yilgan talablar haqida ma‘lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy yondashuvlar, tizimli-strukturaviy yondashuv, tarixiy yondashuv, Finlandiya ta‘limi, yashil darslar, dengiz darslari, ta‘limni insoniyashtirish, “Xavf geografiyasi”, salomatlik doktrinasi, Globus ilmi.

ABSTRACT

The article analyzes the issues of appropriate use of new modern approaches in the process of teaching geography in our country. In this regard, the specific characteristics of the experiences of countries such as Finland, Germany, Russia, France, England, and Japan, as well as the main modern approaches to the teaching of this subject in these countries, have been studied. Information about the methods of the subjects taught in a practical way, the requirements for the places where these trainings are conducted in the form of a trip-excursion is highlighted.

Keywords: modern approaches, systemic-structural approach, historical approach, Finnish education, green lessons, sea lessons, humanization of education, "Geography of Risk", doctrine of health, Globe Science.

KIRISH

Ma‘lumki, muayyan sohadagi taraqqiyot insoniyatning shu sohada qo‘lga kiritilgan barcha yutuqlarini keng qo‘llanilishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bu esa barcha xalqlarning tajribalarini



atroflicha o'rganish bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida 7 ta ustuvor yo'nalish va 100 maqsad belgilangan. 7 ustuvor yo'nalish sifatida "*Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish*" belgilanib, unda 12 ta maqsadni o'z oldimizga qo'ydik[1]. Bu maqsadlar barcha sohalarida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Chet el geografiya metodologiyasida, xuddi bizning ta'limdagi singari geografiyani o'qitishning tashkiliy shakllari odatda ikkita asosiy guruhga bo'linadi: sinf va sinfdan tashqari.

Sinfdan tashqari shakllarning xilma-xilligiga qaramay, mashg'ulot olib borishning sinf-auditoriya shakli hamma joyda asosiy shakl bo'lib qolmoqda. Biroq, uni amalga oshirish turli yo'llar bilan yoki tez-tez aytilgandek, turli xil ta'lim uslublari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"O'quv uslubi geografiya o'qitishning xorijiy metodikalarining sevimli mavzularidan biridir. Ayniqsa, ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda ushbu mavzuga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlar mavjud. Uslubni aniqlash uchun asos odatda uchta omilning tahlili hisoblanadi:

- 1) o'qituvchining roli va funksiyalari,
- 2) o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar,
- 3) ta'lim faoliyatini, birinchi navbatda, sinfda tashkil etish xarakteri"[4].

Uslubiy-metodik adabiyotlarida eng umumiy, umumlashtirilgan shaklda an'anaviy va progressiv ikkita asosiy uslubni ajratish odatiy holdir (ular rasmiy va norasmiy, reproduktiv va qidiruv, avtoritar va demokratik deb ham ataladi).

Ko'plab mamlakatlar ta'lim tizimida an'anaviy dars bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun maqsadli belgilash bilan tavsiflanadi. Bunda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga kerakli ma'lumotlarni yetkazish, uning o'zlashtirilishini ta'minlash va yangi material qanday o'zlashtirilganligini tekshirishdan iborat bo'ladi. Ustoz-shogird munosabatlarining katta qismida bo'yruqbozlik (avtoritar) yondashuv ustunlik qiladi.

O'quvchilarning shaxsini tarbiyalash va rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Albatta, bu holatda ham darslar didaktik maqsadlariga ko'ra ancha xilma-xil bo'lishi mumkin. Ammo shunga qaramay, an'anaviy dars eng keng tarqalgan bo'lib qolmoqda, bu bilim va ko'nikmalarni

sinash, yangi materialni o'rganish, mustahkamlash va uy vazifasini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Shu munosabat bilan G'arb mamlakatlarida barcha maktab fanlari, shu jumladan geografiya bo'yicha juda ko'p tajriba to'plangan. "Masalan, Buyuk Britaniyada tajriba o'tkazildi, unda o'qituvchilarning rollari shunday taqsimlandiki, ularning ba'zilari ma'ruzalar, boshqalari seminarlar, boshqalari laboratoriya mashg'ulotlari, to'rtinchisi esa maslahatlar berib, uy vazifalarini tekshirdi. Fransiyada pedagogik izlanishlar natijasida "yakkama-yakka" ta'lim eksperiment – tajriba sifatida joriy etildi, bunda sinflar guruhlariga bo'linadi, o'quv kuni ertalab va tushdan keyin, o'quv haftasi esa uch qismga bo'linadi" [3].

Ko'plab xorijiy mamlakatlar geografiya ta'limi metodologiyasida o'quvchitalabalarning faoliyati faqat darslik bilan cheklanib qolmasda, turli xil bilim manbalariga, jumladan, gazeta-jurnallar, tegishli bo'limlarning hisobotlari, hal qilinayotgan muammo bilan bog'liq bo'lgan shaxslar va olimning xatlari va xotiralari to'plamlari, mahalliy va davlat statistikasiga, ilmiy-ommabop adabiyot va boshqalarga asoslanadi.

Bizning mamlakatimizdagi kabi ko'plab xorijiy davlatlar geografiya metodologiyasida ham boshlang'ich sinflarda o'yinlar vaqti-vaqti bilan qo'llaniladi. "G'arb o'qituvchilarining fikriga ko'ra, bu bolalarga haqiqiy vaziyatlarni his qilishlariga, muammoga duch kelgan odamlarning ko'zlari bilan qarashga yordam beradi.

Chet ellik geografiya o'qituvchilarining fikriga ko'ra, ta'limni o'rtacha bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan o'quvchiga qaratish tavsiya etilmaydi, chunki bu holda boshqa maktab o'quvchilarining kamida uchdan bir qismi o'qituvchining ko'rish maydonidan chiqib ketadi. Eng umumiy munosabat shundan iboratki, ta'lim sinfdagi barcha o'quvchilarning faolligini rag'batlantirishi, turlicha qobiliyatga ega bolalarning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishi kerak. O'qituvchi bolalarning birortasi yoki butun o'quvchilar guruhi umumiy faoliyatdan chetda qoladigan, o'qituvchining e'tiboridan mahrum bo'lgan vaziyatdan qochishi kerak. Mamlakatimizga tashrif buyurgan bir necha xorijiy pedagogik-metodik mutaxassislar "O'zbekiston ta'lim jarayonlarida o'qituvchi darsning katta qismini iqtidorli o'quvchilar bilan o'tkazadi, ko'proq savollarning javoblarini ham ulardan so'raydilar" deya ta'kidlashganini guvohi bo'lganmiz. Insof bilan fikr yuritilsa, chindan ham shunday holat mavjud, afsuski.

"O'rgatishga o'rganish" - zamonaviy darsning asosiy maqsadini qisqacha aytganda shunday shakllantirish mumkin. Biroq, bu shior, aftidan, geografik madaniyatning moddiy asosini



tashkil etuvchi haqiqiy geografik o'ziga xoslik fonga va hatto uchinchi rejaga (uchun) o'tib ketadigan mutloq maqsadga aylanmasligi kerak. (Masalan, alohida misollar bo'yicha tanlab o'qitishda). Shu sababli, ko'plab ekspert-mutaxassislar zamonaviy va an'anaviy darslar elementlarining oqilona kombinatsiyasiga ega bo'lishni maqsadga muvofiq deb bilishadi. Ta'lim tizimida kadrlarning yosh doirasi haqida so'z ketganda bir donishmandning quyidagi fikrini esga olish lozim deb bildik: "Ta'limda faqat katta yoshlilar bo'lsa – bu tragediya, faqat yoshlar bo'lib qolsa – bu komediya, katta yoshli – keng tajribali hamda yosh – izlanuvchan kadrlarning birligi – simfoniyani tashkil qiladi".

Fransiyadagi maktab geografik ta'limida alohida o'rinni Ta'lim vazirligi va Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi tomonidan maktab o'quvchilari uchun maxsus ishlab chiqilgan ekskursiyalar (yoki "konseptual yurishlar") egallaydi. Qoida tariqasida, ular milliy yoki mintaqaviy bog'larda ushbu qo'riqlanadigan hududlar xodimlari ishtirokida o'tkaziladi. Bir qator joylarda turli xil tabiiy va hududiy komplekslarni o'rganish uchun bir qator o'quv ekskursiyalari ishlab chiqilgan: "Dengiz sinfi", "Yashil sinf", "Shahar sinfi". Masalan, Port Kross [4] bog'ida maktab o'quvchilarini boshqa sharoitlarda erishib bo'lmaydigan suv osti chekkalari hayoti bilan tanishtirish uchun hatto suv ostida yurish ham o'tkaziladi.

Finlandiyada turli fanlar bo'yicha geografik mavzular maktab ta'limida o'rta asrlarga borib taqaladigan uzoqroq tarixga ega. Masalan, monastir maktablarining predmetlaridan biri "Globus ilmi" yoki "Yer haqidagi fan" edi.

Bugungi Finlyandiyada geografiya boshqa fanlar orasida munosib o'rin tutadi. Uni o'rganish bizdagi kabi boshlang'ich maktabda boshlanadi, o'rta maktabda davom etadi va umumta'lim maktabining katta, bitiruvchi sinfida tugaydi.

Bugungi kunda o'rta maktabda ishlash Milliy asosiy dastur bilan tartibga solinadi. **O'quvchilar maktabda o'qiyotgan to'qqiz yildan sakkiz yarim yil davomida geografiya o'rganiladi.** Har bir kurs haftasiga 1 soatdan iborat. Uch yillik gimnaziya ikkita majburiy va bitta ixtiyoriy kurs mavjud. Qo'shimcha kurslarning mavjudligi uchta geografiya kursini tanlagan talabalar ushbu fan bo'yicha ko'proq soatga ega bo'lishlarini anglatadi. Geografiya bo'yicha Gimnaziya dasturi jismoniy geografiya, ijtimoiy geografiya va maxsus qo'shimcha kursdan iborat.

2003-yil oxiriga kelib Finlyandiyada maktab ta'limining asosiy islohoti yakunlandi. Qizg'in bahs-munozaralardan so'ng ta'lim dasturiga yangi fan – **salomatlik doktrinasi** kiritildi. Yana ikkita fan ildiz otgan: falsafa va kompyuter ta'limi. Bu islohotdan geografiya fani foyda ko'rmadi. Bu avvalgidek bir xil miqdordagi soatlarni oladi. Yana bir muhim masala geoinformatikaning maktab o'quv dasturidagi o'rni edi.

Geoinformatika Finlyandiya jamiyatida allaqachon keng qo'llaniladi va kelajak uchun juda muhim hisoblanadi. Ammo maktabda, agar o'qituvchi faol va bu fanni o'rgatadigan darajada bilimli bo'lsa, ular u bilan tanishadilar.

Taxminan 50 yil oldin geografiyada miqdoriy inqilob deb ataladigan narsa sodir bo'ldi. Geografiyada akademik fan sifatida statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratildi.

Butun sayyorada va har bir mamlakatda alohida yashash uchun xavfli joylar mavjud. Ayniqsa, katta shaharlarda bunday joylar ko'p. Demak, bu joylarni va ularga munosabatimizni o'rganuvchi yangi ilmiy yo'nalish - *Xavf geografiyasiga* oid bilimlarga ehtiyoj mavjud. "Xavf geografiyasi kurs Finlandiya universitetlarida juda mashhur bo'lib, ayni vaqtda maktab dasturlariga ham kiritilmoqda"[4]. Finlandiyada geografiya o'qituvchilari o'zlarining hayot yo'nalishi bilan faxrlanishadi.

Germaniyadagi maktab geografik ta'limida geografiyaning strukturasi an'anaviy ravishda vatanshunoslikka nisbatan katta moyillikka ega bo'lib, fanning tizimli kursi bilan tanishish shundan boshlanadi. "Shu munosabat bilan o'z mintaqasi va o'z mamlakati geografiyasini o'rganishda 7-8 kungacha davom etadigan joylarda mashg'ulotlar majmuasi, jumladan, mamlakatning chekka hududlarida joylarda dala amaliyotlari qo'llaniladi. Ekskursiyalardan tashqari, dala faoliyatining boshqa turlari ham keng tarqalgan: ishbilarmonlik o'yinlari (loyiha ishlab chiqish), yurishlar, ekologik desant (atrof-muhitni yaxshilash), dala geografik tadqiqotlari va hk."

Buyuk Britaniyadagi geografik ta'lim tizimi alohida e'tiborga loyiqdir, bu yerda geografiya fani hukumat qarori bilan o'rganish uchun eng muhim va majburiy fanlardan biridir. Endilikda geografiya alohida fan sifatida ingliz maktablarida Milliy dasturga ko'ra 1-sinfdan 9-sinfgacha o'qitiladi. Talabalar tomonidan geografik ma'lumotlarni mustaqil ravishda to'plash va keyinchalik qayta ishlash muhim o'rin tutadi. Shaxsiy dala tadqiqotlari natijalari geografiyadan yakuniy imtihonga topshiriladi.

Yaponiyada maktab geografiyasi muammolarini hal etishda nafaqat davlat organlari, balki jamoat tashkilotlari, kasb-hunar birlashmalari ham qayg'urmoqda. Maktab o'qituvchilari, universitet professorlari va olimlar Geografiyani o'rganish bo'yicha tadqiqot assotsiatsiyasi, Yaponiya geografik assotsiatsiyasi, Yaponiya geografiya ta'limi assotsiatsiyasi va Iqtisodiy geografiya assotsiatsiyasiga birlashganlar.

Yapon davlatining falsafiy tafakkuri, ijtimoiy hayoti va ichki siyosati har doim yaponlarning diniy ongiga asos bo'lgan sintoizm bilan bog'liq.

“Sintoizmning Yaponiya geografik ta’limining shakllanishiga ta’siri haqida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

*Birinchi*dan, sintoizm vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashning asosiy omillaridan biri bo‘lib, u maktab geografik ta’limida ham namoyon bo‘ladi.

*Ikkinchi*dan, sintoizm yaponlarning bag‘rikengligini va maktab geografik ta’imida ham o‘z ifodasini topgan Sharq va G‘arb pedagogik tizimlar g‘oyalariga ochiqligini shakllantirish imkoniyatini belgilab berdi.

*Uchinchi*dan, sintoizm tabiatga hurmat va atrof-muhitni muhofaza qilishni belgilaydi, bu Yaponiya maktab geografik ta’limining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir”[5].

Yapon tajribasidan xulosa qilgan holda bizning ta’lim tizimimizda ham milliy, diniy, an’anaviy qadriyatlardan har bir auditoriyaga mos va xos tarzda foydalanish umumiy maqsadga xizmat qiladi. Masalan, Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam: “Amallar niyatga bog‘liqdir...” deganlar.

Imom Ahmad ibn Hanbal rahmatullohu alayhi: “Ilmning uchdan biri shu hadisda”, deb ta’kidlagan bo‘lsalarr, Imom Shofe’iy rahmatullohu alayhi esa “Ilmning yarmi shu hadisda”, degan ekanlar. Shu asosda har bir o‘qituvchi o‘z auditoriyagamos bo‘lgan holda ilm olishdan avvalo niyatni to‘g‘ri qilish lozimligi ko‘nikmasini shakllantira olsa, o‘ylaymizki, nafaqat geografik ta’limda balki, butun ta’lim tizimida ulkan yutuqlarga erishamiz.

Yuqorida o‘rganilgan ma’lumotlardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, xorijiy ko‘plab mamlakatlarda maktab geografik ta’limi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1) Psixologiya fanini jalb qilgan holda o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim doirasida kognitiv faoliyatni rivojlantirish (muammoli o‘qitish, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘quv jarayonida o‘yinlardan foydalanish, tadqiqot loyihalari va boshqalar).

2) Geografiya kurslari mazmunini “insoniylashtirish”, boshqa o‘quv fanlari bilan integratsiyalashuvini ta’minlash. Bu omilni bizning maktablarimizda ham keng qo‘llash mumkin. Masalan, erkin iqtisodiy zonalar masalasi o‘rganilayotganida ularning boshqa hududlardan farqli bo‘lgan huquqiy maqomini bilish uchun huquqshunoslik faniga murojaat qilish, O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida” Qonuni matni bilan tahliliy tanishib chiqilsa, o‘quvchida ham geografiya, ham huquqshunoslik bo‘yicha bilim hosil bo‘lishiga erishiladi.

3) O'z ona yurti va o'lkasi geografiyasini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Ona vatan, o'z mamlakati, dunyo haqida axloqiy g'oyalarni shakllantirish (Masalan Germaniyada).

4) Mashg'ulotlarda amaliy yo'nalish (mavhum emas, balki haqiqiy muammolarni hal qilish, birinchi navbatda, ushbu mamlakatda va ona yurtda katta ahamiyatga ega joylarda keng foydalanish; ishbilarmonlik o'yinlari).

5) Joylarda ishlash tizimi (dala atrof-muhitni o'rganish markazlari; dala mashg'ulotlari va amaliy mashg'ulotlar; "yashil", "dengiz" va "shahar" darslari, geografik yurishlar, sayohatlar, ekspeditsiyalar va boshqalar).

6) Ko'plab shaharlarda yosh tabiatshunoslar uchun stansiyalar mavjud, o'rta maktab o'qituvchilari o'quvchilarni qo'riqlanadigan hududlarga yoki boshqa tabiiy geografik maskanlarga ko'proq ekskursiyalarga olib boradilar, ko'p sonli o'rta maktab o'quvchilari har yili munitsipalitet(mahalliy hokimiyat) tomonidan o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyalarda qatnashadilar va hokazo. (Rossiyada maktab geografik ta'lim tizimida fanni o'rganish bo'yicha xorijiy tajriba uchun mezonlarni belgilaydi.)

7) Turli maqsadlarda turli testlarni, murakkab tekshirish ishlarini (muqobil, ko'p tanlovli javoblar, rasmi, kartografik va boshqalar) nazorat qilish uchun keng foydalanish. Bu omil albatta o'quvchi-yoshlarda o'z mustaqil fikrining shakllanishiga xizmat qiladi.

8) O'qituvchilar faoliyatida metodik tadqiqotlardan foydalanish. Har bir o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha olib borilgan yangi-yangi metodik ishlanmalar bilan tanishib, o'z faoliyatida qo'llab borishi.

9) O'quv jarayonining yuqori texnik jihozlari (kosmik fotosuratlar, o'quv televidion dasturlari, videofilmlar va video to'plamlar, kompyuter dasturlari, geografik axborot tizimlari va boshqalar) o'rta maktabda geografiya darslarida ham qo'llaniladi.

XULOSA

O'rganilgan ma'lumotlar asosida biz quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: xorijiy davlatlar maktablarida geografiya o'qitish rivojlanishining hozirgi bosqichida geografiya o'qitishning O'zbekistondagi maktablarga qaraganda ustunlik qilishi aniq, albatta. Bunga quyidagi omillar sabab deb hisoblaymiz:

- geografiya kursining asosi bo'lgan ona yurt va ona yurt geografiyasini o'rganishga alohida e'tibor beriladi;

- birinchi navbatda o'quvchilarda bilim faolligini rag'batlantirishga, *amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga* alohida munosabatda bo'linadi;

- darsda turli xil mashg'ulot shakllari qo'llaniladi – o'yinlar, modellashtirish, ekskursiyalar, shaxsiy va guruhli geografik tadqiqotlar, loyihalar va boshqalar.

- sinf-auditoriyaning zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlanganligi darajasi.

Bizning mamlakatimizda esa iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, maktab va maktab geografik ta'limi tizimining o'ziga xos xususiyatlari sababidan sog'lom fikrlovchi, yuksak axloqiy fazilatlariga ega shaxsning shakllanishiga, uning ma'naviyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan bunday darajadagi tendensiya lozim darajada shakllanmagan. Shu boisdan ham bizlarda ko'p hollarda "to'g'ri yo'l ko'rsata olish" va turli vaziyatlarga javob bera olish qobiliyati shakllantirishda oqsashlar mavjud, deb ayta olamiz. Ularni bartaraf qilishda esa albatta, avvalo soha vakillaridan, qolaversa butun jamiyat a'zolaridan o'z burch va majburiyatlarini sidqidildan bajarishi talab etiladi.

Geografiya metodologiyasida xorijiy davlatlarning tajribalarini, yutuqlarini o'rganish, bizning mentalitetga mos bo'lgan qismlaridan dars mashg'ulotlarini tashkil etishda foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Yuqoridagi paragrafda Yaponiya, Fransiya Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlandiya, Rossiya davlatlarining geografiya metodologiyasiga oid yutuqlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan qisman tanishib chiqildi. Shulardan xulosa qilib, bizning geografiya dars mashg'ulotlarimizni tashkil etishda ham ularda mavjud tajribalardan foydalanish lozim. Xususan, Germaniyadagi geografiya ta'limi markaziga eng avvalo Ona Vatanga muhabbat hissini shakllantirish, uning barcha xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish masalasini qo'yish tajribasini o'zlashtirish, Fransiya va Angliyadan esa har bir obyektning imkon qadar his etib tushuntirish (o'rganilayotgan obyektga yoki uning xususiyatlari mujassam bo'lgan joylarga ekskursiyalar tashkil etish orqali) tajribasini o'zlashtirish, Yaponiyadan milliy, an'anaviy, diniy omillardan ta'lim sifatini yuksaltirishda munosib foydalanish tajribasini o'zlashtirish, Finlandiyadan esa eng avvalo bolaning shaxsiy fazilatlarini va unga hayotda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni o'rgatish tajribasini o'zlashtirish mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni(<https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5844604>)
2. Т.А.Губарева. Зарубежный опыт преподавания географии в школе.(Особенности преподавания географии в других странах (на примере Великобритании). Статья/2016



3. Т.А.Губарева. Зарубежный опыт преподавания географии в школе.(Особенности преподавания географии в других странах (на примере Великобритании). Статья/2016
4. Научно-практическая конференция «Три века географического образования в России» 3—5 ноября 2003 г. Санкт-Петербург. (Перевод А.Г. БУЙЧИКА)
5. И.Л.Тхуго. Современное состояние и проблемы развития содержания школьного географического образования в Японии. диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.02
6. F.A.Ibrohimov, Z.M.Kabirova. Inklyuziv ta'lim va yangicha pedagogik yondashuvlar. Academic research in educational sciences 2 (CSPI conference 1), 567-571
7. SI Doniyev, FA Ibrohimov, IS Joldasov. Boshlang'ich ta'lim rivojlanish tendensiyalari (Finlandiya ta'lim tizimi misolida). Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar.(2-maxsus son). Toshket-2020.



ҚАДИМГИ ШАРҚ ВА АНТИК ДАВР ФАЛСАФАСИНИНГ ЎЗАРО ФАРҚ ҚИЛУВЧИ ВА ЎХШАШ ЖИХАТЛАРИ

Жамшид Шодиёрович Элмуротов

Тошкент архитектура-қурилиш университети PhD, доц.

jamshidbek82@gmail.com

Чарос Азаматовна Азимова

Тошкент архитектура-қурилиш университети катта ўқитувчиси

charosrose@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мақолада антик давр – кенг маънода қадимги давр фалсафаси ва маданиятини англатувчи тушунча эканлиги алоҳида келтириб ўтилади. Том маънода Юнонистон ва Қадимги Рим тарихи ва маданиятининг эллинизм даврини англатиши ва нисбий маънода Ўрта Осиё тарихининг мил. авв. III – мил. IV асрларига нисбатан ҳам ишлатиши борасида сўз боради.

Калит сўзлар: космология, упанишада, етуклик, уйғунлик, социал муҳит, брахмон, миф, эҳтирос, кўрқинч, уят, муҳаббат, нафрат, эзгулик, гўзаллик, рух, тафаккур.

ABSTRACT

The article specifically mentions that antiquity is a concept that means the philosophy and culture of ancient times in a broad sense. In the literal sense, it means the Hellenistic period of the history and culture of Greece and Ancient Rome, and in a relative sense, the history of Central Asia. avv. III - mill. It is also mentioned about its use in relation to the IV centuries.

Keywords: cosmology, upanishada, maturity, harmony, social environment, brahmin, myth, passion, fear, shame, love, hate, goodness, beauty, soul, thought

КИРИШ

Фалсафа тарихидан маълумки, барча юнон файласуфлари ва мутафаккирлари азалдан Шарқ маданиятидан баҳра олиб келганлар ва аксинча, Шарқ мутафаккирларининг кўпчилиги ислом таълимоти фалсафий асослашда олдинги динлар ва таълимотларнинг ғояларини ўрганиб, улардан таъсирланганлар. “Ҳикмат илми Мисрда шаклланган, фалсафаси - Ҳиндистонда, амалиёти - Марказий



Осиёда” деган қарашларда ҳам асос бор деб ҳисоблаймиз. Биринчи фалсафа кишилиқ фалсафий маданияти тарихининг биринчи босқичида мифологиявий дунёқараш билан узвийликда бўлиб, у антик даврдан анча олдин, қадимги Шарқда, яъни Қадимги Миср, Бобил, Марказий Осиё, Ҳиндистон, Хитойда бошланган ва бу дунёқараш ўз предметининг глобаллиги, билимнинг синкретивлиги ва структурасининг монолитлиги ва мутлақо сирли (мистик) характери билан ажралиб туради.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Қадимий Миср ривоятларида келтирилишича, одамни Энки ва Нинмоҳ денгиз тубидаги лойдан яратган; илк одамлар майсалар, ўсимликларга ўхшаб ер тагидан ўсиб чиққан. Яна бошқа бир ривоятда Энлил чопиқ қилаётганида ер, тупроқ тагидан одамлар чиқиб келгани қайд этилади. Шунга ўхшаш мифларни Қадимги Хитой ва Қадимги Ҳиндистон халқ оғзаки ижодида ҳам учратамиз. Қадимги Хитой афсоналарида оламни яратган Хундун дастлаб жонсиз нарса, сув офати, дарё бўлгани эса олинади. Машҳур донишманд Лао-цзининг отаси ерга тушган юлдуздан туғилган эмиш. Қадимги ҳинд ривоятларида сувдан олов, кучли ҳароратдан Олтин Тухум, ундан эса оламни яратган Браҳмон пайдо бўлгани ҳақида ҳикоя қилинади. Браҳмоннинг жони, кўзи, қулоқлари, узори, териси ва оёқ бармоқларидан худосифат одамлар туғилган. Халқ фантастик эртакларида қаҳрамонлар сув, тоғ, дарахт, ой, қуёш, юлдуз, ҳатто шамолдан туғилади. Ушбу содда, аммо ибтидоий давр одамлари учун реал ҳисобланган тасаввурлар, қарашлар кейинчалик натурфалсафага ўтади. Натурфалсафа эса Бутун, Яхлит, Умум, Мутлақ каби тушунчаларни ва уларга таянган фалсафий-назарий таълимотларни юзага келтиради. Борлиқнинг Яхлитлигини, инсон билан борлиқнинг субстанционал боғлиқлигини бугун фалсафа ҳам такрорлайди ва уларни бир-бирига қарши қўйиш фожиаларга олиб келишини қайд этади. Кейинги асрларда юзага келган глобал экологик инқирозлар инсон билан табиий борлиқ ўртасидаги мураббатликни бузиш натижаси экани энди кўпчиликка аён. Минг афсуски, инсонни, унинг ҳаётий мақсадларини, дарқини табиий борлиққа қарши қўйиш анъанаси сақланиб қолмоқда.

Ўсимлик ва дарахтларнинг баҳорда япроқ чиқариши, ҳосилга кириши, кузга келиб япроқларини тўқиши, ҳосилдан қолиши кишиларда ўсимликлар ва дарахтларнинг ўзига хос ҳаёти, жони бор деган фикрларни уйғотган. Масалан, Бирма (Ҳиндихитой ярим ороли)да яшовчи карен халқи ханузгача буғдойнинг жони, руҳи бор деб билади ва уни паймол қилишни қаттиқ қоралайди. Ҳинд фалсафасида ўзига

хос из қолдирган жайнистлар эса нафақат ўсимликлар, дарахтлар жонига, руҳига эга, шунингдек ён-атроф, ҳаво кўзга кўринмас жониворларга тўла, уларга озор бермаслик керак деган оламсеварлик ғояларини илгари сурганлар. То ҳанузгача диний таълимотлар, айниқса астрология маълум бир дарахтлар (узум, чинор, анжир ва б.)ни илоҳийлаштиради, уларда инсон ҳаётига, соғлиғига ва тақдирига таъсир этувчи хислат, сифат мавжуд деб билади. Демак, илк одамлар ўсимликларни дарахтларни мифологик образлар, қаҳрамонлар сифатида тасвирлаганида ўзлари учун реал кўринган борлиқдан, унда ҳам жон, руҳ бор деган тасаввурларидан келиб чиққан. Жони, руҳи бор нарса гапириши, мулоқотга киришиши, курашиши, у ёки бу эҳтиёжига эга бўлиши табиий ҳол эди. Аммо, менинг фикримча, айнан ўсимликлар ва дарахтларнинг баҳорда гуллаши, кузда сўниши одамни ўлиш ва тирилиш, жоннинг вақтинча бошқа бир нарсага ўтиши, одамнинг ҳаётга қайта-қайта келиши ҳақида фикр юритишга ундаган.

Қадимги Мисрда осмонда сигирга сиғиниш, қадим Юнонда ҳосилдорлик худоси Деметри, ёки шароб худоси Дионисга сиғиниш, ўлиш ва қайта тиришлиш ва ш.ўшлар ҳақидаги ривоятлар. Энг машҳур мифлардан бири жонларнинг ҳақидаги ривоят (бу ривоят, жумладан, Платон томонидан баён қилинган) жонли олам билан жонсиз оламни айниқлаштириб, бир-биридан фарқ қилинмайди. Шунинг учун ривоятда ҳаётнинг келиб чиқиши тўғрисидаги масала аниқ қўйилиши мумкин эмас эди. Аниқроғи, ривоятларда бу масалани қўйишга мойиллик сезилади, холос. Ҳозиргача ҳам одамлар ривоятлардаги ана шунга ўхшаш ҳаёлий фикрларга ишониб келадилар.

Космология Қадимги Хитойнинг «Ицзин» («Ўзгаришлар китоби») ва Қадимги Ҳиндистоннинг Упанишада (Брихадараньяка)сида фалсафий-назарий қараш, ҳатто таълимот даражасида талқин этилади. Қадимги Хитой космологиясига мувофиқ Борлиқ учлик — триграмма (Осмон, ҳаво, Ер; Яратувчи, одам, табиат; Космос, осмоноти фарзанди – ҳукмдор, халқ; эрақ, аёл, фарзанд ва б.)лардан иборат. Ушбу триграммалар саккизлик — гексограммалар шаклидаги доирани ташкил этади. Доира етуклик, уйғунлик, бирлик тимсолидир. Демак, борлиқдаги барча нарсалар, мавжудотлар ва жонзодлар бир-бирига боғлиқ, ушбу боғлиқлик, доира бузилган заҳоти Космос пастга офатлар юборади, ерда, кишилар ҳаётида хаос бошланади. Ушбу космологик қарашлар кейинчалик Лао-цзи (даосизм) ва Конфуций (конфуцийлик) таълимотида давом эттирилган, у бутун хитой фалсафасининг назарий меросига айланган.

Эр.авв. XXV-XX асрларга тааллуқли қадимги Ҳинд эпоси “Ригведа”да борлиқни яратган Дьяус ва илонсифат мавжудотлар – асуралар тилга олинади. Кейинчалик мавҳум куч Дьяус ўрнига реалроқ Праджанати, илонсифат асуралар ўрнига аниқ кўриниш ва сифатларга эга образлар пайдо бўлади. Социал муҳитда браҳмонлар таъсирининг ошиши билан янги худо — Браҳмон яратилади, ердаги браҳмонлар эса илоҳийлаштирилади ва ҳукмрон қатламга айлантирилади. Энг муҳими шунда эдики, социал муҳит ўзига зарур маросимларни, институтларни ва доғмаларни ишлаб чиққан, мифлар ҳам уларни мустаҳкамлашга хизмат қилган. Фалсафий мушоҳадаларга мойил ақл эгалари социал муҳит ўрнатган тартиблар доирасидан чиқишга, гоҳо эса уларни рад қилишга журъат этган. Прометейнинг Зевс тартибларига қарши чиқиши бу ўринда мисол бўлиши мумкин. Мифларда бундай қаҳрамонлар оғир жазоларга ҳукм этилади, демак, мифлар коммунитар ҳаёт тарзини, социал муҳит манфаатларини ҳимоя қилади. Аслида социал муҳит яратган маросимлар, институтлар, доғмалар ҳам одамни социал муҳитга қарамлигини янада мустаҳкамлашга қаратилган. Бу билан мифлар тотал бошқаришга мойил социал муҳитни, даркни қўллаб-қувватлаган. Фалсафа, айниқса қадимги юнон фалсафаси ушбу тотал бошқаришнинг адуви сифатида шаклланган. Бу ўринда миф билан фалсафа ўртасидаги фарқлар кўзга ташланади.

Ҳозирги замон таълим-тарбиясидан фарқли ўлароқ, қадимги замон таълим тизими ахборотларни бериш ва ақлий қобилиятни машқ қилдиришдангина иборат эмас эди. У ҳаёт учун зарур бўлган жисмоний ва руҳий сифатларни тайёрлашни кўзда тутар эди. Шундай қилиб, Юнон фалсафасининг соф ҳақиқатни топишга бўлган йўналишини инкор этмаган ҳолда, шуни қайд этмасдан бўлмайдикки, ушбу ҳақиқат аввало, қурилмаган, балки очилган, унга юклатилмаган, балки борлиқдан келтириб чиқарилган, иккинчидан эса, бевосита ҳаётий аҳамиятга эга бўлиб, уни тушунган субъект қалбини ёритган, унга донишмандлик ато этган, сабру тоқатга чидашни ўргатган, жасорат бағишлаган ва унинг хатти-ҳаракатини белгилаб берган.

Назарий кўрсатма-қадимги дунё маданиятининг энг муҳим ютуқлардан бири бўлиб, Яқин Шарқ мамлакатлари орқали у Европа маданияти томонидан ўзлаштирилган. Ушбу кўрсатма Фалес ижодидаёқ ўзини кўп даражада намоён қилдики, у фалсафанигина эмас, балки риёзиётни (математика) ҳам назарийлаштиришни таклиф қилди. Баъзи бир хандасавий (геометрик) аксиомалар ифодаси унга тегишлидир: “томонлари тенг бўлган учбурчакнинг асосий бурчаклари бир-бирига тенгдир”, “доира ўз диаметрида икки тенг бўлакка бўлинади” ва шунга ўхшаш



(хаммаси бўлиб бешта аксиома). Шундай туйилиши мумкинки, уларда фақат тажриба ифодаланиб, умумлаштириляпти. Аммо бу шундай эмас: аксиомалар ғоявий объектларга тааллуқли бўлиб, умумий ва зарурий жиҳатларга эга бўлганлигидан уларни далил ва мулоҳазалар асоси сифатида фойдаланиш учун қабул қилиш мумкин. Фанларни бундай тарзда тизимга солиш Бобил риёзидонларига маълум эмас эди. Улар кўплаб ҳисоб-китоб формулаларини ишлаб чиқдилар, аммо уларни исбот қилишга уринмадилар.

Ақлий йўналишга таяниш қадимги Юнон адабиётининг ўзига хос хусусиятини белгилайди. Гомерни одатда эҳтирос ва ғам-ғуссалар дунёсига йўналган фалсафа олди анъанасининг вакили ҳисоблашади: оғриқ ва лаззат, мухаббат ва нафрат, кўркинч ва уят – мана нималар банд қилган Гомер хаёлини. Унинг қаҳрамонлари аниқ ва равшан тасвирланган бўлиб, уларнинг ташқи кўринишлари ўз икир-чикирларигача, ҳамда ижтимоий бутунлигича ҳам аниқланган. Улар ғоявий макон ҳудудларида ҳаракат қилаётган, қонунийликка мувофиқ тарзда суғорилган ва сабабий боғланишларга эга бўлган йўналган гавдалар сифатида намоён бўладилар. Қадимги дунё қаҳрамонларининг руҳий дунёси ҳам очиқ ва оқилонадир: бирор-бир хатти-ҳаракат қилиш олдидан улар ўз нуқтаи назарларини муфассал муҳокама қилиб, далиллар келтирадилар. Ҳикоячилик важларни ақл тарозисига солади, воқеалар сабаб-оқибат занжирини аниқлайди, сўзларда жисмоний ва руҳий ҳаракатларнинг ҳам тўла ифодасини беради. Бу шундай тарзда берилдики, бунга ўхшаш ҳолат Евклид геометрияси ва Арасту метафизикасида кўрилган эди: келтириб чиқарилаётган қоидаларни аниқ ифодалаш, мантикий емирилишсиз, батафсил хулоса, тажриба ва соғлом ақлга мувофиқ келадиган пухта далилларга таяниш. Шундай қилиб, юнон адабиёти воқеяликнинг асосий мазмунини беради, унинг моҳиятини аниқлаб, уни иккинчи даражали тафсилотлардан тозалайди. Ушбу моҳият фақат ақлий жиҳат билангина тугалланмаслиги бу бошқа масала: қаҳрамонларнинг шаклланиши фақат маърифат билан чекланмасдан, балки хотира, ирода, жасоратни машқ қилдириш ва Коинот қонунларига мувофиқ равишда жамиятни қайта қуриш ва ўз-ўзини тарбиялашнинг амалий кўникмаларини шакллантиришни ҳам ўз ичига олади. Шу билан биргаликда бу ерда ундан олдинги қадимги жамиятларда расм бўлгани сингари ёш йигитларни балоғатга етганлигини аниқлаш учун ўтказиладиган синовлар йўқ. Гарчи ижтимоий хатти-ҳаракатнинг қатъий меъёрий тизимини ишлаб чиқишга интилиш бўлмаса ҳам, айтилиши вақтда таълим-тарбия ақлий муҳокама шаклида амалга оширилади, яъни билимдон кишилар мажлисида муҳокама этилган устоз ва шогирднинг далиллари эътиборга



олинади. Икки киши ўртасида бўлиб ўтадиган бундай ақлий муҳокама бўлган дискурснинг замини мусобақа ва сайловга асосланган руҳдаги полиснинг демократик тузумидир. Бунга катта билимдон устозлар, ўқувчилар ва билмайдиганларни хўрламасдан, балки ўзларининг иқтидорлари, тажрибалари, оқилона фикрлари билан уларга намуна бўлиб, улар томонидан тан олинисликка интилишлари лозим бўлади.

Кўхна фалсафий матнларни тушуниш, уларнинг маданий замини бўлган тил, миллий ўзига хослик ва ҳаёт шакллари билан боғлиқ бўлган жиҳатларга кўра катта қийинчиликлар туғдиради. Ҳар қандай тарихий давр фақат эришилган билимлар даражаси билангина ифодаланмай, балки фикр тараққиёти йўналишини белгиловчи қадриятлар йўналиши билан ҳам ўз ифодасини топади. Ёзув столи устида амалга оширилган метафизикани далиллар тизими сифатида тушунишга қарши турган М. Хайдеггер уни дунёдаги борлиқ тажрибаси билан боғлайди.

Фалсафий тушунчаларнинг келиб чиқиш маъноси руҳий таркибларда ҳам, “онгсиз равишдаги архетипларда” ҳам илдиз отган. Масалан, қандай тажрибавий омиллар ёки назарий далиллар Фалесга барча борлиқнинг биринчи ибтидоси сифатида сувни, Гераклитга эса – оловни олишга туртки бўлганлигини билиш қийин иш. Ваҳоланки, оламнинг ушбу табиий унсурлари барча дунё халқларининг афсоналарида мавжуд. Бу шундан гувоҳлик берадики, улар инсон руҳининг келиб чиқиш тимсолининг тасвирлари бўлиб, ўз навбатида улар фалсафий тушунчалар мазмунида ҳам сақланадилар. Шунинг ҳисобга олиш лозимки, метафизиканинг руҳий тажриба мажмуасининг ақлий маданият сифатидаги шаклига икки томонлама таъсири ўз-ўзини англашдан ташқари хотира, ирода, ҳис-туйғу, баҳолаш, эътиқод ва шунга ўхшаш жиҳатларнинг ички руҳий омиллари мажмуаси шаклланишини ҳам ўз ичига олади. Бир томондан, ақл руҳий жазава ва эҳтиросларни назорат ва таҳлил қилувчи восита сифатида майдонга чиқса, иккинчи томондан – у уларни бузишга хавф туғдиради. Ҳали яхши маълум эмаски, худонинг борлигини ақлий равишда исботлашга уриниш нимага кўпроқ қўл келдйкин – эътиқодни мустаҳкамлашгами ёки бузишгами?

Асосий фалсафий муаммоларда ҳам худди шундай ҳолат кузатилади. Ҳақиқат, борлиқ, эзгулик ва гўзаллик ҳақидаги масалалар шундай бир нарсалар туғдирадики, кишини чўчитиб юборади. Фалсафа донишмандлик ва хотиржамлик бағишловчи ҳаёт санъати бўлмай қолди. Бизнинг ҳозирги замон маданиятимиз камчиликлари айбини, ақлни барча борлиқнинг асоси сифатида эълон қилган илк юнон файласуфларига тўнкаш адолатдан бўлмайди. Ақл ғоясининг



пайдо бўлиши – инсоният тарихида энг муҳим ҳодисадир. Борлиқ ва йўқликни, ҳақиқат ва фикр дунёсини бир-биридан ажратиш ақлий тажрибани назорат қилиш имкониятини беради. У шунингдек, воқеъликдан ижодий хаёлни ажратишга, яширин нарсаларни муҳокамага олиб чиқишга имкон беради. Шайтон, жин, ажина ва сафсатага қарши курашда ақл метафизикаси инсонни табиат асирлигидан суғуриб олиб, уни эскирган иллатлар ва хурфотлардан озод қилувчи мутлақ кадриятлар томон бошлайди. Аммо олий нарса қуйи нарсани эзмасдан, уни сақлаши лозим. Узоқ вақт юрак ва ақл бир-биридан ажралмаган ҳолда яшадилар, бирининг куч-қуввати ва иккинчисининг ақлий бошқаруви ҳис-туйғу билан безатилган ва айни замонда тартибга солинган ҳаётий дунёни вужудга келтирдик, унда инсон ўзини рўёбга чиқара олар эди. Бугунги кунда ягона мантиққа ва тизимлиликка йўналтирилган ақл ҳокимият дискурсини намоён қилувчи идрокка айланмоқда. У борлиқни бузиб, уни дунёнинг техник манзарасига айлантормоқда.

Қадим дунё ва ўрта асрлар фалсафасида ақл бошқарув маркази сифатида майдонга чиқиб, ҳақиқатни аниқлаш масалаларида бош ҳакам эди. Ақл, руҳ ва тана табақаланган равишда тушунилар эди: тана ҳаракатининг сабаби руҳ, деб тушунилса, бу ҳаракатни йўналтирувчи ақл ҳисобланар эди. Бирок, шундай табақалашган намунани аниқ баён қилган Арастуда ҳам ақл инсон ва жамоадан юқори турувчи куч сифатида майдонга чиқиб, борлиқнинг ўз ҳокимиятининг намоёндаси вазифасини бажарадики, унинг тартибига мувофиқ ҳаёт ва маърифатнинг ҳар қандай шакллари ташкил топадилар. Афлотунда эса, борлиқ моҳиятини ақлий тушуниш тарзи билан бир қаторда, назариядан ташқарида турувчи куч борлиги тахмин қилинадик, у инсонни роҳат-фароғатга, энг яхши эросга бошлаб боради. Шунинг учун ҳақиқат, эзгулик ва гўзаллик ҳақидаги масалаларни ягона бутунликка боғлашга уриниш юнон мутафаккирларига хос нарсадир. Коинотга эса ҳамоҳанг товушлар жаранглаётган нафис мутаносибликдаги иншоот қиёфаси берилади. Ўз қисмлари бир-бирига мувофиқ ва одилонга жойлашганлиги туфайли яхши қурилмага эга бўлган Коинот, ўзининг етук тартибда эканлигидан ўз-ўзини сақлайди: унда бир жойдан иккинчисига ўтиш ёки ўзгариш учун сабаб йўқ, негаки унда ҳамма нарса ўз жойида. Фақат етук бўлмаган нарсанига ҳаракат қилади ва азоб чекади. Шунинг учун инсон Коинотни яхши кўради, унга мансубликка интилади, у етукликка эришишга умид қилади.

Арасту ўзича осмон гумбази, Ер ҳамда барча ўсимликлар ва жонзотларни сиғдирган борлиқ доираси сифатида табиатни (фюзис) моҳиятини очиб беради. Айнан



ана шу табиий доира, сунъийга қарши ўлароқ (тэхнэ), билим мавзуси (эпистеме) сифатида майдонга чиқиб, пайдо бўлиш ва завол топиш, борлиқнинг бир бутунлиги, айрим олинган ашёларнинг ички моҳияти, биринчи ҳаракатланувчи куч, руҳ ва шунга ўхшаш масалалар ҳақидаги қарашларни ўртага қўяди. Воқеълик ҳаёлий ғоялар дунёси ёки мутлақ шифр сифатида эмас, балки мустаҳкам, ўз-ўзини сақланиши учун ташқи кучларга эҳтиёжи бўлмаган, ўрганилиши лозим бўлган объектив тартиб сифатида қаралади. Ақл руҳга ёки ғоялар салтанатига қараб эмас, балки айнан унгагина қаратилган. Унинг биринчи амали – айрим ашёларни қабул қилиш бўлиб, ундан кейингина ўзининг тафаккур, хотира, ажабланиш, тушунтириш ва шунга ўхшаш механизмларини ишга солади.

Афлотунчилар назарида руҳ бевосита ўз-ўзини тушунган вақтда, руҳнинг Арасту талқини қоидаси тананинг ҳиссий тажрибасини, мантиқий қонунлар ва категорияларни ҳам ҳисобга олади. Руҳ ҳақидаги барча мулоҳазалар сабаб-оқибат ва айни замонда мақсадли қаторларда ҳаракат қиладилар. Ақл масаласида Арасту унинг фаол ва фаолиятсиз қисмларини бир-биридан фарқ қиладик, бу устоз ва шогирд муносабатини эслатади. Ана шу жиҳатдан Стагиритнинг рисоалари Афлотуннинг диалогларидан фарқ қиладди. Афлотунда ўз-ўзини билиш ҳам, шунингдек ўрганиш ҳам, суҳбат қуриш асосига қўйилган. Арасту асарларида баҳс юритиш унсурлари жонли баҳс сифатида эмас, балки илмий талқин ва объектив нақлу қавл (цитата) ва бошқалар айтган фикрлар ва нуқтаи назарларни бир-бирига солиштириш сифатида мавжуд. Афтидан, асарларининг ана шундай шакли ўрта аср университетларида ва Шарқ мамлакатларида ғоят даражада машҳур бўлиб кетишига сабаб бўлди.

Тафаккур Арасту томонидан фаол ақлнинг фаолиятсизига нисбатан таъсири сифатида тушунилади. Биринчиси инсонга тааллуқли эмас, у ягона ва умумий бўлганлигидан, кимки фикр юритса, барча учун ҳақиқатни ягона тушунишни шарт қилиб қўяди. Стагирит талқинича, инсон ақлли ва ҳалоқ бўлиши муқаррар ҳайвон, инсонга алоқадор бўлган ақлгина мангудир.

Ақл ҳақидаги бу икки назария ўрта асрлар фалсафасида қайтадан жонлантирилиб, диний эътиқодга боғлиқ равишда ушбу анъана ривожлантирилди. Шу жиҳатдан худони борлигини исбот қилиш билан шуғулланган, эътиқод асослари ва муқаддас Китоб таҳлили билан банд бўлган илоҳиётчилар ақлий йўналиш шаклланишига катта ҳисса қўшдилар. Масалан, В.Оккамнинг христианча табиат фалсафаси ва коинот ҳақидаги қарашлари Коперник ғоялари ва Импетто физикасини олдиндан пайқаганлиги ажабланарли эмас.

Худди шу тарзда ўрта аср схоластлари тринитар ва евхарист муаммоларини муҳокамаси чоғида шундай

дискурсни ишлаб чиқдиларки, у кўплаб илмий тушунчаларни пайдо бўлишини белгилаб берди: жавҳар ва ораз муаммоси, бирламчи ва иккиламчи сифатлар, имконият ва воқеялик. Булар Янги давр фалсафаси ва илм-фани учун хос тушунчалар бўлиб, айнан схоластикада биринчи марта ўртага кўйилган ва муҳокама қилинган эди.

Афлотуннинг руҳ ҳақидаги қондаси христианлик учун айниқса яқин эди. Тасодиқий эмаски, Августин тан олиб қайд этган эдики, айнан Афлотун асарларини ўқиш уни ягона худо ақидасига, руҳ эса абадий бахт-саодат манбаи эканлигига олиб келган эди. Сукрот васиятларига амал қилган ҳолда, у худо ва руҳни тушунишга интилди ва бу билан абадий роҳат-фароғатни қўлга киритмоқчи бўлди. Худо – руҳда яшовчи ҳақиқатдир ва шунинг учун барча куч-қувватлар уни билишга қаратилмоғи лозим. Инсон – бу тана қобиғидаги руҳ бўлиб, унга кўпроқ ёрдам беришдан кўра, ҳақиқатда унга ҳалал беради. Шунинг учун билиш қондаси ва айни замонда диний тажриба шундай асосга қурилади: инсон руҳни ўрганишга чуқур киришиб боради, негаки, унда абадий ғоялар мавжуд бўлиб, уларга мувофиқ равишда худо оламни яратган; бу ғояларни очиқ бўлганлиги туфайли воқеяликнинг қоронғи ва чигал ҳодисаларига кириб боришнинг имкони борки, улар худонинг намоён бўлиши сифатида талқин қилиниб, бу билан христиан дунёқарашининг тимсолларини белгилайди.

REFERENCES

1. Тоғаев Ш. Миллий ғоянинг давлат ва жамият қурилишига доир мазмунини ёритиш масаласи. Ўқув услубий қўлланма.- Т.,2008.
2. Носиров Р.Н., Сирожиддинов Ш.С., Зияутдинова Х.А. Ўрта Осиёлик алломаларнинг фалсафий қарашлари. -Т:2007.
3. Шермухамедов С. Фалсафа ва ижтимоий тараққиёт. –Т: Фан.2005.
4. Шермухамедов С. Инсон фалсафаси. –Т: Фан.2007.
5. Камю А. Бунтующий человек. - М.: 1992.
6. Рассель Б. Мудрость Запада. М. 1998.
7. Сартр Ж.П. Философские пьесы. - М.: 1997.
8. Ясперс К. Всемирная история философии. - М.: 1996.
9. Юнг К. Психологические типы. - М.: 1999.
10. Фромм Э. Иметь или быть. - М.: 1990.
11. Ницше Ф. Сочинения в двух томах. - М.: Мысль, 1990.



ТАСМАЛИ КОНВЕЙЕР ТАСМАЛАРИНИ ТАЪМИРЛАШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Лазизжон Неъматович Атақулов

Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети техника фанлари
доктори

Нурбек Омонбоевич Полвонов

Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети ката ўқитувчиси

Умиджон Эркинович Каюмов

Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети ассистенти

Баҳромжон Рўзимурод ўғли Мамашарифов

Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети талабаси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада тасмали конвейерларнинг дунёдаги ва Республикамиздаги кончилик саноати тасмали конвейерларни таъмирлашни технологиясини бугунги ҳолати таҳлили кўриб чиқилган. Тасмали конвейерларнинг тасмаларни таъмирлаш жараёнига таёрлаш асосан қўл меҳнати ёрдамида амалга оширилгани учун кўп вақт олиши, унумдорликка таъсир қилиши ва бошқа усуллари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Тасмали конвейерлар, резина матоли тасмалар, тортиш кучларига чидамлилиги, куракли конвейерлар, белтинг, синтетик, конвейер унумдорлиги.

ABSTRACT


In this article, the analysis of the current state of belt conveyor repair technology in the mining industry in the world and in our Republic is considered. Belt conveyors are analyzed for their time-consuming, productivity-affecting, and other methods of preparing belts for repair because they are mostly done by hand.

Keywords: Belt conveyors, rubber fabric belts, tensile strength, shovel conveyors, belting, synthetic, conveyor performance.

КИРИШ

Сўнги йилларда Ўзбекистоннинг ва дунё кончилик корхоналарида тасмали конвейерларни кенг қўллашга бўлган эҳтиёж ортиб бормоқда, уларнинг устунликлари охириги йилларда амалга оширилган кўплаб илмий ишларга асосланган.


Очиқ конларда тасмали конвейерларни қўллаш, уларнинг қаттиқли юқори бўлган тоғ жинсларини бошқа турдаги конвейерларга нисбатан кўпроқ миқдорда транспортировка қилиши, ўз навбатида, эксплуатация унумдорлигининг 20-25 % ошишига олиб келади. Бундан ташқари, тасмали конвейерларнинг автоматлаштирилишга бўлган қулайлиги ҳам унинг очиқ кон ишларида қўлланилиш имкониятини бир мунча оширади. 1.1-расмда тасмали ва куракли конвейерларнинг ҳар хил қаттиқликдаги тоғ жинсларини ташишдаги солиштирма унумдорлик графиги келтирилган.



1 – 1-5 қаттиқликдаги тоғ жинслари, 2 – 6-10 қаттиқликдаги тоғ жинслари, 3 – 11-20 қаттиқликдаги тоғ жинслари.

1.1-расм. Тасмали ва куракли конвейерларда ташиладиган тоғ жинсининг қаттиқлиги бўйича унумдорлиги графиги.

Тасмали конвейерларнинг асосий хусусиятларига ташиш масофаси, жойлашган жойидан бошлаб кўтариш баландлиги, составнинг узунлиги, бурилиш радиуси, йиллик унумдорлиги, электр моторларнинг сони, электр моторларининг қуввати, юкли ва юксиз ҳолатдаги ҳаракат тезлиги, тасмага таъсир қилувчи тоғ жинсининг қаттиқлиги ва ташилаётган юк ҳажми киради. 1.2-расмда тасмали конвейернинг асосий қисмлари кўрсатилган.



1 – тасма; 2 – химояловчи қапқок; 3 – электр юритма; 4 – муфта;
5 – узатма; 6 – барабан; 7 – рама; 8 – ролик

1.2-расм. Тасмали конвейер

Тасмали конвейерларнинг эксплуатацион кўрсаткичларининг таҳлили шуни кўрсатадики, кончилик корхоналарида қўлланилаётган кўпгина тасмали конвейерлар паспортида келтирилганга нисбатан паст унумдорлик билан ишлайдилар. Бунга сабаб эса, иш давомида кутилмаган тўхталишларнинг юзага келиши, электр моторларнинг бир маромда ишламаслиги, тасмаларнинг тез-тез узилиши, тасмаларнинг борт қисимларинг едирилиши ва етакловчи барабаннинг тасмани тортмасдан жойида айланиб қолишидир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Юқорида келтирилганлар тасмали конвейерларнинг эксплуатацион таннархининг ошиб кетиши ва улар самарадорлигининг тушиб кетишига олиб келади.

Фойдали қазилма конларида қўлланилаётган тасмали конвейерларнинг эксплуатацион кўрсаткичлари таҳлили шуни кўрсатдики, карьер тасмали конвейерларининг эксплуатацион самарадорлигини ошириш, уларнинг тасмаларининг уланган жойлари узилмасдан ишлашини такомиллаштириш асосида амалга оширилиши ва таъмирлаш ишларига камроқ вақт сарфланишини орқали эришиш мумкин.

Конвейер мажмуасини эксплуатация қилиш ва таъмирлаш усулларини янада такомиллаштириш (конвейер тасмаларининг обкладкаларини, ён тамонларини, чок бирикмалари каби элементларини ҳолати тўғрисидаги маълумотларни замонавий, янада самарали кузатиш тизимларидан фойдаланиш, тасманинг таъмирлаш вақтини камайтириш орқали хизмат кўрсатиш сифатини янада такомиллаштириш

ва бошқалар) унинг самарадорлигини янада сезиларли даражада оширишга имкон беради.

Ҳозирги вақтда тасмали конвейерларнинг таъмирлашга кетадиган вақтининг асосий қисмини тасмаларга кўрсатиладиган хизматнинг хиссасига тўрғи келади. Бунга асосий сабаблардан бири сифатида тасманинг узилиб, уланишни зарур бўлган қисмини улашга қўл меҳнати орқали таёрлашдир. Яъни хизмат кўрсатиш гуруҳи махсус турдаги кесувчи пичоклар ёрдамида (инсон қўл меҳнати) тасмани кесиб кейин улаш ишларини олиб боради.

Бизга маълумки резинаматולי тасмалар каучк ва белтинг ишлардан тайёрланади. Ушбу тасмаларининг тортиш кучларига чидамлилиги унинг ишлашдаги асосий омилларидан бири ҳисобланади. Тасмларнинг тортиш кучларига чидамлилиги қуйидаги усул билан аниқласак бўлади.

Одатда тортиш кучини аниқлаш учун тасмаларда контур усули қулланилади. Тортиш кучини аниқлаш учун тасманинг контури буйлаб айланиши олинади. Тасма билан ҳосил бўлган контур турли хил узунликдаги текис ва эгри қисмлардан иборат бўлади. Бунда конвейер тасма барабанларидаги параллел новлардаги тасманинг тўғри ва эгри чизикли қисмларининг бирлашган нуқталари белгилаш орқали аниқланади. Белгиланган нуқталар юритувчи барабандан кочган тасма жойидан бошланади.

Тасма контурининг ҳар бир кейинги нуқтасидаги кучланиши олдинги нуқтасидаги кучланиш ва ушбу нуқталар орасидаги майдоннинг қаршилик кучлари йигиндисига тенг:

$$S_{i+1} = S_i + \sum W_{i+1,i} (i=1,2,\dots,n) \quad (1)$$

бу ерда S_i - i нуқталардаги тасманинг кучланиши; $\sum W_{i+1,i}$ - бу i ва $(i+1)$ нуқталар орасидаги ҳудудда тасма ҳаракатига қаршилик кучлари.

Юритувчи барабаннинг бошланғич нуқтасида кучланиш $C_l = C_{cb}$ номаълум, шунинг учун барабан турига қараб, яъни юритувчи барабаннинг умумий α бурчаги, барабан ва тасма орасидаги ёпишқоқлик коэффициенти, μ ($e^{\mu\alpha}$) тортиш коэффициентини аниқлаш ва тортиш кучини ҳисоблаш учун иккинчи тенгламани тузамиз:

$$S_n = S_{nb} = S_{cb} \frac{\exp(\mu\alpha)}{k_T} \quad (2)$$

бу ерда S_{nb} - яқинлашиб келаётган тасманинг таранглиги; k_T - юритувчини тортиш қобилиятига боғлиқ хавфсизлик коэффициенти, $k_T = 1,15—1,2$.

(1) ва (2) тенгламалардан келиб чиқиб, кучланишнинг ва ва W_0 тортиш кучининг сонли қийматини топамиз:

$$S_{r\min} \geq (5 \div 8)(q_r + q_l)l'_p \quad (3)$$

l'_p – юкли тармоқнинг роликлари орасидаги масофа.

Агар тортишиш пайтида олинган қиймати (3) шартни қаноатлантирмаса, тасманинг кучланиши бутун конвейер контури буйича қайта ҳисобланади. Худди шундай (3) формулага биноан $q_p = 0$ ва l'_p нинг паски тармоғидаги роликлар орасидаги масофага кўра, конвейернинг пастки тармоғидаги кучланишни текшириш керак, шундан сўнг характерли нукталарда кучланиш қайта ҳисоблаб чиқилади.


Керакли қувват (кВт), ўз навбатида, асосий валга ва конвейер двигателининг валига:

$$N_0 = W_0 v / 1000; \quad (4)$$

$$N_0 = W_0 v / 1000 \eta, \quad (5)$$

бу ерда бу эрда η – юритувчи барабан узатувчи механизмнинг ФИК ни ифодалайди.

Ҳисоблаш орқали топилган кучланиш маълум бир масштабда график шаклда ва тасманинг контурида (1.4 – расм, а) ёки унинг кесимида кўрсатилиши мумкин (1.4, б – расм).



1.4 – расм. Тасмани тарангланиш диаграммаси:

а – тасмалар контурида; б – кесимида

МУҲОКАМАЛАР ВА НАТИЖАЛАР

Юқоридаги кўрсаткичларга эга бўлган тасмани кесиб, улашга тайёрлаш ишчи гуруҳдан оғир қўл меҳнاتини ва кўп вақтни талаб қилади.


Шу билан биргаликда конвейер тасмасини қўл билан кесиб улаш ишларига тайёрлаш қуйидаги камчиликларни келтириб чиқаради:

- конвейернинг йиллик унумдорлигининг тушиши
- тасманинг роликларга устига чикиб кетиши (агар тасма катламлари нотекис кесилган бўлса)
- электр моторларга юклама тушиши
- тасмани кесиб улаш ишларига таёрлаш учун кўп вақт талаб қилиши ва ҳақозо

Шундай экан тасмаларнинг узилган жойларини кесиб улаш жараёнида оддий металл пичоклардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ эмасдир. Техника ва технологиялар ривожланган замонда, тасмаларнинг узилган жойларини кесиб, улашга тайёрлаш учун замонавий технологиялардан фойдаланиб, тасмаларни кесиш учун янги ва замонавий қурилма яратишимиз зарур.


Бунда биз эътиборимизни инсон қўл меҳнатини камйтириб асосий вазифани қурилмага юклашимиздадир.

Қуйидаги 1.4 расмда бизга таклиф қилаётган тасма кесувчи янги қурилманинг схематик кўринишлари берилган.



1.4-расм. Тасма кесувчи ускунанинг ён ва олд томонидан кўринишлари

Ушбу ишлаб чиқилган қурилмани ишга тушири ишлари, биринчи навбатда ускуна электр энергия тармоғига 1 орқали уланади, шундан сўнг ускуна кескичнинг пичоғига 5 улчам берувчи 3 орқали улчам берилади ва кесиш ишлари бошланади.



1.5-расм. Тасма кесувчи ускунанинг умумий кўриниши

1 – электр улагич; 2 – корпус ва дастак; 3 – киздирувчи элемент;

4 – маҳкамловчи элемент; 5 – кесуви пичоқ;

Тасманинг узилган жойларини янги ишлаб чиқилган резина кесувчи қурилма орқали кесиб улаш ишларига тайёрлаш бизга бир қанча қулайликларни тақдим этади.

Биринчидан шу вақтгача хар бир уланиш жойи қўлда кесилиб, уланишга тайёрлашга 1-2 соат вақт талаб қилган бўлса, ишлаб чиқилган қурилма орқали бу ишни узоғи 30 минутда амалга оширамиз.

Иккинчидан таъмирлаш ишларига сарфланадиган вақтни камайтириш орқали тасмали конвейернинг йиллик унумдорлигини оширишимиз (техник тавсифида кўрсатилган кўрсаткичга яқинлаштирамиз) мумкин бўлади.


Учинчидан аниқ ўлачамлар орқали кесиб уланган тасмалар конвейер роликлари устига чиқиб кетиши кам учрайди, бунинг натижасида тасмамиз узоқ вақт давомида узлусиз ишлаши мумкин.

Тўртинчидан тасмалари роликлар устига чиқиб кетиши натижасида электр маторларга тушадиган юкламадан ҳам холос бўламиз.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак юқорида кўрсатиб ўтилган афзалликлардан келиб чиқиб тасмали конвейерларнинг йиллик унумдорлиги графгини тасмани кесиб улаш учун кетадиган вақтга боғлиқ ҳолдаги кўриниши 1.6 (а ва б) расмда кўрсатиб ўтилган.

Бундан ташқари тасмаларни кесиб улашда инсон омилига боғлиқ бўлган график 1.7 расмла кўрсатилиб ўтилган



1.7-расм. Ишчи бригадагинг иш унумдорлига таъсирини кўрсатувчи график

Ушбу ишлаб чиқилган янги қурилмани ишлаб чиқаришга тадбиқ қиладиган бўлсак, конвейер тасмаларига техник хизмат кўрсатаётган ишчиларнинг ишини енгиллаштириш билан бирга конвейер транспортининг иш самарадорлигини ҳам оширишимиз мумкин бўлади. Бундан ташқари аниқ ўлчамлари орқали кесиб уланган тасманинг ишлаш муддати ҳам, қўл билан кесиб уланган тасманинг ишлаш муддатига нисбатан кўпиноқ бўлади.

REFERENCES

1. Н.О. Полвонов, У.Э. Каюмов “ОБЗОР И АНАЛИЗ СУЩЕСТВУЮЩИХ МЕТОДОВ СТЫКОВКИ КОНВЕЙЕРНЫХ ЛЕНТ” // I Евразийский горный конгресс 2021г. 201-202 ст
2. Polvonov, N. O., Atakulov, L. N. (2021). Method of conveyor belts jointing when using special vulcanization compounds. ISJ Theoretical & Applied Science, 08 (100), 17-21.

3. Атакулов Л.Н., Полвонов Н.О., Каюмов У.Э. Обзор и анализ диагностики определения дефектов конвейерной ленты // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2022. 2(95).
4. Н.О. Полвонов., У.Э. Каюмов., Ш. Пардаева “ИЗБЕЖАНИЕ ПОВРЕЖДЕНИЙ КОНВЕЙЕРНОЙ ЛЕНТЫ С ПОМОЩЬЮ УСТРОЙСТВ КОНТРОЛЯ СХОДА ЛЕНТЫ” // I Евразийский горный конгресс 2021г. 234-235 ст
5. Polvonov N.O., “Tasmali konveyer tasmasining mexanik ta’sirlarga chidamliligini tahlil qilish” Academic Research in Educational Sciences, 885–892 p. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-2-885-892>
6. Атакулов Л.Н., Тошов Ж.Б., Каххаров С.К., Хайдаров Ш.Б. Метод обнаружения обрыва резинотросовых лент в местах их стыковки // Горный вестник Узбекистана. – Навои, 2018. – №3. – С. 61-65.
7. Атакулов Л.Н. Разработка методов оценки технического состояния и повышение эффективности эксплуатационных параметров крутонаклонных конвейеров.-Навой, 2019.
8. Атакулов Л.Н., Тошов Ж.Б., Каххаров С.К., Хайдаров Ш.Б., Истаблаев Ф.Ф. Выбор оптимального варианта соединения тросов при стыковки резинотросовых лент // Вестник туринского политехнического университета. – Ташкент, 2018. – №4. – С. 43-46.
9. Атакулов Л.Н., Каххаров С.К., Хайдаров Ш.Б. Выбор оптимального метода стыковки резинотросовых конвейерных лент // Горный журнал. – Москва, 2018. – №9. С. 97-101. DOI: 10.17580/gzh.2018.09.16
10. Atakulov L.N., Haydarov Sh.B., Ochilov X.B., Gaffarov A.A. Application of the scheme of effective conveyor transport in the conditions of daugiztau quarry. Technical science and innovation. 2021. №2. -б. 74-86.

ЖАМОАТ СЕКТОРИ УЧУН МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ АСОСИДА БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА ҲИСОБОТИ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Рашид Хакимов

“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университети Иқтисодиёт кафедраси

Иқтисод фанлари номзоди, доцент

rashidxakimov1958@gmail.com

Нурбек Абдурахмонов

“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университети Бухгалтерия ҳисоби ва аудит

кафедраси талабаси

E-mail: abduraxmonovnurbekkazzamogli1@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Ўзбекистонда амалага оширилаётган муҳим ўзгаришларни жаҳон стандартларига мослаштириш ва ўзаро уйғунликни таъминлаш барқарор иқтисодиётни юксалтириш муҳим эканлигини эътироф этиш лозим. Бухгалтерия ҳисоботи стандартларини бир хиллаштиришнинг ҳолисона жараёни ИФРС (Интернационал Финансиал Репортинг Стандардс)га асосланган ЖС ва МҲХСни жамоат секторининг таққослаб бўладиган ва сифатли молиявий ҳисоботини тайёрлаш учун халқаро стандартларнинг ягона, кенг қамровли тизими кўмаклашди муҳим эканлиги изоҳланган.

Калит сўзлар: Мулкчилик, иқтисодий ислохатлар, иқтисодий эркинлик, хусусий мулкчилик, изчил ислох, либераллаштириш, модернизация, халқаро кўрсаткичлар, халқаро стандартлар.

АННОТАЦИЯ

В этой статье следует признать, что именно важный должен адаптировать изменения, которые внедряются в Узбекистане, к стандартам Джексона и создать стабильную экономику для обеспечения гармонии. Было объяснено, что МСФО (Международных стандартах финансовой отчетности), предвзятом процессе унификации стандартов бухгалтерской отчетности, руководствуется единой всеобъемлющей системой международных стандартов для подготовки сравнительной и качественной финансовой отчетности государственного сектора.

Ключевые слова: собственность, экономические реформы, экономическая свобода, частная собственность, последовательная

реформа, либерализация, модернизация, международные показатели, международные стандарты.

ABSTRACT

In this article, it should be recognized that it is important who must adapt the changes that are being implemented in Uzbekistan to Jackson standards and create a stable economy to ensure harmony. It was explained that IFRS, based on IFRS (International Financial Reporting Standards), a biased process of unification of accounting standards, is guided by a single comprehensive system of international standards for the preparation of comparative and qualitative financial statements of the public sector.

Keywords: property, economic reforms, economic freedom, private property, consistent reform, liberalization, modernization, international indicators, international standards.

КИРИШ

Бунуги кунда давлат ва жамиятни ўртасидаги муносабатларни такомиллаштиришда ЖС МҲХСни мослаштириш зарурлиги миллий дастурлар билан ҳам, Ўзбекистон Республикаси давлат молиясини бошқариш тизимини ривожлантириш жараёнига берилган халқаро баҳолар билан ҳам муҳим эканлигини тасдиқлаш мумкин. ЖС МҲХС (Жамоат сектори учун молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари) асосида жамоат сектори учун бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи тизимини такомиллаштириш Ўзбекистон бюджет тизимини ислоҳ қилиш йўналишларидан бириди. Қабул қилинган янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ҳам бу борада назарда тутилган Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ҳисоб палатасининг давлат бюджети шакллантириш ваколатининг Ўзбекистон Республикаси Олий мажлисига ўтказилишида ҳам ўз тасдиғини топмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўзбекистон Республикасида олиб борилаётган ислохатларнинг кенг миқёсда ривожланиши иқтисодиётнинг барча тармоқларида кузатилмоқда. Юртимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислохатларнинг асосий мақсади, энг аввало иқтисодий эркинликни таъминлаш, иқтисодиётнинг барча соҳаларидаги хусусий мулкчиликни ривожлантириш ҳамда мустаҳкамлашдан иборатдир.

Мамлакатимизда чуқур ўзгаришлар, сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳаётнинг барча томонларини изчил ислоҳ этиш ва либераллаштириш, жамиятимизни демократик янгилаш ва модернизация қилиш жараёнлари жадал суръатлар билан ривожланиб бормоқда. Бунда кучли фуқаролик жамиятини шакллантириш йўлида



белгилаб олинган ва изчил равишда амалга оширилаётган улкан вазифалар мустаҳкам замин яратмоқда.

ЖС МХХС (Жамоат сектори учун молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари) асосида жамоат сектори учун бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи тизимини такомиллаштириш Ўзбекистон бюджет тизимини ислоҳ қилиш йўналишларидан биридир.

Ушбу ислохотнинг зарурлиги, энг аввало, айнан бухгалтерия ҳисоби тизимлари сифатли ва замонавий бошқарув қарорларини қабул қилиш учун зарур бўлган ахборотни акс эттиради. Бухгалтерия ҳисоботи стандартларини бир хиллаштиришнинг ҳолисона жараёни ИФРС (Интернационал Финансиал Репортинг Стандардс)га асосланган ЖС МХХСни жамоат секторининг таққослаб бўладиган ва сифатли молиявий ҳисоботини тайёрлаш учун халқаро стандартларнинг ягона, кенг қамровли тизими деб эътироф этишга кўмаклашди.

ЖС МХХСнинг қўлланилиши давлат сектори фаолиятининг натижаларини баҳолаш учун кўпроқ имкониятлар тақдим этган ҳолда молиявий ахборотнинг сифатини яхшилаш ва очиқ-ошкоралигини ошириш имконини беради. Ахборотнинг ишончлилиги ва тўлиқлигини ошириш ҳисобига давлат активларининг бошқарилишини яхшилаш, шунингдек давлатнинг молиявий ҳисоботини халқаро кўрсаткичлар билан таққослаш имкониятини беради.

Юқорида қайд этилган сабаблар билан бир қаторда ЖС МХХС амалиётига ўтиш зарурлиги амалдаги норматив-ҳуқуқий базанинг амалий муаммолари билан изоҳланади. Хусусан, ЖС МХХСни қўллаш мезонларини инобатга олган ҳолда норматив-ҳуқуқий базага берилган баҳо унинг қуйидаги камчиликларини аниқлади:

1) Ахборотни очишнинг аниқ асосларининг йўқлиги

Амалдаги қонун ҳужжатларида бухгалтерия ҳисобида оператсияларни акс эттириш тартиби етарлича аниқ тартибга солилмаган. Бюджет ҳисобини юритишнинг барча масалалари бюджет ташкилотларида Бухгалтерия ҳисобига доир йўриқномада тартибга солиниши назарда тутилган, бироқ бюджет муассасалари молия-хўжалик фаолиятининг барча жиҳатларини бир йўриқномада жамлашнинг амалда имкони бўлмади.

2) Айрим молиявий, бюджет ва бюджетдан ташқари оператсияларнинг бухгалтерия ҳисобини юритиш тартибининг йўқлиги. Хусусан, давлат ташкилотларининг қишлоқ хўжалиги фаолияти билан боғлиқ оператсияларининг бухгалтерия ҳисобини юритиш тартибининг йўқлиги.

3) Бухгалтерия ҳисобига доир қоидаларнинг кўплиги. Ушбу қоидалар ҳисоб юритиш ва ҳисоботнинг айрим жиҳатларини такрорлайди.

4) Ташқи фойдаланувчилар учун давлат молиясининг статистикасини таҳлил қилишнинг имкони йўқлиги. Бухгалтерия ҳисобининг амалдаги тизими ташқи фойдаланувчилар талабларига жавоб берадиган ахборотни шакллантириш имконини бермайди. Жумладан, давлат бюджетини ижро этиш тўғрисидаги ҳисоботларнинг шакли 2011 йилги Давлат молияси статистикасига доир қўлланма талабларига мувофиқ ХВФ томонидан тақдим этиладиган ҳисоботларнинг шаклидан фарқ қилади.

5) Давлат молиясининг барча ҳисобварақларини жамлаш имкони йўқлиги. Хусусан, давлат бюджетининг ва барча бюджетдан ташқари фондларнинг ҳисоби ҳозирги вақтда алоҳида юритилмоқда.

Бугунги кунда ЖС МҲХСни мослаштириш зарурлиги миллий дастурлар билан ҳам, Ўзбекистон Республикаси давлат молиясини бошқариш тизимини ривожлантириш жараёнига берилган халқаро баҳолар билан ҳам тасдиқланган. Жумладан, 2010–2018 йилларга мўлжалланган давлат молиясини бошқариш ислоҳоти стратегиясида ЖС МҲХСга мос келадиган давлат секторида бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартини ишлаб чиқиш ва жорий этиш бухгалтерия ҳисобини ислоҳ қилишнинг муҳим вазифаси сифатида белгилаб олинган. Бу зарурат ҳам БМТТДнинг «Ўзбекистонда бюджет тизимини ислоҳ қилиш» лойиҳаси доирасида тайёрланган Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодексининг лойиҳасида назарда тутилган.

ЖС МҲХСга риоя қилиш ПЕФА (Публич эхпендiture анд Финансиал Ассоунтабилитй) тизими бўйича давлат молиясини баҳолашнинг энг муҳим кўрсаткичи ҳисобланади. Ушбу мезонни ҳисобга олган ҳолда Жаҳон банки экспертлари Ўзбекистондаги давлат молиясини охириги баҳолаш доирасида молиявий ахборотнинг тақдим этилаётган ахборотнинг тўлиқ эмаслиги нуқтаи назаридан ҳисобга олишнинг халқаро стандартлари талабларига қисман мувофиқ келмаётганлигини қайд этдилар.

Давлат секторига молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини пухта жорий этиш учун БМТТДнинг ва Молия вазирлигининг «Ўзбекистонда бюджет тизимини ислоҳ қилиш» қўшма лойиҳаси томонидан 2013–2014 йилларда давлат секторида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботининг ислоҳ қилинишига кўмак берилди. Лойиҳа доирасида ЖС МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи тизимини такомиллаштириш концепсияси ишлаб чиқилди. Бухгалтерия ҳисобининг 12 та стандарти лойиҳаси тайёрланди. Ушбу стандартларни мамлакат бухгалтерия ҳисоби амалиётига жорий этиш мутахассисларни улар билан тўғри ишлашга ўқитишни, шу жумладан бюджет соҳасидаги бухгалтерлар ва молия ходимларини ўқитиш ва қайта тайёрлашни, ўрта ва олий таълим муассасалари ўқув дастурларини қайта йўналтиришни,

шунингдек таҳсил олувчиларнинг турли тоифалари учун мўлжалланган ўқув-методик қўлланмаларни янгилаш ва улар билан таъминлашни талаб қилади.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти «Бухгалтерия ҳисоби ва аудит» кафедраси доценти, иқтисод фанлари номзоди Ташназаров С.Н., нинг илмий изланишлари ва илмий мақоласида таъкидланганидек.

Ўзбекистон Республикасида МХХСларга ўтишда ўзига хос ва миллий иқтисодиётимизга мос йўл танланди. **“Бу халқаро стандартларга мувофиқ келадиган бухгалтерия ҳисоби бўйича миллий стандартларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий қилиш йўли бўлди.** Ҳозирги кунда ишлаб чиқилган миллий стандартларимиз халқаро стандартларга мувофиқ келади”[1]. Шу билан бир қаторда ҳозирги кунда корпоратив бошқарувга асосланган акциядорлик жамиятларида халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисоботни тузишга ўтилмоқда. Бу эса бевосита халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисоботни тузиш ёки миллий стандартлар асосида тузилган молиявий ҳисоботни халқаро стандартларга трансформация қилиш орқали эришилиши мумкин. Биринчи йўл халқаро стандартлар асосида тўғри ва сифатли молиявий ҳисобот тузишга эришилишни таъминлайди. Иккинчи йўлда эса трансформация жараёнида кўплаб муаммо ва тўсиқларга дуч келиш мумкин. Лекин иккита йўлнинг ечимида ҳам халқаро стандартларнинг мазмун ва моҳиятини чуқур ўрганиш, унинг методологик масалаларини қўллай олиш, миллий стандартларимизни имкон қадар халқаро стандартларга мувофиқлаштиришимиз, дунё университетларида ўқитилаётган «Молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи» фанини ўрганишимиз, инглиз тилидаги адабиётларни ўзбек тилига таржима қилишимиз, бухгалтерия ҳисоби соҳасида халқаро атамаларни қабул қилишимиз, амалиётчи ходимлар ва илмий тадқиқотчиларни хорижий мамлакатларда тажриба алмашилишини ташкил этишимиз, амалиётчи бухгалтерларни сертификатлаш ишларини йўлга қўйишимиз керак бўлади”[2].

Дусмуратов Раджапбай Давлетбаевич, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, ҳам ўз фикр мулоҳазаларида айтиб ўтганларидек, “Иқтисодиётни эркинлаштириш ва ислоҳотларни чуқурлаштириш шароитида корхоналар бухгалтерия ҳисобини такомиллаштиришнинг муҳим йўналишларидан бири уни ҳисоб ва ҳисоботнинг халқаро стандартларига мослаштиришдир. Бу Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётига инвестицияларни жалб қилиш, қўшма корхоналарни ривожлантириш, иқтисодиётда, хусусан, аграр секторда ислоҳотларни чуқурлаштириш, ҳисоб ва назоратнинг сифатини ҳамда самарадорлигини оширишга имкон яратади. Шунингдек, корхоналарга ўзларининг хусусиятларини, ишлаб чиқаришни ташкил этишдаги технологиялар ва техникалар меҳнат ва бошқарувдаги

хусусиятларини акс эттирадиган мукамал ҳисоб тизимини шакллантиришга маълум мустақиллик беради. Шу боисдан, бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартларини чуқур ўрганишга ва миллий ҳисоб ҳамда ҳисобот тизимини халқаро стандартларга ўтказишга алоҳида эътибор қаратиш зарурлиги ҳақида ҳам муҳим маълумотлар бериб ўтилган”[3].

Тошкент молия институти профессорлари Акром Каримов, Ислон Қўзиев, Матназар Рахимовлар ҳам ўз илмий ишларида таъкидлаганидек, “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш юзасидан тажриба-синов олий таълим муассасаси сифатида белгиланган Тошкент молия институтида қарор асосида ишлаб чиқилган “Йўл харитаси”да кўрсатиб ўтилган қатор чоратадбирларнинг босқичма-босқич ижроси таъминланмоқда. Масалан, Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари, Аудитнинг халқаро стандартлари, Тижорат банкларида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари, Бюджет ҳисобининг халқаро стандартлари каби фанлар бўйича ўқув ва ишчи ўқув дастур(силлабус)лари ишлаб чиқилиб, амалдаги ўқув режалари таркибига киритилиб, ўқитилиши йўлга қўйилди. Шунга мос равишда институтда Халқаро бухгалтерия ҳисоби, Аудитнинг халқаро стандартлари, Бюджет ҳисобининг халқаро стандартлари ва Тижорат банкларида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари каби фанлардан ўқув адабиётлари яратилди. Бухгалтерия ҳисоби, аудит соҳаси бўйича малакали кадрлар тайёрлашда тўлиқ халқаро тажриба атрофлича ўзлаштирилди” дея эътироф этмоқдалар [4] .

БМТТД ва Молия вазирлигининг «Ўзбекистонда бюджет тизимини ислоҳ қилиш» кўшма лойиҳаси томонидан учрашувлар ўтказилиб, уларда вазирлик ҳамда бюджет ташкилотларининг тахминан 50 нафар мутахассиси, олий ўқув юр்தларининг ўқитувчилари, Бухгалтерлар ва аудиторлар миллий ассотсиатсияси ҳамда бошқа касаба уюшмаларининг экспертлари, шунингдек халқаро эксперт – Халқаро валюта фондининг фискал сиёсат бўйича минтақавий маслаҳатчиси иштирок этди. Мазкур учрашувлар бухгалтерия ҳисоби тизимини ЖС МҲХС асосида ислоҳ қилиш масалаларини муҳокама этиш мақсадида ташкил этилди.

Шунингдек лойиҳа томонидан Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Ўқув маркази тингловчилари учун ЖС МҲХСни давлат секторидаги бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи миллий тизимига жорий этиш бўйича танишув семинари ташкил этилди. Семинарда иштирокчиларга ЖС МҲХСнинг моҳияти ва методологияси, уларни Ўзбекистондаги бухгалтерия ҳисоби тизимига мослаштириш имкониятлари ва шартлари шу асосда тузилган Бухгалтерия ҳисоби ва ҳисобот тизимини такомиллаштириш концепсияси тақдим этилди. Ишлаб чиқилган Бюджет ҳисоби стандартлари лойиҳаларини Ўзбекистондаги бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи

тизимининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда халқаро стандартларга мувофиқлаштириш масалалари амалий масалалар сифатида муҳокама этилди [5].

Юқоридаги фикрлар мамлакатимиз Президенти томонидан ишлаб чиқилган 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисидаги муҳим жihatлар учун хизмат қилади.

ХУЛОСА

Мухтасар қилиб шуни таъкидлаш жоизки, мамлакатимизда ЖС МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи тизимини такомиллаштириш концепсияси ишлаб чиқилди. Шунга мувофиқ бухгалтерия ҳисобининг 12 та стандарти лойиҳаси тайёрланди. Ушбу стандартларни мамлакат бухгалтерия ҳисоби амалиётига жорий этиш мутахассисларни улар билан тўғри ишлашга ўқитишни, шу жумладан бюджет соҳасидаги бухгалтерлар ва молия ходимларини ўқитиш ва қайта тайёрлашни иборат. Шунинг учун ҳам ҳар бир соҳада, Бухгалтерия ҳисоби ва ҳисобот тизимини такомиллаштиришни таъминлаш асосий манба бўлиб хизмат қилиш лозим.

REFERENCES

1. <https://xs.uz> > uzkr > post Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари тўплами. – Т.: «NORMA», 2011. –360-бет.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/moliyaviy-isobotning-hal-aro-standartlari-va-ulargatish-zaruriyati>
3. Дўсмуратов Р.Д.: “Бухгалтерия ҳисоби назарияси” дарслик, Тошкент 2020, 487 бет
4. <https://xs.uz> > uzkr > post
5. www.uz/yangiliklar/ Жамоат сектори учун молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида бюджет ташкилотларининг бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи тизимини такомиллаштириш нашриёти, 2022, 33-34 бет

ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ДИНИЙ СЕКТАЛАР МАЪНАВИЙ-СИЁСИЙ ТАҲДИД СИФАТИДА

Адҳамжон Акрамович Сатторов

Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти
ЎзМУ доценти, с.ф.ф.д. Ж.Дж.Акрамов тақризи асосида

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада глобаллашув шароитида диний секталар маънавий-сиёсий таҳдид сифатида намоён бўлиш хусусиятлари ҳақидаги фикрлар илмий жиҳатдан таҳлил этилган. Шунингдек, мақолада бугунги кунга келиб диний секталар геосиёсат назариясига кўра экспанциянинг бир тури сифатида намоён бўлаётганлиги айтиб ўтилган. XXI асрга келиб диний секталар ҳаракатлари фаолияти кучайган мафкура полигонлари тобора кўчаётганлиги мазкур ҳаракатларни олдини олиш ва бартараф этиш дунёнинг бир қатор мамалакатларида долзарб муаммолари қаторига кираётганлиги борасидаги фикрлар ёритилган.

Калит сўзлар: глобаллашув, мафкура, миссионерлик, диний секта, бағрикенглик маънавият, сиёсат, экспанция, геосиёсат, хавфсизлик, барқарорлик, полигон.

АННОТАЦИЯ

В данной статье научно анализируются мнения об особенностях проявления религиозных сект как духовной и политической угрозы в условиях глобализации. В статье также упоминается, что религиозные секты появляются как тип экспансии согласно теории геополитики. К XXI веку все больше перемещаются идеологические полигоны, где активизировалась деятельность религиозных сект, и предупреждение и ликвидация этих движений является одной из актуальных проблем в ряде стран мира.

Ключевые слова: глобализация, идеология, миссионерство, религиозная секта, толерантность, духовность, политика, экспансия, геополитика, безопасность, стабильность, полигон.

ABSTRACT

This article scientifically analyzes opinions about the features of the manifestation of religious sects as a spiritual and political threat in the context of globalization. The article also



mentions that religious sects appear as a type of expansion according to the theory of geopolitics. By the 21st century, ideological testing grounds are moving more and more, where the activity of religious sects has intensified, and the prevention and elimination of these movements is one of the urgent problems in a number of countries of the world.

Keywords: globalization, ideology, missionary, religious sect, tolerance, spirituality, politics, expansion, geopolitics, security, stability, polygon.

КИРИШ

Глобаллашув шароити авж олиши жаҳонда хавфсизлик ишларини ва мамлакатлар барқарорлигини таъминлаш борасида инсонларда теран фикрлашни тақоза этмоқда. Дунёда тобора авж олиб бораётган маънавий хуружлар, ёт ғоя ва мафкуралар таъсирида инсон қалби ва онгини забт этишга ҳаракат доираси ҳам кенгайиб бормоқда.

Бугунги кунга келиб диний секталарнинг фаолияти геосийёсат назариясига кўра экспанциянинг бир тури сифатида намоён бўлмоқда. Айниқса, XXI асрга келиб диний секталар фаолиятида миссионерлик ва прозелитизм ҳаракатларини ва бузғунчи ғояларни тарғиботининг кучайиши дунё ҳамжамиятидан бу борада мунтазам, огоҳ ва сезгир бўлиш талаб этилмоқда. Мазкур ҳаракатларни олдини олиш ва бартараф этиш ҳозирги кунга келиб жаҳон афкор оммаси олдидаги долзарб муаммолар қаторига киради.

Бу ҳақда фикр юритганда, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 13 октябрь куни Осиёда ҳамкорлик ва ишонч чоралари бўйича кенгаш мажлисидаги нутқида “Биз радикал ғояларнинг кенг хуружига янада кўпроқ тўқнаш келаяпмиз.

Бузғунчи кучлар тарғибот ва мафкуравий таъсирнинг янги услубларидан фойдаланган ҳолда экстремистик ташкилотларга ёшларни фаол жалб этмоқда.

Шу муносабат билан ёш авлодни радикализмдан асраш, уларнинг куч-ғайрат ва шижоатини бунёдкорлик сари йўналтириш учун тизимли ҳамкорликни ўрнатишимиз керак.

Ўғил-қизларимиз ўз кучига ишониши, адолатли келажакни қарор топтиришда ўз иштирокини ҳис этиши, ўз салоҳият ва умидларини амалда рўёбга чиқариш имкониятларига эга бўлиши лозим”[1.1] деб айтган сўзларида буғунчи ғояларни тарғиб қилаётган ва ёшлар онгига сингдиришга ўринаётган кучларга қарши курашда бирлашишга ва янги бунёдкор ғоялар асосида қарши курашишлик кераклиги муҳим вазифалардан эканлиги айтиб ўтилди.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Сиёсий ва иқтисодий жараёнларнинг глобаллашуви шароитида ғоявий ва мафкуравий курашнинг кучайиши миллат ёки халқлар тарихий қадриятлари, бугунги ҳаёти ва келажакдаги тақдири мавқеини белгилашда муҳим омил вазифасини ўтайди. Жараён нуқтаи назаридан аввал маънавий кейин сиёсий ва сўнг иқтисодий-ҳуқуқий таҳдид сифатида намоён бўлаётган диний секталар ҳаракатлари мафкуравий интервенциянинг нозик ҳамда нисбатан арзон шаклида аллақачон айрим давлатлар амалиётига айланиб бўлди.

Бугун диний секталар баъзи геосиёсий кучларнинг хавfli қуроли бўлиб, сиёсий ва иқтисодий таъсир доираси кўринишида ифодаланаётган замонавий мустамлакачилик ёки вассалликни ташкил этишнинг энг олдинги қаторларидан жой олади. Сиёсий доиралар ўзларининг геосиёсий мақсадларини кўзлаб, низо ва келишмовчиликларни келтириб чиқаришда диний секталарнинг ёт ғоялар ташвиқи ҳаракатларидан бевосита фойдаланишмоқда. Буларнинг барчаси диний секталарнинг бузғунчи ғояларни тарғиб қилишдаги ҳаракатларини сиёсий-функционал нуқтаи назардан таҳлил қилиш заруриятини келтириб чиқаради.

Рус тадқиқотчиси А.Панарин бундан 15–20 йил муқаддам диний секталар тарғибчиларини яъни миссионерлик билан шуғиланувчиларни “денгиз қароқчилари” дея атаб, уларнинг фаолиятини образли тарзда забт этиш жараёни сифатида тасвирлаган эди: “қуруқликдаги бош истехком, дунёнинг асосига қарши бугун Денгиз қитъани нафақат жисмонан забт этишни, у қитъа этносини – минг йиллар давомида ишлаб чиқилган ва қитъа антропологик қиёфаси учун жавобгар бўлган руҳий-психологик структурасини вайрон этишни режа қилди. Шу мақсадда қитъа аҳолисини автохтонлар ва бешинчи колоннага бўлиш операцияси олиб борилмоқда, бешинчи колоннадан кўзланган мақсад эса денгиз келгиндиларига қитъа қалъасининг дарвозаларини очиб беришдир. Кўз олдимизда “элита” (маданий, сиёсий, хўжалик юритувчи) тушунчасининг ўзи мисли кўрилмаган даражада ўзгартириб юборилмоқда. Ғарбча кун кечириниш имтиёзини, бу имтиёз кўпчиликка ёпиқ эканлигига қарамай, ўзлаштираётганлар ўзларини элита сўзи билан атай бошламоқда. Элита бугунги кунда денгиз қароқчиларига садоқатлилиги, уларнинг кемасига ўтиб олишга тайёрлиги билан характерланмоқда”, – дея алоҳида эътибор қаратиб ўтган эди.

Диний секталар фаолиятида бу ўзига хос “забт этиш” жараёнининг энг таъсирчан жиҳатларидан бири сифатида манфаатлар қадриятлар кўринишида намоён этилади. Айнан,

глобаллашув шиддатининг тобора авж олиши дунё миқёсида геосиёсий жараёнларга бевосита таъсир кўрсатмоқда. Натижада, мазкур ҳолат дунё қиёфасини тубдан ўзгартириш орқали муайян минтақа ва ҳудуд миқёсида геосиёсий таъсир доираларини қайта тақсимлашга бўлган ҳаракатлар мисолида намоён бўлмоқда. Сектавийлик гўёки, динни тарғиб этиш орқали амалга оширилаётган тарғибот аслида сиёсий, иқтисодий, маданий жиҳатдан экспанция этишни ўзида акс этади.

Хорижий ОАВда диний секталарнинг фаолияти ўрганилганда, “айрим” сиёсий марказлар, махсус хизматлар манфаатлари учун ишлаётганлиги ҳақидаги маълумотлар пайдо бўлмоқда. Жумладан, россиялик экспертлар протестантликка мансуб мормонлар черкови АҚШ махсус хизматлари учун жосуслик фаолияти билан шуғуланади, деб ҳисоблайдилар[8]. Айнан, глобаллашув шаротида дунёдаги “айрим” сиёсий кучларнинг баъзи доиралар диндан хусусан, диний секталарнинг асосий фаолияти миссионерликдан ўзларининг ғаразли мақсадларига эришиш воситаси сифатида мутаассиблик, фанатизм ҳаттоки давлат тўнтаришлари каби қабих йўлларида фойдаланаётгани афсуски, ҳеч кимга сир эмас.

Украиналик тадқиқотчи М.Мороз диний секталарнинг салбий оқибатлари тўғрисида алоҳида тўхталиб, “Иегова гувоҳлари” сектасини “бизнинг ашаддий душманимиз, миллийликнинг ишончли жосуслари”– деб атайди[6]. Унинг фикрига кўра “Иегова гувоҳлари” оқимида кўшилган украиналиклар миллий кадриятларга бутунлай бефарқ бўлиб қолишмоқда. Айниқса, мамлакат миқёсида мазкур оқим таъсирига тушган ёшларни ҳарбий тайёргарлик ва кўшин сафида хизмат қилишдан бош тортиши кўпайиб бормоқда.

Секта таълимотида давлат байрамлари ва рамзларини тан олмаслик, сайлов жараёнларида иштирок этмаслик, давлат вазифаларига қасамёд қилмаслик тарғиб этилади.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Илмий мақолада тизимли ёндашув, тарихийлик, қиёсий-тарихий, анализ ва синтез, дедуктив-структурали, тузилмавий, функционал таҳлилий ёндашув каби методлардан кенг фойдаланилди. Ҳозирда глобаллашув жараёнида инсон онги, қалби ва руҳиятини забт этиш (экспанция)га ҳаракат қилаётган диний секталар ҳаракатини олдини олиш ва бартараф этишда, асосан ахборот-психологик хавфсизликни таъминлаш долзарб вазифа ҳисобланади. Бу ҳақда сиёсий фанлари доктори, профессор Н.Жўраев диний секталарнинг фаолияти таҳдиддан ҳимоя



этишда энг авалло ахборот-психологок хавфсизликни таъминлаш орқали инсон руҳиятига таъсир ўтказишга қаратилган ғоялардан ҳимояланиш муҳим аҳамият касб этишига алоҳида урғу бериб ўтган[3, Б.422]. Зеро, инсон қалби ва онгини забт этишга интилаётган миссионерлик ва прозелитизм ҳаракатлари замирида ёвуз ва бузғунчи ғояларини илгари сураётганлиги тобора ойдинлашмоқда. Шу тариқа мазкур иллатлар аввало, давлатлар ва сиёсий кучларнинг геосиёсий режаларига хизмат қилувчи сиёсий қурол вазифасини ўтаётганлиги намоён бўлмоқда. Миссионерлик методикаси замирига эътибор қаратилса, пухта ўйланган режалар асосида, ўз фаолиятини амалга оширишда диндан ниқоб сифатида фойдаланиши ойдинлашади. Мазкур ҳаракатлар стратегиясида муайян мамлакатларда “очарчилик, қашшоқлик”, “инсон ҳуқуқларини поймол этилиши”, “миллий низоларни бартараф этиш”, “гуманитар ҳалокатни олдини олиш”, “демократик эркинликларни жорий этиш”, “илғор маданий одатларга ўргатиш” ниқоби остидаги амалга оширилаётган мақсадли фаолиятни англаш керак бўлади. Секталар ўз фаолияти жараёнида мазкур вазиятдан фойдаланган ҳолда муайян ҳудуддаги аҳолини ўзларининг динларига ўтказиш орқали сиёсий мақсадларга тайёрлашга ҳаракат қилишади. Миссионер фаолияти давомида юзлаб инсонларни ўз динига жалб этса, унинг ҳосиласи бўлган прозелит эса қисқа давр мобайнида кўплаб инсонларни ўз динидан воз кечиб, ўзга динни қабул қилишга эришади. Натижалар ҳаракат амалга оширилаётган давлатлар аҳолиси ва улар ҳаёт тарзининг бой ёки камбағал, ёпиқ ёки очик, сиёсий режими кучли ёки кучсиз, эътиқоди тартибли ёки тартибсиз, маданияти ва миллати асосан бир хил ёки аралаш, эканлиги каби белгиларга кўра турлича бўлиши мумкин.

Кузатишларимизга кўра диний секталар ҳаракатлари стратегияси мазкур белгиларнинг гуруҳлашган ёки алоҳида шаклларда намоён бўлишига кўра тузилади. Диний секталарнинг ёт ғояларни тарғиботи замирига эътибор қаратилса, мазкур ҳаракат тарафдорлари ўз мақсадига эришиш учун турли усул ва воситалардан, айниқса, ОАВ орқали жамоат жойларида, концерт заллари ва стадионларда тадбирлар уюштириб, диний адабиётларини тарқатиш орқали ўзларининг диний тарғибот ва ташвиқотларини олиб боришларига юқорида қайд этилган белгиларнинг иккинчи қисмига асосан ёндашувларини кўриш мумкин.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Глобаллашув жараёнида иқтисодий инқироз даврида дунёда гегемонлик қилишга интилиш тобора кучаймоқда.



Бир неча аср олдин колониялаштириш христианликнинг шиорига айланган бўлса, ҳозирда “жаҳонга кириб бориш” [7], айнан диний секталар ҳаракатлари оқибатида тобора кучаётганлиги намоён бўлмоқда. Ахборот-таҳлилий тадқиқотлар натижаларига кўра, диний соҳага бевосита дахлдор ушбу глобал ҳодисаларнинг тобора чуқурлашиб ва кенг қамров касб этиб бораётганини кўрсатади.

Диний секталарнинг бундай сиёсий мазмундаги ҳаракатлари аксарият ҳолларда манипулятив ва мавжуд сиёсий режимдан имкон излашга ундаш кўринишда намоён бўлади.

Диний секта ҳаракатлари аввало, жамият ҳаётининг барча жабҳаларини издан чиқариши, давлат бошқарувида тартибсизлик ва парокандаликни вужудга келтириши, мамлакатда бир-бирига қарама-қарши гуруҳларни шакллантириш орқали, миллатлараро, динлараро зиддиятларни тўғдириб, давлат миқёсида айирмачиликни келтириб чиқараётганлиги билан характерлидир.

Диний секта ҳаракатлари динларнинг аксариятида мавжуд бўлиб кейинги вақтларда улар ўртасида рақобат кучайгани кузатилади. Бу рақобатни ҳатто бир диннинг турли оқимлари ўртасида кузатилаётгани сиёсий манфаатдор гуруҳлар фаолиятининг нақадар жадаллашганидан ҳам дарак беради. Масалан, христианликнинг католик, проваслав ва протестант йўналишлари ўртасида муайян ҳудудларда фаолиятини ташкил этиш масаласида ҳозирги вақтда кузатилаётган ўткир рақобатни шунчаки диний тарғиботнинг ўзи деб бўлмайди.

Жараён диний секталарнинг фаолият маркази мансуб бўлган давлатларнинг ўша ҳудудга тегишли сиёсий муносабатларига мувофиқлиги билан ойдинлашади ва сектанинг манфаатдор давлат сиёсати билан келишилган ҳаракат эканлигини исботлайди. Шунингдек, алоқадор давлатнинг ўша ҳудуд бўйича олиб бораётган сиёсатига мувофиқ равишда секталар ҳаракатлари гоҳ кучайиб, гоҳ сусайиб туриши ҳам унинг сиёсий гуруҳлар манфаатларига бўйсундирилганлигидан дарак беради.

Диний секталар ҳаракатларини замонавий нуқтаи назардан ташкил қилиш билан боғлиқ турлича ёндашувлар мавжуд. Бу борада, Россия РАЦИРСнинг президенти А.Л.Дворкин ўзининг тадқиқотларида ноқонуний равишда фаолият олиб бораётган тоталитар секталарнинг ташкил этилиши ва қўллаб-қувватланишларига доир қарашларида таъкидлаб ўтади [5, С.813]. Унга кўра секталарнинг аксарияти муайян шахслар билан боғлиқ бўлиб, махсус хизматлар томонидан молиялаштирилади. Айниқса Шарқий Европа ҳудудларига ёпирилаётган секталарнинг мақсадларида Ғарбий Европа ва АҚШ сиёсий мақсадларини бемалол

кузатиш мумкин. Айни вақтда бу секталар шу минтақалар эмас, умуман ўзга минтақалар диний миссияларини йўналтириш каби мураккаб стратегия асосида амалга оширилади, оқибатда сиёсий мансублик изларини беркитишга эришилади.

Шунингдек, секта таълимотида унинг аъзолари учун, ҳар қандай билим ва маълумотларга эга бўлиш мумкин эмас. Сабаби секта аъзоларининг дунёвий билим ва маълумотларга эга бўлишлари ўз навбатида секта фаолиятига нисбатан сектантлар орасида шубҳа ва гумонлар уйғотиши, энг асосийси, унинг фаолиятига мансуб бўлмаган ҳар қандай билим ва маълумотлар оқим аъзолари кўзини кўр қилиб қўйиши, онгини заҳарлаши ҳамда гўёки муқаддас ёзувни ўрганишга бўлган кучини сусайтириши мумкин. Бундай ёндашув секта таълимотининг сиёсий вазифалар билан қанчалар нозик ва чуқур боғланганлигини яна бир қарра исботлайди. Аммо бу ҳолатда сектани сиёсий нуқтаи назардан айблашнинг қонуни имкони йўқ.

Шу тариқа, Иегова таълимотини ўрганишга бошқа ишлар халақит берса, секта аъзоларига ўз фаолиятлари жараёнида бундай ишлар билан шуғулланишлари қатъиян ман этилади. Айниқса, секта таълимотида “бу таълимот ҳар қандай нарсдан устун” эканлигига алоҳида эътибор қаратилади. АҚШнинг Калифорния университети психологи, профессор Маргарет Зингер томонидан диний секталар ҳаракатларига нисбатан билдирилган фикрларига кўра, сектлар миссионерлик ҳаракати орқали аввало, бир диний гуруҳ воситасида инсонларнинг ишонч ва эътиқодини ўзгартиришга қаратилган ҳаракатлар мажмуасини ифодаланади.

М.Зингернинг таъкидлашича, тоталитар секталар томонидан олиб борилаётган диний тарғиботлар, диний ибодатларни жозибадорлиги шундаки, улар диний тарғибот ва ибодатларни ўта соддалаштирилган тарзда маҳаллий аҳоли вакиллариининг қадриятлари, ҳаётий тамойилларга мос равишда, умумийлик ва ҳаётий қийинчиликларни бартараф этиш мақсадида фуқаролар билан олиб бораётган фаолияти жараёнида уларга жамият ҳаётида ўз ўрнини топишга кўмаклашиш, моддий аҳволларини яхшилаш мақсадида юқори миқдордаги маош асосида ишлар таклиф этиш, шахсий ҳаётида омад кулиб боқиши каби эътирофларни таклиф қилиш ғоялари илгари сурилади[8,Р.381].

Ҳозирги кунда дунё миқёсидаги таниқли диний секталарнинг миссионерлик фаолият қаторида эътироф этилаётган, инжилшунос Билли Грехим фикрича, секталар фаолияти асосан, ОАВ воситалари: радио, телевидение соҳаларидан кенг фойдаланган ҳолда ўзга мамлакатлардаги сиёсий, ижтимоий, иқтисодий вазиятларни

ўзгартириш мақсадида, ривожланган ғарб давлатлардаги “оммавий маданият”, “демократик эркинликларни жорий этиш”, “юқори турмуш тарзи”, “ғарб мамлакатлари урф-одатлари ва маданиятини тарғиб этиш” каби усуллардан кенг фойдаланишга алоҳида урғу бермоқда. Таъсир кўрсатишнинг асосий воситалари – китоблар, кинофильмлар, телевидение, радио, интернет, ОАВ агентликлари ва нашрлари ҳисобланади[1, Б.14]. Айниқса, аксарият диний секта ташкилотлари ўз динини сингдиришда аввало, Исога садоқат ва муҳаббат уйғотишга алоҳида эътибор қаратишади. Сектлар ўз фаолияти жараёнида черковлар ташкил этиш, диний тарғиботларни амалга ошириш, Библияни таржима қилиш, диний материалларни ёзишга бевосита эътибор қаратади.

Глобаллашув даврида диний секталарнинг халқаро миқёсда нодавлат ноижорат ташкилотлари мақомида фаолият юритаётганлигини таъкидлаш ўринлидир. Ҳозирги кунда айрим давлатлар муайян ҳудудда ўз таъсир доирасини кучайтириш мақсадида асосий фаолияти миссионерликни ҳимоя қилиш орқали ўзининг сиёсий мақсадларини амалга ошириш намоён бўлаётганлигини таъкидлаш лозим.

Шу ўринда, диний секталар ҳаракатларининг салбий оқибатлари тўғрисида Кениянинг биринчи бош вазири Жомо Кенятта (1889-1978) томонидан билдирилган фикр ҳам эътиборга моликдир. Бу ҳақда, Жомо Кенятта “христианлик Африкага келганида африкаликларнинг ерлари, христианларнинг эса инжиллари бор эди. Христианлар бизга кўзларимизни юмиб дуо-ибодат қилишимиз кераклигини ўргатдилар. Кўзларимизни очганимизда улар бизнинг ерларимизни, биз эса уларнинг инжилларини олган эдик” дея таъкидлайди[2, Б.100].

Хусусан, секстант ташкилотларининг бир қатор услублари воситасида турли ижтимоий муассасалар ниқобидаги фаолияти натижасида ишсизлар, талабалар, черковлар қошидаги иш топиш, чет тилини ўрганишга кўмаклашиш муассасаларига келганлар уларнинг таъсир доирасига тушаётганлиги ташвишлидир. Шу тариқа, аксарият ёшлар диний секталар ташкилотларининг бевосита кўмаги асосида иш топиш, савдо юритиш, хорижга “меҳмон”га чиқиш ёки малака ошириш, черков ҳисобидан таълим олиш, армия чақирувидан кутулишга уриниш каби ҳолатлар мисолида секта тузоғига илинмоқда.

Д.Баррет эса “Бутунжаҳон христиан энциклопедияси”да Ўрта Шарқ ва Осиёнинг айрим минтақаларида яшовчи 1800 та йирик этник гуруҳлар орасида христианликни тарғиб этиш муҳим эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтади[4, Б.81]. Д.Баррет мазкур минтақадаги йирик давлатлар геосиёсий манфаатларини инобатга олган ҳолда

христианликдаги секталарини ислом ва буддавийлик дини вакиллари худудларида кўпайтириш мақсадида улар ўртасида низолар ва курашларни авж олдириш лозимлигини алоҳида қайд этади. Шу тариқа, турли дин ва конфессиялар орасидаги низоларни вужудга келтиришда секталарнинг асосий фаолияти миссионерлик ҳаракатлари муҳим рол ўйнайди.

Зеро, қонли тўқнашувлар ва жангларда, “Ислом давлати” жангарилари таркибида исломга мутлақо алоқаси бўлмаган, ўзга дин ва секталар вакиллари иштирок этиши, гўёки адолат курашчиларига ҳайрихоҳлик кўрсатилиши мисолида ёт ғояларни тарғибот қилиш ҳаракати ўрни келганда қанчалар разилона иш тутиши мумкинлигини исботлайди.

Мазкур ҳаракатларнинг оқибатлари эса бугунги кунда нафақат инсонларнинг эътиқодига, балки турли дин, миллат ва элатларнинг ҳамжиҳатлигини издан чиқаришда ҳали ҳам давом этмоқда.

Олиб борилган тадқиқотдан маълум бўладики, мамлакатда амалдаги ҳукуматга қарши норози кайфиятда бўлган аҳоли қатламини аниқлаш ёки шакллантириш диний секталарнинг асосий сиёсий мақсадларидан бири сифатида белгиланди. Айниқса, давлатнинг заиф томонларини ўрганиш, диний адабиётларни маҳаллий аҳоли вакилларига тушунарли бўлган тилларга таржима қилиш, сектанинг моддий жиҳатдан етарли маблағлар билан таъминлашга эътибор қаратилади. Ўз навбатида, диний ташкилотлар томонидан кўнгилли ҳомийларни топишга интилаётган диний секталар самарали фаолият кўрсатишга ҳаракат қилишади.

Диний секталар ўзларининг ташкилий фаолиятлари орқали ҳукумат идораларининг диққат эътиборини жалб этмасликка алоҳида эътибор қаратишади. Ҳозирда бу хусусан, сектанинг ташкилий тузилмалардан ташқари маҳаллий аҳоли вакиллари хонадонлари орқали фаолият кўрсатиш ҳолатларида намоён бўлмоқда. Ўз навбатида маҳаллий аҳоли тилини ўрганиш, ҳаёт тарзига мослашишга интилаётган махфий вакиллар қисқа вақтда маҳаллий аҳоли вакиллари билан ўзаро яқин алоқалар ўрнатиши асосий мақсади ҳисобланди.

Мазкур усуллар орқали диний секталар ўз фикри – ғоялари ва диний эътиқодларини сингдиришда устамонлик билан фойдаланаётганлиги кузатилмоқда.

Ўтмишдан маълумки, аксарият давлатлар босқинчилик урушлари орқали давлат мустамлакаларини барпо этиш ҳамда мустаҳкамлашда диний секлардан ғоявий экспансия сифатида фойдаланишган.

Американи “ўзлаштириш” жараёнларида Рим католик черкови томонидан ҳиндуларни христиан динига ўтказишда зўрлик ва мажбурий равишда чўқинтириш маросимлари жорий этилган. Мабодо ҳиндулар христианликка ўтишни рад этса, уларга қарши католик черковининг инквизиция (черков суди, лотинча “тергов”) гулханлари алангаси ва мустамлакачи ҳокимият ҳарбий кучлари қирғин солиб турган.

Жумладан, ҳиндуларга ёввойи одамлар сифатида қараш, улар турмуш тарзи ва қадриятларини менсимаслик, ерга эгалик ҳуқуқларини назар-писанд қилмаслик, маданиятдан ортда деб қараш ва ниҳоят христианликни қабул қилганларини ҳам иккинчи даражали, яъни сохта христианлар - прозелитлар сифатида қабул қилиш. Айтиш жоизки, давлатларнинг муайян ҳудудда қозонган сиёсий, иқтисодий ёки ҳарбий мавқеидан келиб чиқиб, динга мажбуран ёки тарғибот, алдов воситасида киритишга доир турли услублар қўлланилган.

Диний секталар асосан, давлат ва жамият миқёсидаги энг муҳим фаолият соҳалари: таълим, тиббиёт, хайрия, ижтимоий муносабатларга алоҳида эътибор қаратишмоқда. Давлат мактаблари, жамоат ташкилотлари, касалхоналардаги фаолиятлари айниқса, муҳим аҳамият касб этмоқда[8,С.213].

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Юқоридагилардан келиб чиқиб хулоса қилиш мумкинки, диний секталар ҳаракатларида аввал маънавий таъсир ва кейин сиёсий қамраб олиш жараёнларига катта аҳамият берилади. Маънавий таъсир кўрсатишнинг биринчи режага чиқишини ҳар бир мамлакатда эътиқод масаласида ўзига хос ёзилган ёки ёзилмаган қонунлар, қадриятлар, анъаналар ва урф-одатлар борлиги билан белгилаш мумкин. Маънавиятни шакллантирувчи ва бошқарувчи ушбу омилларни енгиб ўтмай туриб, муайян инсоний бирликни бирор сиёсий мақсад ёки ғояга хизмат қилдириш мажбурлашни келтириб чиқаради. Чунки мажбурлаш маънавиятга зид ҳодиса ҳисобланади. Қолаверса глобаллашув жараёнлари секталар ҳаракатлари учун ғоятда кенг имкониятларни очиб берди. Ушбу шароитда мазкур ҳаракатлар миллий, диний, динлараро зиддиятларни келтириб чиқариш, тинч ва осуда ҳаётга таҳдид солиш, нафақат жамиятда балки мамлакат миқёсида сепаратизмни келтириб чиқаришга интилаётганлиги ҳар бир кишидан бу борада жиддий фикрлашни тақозо этади.

Зеро, дунё миқёсида глобал муаммолар каторида намоён бўлаётган, тинчлик ва барқарорликка раҳна солувчи,



диний секталар тахдидларидан доимо огоҳ бўлиш, мазкур ҳаракатларни ўз вақтида англаш ва уларни бартараф этиш бугунги куннинг долзарб вазибаларидан биридир.

REFERENCES

1. Бекпўлатов Ҳ. Мамадалиев Р. Глобаллашув шароитида ахборот хуружларига қарши курашнинг айрим масалалари. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. - Тошкент: 2016 йил. №1, –Б. 14.
2. Гундуз Шиносий. Миссионерлик. –Анқара. ТДВ. Нашриёти. 2007. -Б.100.
3. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Тошкент: “Маънавият”. 2008. –Б. 422.
4. «Азбука преподавания прав человека» (подготовлена ООН в качестве средства образования в области прав человека. http://www.un.org/russian/hr/abc/ch3_12.html.
5. Дворкин Александр. Сектоведение. Тоталитарные секты. Опыт систематического исследования. // Издание 3-е, переработанное и дополненное. Нижний Новгород. Христианская библиотека 2012. –813 с.
6. Евменов Д. История создания и учение общества Сторожевой башни (канд. дисс., дек. 1998) // <http://www.cdrm.ru/iegova/issl/evm.htm>.
7. Колесниченко Ю.В. Политические аспекты миссионерства в российском обществе в переходный период: на примере Приморского края: диссертация кандидата политических наук: 23.00.02. –Владивосток, 2008. –213 с.
8. Смирнов А. Великая миссия американских мормонов: код Ромни. Сайт “Радио голос России”, 10.10.2012. URL: http://rus.ruvr.ru/2012_10_10/Velikajamissja-amerikanskikhmormonov-kod-Romni/.
9. Singer M. T. Cults in our Midst // M. T. Singer & J. Lalich. — San Francisco: Jossey-Bass Publishers, 1995. – P.381.



МЕТОДИКА УСТАНОВЛЕНИЯ ПАРАМЕТРОВ ГОРНОТЕХНИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОМБАЙНОВОЙ ВЫЕМКИ РУДЫ ДЛЯ УСЛОВИЙ ДЖЕРОЙ-САРДАРИНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ ФОСФОРИТОВ

Умиджон Бобакулович Ермекбаев

Старший преподаватель

Навоийского государственного горно-технологического университета, кафедры «Горное дело» г. Навои, Республика Узбекистан.

Отабек Мухитдинович Гиязов

Доцент Навоийского государственного горно-технологического университета, кафедры «Горное дело» г. Навои, Республика Узбекистан.

Зафаржон Вохид угли Истамаов

Магистрант Навоийского государственного горно-технологического университета, кафедра «Горное дело» г. Навои, Республика Узбекистан;

АННОТАЦИЯ

Технологические схемы открытой разработки пластовых месторождений полезных ископаемых с целью снижения затрат путем сокращения расстояния транспортирования. Разработка принципиально новых видов технологических схем включают разделение фронта горных работ на участки, отработку участков вскрышными уступами, выклинивающими к пласту полезного ископаемого, и добычные уступы с размещением пород в ярусы внутренних отвалов и подвигание отвального фронта вслед за отработкой уступов.

Ключевые слова: добыча полезных ископаемых, карьер, взрывные работы, взрывчатые вещества, разрушение горных пород, скважина, технологическая схема, фрезерный комбайн, параметры технологических схем, выемка пластовых месторождений, карьер «Ташкура», Узбекистан.

ABSTRACT

Technological schemes for open pit mining of mineral deposits in order to reduce costs by reducing the distance of transportation. The development of fundamentally new types of technological schemes includes the division of the mining front into sections, the mining of sections with overburden benches that wed out to the mineral layer, and mining benches

with the placement of rocks in the tiers of internal dumps and the advancement of the dump front after the mining of the benches.

Keywords: mining, quarry, blasting, explosives, destruction of rocks, well, technological scheme, milling machine, parameters of technological schemes, excavation of reservoir deposits, Tashkura quarry, Uzbekistan.

Под горнотехнической системой при освоении сложноструктурных пластовых месторождений понимается взаимодействие функционирующих на осваиваемом участке оборудования, технологических процессов, вскрывающих, транспортных выработок, добычного забоя в совокупности с участком недр [1, 2, 3]. Забой в рассматриваемом случае представляет собой горизонтальную выемочную полосу, формируемую фрезерным комбайном. Отгрузку горной массы возможно осуществлять непосредственно в автосамосвалы (рис 1).




Рисунок 1. Структура горнотехнической системы освоения сложноструктурного месторождения фосфаритов на примере Джерой-Сардаринского месторождения.

Все применяемое выемочно-погрузочное, транспортное и вспомогательное оборудование должно обеспечивать требуемую экономическую эффективность и экологическую безопасность освоения месторождения с заданной производительностью и показателями качества товарной продукции. Основными параметрами горнотехнических систем освоения

сложноструктурных месторождений фрезерными комбайнами являются:

- ширина полосы разрабатываемых пород - определяется размером рабочего органа применяемого фрезерного комбайна и в рассматриваемых условиях является величиной постоянной;
- мощность вынимаемого слоя - зависит от физико-механических свойств разрабатываемых пород и для конкретных пород является величиной постоянной;
- длина единичной выемочной порции - зависит от принятой технологической схемы выемочно-погрузочных работ и в рассматриваемом случае определяется вместимостью кузова автосамосвала, и по сути его грузоподъемностью;
encryption algorithm provide a key and then guide it to receptor portion somewhere decryption takes position. It is significantly valuable and faster than asymmetrical key cryptography.

ii) Asymmetric Encryption: Asymmetric key cryptography which some time called as shared key cryptography. It plays with double keys: i.e public key and private key. Public key is consumed for encryption. And only the user knows about private key and is used for decryption. These both keys are connected to each other by any mathematical channel.

iii) Cryptography Terminology

a) Plain Text: the primary text Communication or the real secret Text which somebody wants to forward to another person. We will denote by P.

b) Cipher Text: It is the production of encryption algorithm. Cipher text Communication couldn't be recognized by invader as in not readable layout. We will denote by C.

c) Encryption Algorithm: The process which transform a plaintext into cipher text with usage of a key

d) Key: This is likewise assumed as enter to encryption algorithm It might be numeric or alpha numeric text or might be a particular sign.

e) Decryption Algorithm: It is a contrary technique of encryption algorithm. Which the primary communication is recovered from the cipher text. Encryption algorithm occurs at the writer end and Decryption algorithm occurs at the recipient end.

1-1. Caesar Cipher (Substitution technique):

The Caesar cipher is very classical division of ancient cryptography its titled after the Roman Emperor Julius Caesar, who conforming to Suetonius consumed shift cipher through a steady left shift of 3 to encrypt essential armed text communication in combat. Therefore, it is likewise called as shift cipher, Caesar's cipher or Caesar shift. Substitution method plays an important rule to develop the encrypted text.

For the explanation we will consider the example

Plain text: ZYXWVUTSRQPONMLKJIHGFEDCBA

Cipher text: WVUTSRQPONMLKJIHGFEDCBAZYX

While encrypting, a separate consider every character of the text communication in the "plain text" and inscribes the matching letter in the "cipher text". Deciphering is precisely a reverse Process, by shifting of three positions.

This might be similarly illustrated by consuming Numerical arithmetic by converting the letters into numbers, we will explain on the time. Currently, if we want to encrypt a letter (x), it is equation is $E(x) = (x + n) \bmod 26$, and the decryption is presented by : $D(x) = (x - n) \bmod 26$. The substitution of letters is similar for whole text message which is encrypted.

The main downsides of Caesar cipher is it can simply be cracked, even in cipher-text only situation. Several techniques have been discovered which break the cipher text by consuming regularity analysis and pattern texts. This is achievable since here we have just restricted number of conceivable transferals. (26 in English).

The circulation of letters in a archetypal model of English linguistic text message has different and expected form. A Caesar shift “replaces “this circulation, and it is achievable to establish the shift by testing the resulting frequency graph. This is the simplest method to breakdown Caesar cipher.

If we think through a text communication which is encrypted through a key of 1260356. The encryption method is Caesar cipher. Now suppose an aggressor obtains an encrypted cipher text but doesn’t identify the key. Therefore, to create a plaintext he attempts several cryptanalysis methods on the cipher text. Assume, he applies frequency analysis method to breakdown it then its frequency circulation graph attained by analyzing the cipher text will be much different than actual.

Underneath the plain text letter, the substitution alphabet for Caesar cipher is given by

A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O	P	Q	R	S	T	U
D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O	P	Q	R	S	T	U	V	W	X
								V	W	X	Y	Z								
								Y	Z	A	B	C								

For instance: NUMBER THEORY IS EASY is converted in to QXPEHU WKHRUB LV HDVB by the benefit of congruence theory Caesar cipher could be simply explained. Any plaintext is first presented arithmetically by altering the character of the text into digit by means of particular communication for instance.

A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O	P	Q	R	S	T	U
0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
								V	W	X	Y	Z								
								21	22	23	24	25								

Now for every Plaintext, we will alternate the cipher text C, so we get the congruence

$C \equiv P + 3 \pmod{26}$, We shift with three positions, so we have $C = E(3, P) = (P + 3) \bmod 26$



In above equation C is the cipher text letter, E is the encryption of 3 which is the key and P is the sing of plaintext letter

Generally, with Caesar Cipher algorithm we can shift from 1 to 25 positions, it can be some digit between 1 to 25, so we name that digit K , therefore we have

$$C = E(K, P) = (P + K) \bmod 26$$

At the present we will effort for the alteration of encrypted information into its initial shape which is named Decryption. It decipheres the encrypted data therefore that an authoritative operator can just decrypt the information so decryption necessitates a top-secret key or password, to get back the plaintext we have the following equality

$$P = D(K, C) = (C - K) \bmod 26$$

We see the planned algorithm and its operation is explained with the assist of instance. The algorithm is used to encrypt as well as decrypt the plaintext

For example: HELLO WORLD YO.

We are to concern the Caesar cipher text to the plaintext, we will consider the key as $K = 3$, for encryption we have

$$C = E(3, P) = (P + 3) \bmod 26.$$

We see that first letter in plaintext is H, whose representative number in the above table is 7. So, we have

$$C = E(3, 7) = (7 + 3) \bmod 26$$

$$C = 10 \bmod 26$$

As we see that $26 > 10$, according the rule of congruence the remainder is 10, that is $C=10$, which 10 is the representative number of K, so the cipher text for H is K.

Similarly, for E, which is the second letter of "HELLO" we get

$$C = (4 + 3) \bmod 26$$

$$\Rightarrow C = H$$

Similarly, when we want to encrypt an arbitrary number let us say y , so y represented number of 24, so we have

$$C = E(3, 24) = (24 + 3) \bmod 26$$

$$C = 27 \bmod 26$$

$$C = 1$$

So, the cipher letter for the letter y would be B.

So, for the final cipher text of the above plaintext is

Plain text: HELLO WORLD YO

Cipher text: KHAAR ZRUOG BR

Now for the decryption process we have $P = D(K, C) = (C - K) \bmod 26$

Our key is $K = 3$, so let decrypt, first for the letter K we have

$$p = D(3,10) = (10 - 3) \bmod 26$$

$$P = H$$

For the second letter H we have

$$P = D(3,7) = (7 - 3) \bmod 26$$

$$P = 4 = E$$

So, after decryption of all the letters we get our plaintext back

1-2. Playfair Cipher:

Playfair cipher is a special form of classical cipher, it deals with a square of matrix of 5X5 alphabetical letters organized in a proper method. We can choose a key and put it in the matrix. The waiting letters of English alphabet are then one by one located in the matrix of Playfair cipher, the plain text is cracked in to couples and if a couple has identical script then they are disjointed by presenting a putty letter such as „x“, in addition, if couples are dissimilar alphabetical letters and inhabit in the identical line of matrix at that time every letter is restored by the letter forward of it. If the couple of letters are in similar column of matrix then every letter is restored by the letter under it, while the couple of letters are not in similar column nor in similar row afterward, they substituted by the letter in their row that inhabits at the connection of combined letters. Inverse process is concerned to get the answer.

For example,

Plain text: enemyattackstonight (we use z to pad empty location). And consider the key:31452

Step 1: arrange the considered text column by column.

1	2	3	4	5
e	n	e	m	y
a	t	t	a	c
k	s	t	o	n
i	g	h	t	z

Step 2: Reschedule the columns

3	1	4	5	2
e	e	m	y	n
t	a	a	c	t
t	k	o	n	s
h	i	t	z	g

Step 3: Consider the matrix column by column, we get the Cipher text: ettheakimaotycnznstsg

The main downside of simple columnar transposition cipher is that to decipher it, the receptionist must consider the column segments by sharing the segment of cipher text by the key

segment. Then he can write the cipher text out in columns again and then re-order the columns by restructuring the key term to get the plain text.

1-3. Vigenere Cipher:

When we match this cipher beside Caesar provides particular rank of safety with the overview of a keyword; this keyword is recapped to covering the size of the plain text that is to be encrypted we will consider the example

KEY: f a u z a n f a u z a n

P.T: c r y p t o g r a p h y

Cipher: H R S O T B L R U O H L

In the example, “fauzan” is our keyword, “cryptography” is plaintext, and its encrypted form is “HRSOTBLRUOHL”. which is done by Vigenere table which includes characters in method of rows and columns left most column designates keywords and top most row designates plaintext and at the intersection of dual alphabetic letters resides our replacement and behind separately altering each letter we obtain an encrypted text message.

1-4. Proposed Modified Caesar algorithm

In this approximate, in place of instable the typescripts linearly, they are shifted arbitrarily by handling the replacement and combination box methods which are applied in recent encryption methods such as blowfish, DES, etc. Subsequently, replacement box is to be generated by applying the method of affine ciphers (i.e. Cipher text = (Plaintext * key1) + (Key2). The typescripts are then substituted by its corresponding rates connect to the replacement box. In Addition, challenge the cipher message to conceal the characteristics of the language by with combination methods (i.e. by chance altering the places of characters in the cipher text). Combination of cipher text is completed by consuming dual columnar substitution on the cipher text. The planned algorithm could encrypt the area of typescripts which the Caesar cipher could not encrypt, i.e. ASCII and Extended ASCII characters.

2. Discussion:

This part explains connected investigated work done to make effective Caesar cipher Encryption Algorithm.

1. Goyal has recommended an alteration to the classical Caesar cipher wherever he holds the key length stable as single. However, replacement he tests the index of character set, if the index is even then he improves the key rate by a single more, if the index is odd then he reduces the key rate by single unite

2. Singh et al. has projected a method to join Caesar cipher along with Rail fence substitution method to remove essential

weak points of Caesar cipher in addition to generate a cipher text message it is difficult to breakdown.

3. Omolara et al has propositioned an improved connection of Caesar cipher and Vigenere cipher to enhance the dissemination and destruction properties of cipher text by including methods as of up-to-date ciphers similar to xoring key to the initial letter of plain text, xoring initial letter of the plain text to next (second) letter and so on.

4. Disina has propositioned a technique of encryption that belong to the location of the bit in the text communication. The writer will transfer the bits in the communication by instable the typescripts in the odd place to the leftward and typescripts in the even place to the right-hand side.

5. Purnama has projected an improved Caesar cipher technique wherever she practices a technique of encryption that the cipher text created is readable therefore creating it fewer doubtful to the cryptanalyst that the text message has been encrypted.

3. Acknowledgment:

Safety is one of the significant standpoints in calculating. In information transmission, safety should be minded as one of the techniques applied to confirm safe information transmission. Information transmission is shifting data from a position to another position, or waitperson. To have a protected information transmission, this could be utilized, and one of them is encryption of information, formulate it to be shifted in encrypted manner and decrypted after the information need to be consumed.

As the significance and the importance of replaced information throughout the Internet or other channels are growing, the investigate for the greatest answer to approach the essential safety in opposition to the information burglars' strikes along with arranging these facilities below timely way is one of the best effective issues in the safety linked societies

4. CONCLUSION

In this manuscript we comprehend that each number theory instrument performance a significant function in cryptography to conceal text communication for the safety of information, the congruencies have played important task in Caesar ciphering key cryptography. We derive that the cipher manuscript generated by this technique can be sing correctly, this of definite factions wouldn't be doubtful of text communication which is encoded. Alongside the resultant cipher manuscript be able to state, this technique can

select the cipher text that can be state and basically as necessary, this technique had the key word that is on the script turnaround outcome (root) which be able to exert by the handler as necessary, since the outcomes of this reformation are a specific replacement, then the technique is similarly simply answered by cryptanalyst beside the cipher text solution not doubtful by cryptanalyst of convinced factions.

REFERENCES

- [1] Ramandeep Sharma, Richa Sharma and Harmanjit Singh “Classical Encryption Techniques” published in International Journal of Computers & Technology. Volume 3. No. 1, AUG, 2012.
- [2] O.P Verma, RituAg arwal, DhirajDafouti and ShobhaTyagi, “Peformance Analysis of Data Encryption Algorithms”, IEEE, Delhi Technological University India, 2011.
- [3] William Stallings, "Cryptography and Network Security", Fourth Edition, Prentice-Hall - pp.80-81.
- [4] Stallings, W. (2006), Cryptography and Network Security 4/E., Pearson Education India.
- [5] Atul Kahate (2009), Cryptography and Network Security, 2nd edition, McGraw-Hill
- [6] Behrouz A Fourouzan, Debdeep Mukhopadhyay (2010), Cryptography and Network, 2nd edition, McGraw-Hill.
- [7] Senthil, K., K. Prasanthi, and R. Rajaram. "A modern avatar of Julius Caesar and Vigenere cipher." Computational Intelligence and Computing Research (ICCIC), 2013 IEEE International Conference on. IEEE, 2013.
- [8] Gaurav Sharma, Ajay Kakkar, "Cryptography Algorithms and approaches used for data security", International Journal of Scientific & Engineering Research Vol. 3, Issue 6, 2012.
- [9] Hamdan.O.Alanazi, B.B.Zaidan and A.A.Zaidan, “New Comparative Study Between DES, 3DES and AES within Nine Factors”, JOURNAL OF COMPUTING. Vol.2, Issue 3. Pp.152-157, MARCH, 2010.
- [10] Jason Crampton, “Time-Storage Trade-Offs for Cryptographically-Enforced Access Control”, Lecture Notes in Computer Science, Springer, 2011, Vol. 6879/2011, pp. 245-261.
- [11] Jiannong Cao, Lin Liao, Guojun Wang, “Scalable key management for Secure Multicast Communication in the Mobile Environment” Pervasive and Mobile Computing Vol. 2, pp.187–203, 2006.
- [12] Stalling, William.”Cryptography and Network Security: Principles and Practice”. 5th ed, Prentice Hall, 2006.
- [13] “Classical-Encryption Techniques”, mrajacse.files.wordpress.com/chapter-2.
- [14] Sinkov A., “Elementary “Cryptanalysis-A mathematical Approach”, Mathematical Association of America, 1966.
- [15] Jason Crampton, “Time-Storage Trade-Offs for Cryptographically-Enforced Access Control”, Lecture Notes in Computer Science, Springer, 2011, Vol. 6879/2011, pp. 245-261.
- [16] Stalling, William.”Cryptography andNetwork Security: Principles andPractice”. 5th ed, Prentice Hall, 2006.



- [17] Gaurav Sharma, Ajay Kakkar, "Cryptography Algorithms and approaches used for data security", International Journal of Scientific & Engineering Research Vol. 3, Issue 6, 2012
- [18] Sinkov A., "Elementary "Cryptanalysis-A mathematical Approach", Mathematical Association of America, 1966.
- [19] Kraft, J. S., & Washington, L. C. (2018). An introduction to number theory with cryptography. CRC press.
- [20] Koblitz, N. (2000). A survey of number theory and cryptography. In Number Theory (pp. 217-239). Hindustan Book Agency, Gurgaon.



SUG'URTA SHARTNOMALARINI HISOBGA OLISH TIZIMLARI TAHLILI

Dilafro'z Qo'shnazarovna Hayitbayeva

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali stajyo'r o'qituvchisi
dilafrozhayitbayeva@gmail.com

Mavluda Ne'matjon qizi Adambayeva

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali talabasi
adomboyevamavludo@gmail.com

Soliyajon To'rabek qizi Qurbonboyeva

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali talabasi
soliyajon2808@gmail.com

ANNATATSIYA

Bugungi kunda axborotlarni almashishning eng asosiy usullaridan biri bu internetdir. Internet hozirda barcha sohalarni qamrab oldi va shu bilan birga ko'pchilik soha vakillarining ishini osonlashtiryapti. Bularni amalga oshirishda web saytlarning o'rni juda katta. Shu sababli, bu maqolada ko'plab sug'urta tizimlari va ularni yaratish texnologiyalari va vositalarini o'rganib chiqildi. Sug'urta tizimlari va sug'urta shartnomalarini xisobga olish tizimlarini tahlil qilindi. Tashkilotlarning sug'urta shartnomalarini hisobga olish tizimlarining yoritilganligi hamda taxlili loyihani yaratish mobaynida dastur tezligi hamda ishonchligini oshirish uchun foydalanilgan serverlarning so'ngi avlodlaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Sug'urta tizimlari, sug'urta shartnomalari, axborot tizimi, Web sayt, serverlar.

ABSTRACT

One of the most important ways of exchanging information today is the Internet. The Internet has now permeated all industries, and at the same time, it has made the work of many industry representatives easier. Websites play a very important role in this. Therefore, this article examines many insurance systems and technologies and tools for their creation. Insurance systems and accounting systems for insurance contracts were analyzed. The last generations of servers were used to increase the speed and reliability of the program during the creation of the project of coverage and analysis of accounting systems of insurance contracts of organizations.

Keywords: Insurance systems, insurance contracts, information system, Web site, servers.

KIRISH

Ko'plab rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlarda jismoniy yoki yuridik shaxslar qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar sug'urta tizimi bilan bog'liq tarzda faoliyat yuritishadi. Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng milliy iqtisodda tub o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan sug'urta tizimida ham iqtisodiy islohotlar natijasida sug'urta sohasida raqobat asosida faoliyat ko'rsatadigan turli mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlari vujudga keldi. Sug'urta bozorini barpo etish va uni barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va huquqiy asoslar yaratila boshladi.[1]. Sug'urta bozor va uning infratuzilmasi orqali Respublika iqtisodiyotini rivojlanishiga xizmat ko'rsatish. Moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan sug'urta milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Sug'urta shartnomalarini xisobga olish tizimlari taxlili" bo'yicha ma'lumot olish uchun, bir nechta adabiyotlar va metodologiyalar mavjud. Bu adabiyotlar va metodologiyalar sug'urta sohasidagi shartnomalarni tahlil qilish, shartnomalar tuzish va ulardan foydalanish usullarini o'rganishga yordam beradi. Quyida, siz uchun ba'zi mavjud adabiyotlarni va metodologiyalarni taqdim etaman:

"Insurance Principles and Practice" by M. N. Mishra - Ushbu adabiyot sug'urta asoslari, shartnomalar, sug'urta tuzish va sug'urta tizimlarini tahlil qiladi. Bu kitob sug'urta shartnomalarini xisobga oluvchi tizimlarni o'rganishga yordam beradi.

"Risk Management and Insurance" by Harrington, Niehaus, and Gerhard - Ushbu adabiyot sug'urta tizimlarini, sug'urta shartnomalarini tuzish va xisobga olishni o'rganishga bag'ishlangan. Bu kitobda sug'urta shartnomalarini xisobga oluvchi metodologiyalar haqida tafsilotlar mavjud.

Adabiyotlarda sug'urta shartnomalarini xisobga oluvchi tizimlarda matematik asoslarni o'rganishga yordam beradi. Sug'urta shartnomalarining xisoblanishi va sug'urta holatlarini qiymatlashish usullarini tahlil qiladi. Sug'urta analitikasi va xisoblash metodologiyalarini tahlil qiladi. Sug'urta ma'lumotlarini tahlil qilish, riskni boshqarish va sug'urta tizimlarini optimallashtirishning analitik usullarini o'rganishga yordam beradi.[2]

Bu metodologiyalar sug'urta risklarini va ularga bog'liq xavfli holatlarni baholashga yordam beradi. Ishonchli bozor qiymatlarini hisobga olish, statistik analizlar va model vaqtchiligi jihatidan yordam beradigan bir nechta metodologiyalar mavjud.

NATIJALAR

Bu loyihada asosan foydalanuvchilar yurtimizni hohlagan burchagidan turib hoh kompyuterda bo'lsin hoh telefonda bo'lsin hohlagan turdagi sug'urta shartnomalarini amalga oshirishi mumkin bo'ladi. Sug'urta shatnomasi esa foydalanuvchi elektron pochtaga jo'natiladi.

Loyihaning eng yuqori qismida sug'urta shartnomalarini xisobga olish avtomatlashtirilgan axborot tiziminining telefon raqami, elektron po'chta manzili hamda sayt bo'yicha qidiruv tizimi joylashgan:

☎ Telefon: +62 088 999 123 ✉ Email: info@insurance.uz



1-rasm

Loyihaning menular qismida 5ta menudan tashkil topgan: Bosh sahifa, Yangiliklar, Xizmatlar, Biz haqimizda, Bog'lanish.



2-rasm.

Bosh sahifa qismida foydalanuvchilar uchun xizmatlar haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan. Shu joyning o'zida to'g'ridan to'g'ri onlayn sug'urta xizmati tugmasini bosish orqali xizmatdan foydalanish mumkin.



3-rasm.



BOSH SAHIFA

YANGILIKLAR

XIZMATLAR ▾

BIZ HAQIMIZDA

BOG'LANISH



BAXTSIZ HODISADAN SUG'URTALASH

To'satdan uchraydigan baxtsiz hodisalar natijasida kutilmagan moliyaviy yo'qotishlardan Sizni va oilangizni himoya qilishda B«UzSu'gurta kompaniyasi» sug'urta polisi yordam beradi. Bu esa hayotimizda uchraydigan tasodifiy baxtsiz hodisalar, jumladan, jarohatlanish, kuchli zaharlanish, sog'liqning yo'qotilishi yuz bergan taqdirda ishonchli moliyaviy himoya olishning oddiy va qulay usulidir.

[Onlayn sug'urta xizmati](#)

4-rasm.



BOSH SAHIFA

YANGILIKLAR

XIZMATLAR ▾

BIZ HAQIMIZDA

BOG'LANISH



SOG'LIQ SUG'URTASI

Oilaviy tibbiy sug'urta polisi bo'yicha sug'urta muddati mobaynida o'tkir kasallanganda, jarohat olganda, muzlaganda, kuyganda hamda Siz yoki oila a'zolari boshqa kasallikka uchranganda tibbiy yordam olishingiz mumkin. Sizga va Sizning yaqinlaringizga ko'rsatilgan barcha xizmatlar uchun xarajatlarni biz to'lab beramiz.

[Onlayn sug'urta xizmati](#)

5-rasm

Bizning xizmatlar bo'limi online sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bo'limi qilingan bo'lib, bu bo'limda quyidagicha sug'urta xizmatlari mavjud : Avtomobil sug'urtasi, Mol-mulk sug'urtasi, Baxtsiz

hodisa sug'urtasi, Uy-joy sug'urtasi, Kredit sug'urtasi, Sog'lik sug'urtasi va boshqa xizmatlar.

Bizning xizmatlar



Avto

Avtomobil, Garov (avto)



Mol-mulk

Lizing, Garov, Mol-mulk



Baxtsiz hodisa

Bolalar, Sportchilar, O'quvchilar



Uy-joy

Xonadon, Turar joy



Kredit

Iste'mol krediti, Ipoteka



Sog'liq

Tibbiy sug'urta, Yuqumli kasalliklar

6-rasm

Tizimga kirganingizdan so'ng tanlangan online xizmat bo'yicha anketa to'ldirasiz. Anketaga aniq va to'liq ma'lumot kiritishingiz shart aks holda xizmat ko'rsatilmaydi. Anketa qismida sug'urtalovchining quyidagicha ma'lumotlari kiritiladi:

-Onlayn avtomobil sug'urtasi uchun:

F.I.SH.

Tug'ilgan sana.

Passport raqam.

Yashash manzili.

Telefon raqami.

E-mail.

Mashina markasi.

Mashina madeli.

Ishlab chiqarilgan sana.

Davlat raqami.

Dvigatel raqami.

Kuzov raqami.
Tex passport raqami.
Tex passport berilgan sana.
Avtomobil baxosi.
Sugʻurta baxosi.
Haydovchining ish staji.
Tamirlah turi.
Mashina hujjati nusxasi-fayl koʻrinishida.
Mashina surati-fayl koʻrinishida.
Tex passport nusxasi-fayl koʻrinishida.
-Mol-mulk sugʻurtasi uchun:
F.I.SH.
Tugʻilgan sana.
Passport raqam.
Yashash manzili.
Telefon raqami.
E-mail.
Mulk turi.
Mulk xaqida.
Mulk baxosi.
Sugʻurta baxosi.
Hujjatlar nusxasi-fayl koʻrinishida.
-Baxtsiz hodisa sugʻurtasi uchun:
F.I.SH.
Tugʻilgan sana.
Passport raqam.
Yashash manzili.
Telefon raqami.
E-mail.
Baxtsiz hodisa turi.
Sugʻurta baxosi.
-Uy-joy sugʻurtasi uchun:
F.I.SH.
Tugʻilgan sana.
Passport raqam.
Yashash manzili.
Telefon raqami.



E-mail.

Obyekt manzili.

Obyekt o'Ichami.

Obyekt baxosi.

Sug'urta baxosi.

Pasport nusxasi-fayl ko'rinishida.

Obyekt hujjatlari nusxasi-fayl ko'rinishida.

-Kredit sug'urtasi uchun:

F.I.SH.

Tug'ilgan sana.

Passport raqam.

Yashash manzili.

Telefon raqami.

E-mail.

Kredit baxosi.

Kredit muddati.

Kredit sug'urta xizmati turi.

Sug'urta baxosi.

Tegishli hujjatlar nusxasi.

-Sog'lik sug'urtasi uchun:

F.I.SH.

Tug'ilgan sana.

Passport raqam.

Yashash manzili.

Telefon raqami.

E-mail.

Sug'urtalanuvchi F.I.SH.

Sug'urtalanuvchi tug'ilgan sanasi.

Sug'urta nusxasi.

Hujjat nusxasi.

Xizmat xaqi click orqali ham to'lanadi. Barcha shartlar bajarilgandan so'ng sizning elektron pochtagizga sug'urta shartnomasi jo'natiladi.

Biz haqimizda bo'lmida esa Sug'urta shartnomalarini xisobga olish avtomatlashtirilgan axborot tizimi haqida kerakli to'liq ma'lumotlar kiritilgan.

Bizning hamkorlar bo'limida bu Sug'urta shartnomalarini xisobga olish avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlash



jarayonida pul o'tkazmalarida yetarlicha xizmat ko'rsatadigan hamkor tashkilotlar kiritilgan:

Bizning hamkorlar



7-rasm.

Bog'lanish bo'limida esa Sug'urta shartnomalarini xisobga olish avtomatlashtirilgan axborot tizimining bosh o'fis manzili, telefon raqami, faks raqami, ishonch telefoni, electron pochta manzili, elektron xaritada joylashgan o'ri hamda ish tartibi ham korsatib o'tilgan.[4]

MUHOKAMA

Bugungi kunda sug'urta munosabatlarini rivojlantirish asosida sug'urta bozorining ko'lamini kengaytirish, sug'urta tashkilotlarining uzoq qishloq joylarida o'z filial va bo'linmalarim ochish, sug'urta bozoriga yangi xizmatlar taklif etish, sug'urta xizmatlarini online tarzda amalga oshirishni tashkil etish, sug'urta qonunchiligini takomillashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda.[5]. Sug'urta tizimini rivojlantirish uchun sug'urta sohasini yaxshi biluvchi malakali kadrlar tayyorlash ham hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.[6]. Bizning xizmatlar bo'limi online sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bo'limi qilingan bo'lib, bu bo'limda quyidagicha sug'urta xizmatlari mavjud : Avtomobil sug'urtasi, Mol-mulk sug'urtasi, Baxtsiz hodisa sug'urtasi, Uy-joy sug'urtasi, Kredit sug'urtasi, Sog'lik sug'urtasi va boshqa xizmatlar.

XULOSA

Ushbu maqolada sug'urta shartnomalarini xisobga olish tizimlari o'rganiladi taxlili qilinadi. Sug'urta tizimlari haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lindi. Sug'urta shartnomalarini xisobga olish tizimlarini taxlili va sug'urta shartnomalarini xisobga olish avtomatlashtirilgan axborot tizimini loyihalandi. Tashkilotlarning sug'urta shartnomalarini xisobga olish avtomatlashtirilgan axborot tizimini Veb texnologiyalar asosida yaratilgan. Bu albatta aniqroq va samarali ishlab chiqishda yordam berishi mumkin.



REFERENCES

1. M. N. Mishra S. Chand. Insurance Principles and Practice: (for Graduation and Professional Courses), 2009
2. Harrington, Niehaus, and Gerhard "Risk Management and Insurance" . c 2004.
3. David C.M. Dickson. Actuarial Mathematics for Life Contingent Risks" c.1999.
4. Rasulov M «Bozor iktisodiyoti asoslari»,T,Uzbekiston, 1999
5. Remote Desktop Protocol: Basic Connectivity and Graphics Remoting Specification [Electronic resource]: MSDN. - Electronic Data. - [S.L.],
6. John Boxal, Arduino Workshop: A Hands-On Introduction with 65 Projects 1st Edition, No Starch press Inc. 2012, USA



GAZ BALLONDA HARAKATLANAYOTGAN AVTOMOBILLARNING XAFSIZLIGINI TA'MINLASH ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ilhom Iskandar o'g'li Umirov

JizPI, assistent

Sarvar Qahramon o'g'li O'taganov

JizPI, magistrant

ANNOTATSIYA

Maqolada gaz ballonli avtomobillarning gaz uskunalariga moslanganligini baholash, ekspluatatsiyadagi siqilgan va suyultirilgan gaz ballonlaridan foydalanish jarayonida uning inson hayotiga zarar yetkazuvchi jiddiy oqibatlarini oldini olish va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Avtomobil, dvigatel, gaz ballon, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz, xafvsizlik.

KIRISH

Mashinasozlik va avtomobilsozlikda avtomobillar xafvsizligi va mudhish hodisalar bo'yicha Siqilgan va suyultirilgan gazda ishlaydigan avtomobillarning gaz uskunalari muammoli vaziyatlarni hal qilish, kamchiliklarni bartaraf etish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarning sifatini zamon talabiga javob beradigan darajada jaxon standartlariga mos ravishda, yuqori ekspluatatsiya sharoitida ham xafvsizlik darajasi mukammal bo'lishi va zararli oqibatlari bo'lmasligini taminlashimiz zarur. Gazballonli avtomobillarning gaz uskunalariga moslanganligini baholash, ekspluatatsiyadagi siqilgan va suyultirilgan gaz ballonlaridan foydalanish jarayonida uning inson hayotiga zarar yetkazuvchi jiddiy oqibatlarini oldini olish va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Respublikamiz mustaqilligidan so'ng mamlakatimizda avtomobil sanoati shiddat bilan rivojlandi. Avtomobillar soni keskin darajada oshdi va hozir ham oshib bormoqda. Avtomobil yonilg'isi sifatida qo'llaniladigan benzin va dizel yonilg'ilariga bo'lgan talabning o'sishi ularga muqobil yonilg'ilardan foydalanishni taqazo etmoqda. Hozirgi kunda tannarxi jihatidan arzon bo'lgan tabiiy gazlardan avtomobillarning



yonilg'isi sifatida foydalanish keng yo'lga qo'yildi. Shuni ta'kidlashimiz kerakki Respublikamizda tabiiy gazning ko'plab zaxiralari bor va bu zahiralarda yuqori sifatli tabiiy gazlar bo'lib ulardan avtomobil dvigatellari uchun yonilg'i sifatida foydalanishda ortiqcha gazni qayta ishlash yoki kimyoviy usullarda ishlov berish texnologiyalari qo'llanilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri yonilg'i sifatida foydalanish mumkin. Bundan tashqari motor yonilg'isi sifatida qo'llaniladigan tabiiy gaz boshqa yonilg'i turlaridan ancha arzon turadi. Shu sababli hozirda Respublikamizda avtomobillarning taxminan 70-80 % qismi tabiiy gaz yonilg'isida harakatlanmoqda [2].

Bunday gazlarning asosiy komponentlari - etan, propan, butan va ularga juda yaqin to'yinmagan uglevodorodlar - etilen, propilen, butilen va ularning izomerlari kiradi. MDH davlatlarida ishlab chiqarilayotgan gaz uskunalari jamlamasi umumiy og'irligi 40-60 kilogramni tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida gaz ballonlarni engil avtomobillarda o'rnatish imkoniyatini beradi. Gaz ballon o'rnatilgan avtomobillarda uning hajmiga ko'ra bosib o'tgan masofasi 1-jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval

Avtomobillar turi	Gaz uskunalarning hajmi (m ³)					
	60 m ³	65 m ³	70 m ³	80 m ³	90 m ³	100 m ³
Lacetti	-	-	-	-	250 km	280 km
Cobalt	-	-	-	-	250 km	280 km
Nexia	-	-	-	200 km	250 km	300 km
Spark	200 km	220 km	250 km	-	-	-
Matiz	220 km	250 km	280 km	-	-	-

Bu ko'rsatgichlar 20 MPa bosimda gaz yonilg'isi zaxiralanganda real ekspluatatsiya sharoitida haydovchilar tomonidan aniqlagan.

Siqilgan tabiiy gaz normal sharoitlarda istalgan bosimda gazsimon holatda bo'lib, ularga asosan metan va vodorod kiradi. Vodorod gazi bilan harakatlanadigan avtomobillar ijobiy samara bermagan. Uning sababi ushbu gaz zaxiralanganda gaz ballonning hajmi judayam katta bo'lishidir. Metan 20 MPa bosimgacha siqiladi va qalin devorli hajmi kichik va qulay ballonlarda saqlanadi. Qazib olinayotgan tabiiy gazning asosiy qismini (92-99%) metan tashkil etadi. Etan, propan va butan 1,6 MPa bosimda suyuq holatga o'tadi va ular ham shu bosim ostida ballonlarda saqlanadi. Biroq, gaz ballonli avtomobillarda ta'minlash tizimi murakkab, yong'in va portlash xavfsizligiga qo'yiladigan talablar esa yuqori bo'ladi. Gazdan transport vositalarida motor yonilg'isi sifatida

foydalanish uchun gazni dastlab yuqori bosim 20-22 MPa ga siqish kerak, buning uchun esa uni saqlashda maxsus ballonlardan foydalanishni taqazo qiladi. Gazni bosim ostida saqlash uchun uglerodli va legirlangan po'latlardan tayyorlangan va 15-22 MPa bosimga mo'ljallangan gaz ballonlari ishlab chiqariladi. Har bir ballon gaz bilan to'ldirilmagan holatda massasi 100 kg dan og'ir. Shuning uchun bunday ballonlar asosan yuk avtomobillarida va avtobuslarda qo'llaniladi. Ishlatilgan gaz tarkibida qo'rg'oshin umuman bo'lmaydi.

Suyultirilgan neft gazida ishlovchi gazballonli yengil avtomobilni xaydash, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun shunga muvofiq maxsus tayyorgarlikdan o'tgan kishilar, ya'ni gaz apparaturalari qurilmasi, texnika xavfsizligi buyicha imtixonidan o'tib, maxsus guvoxnoma olgan shaxslar qo'yiladi. Gaz ballonidan yoki gaz apparaturasidan gaz chiqishi ro'y berganida havoda bug'lanib tarqaladigan neft gazi (propan-butan) xavoga nisbatan zichligi 1,5 baravar ortiq bo'lgani uchun gaz-havo tarkibi portlash holatini yuzaga keltirishi mumkin. Yopiq binolarda, orasi bo'lgan binolarda, yerto'lalarda bu ayniqsa, katta xavfni tug'diradi. Gaz chiqishi kuzatilganida uni darhol bartaraf qilishning choralarini ko'rish lozim. Gaz apparaturasining germetikligini tekshirish ko'pik hosil qiluvchi yonib ketmaydigan maxsus aralashma bilan amalga oshiriladi. Masalan, sovun ko'pigi va boshqalar. Gaz chiqishini bartaraf qilish ballonda gaz mavjud bo'lmagan paytda amalga oshiriladi. Shuningdek, mazkur ishlarni bajarganda olov chiqib ketmaydigan asboblarda bajarish lozim bo'ladi. Ballonlarni gaz bilan to'ldirish faqat avtomobil gaz bilan to'ldirish stansiyalarida (AGTKSH) amalga oshirish lozim. Doimiy tarzda rezinali tiqini mavjudligi va sozligini nazorat qilib turish lozim bo'ladi. Ular avtomobilning gaz zaxira qilish razyomining AGTKSH kalonka bloki bilan birgalikdagi germetikligini ta'minlaydi. Avtomobil salonida chekish va ochiq xoldagi olovdan foydalanish portlash xavfini yuzaga keltiradi. Avtomobil doimiy tarzda kukunli yoki uglekislotali o't o'chirish moslamasi bilan butlangan bo'lishini nazorat qilib turish lozim. Avtomobilda odorant (xid tarqatuvchi) xidi bo'lgan maxsus kiyimlar va artishda qo'llaniladigan materiallarni saqlamang. Avtomobilni garajda saqlash tizimdan barcha gazlarni ishlab bo'lganidan keyin multitiqin jumraklarini berktgandan keyin ruxsat etiladi. Poliamid zichlagichlarning lat yeyishining oldini olish uchun multitikinning to'ldirish va sarflash jumraklarini, boshqa asboblardan foydalanmagan xolda qo'l kuchi bilan avariya tiqinini berkitiladi. Avtomobilni uzoq muddatga saqlash tug'ri kelganida ballondagi gaz miqdorini to'liq ishlatish lozim buladi. Suyultirilgan neft gazi xavoga suyuqlik xolida chiqadi, atrof-muxitdagi issiqlikni o'ziga tortgan xolda tezda bug'lanadi.

Shuning uchun xam suyuq gazning odam tanasiga tushib qolishi yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin [1].

Avtomobillarda gaz ballon uskunalaridan foydalanishda uning inson hayotiga xavf xatar tug'dirish ehtimoli judayam yuqori hisoblanadi. Gaz ballon uskunasi avtomobil turiga qarab salon tashqarisida, yuk xona qismi ichida, salon ichki qismida yoki salonning tom qismida joylashgan bo'lishi mumkin. Ushbu gaz uskunasi har doimo portlash ehtimoli mavjud bo'ladi. Gaz uskunasi portlaganda avtomobil saloni ichidagi insonlar hayotiga zarar yetkazibgina qolmay, ma'lum bir radiusda yo'nalishsiz kuchli zarb bilan sochilgan temir qoldiqlari atrofdagi insonlar hayotiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu oqibatlarida so'ngi yillar davomida ko'plab insonlar hayotiga zomin bo'lmoda. Mamlakatimizda ushbu oqibatlarni oldini olish hamda portlash hodisasi sodir bo'lishning ehtimolini keskin kamaytirishga bo'lgan say harakatlar olib borilmoqda va har xil turdagi tajriba va sinovlar o'tkazib kelinmoqda. Ushbu tajriba va sinovlardan foydali natijalar olinmoqda. Ushbu natijalardan biri so'ngi yillarda avtomobillarda kampozit qoplamali (kopron) gaz ballon uskunalarini temir qoplamali gaz balon uskunalariga majburiy o'tkazish tartibini qo'llanishidir.


Bunday gaz ballonlardan foydalanishda noxush hodisalar ro'y bera boshladi. Ma'lumotlarga qaraganda, o'tgan vaqt davomida 55 kompozit qoplamali gaz ballonining portlashi natijasida 23 nafar fuqaro tan jarohati olgan, 41 nafar shaxs halok bo'lgan.



1-rasm. Kompozit qoplamali gaz ballon uskunasi.

Ushbu xavsizlik chora tadbirlariga biz ham munosib tarzida o'z fikr va mulohaza, taklif va loyihalarimizni kiritmoqchimiz. Bilamizki kuzov turi sedan (GENTRA, COBALT, NEXIA), hetchbek (MATIZ, SPARK), jip (CAPTIVA) bo'lgan avtomobillarimizda gaz uskunalari qo'llanilishida mavjud kamchiliklar bor. Bunda gaz uskunasi chiqqan gaz hidi to'g'ridan-to'g'ri salon ichida o'tirgan insonlarga zarar yetkazadi. Bunga sabab avtomobil yukxonasining salon ichidan mustahkam tarzda va germetik himoya qatlamining mavjud emasligi. Salonning yukxona qismidan mustaxkam


ajratilmaganligi hisoblanadi. Shu sababli gaz uskunasi portlagan taqdirda salon ichidagi insonlar tanasiga gaz ballondan ajralib chiqqan yoʻnalishsiz sachragan temir qoldiq (осколка)lari hech qanday qarshiliklarga uchramasdan kuchli zarba bilan insonlarga tegadi. Bu esa insonlar hayotiga eng yuqori darajadagi xavfni yuzaga keltiradi. Biz ushbu oqibatlarni kamaytirish uchun gaz ballon va salon oraligʻida mustaxkam temirdan tayyorlangan, qalinligi 9.5 mm dan 10 mm gacha boʻlgan temir qoplamaning gaz ballon va salon oraligʻida, tik xolatda, qattiq qotirilgan darajada joylashtirishni aytib oʻtmoqchimiz. Gaz balon orqa tomoni ochiq qolishining sababi, portlash natijasida yuzaga kelgan zarba kuchi avtomobilning salon qismga emas aksincha orqa tomoniga yoʻnaltiriladi. Kuzov turi hetchbek va jip boʻlgan avtomobillarga qalinligi 9.5 mm dan 10 mm gacha boʻlgan temir qoplamaning yoysimon orqa tomonini ochiq saqlagan xolda mustaxkamlik darajasi yuqori darajada qoʻyish maqsadga muvofiq boʻladi. Ushbu temir qoplamaning yoysimon qoʻyishimizning maqsadi, gaz balon ichidagi yuqori bosimli gazning qamalib qolmasligini taminlash va zarbaning kuchini aynan orqa tarafga yoʻnaltirishdan iborat hisoblanadi.



2-rasm. Tavsiya qilinadigan gaz ballon uskunasi himoya qobigʻi sxemasi.

Ushbu konstruksiyadan foydalanishimizda uning zararli tomonini ham aytib oʻtishimiz lozim. Ushbu qoplama avtomobil osmalariga tushadigan ogʻirlik miqdorini oshishiga sabab boʻladi. Bunda ogʻirlik quyidagicha boʻlishi mumkin.

Bunda: Temirning zichligi 7800 kg/m^3 , qoplamaning uzunligi 105 sm, qalinligi 0,9 sm, yoy uzunligi 67,5 sm boʻlsa qoplamaning umumiy ogʻirligi 49,7 kg ni tashkil etadi. Ishlab chiqarilayotgan avtomobil va avtotransport vositalarida rejalashtirilayotgan himoya vositasi qoʻllanishi uchun ayrim maxsus qoʻshimcha amallar bajarilishni talab qiladi.



3-rasm. Tavsiya qilinadigan gaz ballon uskunasi himoya qobig‘i sxemasining 3D ko‘rinishi.

Gaz ballon va salon o‘rtasida himoya vositasi sig‘adigan kenglikda joy ochiladi. Bu ma’lum darajada konstruksion o‘zgarish talab qiladi. Avtomobilga himoya vositalari o‘rnatilish oqibatida mavjud ortiqcha yuk ortilgani sababli unga ketuvchi yuk xajmi kamayadi. Avtomobilga ortiqcha yuklanganlik vujudga kelishi tufayli shinalarining yedirilish darajasi minimal darajada oshishi kuzatiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki ushbu himoya vositasidan foydalanganda ma’lum darajada yuzaga keladigan zararlarni kamaytirish va ekspluatatsiya jarayonida gaz ballon va yo‘lovchilarning xavfsizligini kamaytirishni yanada oshirish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Ахметов Л.А., Иванов В.И., Ерохов В.И. «Экономическая эффективность и эксплуатационные качества газобаллонных автомобилей». –Т.: Узбекистан, 1984. 198 бет.
2. Умиров И., Нуруллаев У, «К вопросу эксплуатируемых газобаллонных автомобилей», «Меъморчилик ва қурилиш муаммолари» Илмий-техник журнал. Самарқанд: 2018 йил, №3-сон.

KICHIK YOSHDAGIBOLALAR UCHUN O'ZBEK TILIDA DASTURLASH AMALLARINI O'RGATUVCHI VEB-ILOVA YARATISH

Rustambek Shuhrat o'g'li Baltayev

TATU Urganch filiali, "Axborot texnologiyalari" kafedrası assistenti

r.baltayev9997@gmail.com

Dilnoza Atabekovna Yaxshimuratova

TATU Urganch filiali, 961-18 guruh talabasi

dilnoza2409@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolaning maqsadi bolalarga dasturlashni o'rgatish uchun veb-ilovani ishlab chiqishni o'rganish. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan texnologik muhitda dasturlashni yoshlikdan o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dasturlash bolalarga muammolarni hal qilish, loyihalar yaratish, g'oyalarni amalga oshirish va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada o'yinlar, vizual tasvirlar va qiziqarli elementlar bilan jihozlangan interaktiv veb-illovalar orqali bolalarni dasturlashga jalb qilishning ahamiyatini muhokama qiladi. Veb-ilova o'z-o'zini baholash va mustaqil o'rganishni osonlashtiradi, bu bolalarga o'z loyihalarini optimallashtirish va mustaqil ravishda yechim topish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Scratch, animatsiya, interaktiv o'yinlar, viziual grafika, veb dizayn.

ABSTRACT

The purpose of this article is to learn how to develop a web application to teach children programming. In today's booming technological environment, learning programming from a young age is becoming increasingly important. Programming helps children solve problems, create projects, implement ideas, and develop creativity. The article discusses the importance of engaging children in programming through interactive web applications equipped with games, visuals and interesting elements. The web application facilitates self-assessment and independent learning, allowing children to optimize their projects and independently find solutions.

Keywords: Scratch, animation, interactive games, visual graphics, web design.

KIRISH

Bugungi texnologiyaga asoslangan dunyoda dasturlash ko'nikmalarini o'rganish bolalar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. So'nggi yillarda dasturlash ko'nikmalarining



ahamiyati sezilarli darajada oshdi va bizning tez rivojlanayotgan raqamli jamiyatimizning muhim jihatiga aylandi. Dasturlash nafaqat muammolarni hal qila olish uchun yechimlar topish qobiliyatini oshiradi, balki ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Dasturlashni kichik yoshdagi bolalar uchun yanada qulayroq va qiziqarli qilish uchun ularga dasturlash tushunchalarini o'rgatish uchun maxsus mo'ljallangan veb-illovani ishlab chiqish yanada samarali hisoblanadi. Ushbu maqolada biz bolalarga dasturlashni o'rgatish uchun veb-illovani ishlab chiqish jarayoni va afzalliklarini ko'rib chiqamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bolalar uchun dasturlash amallarini bajaruvchi veb ilovalar yaratishda asosiy maqsad, o'zbek tilida dasturlashni o'rganish uchun oson va samarali vositalarni taqdim etishdir. Shuning uchun, quyidagi adabiyotlar tahlil qilinishi o'rinli bo'ladi:

Bolalar uchun dasturlash kitoblari: Bolalar uchun dasturlash amallarini bajaruvchi ilovalar yaratishda, o'zbek tilida dasturlashni o'rgatuvchi asosiy kitoblar va darsliklarni tahlil qilish zarur. Bu kitoblar orqali dasturlashning asosiy tushunchalari, algoritmlari, va amaliyotlari o'rganiladi.

Bolalar uchun dasturlash ilovalari: Kichik yoshdagi bolalar uchun dasturlashni o'rganishda foydalaniladigan veb ilovalar va dasturlar haqida ma'lumot olish zarur. Bu ilovalar o'zbek tilida yoki boshqa tillarda bo'lgan ilovalar bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida dasturlash kurslari: O'zbek tilida dasturlashni o'rgatuvchi kurslar va darsliklarni tahlil qilish zarur. Bu orqali, o'zbek tilida dasturlashni o'rganish uchun eng yaxshi uslublar, metodlar va resurslar topiladi.

Bolalar uchun o'zbek tilida dasturlash amallarini bajaruvchi veb ilova yaratishda quyidagi metodologiyalardan foydalanish mumkin:

O'quv rejasi yaratish: Bolalar uchun dasturlashni o'rganish uchun o'quv rejasi yaratish zarur. Bu rejada dasturlashning asosiy tushunchalari, algoritmlari va amaliyotlari o'rganilishi lozim.

O'quv materiallarini tanlash: O'zbek tilida dasturlashni o'rganish uchun kerak bo'lgan o'quv materiallarini tanlash kerak. Bu materiallar darsliklar, interaktiv o'quv uslublar, video darslar va boshqa resurslardan iborat bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni baholash: O'quvchilar o'rganish jarayonida qanday muddatda dasturlash amallarini bajarishni o'rganishini baholash uchun testlar va vazifalar tuzish zarur.

Dasturlash amallarini bajaruvchi veb ilova yaratish: O'zbek tilida dasturlash amallarini bajaruvchi veb ilova yaratish uchun HTML, CSS, JavaScript kabi veb dasturlash tillaridan foydalanish kerak. Bu ilova,

o'quvchilar uchun dasturlash amallarini bajarish imkoniyatini beruvchi oson va samarali vosita bo'lishi kerak.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Texnologiyaning jadal rivojlanishi insonlarning axborot bilan o'zaro munosabatda bo'lishiga imkon yaratdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdan boshlab sifatli va intensiv ta'lim olish bolalarning keyinchalik hayotda o'rganishlari uchun ijobiy ta'sir qiladi. Veb-illovalar interaktiv va foydalanuvchilarga qulay ekanligi bilan bolalarni dasturlashni o'rganish jarayoniga jalb qilish uchun noyob platformani taklif etadi.

Bolalarga dasturlashni o'rgatish uchun veb-ilovaning asosiy afzalliklaridan biri bu interktiv ta'lim tajribasini yaratish qobiliyatidir. Vizual grafikalar, o'yin elementlari va interaktiv o'yinlarni o'z ichiga olgan holda, bolalar material bilan faol shug'ullanishlari mumkin. Ushbu amaliy yondashuv o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi va bolalarni dasturlash tushunchalarini ishtiyoq bilan o'rganishga undaydi. Yaxshi ishlab chiqilgan veb-ilova bolalarning ta'lim olishlariga moslashtirilgan o'quv dasturini taqdim etishi mumkin. O'quv rejasini mantiqiy ketma-ketlikda dasturlash tushunchalarini bosqichma-bosqich kiritib, modullar yoki darslarga bo'lish mumkin. Bundan tashqari, ilova bolalarga muvaffaqiyatlarini kuzatish va yutuqlarini nishonlash imkonini berish xususiyatlarini o'z ichiga olishi mumkin. Aniq maqsadlar va bosqichlar yaxshi o'zlashtirishlarini ta'minlaydi va bolalarni dasturlashni davom ettirishga undaydi.

Veb-illovalar bolalar dasturlash bilan shug'ullanayotganda darhol ularga to'g'ri yoki noto'g'ri bajarayotganliklari to'g'risida ogohlantirib turishi mumkin. Bolalar kod yozganda dastur real vaqt rejimida ularning ishini tahlil qilishi va to'g'riligi va samaradorligi haqida fikr bildirishi mumkin. Bundan tashqari, dastur xatolarni ko'rsatish, yaxshilanishlarni taklif qilish va bolalarni to'g'ri echimga yo'naltirish orqali xatolarni tahlil qilishda yordam berishi mumkin. Ushbu takroriy fikr-mulohaza zanjiri xatolardan saboq olishga yordam beradi va bolalarni dasturlash qobiliyatlarini yaxshilashga undaydi. Veb-ilova bolalar uchun dasturlashda o'xshash qiziqishlarga ega bo'lgan tengdoshlari bilan bog'lanish va hamkorlik qilish uchun platforma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Munozara forumlari, kod almashish va guruh loyihalari kabi xususiyatlar bolalar bir-biridan o'rganishlari, fikr almashishlari va dasturlash ishlari ustida birgalikda ishlashlari mumkin bo'lgan onlayn hamkorlikni osonlashtirishi mumkin. Hamkorlik nafaqat ularning dasturlash ko'nikmalarini oshiradi, balki jamoaviy ish va muloqotni rivojlantiradi. Scratch, osmo, lightbot kabilarni bunga misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ta'lim tajribasini yanada amaliy va dolzarb qilish uchun veb-ilova real loyihalar va muammolarni o'z ichiga olishi mumkin. Muayyan qiziqishlarga (masalan, o'yinni ishlab chiqish yoki veb-dizayn kabi) javob beradigan kodlash loyihalarini joriy qilish orqali bolalar dasturlash

bo'yicha bilimlarini mazmunli tarzda qo'llashlari mumkin. Ushbu loyihalar maqsad tuyg'usini ta'minlaydi va dasturlash ko'nikmalarini amaliy qo'llashni namoyish etadi, bolalarni yanada izlanishga undaydi. Turli xil dasturlash darslari, boshqotirmalar asosida bolalarga dasturlash darslarini o'rgatuvchi ilovalar soni oshib bormoqda.

Bolalarga dasturlashni o'rgatish uchun mo'ljallangan veb-ilovaning ishlab chiqilishi yosh avlodni raqamli asr uchun muhim ko'nikmalar bilan jihozlash yo'lidagi muhim qadamdir. Ushbu maqola davomida biz bunday ilovalarning bolalarda dasturlashga bo'lgan qiziqishini oshirish va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni, afzalliklari va ta'sirini o'rganib chiqdik.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarni dasturlashni o'rgatish uchun mo'ljallangan veb-ilovalarni ishlab chiqish interaktiv va samarali o'rganish tajribasi uchun yangi yo'llarni ochadi. Bolalarni yoshligidan dasturlashga jalb qilish orqali ushbu ilovalar ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, malakali dasturchilarning keyingi avlodini tarbiyalash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yaxshi ishlab chiqilgan va puxta o'ylangan veb-ilovalar orqali biz bolalarga ertangi kunning raqamli dunyosiga ishonchli, innovatsion va moslashuvchan hissa qo'shuvchilar bo'lish imkoniyatini berishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Thomé, A. M. T., Scavarda, L. F., and Scavarda, A. J. (2016). Conducting Systematic Literature Review in Operations Management. *Prod. Plann. and Control.* 27 (5), 408–420. doi:10.1080/09537287.2015.1129464.
2. Resnick, M., Maloney, J., Monroy-Hernández, A., Rusk, N., Eastmond, E., Brennan, K., et al. (2009). Scratch. *Commun. ACM* 52 (11), 60–67. doi:10.145/1592761.1592779
3. Resnick, M., and Siegel, D. (2015). A Different Approach to Coding. *Int. J. People-Oriented Programming* 4 (1), 1–4. doi:10.4018/IJPOP.2015010101
4. Rose, S. (2016). “Bricolage Programming and Problem Solving Ability in Young Children: An Exploratory Study,” in *Proceedings of 10th European Conference for Game Based Learning (United Kingdom: Paisley)*, 914–921. Rose, S. (2019).
5. Strawhacker, A., Lee, M., and Bers, M. U. (2018). Teaching Tools, Teachers' Rules: Exploring the Impact of Teaching Styles on Young Children's Programming Knowledge in ScratchJr. *Int. J. Technol. Des. Educ.* 28 (2), 347–376. doi:10.1007/s10798-017-9400-9.

ZARDUSHTIYLIK DINING VUJUDGA KELISH SABABLARI VA UNING O'RTA OSIYO KISHILIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Odilbek Sherali o'g'li Nurmamatov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

odilbekn08@gmail.com

Mahfuza Husenovna Sa'dullayeva

Ilmiy rahbar, "O'zbekiston tarixi" kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola insoniyat sivilizatsiyasidagi ilk diniy e'tiqodlardan biri bo'lmish zardushtiylik dinining paydo bo'lish sabablari, ushbu din paydo bo'lishi arafasida mintaqadagi mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat va mazkur dinning tarqalishi haqida ham atroflicha so'z yuritiladi. Qolaversa, zardushtiylik dinning O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayotiga qo'shgan hissasi va ushbu dinning muqaddas kitobi "Avesto" haqida ham so'z boradi

Kalit so'zlar: Zaratushtra, ko'pxudolik dinlari, "Mazdayasna", "Behdin", Axura-Mazda, "sariq tuya sohibi", "Goxlari", "Yasht", Bratarvaxsh, Kavi Vishtaspa, so'g'diylar.

АННОТАЦИЯ

В этой статье подробно рассказывается о причинах возникновения Зороастризма, одной из первых религиозных верований в человеческой цивилизации, текущей социально-политической ситуации в регионе накануне появления этой религии и распространении этой религии. Кроме того, упоминается вклад зороастрийской религии в общественную жизнь народов Средней Азии, а также священная книга этой религии "Авеста"

Ключевые слова: зороастризм, полигамные религии, "маздаясна", "бехдин", Ахура-Мазда, "владелец желтого верблюда", "Гохлари", "Яшт", Братарвахш, Кави Виштаспа, согдийцы.

ABSTRACT

This article describes in detail the causes of the emergence of Zoroastrianism, one of the first religious beliefs in human civilization, the current socio-political situation in the region on the eve of the emergence of this religion and the spread of this religion. In addition, the



contribution of the Zoroastrian religion to the social life of the peoples of Central Asia is mentioned, as well as the holy book of this religion "Avesta"

Keywords: Zoroastrianism, polygamous religions, "mazdayasna", "behdin", Ahura Mazda, "owner of the yellow camel", "Gokhlari", "Yasht", Bratarvakhsh, Kavi Vishtaspa, Sogdians.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki dunyoda juda ko'plab dinlar mavjud bo'lgan. Ularning ba'zilari esa hozirga qadar saqlanib qolgan. Bu mavzuda gap boshlar ekanmiz avvalo "Din bizga nimaga kerak?"- degan savol paydo bo'ladi. Gap shundaki nafaqat tarixda, balki bugungi kunda ham ijtimoiy hayotni diniy e'tiqodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Negaki din bo'lmasa insoniyat ham bo'lmaydi. Din bu jamiyatni bir maromda ushlab turuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki din bo'lmasa jamiyatda har xil buzg'unchilik, talonchilik, jinoyat, faqat bugungi kun bilan yashash kabi bir qancha salbiy g'oyalar jamiyatning har bir jabhasiga o'zining ulkan ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Ayni paytda din tarixning har bir bosqichida xalqlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojiga ulkan hissa qo'shib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mil.avv.VII-VI asrlarda Osiyoning markaziy qismida shunday bir yorug'lik paydo bo'ldi-ki bu narsa o'sha davr insoniyat taraqqiyotiga ta'sir o'tkazmay qolmadi. Sharqiy Eron va Markaziy Osiyo qabilalarinig ijtimoiy tuzumi o'zgarayotgan va diniy qarashlari hamda jamiyatga ro'y berayotgan tabaqalanish davom etayotgan bir paytda Turon pasttekisligida, aniqrog'i Amudaryo bo'ylarida yangi ta'limot vujudga keldi. Bu ta'limot o'lkada shakllangan ko'pxudolik va oshiqcha sarf harajatlarga, atrof muhitni ifloslanishiga hamda insonlar hayotida muhim o'rin tutgan jonli hayvonlarni qirib, ko'p qurbonliklar qilinishiga qarshi turoladigan ta'limot edi. Bu ta'limotga amal qilgan inson butun umri davomida ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal kabi g'oyalarni qalbiga joylashi kerak edi. Bu din zardushtiylik dini edi. Ushbu din dualizmga asoslangan, ya'ni olam ikki ibtido; yorug'lik va qorong'ulik, yaxshilik va yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat deb uqtiradi Zardushtiylik dini eng qadimgi dinlardan biri hisoblanib, bu din miloddan avvalgi VII-VI asrlarda vujudga kelgan. Bu dinning paydo bo'lishiga oid turli xil qarashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar zardushtiylik dinining asoschisi Zardusht asli Midiyalik (hozirgi Eron hududida faoliyat yuritgan) bo'lgan deb hisoblashadi. Ularning fikricha ushbu din hozirgi Eron hududida paydo bo'lgan. Tadqiqotchi M.Toysning fikricha Zardusht mil. avv. 1500-1200-

yillar oralig'ida yashab o'tgan va Markaziy Osiyoda [1](ya'ni Xorazm hududida) mavjud bo'lgan diniy e'tiqodlarni isloh qilib yangi bir din bo'lmish zardushtiylik diniga asos soldi. Mil. avv. VII-VI asrlarda Markaziy Osiyoda qabilaviy ittifoqlar va urug'-aymoqchilik munosabatlariga asoslangan Xorazm va Baqtriya qadimgi davlat birlashmalari vujudga kelgan. Bu mamlakatlar mintaqada uzoq vaqt davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy madaniy jarayonlarning hosilasi bo'lgan. Ular ta'sirida jamiyatda tutgan o'rni, imkoniyatlari va ahamiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan guruhlar, tabaqalar va sinflar yuzaga kelgan. Davlat esa mavjud ijtimoiy munosabatlarni himoya qiluvchi siyosiy tashkilot hisoblangan. Ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan o'zgarishlar talablariga ibtidoiy madaniyat va ibtidoiy e'tiqod mos kelmagan. Shu bois diniy e'tiqodni ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlarga muvofiqlashtirish zarur edi. Zardushtiylik dini esa mazkur talablarga mos diniy ta'limot va o'ziga xos dunyoqarash sifatida yuzaga kelgan.

Zardushtiylik dinining vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat

- tabiat kuchlari, mavjudotlar va ruhlarni muqaddaslashtiruvchi, o'z qiyofasiga ega, ishlab chiqarish sohalariga homiylik qiladigan, kuch va imkoniyatlariga ko'ra guruhlashtirilgan qudratli xudolar bilan almshtirish zarur edi;
- jamiyat ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, sinflar va davlatning yuzaga kelishi natijasida eski munosabatlarni aks ettiruvchi ibtidoiy din shakllarining yangi davr talablariga mos kelmay qoldi;
- ma'naviy tajribani umumlashtirish va ularga ilohiy tus berish bilan jamiyat va davlatni yanada mustahkamlash zarur edi [2]

Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa u mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish "Avesto" da ushbu dinning nomi "Mazdayasna" dini deb atalgan. Bu so'zni "Mazdaga sig'inmoq" deb tarjima qilish mumkin. "Mazda" so'zi "donish, oqil, donishmand" kabi talqin etiladi. Zardushtiylik yana "Behdin", ya'ni "Eng yaxshi din" deb ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. "Mazda" so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi "Axura" so'zi qo'shilishi natijasida Zardushtiylik dini oliy xudosi hisoblanmish Axura-Mazda nomi paydo bo'ldi[3].

Zardushtiylik dini paydo bo'lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya'ni quldorlik jamiyati davri endi paydo bo'layotgan davr edi. U urug'chilik tuzumi yemirilib aholi qullar va quldorlarga, zolim va mazlumlarga bo'linayotgan davr bo'lgan. Bu din eng avvalo O'rta Osiyodan tashqari Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Yaqin va O'rta Sharqning bir qancha mamlakatlariga tarqalgan edi. Zardushtiylik dinini paydo bo'lgan zamin Xorazm vohasida

qadimdan bir qancha turkiy elatlar yashab kelgan. Bu din mil. avv. VII-VI aslarga xos din sifatida o'zidan oldingi urug' qabilachilik dinlari negizida paydo bo'lgan din hisoblanadi. Zardusht nomi ham turli tadqiqotlarda turlicha keltiriladi. Masalan, Zaratushtra (ma'nosi- "sariq tuya sohibi", "zarg'in yorug'lik egasi"), Zarduts, Zoroastr ko'rinishlarida ham ishlatiladi. Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmaganligi to'g'risida ham aniq yechimga kelinmagan. Ba'zi tadqiqotchilar uni tarixiy shaxs deya e'tirof etishsa, ba'zilari esa ularda farqli o'laroq uni afsonaviy shaxs deya ta'kidlashadi. U Quyi Amudaryo hududlarida yashovchi oriy qabilasining yirik urug'laridan bo'lmish Spitama urug'idan bo'lgan. U 23 yoshidan boshlab jamiyatdagi kamchiliklarga turli xil qabilalarning turli xudolarga sig'inishi natijasida ular o'rtasidagi urushlarning ko'payishiga, qolaversa, har xil xudolar uchun qilinadigan qurbonlik (qurbonlikka odamlar ham ishlatilgan)larni sabab qilib ko'rsatadi va 30 yoshidan boshlab yagona oliy xudo Axura-Mazdaga sig'inish kerakligini targ'ib qila boshlaydi[4]. Zardusht o'z g'oyalarini jamiyatdagi barcha tabaqalar orasida qo'rqmasdan targ'ib qilgan. Zardusht Balx shahrida ibodat chog'i ko'pxudolikka sig'inuvchi Bratarvaxsh tomonidan pichoqlab o'ldirilgan

Zaratushtra (yunoncha–Zaroastr, forsha–Zardusht) qadimgi dunyo mualliflari ma'lumotlariga ko'ra afsonaviy shaxs deya e'tirof etilgan. Ammo Avestoning "Goxlari" va "Yasht" boblari Zaratushtrani tarixiy shaxs sifatida yoritadi. Abu Rayhon Beruniy ma'lumot berishicha Zaratushtraning tug'ilgan sanasi Makedoniyalik Iskandargacha bo'lgan 258 yil hisoblanadi. Zaratushtra 77 yoshida vafot etgan va uning hayot sanasi miloddan avvalgi VII-VI asrga to'g'ri keladi. Zardushtning tug'ilgan joyi haqida Avestoda hech qanday ma'lumotlar yo'q. Manbaga ko'ra Zardushtning diniy nasihatlarini o'z vatanida tarafdorlarini topmagan. Shuning uchun ham yangi din asoschisi o'z yurtidan qochishga majbur bo'ladi. Avestoning "Goxlari" bobida shunday deyilgan; "Qay tomonga, qaysi yurtga qochib qutulsam, meni kohinlardan va jangchilardan ajratib qo'ydilar, jamoa meni quvnatmaydi, mamlakatlarning yovuz sardorlari meni qabul qilmaydilar". Oxir – oqibat Zardushtni Baqtriya hukmdori Kavi Vishtaspa qabul qiladi. Vishtaspaning uzoq va yaqin qarindoshlari Zardusht ta'limotiga juda ham qiziqqanlar va uning e'tiqodini qabul qilishgan[5].

NATIJALAT VA MUHOKAMA

Shunday qilib Baqtriya davlati O'rta Osiyoda birinchi bo'lib Zardushtiylik dinini qabul qildi. Shoh Vishtaspa farmoniga binoan Zardushtning 1200 bobdan iborat pandnomasi Avestoning qadimiy qismi hisoblanmish "Got" yozilib shohning otashkadasiga topshirilgan.



Zardushtiylik ta'limoti O'rta Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan progressiv, monoteistik ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Zardushtiylik dini O'rta Osiyodagi so'g'diy va turkiy qabilalar orasida keng tarqaldi. Xususan so'g'diy butun O'rta Osiyo bo'yab tarqalgan bo'lib ularning shimoli-sharqiy hududlarda tarqalgan guruhi turkiy xalqlarni doimiy ravishda Zardushtiylikka targ'ib qilib kelgan va ular bilan diniy amallarni bajargan. Markaziy Osiyoda turkiy va so'g'diy yonma-yon yashagan manzilgohlar misolida bu ikki qavmning Zardushtiylik ta'sirida umumiylikka ega bo'lgan urf-odati mavjud bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Keyingi davrlarda turkiy va so'g'diy qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aynan zardushtiylik dinining o'rni nihoyatda katta. Markaziy Osiyodagi zardushtiylik Erondagi Sosoniylar davlatidagi zardushtiylikdan farq qilgan. Chunonchi, Sosoniylarda zardushtiylik rasmiy davlat dini maqomida, siyosiy vositalar orqali belgilangan qat'iy qoidalar asosida rivojlangan. Markaziy Osiyoda esa diniy tolerantlik negizida unga amal qilingan. Ya'ni insonlar zardushtiylik diniga o'zining xohishiga ko'ra e'tiqod qilganlar. Mavjud siyosiy kuchlar aholini mazkur dinga sig'inishiga majburlamagan desak mubolag'a bo'lmaydi. So'g'dlar Zardushtiylik dinini Mazdachilik yoki Mazdayasna dini deb yuritganlar. Shu tariqa Zardushtiylik dini O'rta Osiyoda ancha yaxshi rivojlandi va keng yoyilib, insoniyat sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shdi.

Qolaversa Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanmish "Avesto" kitobida yaratilgan makoni sifatida biz bemalol O'rta Osiyo ko'rsatilgan. Bu haqida rus sharqshunos olimi Dyakanov ham o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan. Bu bugungi O'zbekiston, xususan, Xorazm va unga tutash o'lkalardir. "Avesto" kitobidagi geografik- tarixiy ma'lumotlar shundan dalolat beradi-ki, Qadimgi Baqtriya va Eronga oid ba'zi geografik nomlar "Avesto" ga Zardushtiylik O'rta Osiyodan chiqib shu o'lkalarga tarqalgan paytda kirganligi shubhasizdir [6]

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha "Avesto"da Xorazm, Gava (So'g'd), Marg'iyona (Marv), Baqtriya (Balx), Orol dengizi (Vorukasha yoki Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) kabi O'rta Osiyoga tegishli nomlarning sanab o'tilganligi, shubhasiz, Zardushtiylik dinining O'rta Osiyoda paydo bo'lganligiga yana bir isbot bo'la oladi. Shuni aytib o'tish joiz-ki, "Avesto"da O'rta Osiyoda yashovchi ko'chmanchi, chorvador qabilalarning turmush tarzi ham keng yoritilgan. [7]. Zardushtiylik dini O'rta Osiyoda yashovchi qabilalar ijtimoiy hayotinig barcha jabhalariga juda katta ta'sir

ko'rsatgan. Zardushtiylik dini Markaziy Osiyoda boshqa dinlar bilan uzoq vaqt davomida raqobatlariga bardosh bergan. Bu borada muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, boshqa diniy e'tiqodlarni to'liq siqib chiqarib, o'z hukmronligini o'rnatishga intilmagan. Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanmaganligi, viloyatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan kam rivojlanganligi bunga imkon bermagan. Odamlar yangi dinni qabul qilish bilan birga o'zlarining an'anaviy e'tiqodini ham saqlab qolgan. Muayyan mintaqada Zardushtiylik keng tarqalgan bo'lsa-da boshqa diniy e'tiqodlar ham saqlanib qolgan. Zardushtiylik dini ta'limotiga ko'ra inson faqatgina pok yurishi afzal hisoblanadi. Yana bir qiziq tomoni shunda-ki ushbu din ta'limotiga ko'ra dunyo sinovlardan emas, balki yovuzlikka qarshi kurashdan iborat hisoblanadi. Ta'limotda inson yashayotgan dunyo muhim hisoblanadi. Bundan kelib chiqadi-ki dunyo lazzatlaridan oxirat uchun voz kechish g'oyasi ilgari surilmaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, zardushtiylik dini nafaqat O'rta Osiyo, balki o'zi tarqalgan juda keng mintaqada o'ziga xos sivilizatsiya yasadi desak adashmaymiz. Aynan mana shu din va undagi ezgu amallar tufayli jamiyatda ming yillar davom etib kelayotgan, ayni damda oddiy xalqqa faqatgina zarar yetkazib kelayotgan dinlarga barham berdi. Buning foydali jihatlari juda ko'p. Birinchidan, ma'lumki boshqa ko'pxudolik dinida har bir xudo uchun alohida qurbonlik talab etilgan. Buning ustiga qurbonlik uchun ko'pincha odamlar qurbonlik qilinar edi. Shusiz ham qabilalar o'rtasidagi qirg'inbarot urushlardan aziyat chekayotgan oddiy qashshoq xalq uchun boshqa ko'pxudolik dinidagi diniy amallarni bajarish og'irlik qilardi. O'z navbatida qabilalar o'rtasidagi qirg'inbarot urushlarga ham aynan ko'pxudolik dini sabab bo'lgan. Negaki, har bir qabila o'z xudosini oliy xudo deb atar va buning qo'shni qabilalar tomonidan ham e'tirof etilishini istardi. Qolaversa Zardushtiylik dini insoniyatga barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko'p ta'sir o'tkazgan dindir. Chunki turli dinlardagi jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqida ilk bor aynan Zardushtiylik dinida so'z yuritiladi. Keying asrlarda bu g'oyalar yahudiylilik, xristianlik va boshqa dinlar tomonidan o'zlashtirildi. Zardushtiylik dinida qo'riq yer ochib uni bog'-u rog'ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga sazovor bo'ladi, aksincha bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladi. Ushbu ta'limot O'rta Osiyoning bunyodkor va dehqon xalqiga juda mos kelgan. Yana bir muhim jihat shundaki ushbu dinning muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto" ming yillar

davomida o‘zida ezgu g‘oyalarni tashuvchi manba sifatida bizgacha yetib keldi va kelesh avlodga ham o‘tajak. Bizning vazifamiz esa undagi ezgulik g‘oyalari tashviqni amalda tatbiq etishni kengaytirish va kelajak avlodga yetkazishdan iborat.

REFERENCES

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/zardushtiylik-dinida-olamni-yaratilishi-haqidagi-ta-limotlar/viewer>
2. A.V.Narbekov. “Dinshunoslik asoslari”. Toshkent-2012. 81-bet.
3. <http://xorazmiy.uz>
4. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/z/zardushtiylik/>
5. A.Sagdullayev, B.Aminov, O‘.Mavlonov, N.Norqulov. “O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti”. I-qism. “Akademiya” nashriyoti. Toshkent- 2000. 19-bet.
6. M.Is‘hoqov. “Avesto, uning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni” konferensiyasidagi tezislari to‘plamidan. O‘zR FA. 2001-yil. 5-bet.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Zardushtiylik>

CHET TILI FANLARINI O‘QITISHDA ELEKTRON LUG‘ATLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Gulbahor Fayzulla qizi Jumadullayeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti mutaxassisligi magistanti

E-mail: gulbahorjumadullayeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitishda elektron lug‘atlardan foydalanishning samaradorligi va uning mamlakatimizdagi istiqbollari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: elektron lug‘at, metod, samaradorlik.

PROSPECTS OF USING ELECTRONIC DICTIONARIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE SUBJECTS

ABSTRACT

This article presents the effectiveness of using electronic dictionaries in teaching foreign languages and its prospects in our country.

Keywords: electronic dictionary, method, efficiency.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirildi. Jmladan ta‘lim tashkilotlarida xorij tili darslarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan texnik vositlar bilan jihozlanmoqda, o‘quvchilarning asosiy til ko‘nikmalarini (tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish) rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu jumladan oliy ta‘lim muassasalarining xorijiy tillar kafedralarini birlashtirish orqali o‘quvchilarning xorijiy tillarni chuqur o‘rganishini tashkil etish borasida amaliy ishlar qilindi, o‘quvchilarni xorijiy tillarga o‘qitish va ularning bilimlarini baholashning xalqaro tan olingan uslublarini joriy qilish, shu jumladan ta‘lim jarayonida masofaviy va boshqa zamonaviy ta‘lim shakllarini keng qo‘llash hamda boshqa fanlarni xorijiy tillarda o‘qitish amaliyoti bosqichma bosqich joriy etilmoqda, o‘quvchilarning kamida ikkita xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirishi orqali ularning



dunyoqarashi kengayishi, salohiyati oshishi hamda mehnat bozorida raqobatbardoshligi oshirilishini ta'minlash borasida izchil chora tadbirlar belgilangan. Shuningdek davlatimiz rahbarining raxbarining chet tillarini o'qitishda ilg'or xorij tajibasini dars mashg'ulotiga joriy etish to'g'risidagi ko'rsatmalariga muvofiq ko'plab amaliy tadbirlar amalga oshirildi. Xususan ushbu maqolada xorij tillarini o'qitishda elektron lug'atlardan foydalanish istiqbollari va samoraorlik tendensiyalari tahlil keltirilgan.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini oshirish va umuman, o'quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar inson hayotining ko'plab sohalarini, jumladan, ta'limni soddalashtirish imkonini beradi. Axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o'qituvchilarga o'quv jarayonini optimal tarzda qurish imkonini bermoqda. Talabalari ingliz tilini o'rganishda foydalanishlari uchun eng mos va samarali bo'lgan manbalarga misol tariqasida zamonaviy elektron lug'atlarni ham olish mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar elektron lug'atlarning amaliy samaradorligini tushunishga olib keladi, ammo qog'oz versiyalarini to'liq almashtirish tavsiya etilmaydi, chunki an'anaviy lug'atlar bilan ishlash talabalarda fikrlash jarayonining boshqa shakllarini, xususan, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Darslarda matndan nusxa ko'chirish (onlayn tarjimon bilan ishlash uchun), elektron lug'atlar bilan ishlash, turli xil Internet resurslaridan (portallar, platformalar, podkast va vodkast omborlari va boshqalar) foydalanish, o'quv va ma'lumot almashish kabi imkoniyatlardan foydalanish. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kasbiy ma'lumot materialni taqdim etish va o'zlashtirishni qiziqarli va shuning uchun samarali bo'lishiga imkon beradi, bu an'anaviy qog'oz tashuvchilarni to'liq va (yoki) qisman almashtirish imkonini beradi

Elektron lug'atlarni kontekst ichida va undan tashqarida so'zlar, iboralar va idiomatik iboralar (leksik birliklar) haqida ma'lumot olish imkonini beruvchi ma'lumotnomalar to'plami, chet tilini o'qitish vositalari sifatida tavsiflaydi. Albatta, elektron lug'atlar kengroq imkoniyatlarga ega bo'lib, ularning yuqori pedagogik salohiyatini belgilaydi, jumladan, an'anaviy qog'oz versiyalari bilan solishtirganda. Tadqiqot natijasida talabalar - bo'lajak mutaxassislariga chet (ingliz) tilini o'rgatishda elektron lug'atlardan foydalanishning quyidagi afzalliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) qidiruvning tezligi va qulayligi o'quv jarayonida vaqtni tejash imkonini beradi;



2) lug'at bazasini doimiy ravishda to'ldirish mavjud, ya'ni elektron lug'atlar atama va eskirgan so'zlarning xulosalarini muntazam yangilab turishni ta'minlovchi dinamik resursdir. Olimlar bu haqiqatni elektron lug'atlar va an'anaviy lug'atlar o'rtasidagi tub farq bilan alohida ta'kidlashadi;

3) elektron lug'atlar moslashuvchan, ya'ni ularning funksionalligi muayyan fan sohasiga (moliya, informatika, tibbiyot, fizika, huquq va boshqalar) moslashtirilishi mumkin;

4) yuqorida aytib o'tilganidek, o'rganilayotgan resurs turli xil elektron qurilmalarda ishlatilishi mumkin, bu sizga lug'atdan istalgan vaqtda, o'rnatilgan dasturiy ta'minot yoki Internetga kirish imkonini beradi;

5) elektron lug'atning muhim afzalligi multimedia elementlaridan (audio fragmentlar, tasvirlangan chizmalar, videolar va boshqalar) foydalanish hisoblanadi;

6) e'tiborga olish kerak bo'lgan muhim xususiyat - elektron lug'atlarda siz ma'lum bir so'z ishlatiladigan juda ko'p shartlarni quyishingiz mumkin, ya'ni. Ko'pgina internet resurslarida tarjima, qo'llash misollari va tilga mos keladigan shakllanishning turli shakllari ko'rsatilgan.

Yuqorida aytilganlar elektron lug'atlarning asosiy afzalligi ularning imkoniyatlarining ko'pligi va xilma-xilligi haqida dastlabki xulosa chiqarishga imkon beradi.

Onlayn lug'atlardan foydalanish ta'limning muhim qismi bo'lib, ma'lumotnomalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va faol leksik va grammatik kompetensiyani o'zlashtirish imkonini beradi. Ammo ushbu vositani sinab ko'rishdan oldin, o'qituvchining o'zi ma'lum bir talabalar guruhini tayyorlash yo'nalishini va o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, keyinchalik eng mos manbani tanlash uchun turli xil elektron lug'atlarning asosiy turlari va xususiyatlarini o'rganishi kerak. xorijiy til. Eng qiziqarli va foydali dasturlar talabalarning kasbiy terminologiya bilan ishlash ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi va umuman olganda, ularning chet (ingliz) tilini o'rganishga bo'lgan ta'lim motivatsiyasini oshiradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori 19.05.2021 yildagi 312-son.

2. Jamol Jalolov “Chet til o‘qitish metodikasi” Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik Toshkent – 2012.
3. “Examining the Context of E-Dictionary Use in Language Studies” Tetiana Vakaliuk, Oksana Chernysh, Raul Ferrer-Konill, Karaferye Figen Zhytomyr Polytechnic State University January 2021 Conference: International Conference on New Trends in Languages, Literature and Social Communications (ICNTLLSC 2021).
4. Kurbanova, N. (2023). THE NEED TO INCREASE EFL LEARNERS’ CULTURAL AWARENESS AT CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1904-1913.



THE ROLE OF CORRECT INTONATION IN ENGLISH

Nafisa Raimovna Kobilova

Department of English language, Faculty of Turizm, Chirchik State Pedagogical University

kobilova.n@cspi.uz

ABSTRACT

People have often been misunderstood in their everyday lives without the proper use of intonation, let alone when speaking in formal settings or rendering a public speech. Decoding the speech of someone who wholly avoids the correct use of tones makes it difficult to communicate effectively.

Therefore, it is of the utmost importance for second language learners to study and practise correct intonation. It would take some time for new users or learners of a language to adjust to the language's intonations, but listening to native speakers and practising imitating similar speech delivery can help.

Keywords: intonation, information structure, sentence stress, or accent, pitch, or melody, speech timbre, tonality, tempo

INTRODUCTION

As a part of phonology, intonation is the kind of pitch modulation found in whole utterances (Carr, 2008). The term "intonation" refers to a means for conveying information in speech that is independent of the words and their sounds. Intonation is also a complex unity of speech melody, sentence stress, tempo, rhythm, and voice timbre that enables the speaker to express his thoughts, emotions, and attitudes towards the contents of the utterance and the hearer.

Pauses are moments of silence in the flow of speech. Pauses are normally made to take breath at points where they are necessary or allowable from the point of view of the meaning of the sentence. They are used in the end of the sentence to delimit it from other sentences, and within the sentence, to separate sense groups.

In writing pauses are denoted by punctuation marks: the comma, the colon, the semicolon (within the sentence) and the full stop, the exclamation point and the question mark in the end of the sentence. However, pauses within the sentence may remain unmarked in writing.

The length of the pause depends on:

- Degree of independence
- Semantic importance

- Connection of the adjacent parts in the flow of speech
- The rate of speech

Sentence stress, or accent, is the greater prominence of one or more words among other words in the same sentence.

Pitch, or melody, is the change in the pitch of the voice in connected speech.

Tempo is the relative speed with which sentences and intonation groups are pronounced in connected speech. The rate at which syllables are pronounced and the number and length of pauses determine the tempo of speech. Tempo is not constant; it changes and shows the relative semantic importance of a sense group and the speaker's emotions. Stressed elements are said to be slower than unstressed ones.

Speech timbre is a special coloring of the voice that shows the speaker's emotions. Timbre is the special tone coloring of the speaker's voice. It serves to express joy, sadness, anger, indignation, etc. A speaker's voice may be characterized as flat, resonant, creaky, husky, bright, dark, soft, flurrying, etc. The physical nature of timber has not yet been physically established.

The functions of intonation:

- to form sentences and intonation groups.
- to define their communicative type.
- to express the speaker's thoughts.
- to convey the attitudinal meaning.

The most common types of intonation we have in English are the following:

- Falling intonation
- Rising intonation
- Falling–rising intonation
- Rising–falling intonation
- Falling Intonation

One of the most common intonation patterns in the English language is the rule of falling intonation.

This is when the pitch of the voice falls at the end of a sentence. We commonly use them in statements, commands, WH-questions, confirmatory question tags, and exclamations.

Below are some examples where we use the falling intonation:

In statements, we say:

I'm pleased to see you.

In commands, we say:

Leave me alone.

In WH questions, we say:

When do you want to tell me the truth?

In question tags, we use the rules of falling intonation only when we seek confirmation or invite agreement.

For example, we say:

She thinks she's so beautiful, doesn't she?

In exclamations, we say:

What a beautiful scene!

Rising Intonation

Another intonation marking used in the English language is the rule of rising intonation. This is when the pitch of the voice rises at the end of the sentence. It is commonly used in yes-or-no questions and question tags that show uncertainty. In question tags showing uncertainty, we say:

He prefers playing volleyball, doesn't he?

Rising-Falling Intonation

We can use both rising and falling intonation, as well as a combination of the two. Consider the rising-falling intonation rules. This is typically employed when presenting a list, a set of options, or partial or conditional statements. The first series of items in a list are stated with ascending intonation. Use a falling intonation on the final item to signify that the list has reached its conclusion. For example: *My brother enjoys outdoor activities such as mountain climbing, trekking, and camping.*

When used in choices, we say:

Are you coming today or tomorrow?

We also use the rising-falling intonation in partial statements. This is when the speaker is hesitant to fully express his ideas and is unable to finish his statement. For example:

What was the place like? Well, it seemed nice... (But it's too small.)

Do you like him? - Hmmm, yes I do... (But he is not sure.)

In conditional statements, we use the rising intonation in the first clause, then gradually shift to the falling intonation in the second clause.

So we say:

If you have any time, let me know.

Falling-rising intonation

One of the most common principles of intonation is the use of falling-rising intonation within a single word. This phrase is frequently used when the speaker is uncertain or hesitant to answer a question.

For example:

Would he support the team?

Tench (2005) summarised the major contributions of the triple systems, which express information structure as tonality, tonicity, and tone. The pattern by which tone groups are distributed throughout speech, called tonality, is crucial to the sense of an utterance.

Tone group is one of the features of intonation that has three primary systems: unit of information, focus of information, and status of information. It is related to the number of tone groups in an utterance, and each such tone group is seen as one 'move' in a speech act.

Each tone group has a tonic syllable, a place of prominence that the speaker seeks to mark as most important and that carries the most pronounced pitch change. It often carries the burden of "new information" in the clause, and, as such, the normative place of a tonic syllable is on the last word in a clause. Placement of the tonic syllable in places other than this is understood to be contrastive. The placement of tonic prominence is referred to as tonicity. The tonic segment is the most prominent stress (= tonic syllable) and carries the most significant pitch movement of the whole unit. The location of the tonic syllable relates to another sub-system, known as tonicity.

Tonality, the segmentation of discourse into individual units of intonation in sequence, represents the speaker's perception of the number of units of information.

In the segmentation of tonality, there are some divisions of the intonational contour. Roach (1991, p. 145) was the first to divide the structure of a tone unit into four main segments:

- Head is all that part of a tone unit that extends from the first stressed syllable up to the tonic syllable.
- Pre-head is composed of all the unstressed syllables in a tone unit preceding the first stressed syllable.
- The nucleus, or tonic syllable, is the most prominent syllable in the utterance or major pitch movement.
- The tail is any syllable between the tonic syllable and the end of the tone unit.

Nucleus also has another name called the tonic syllable. Roach (1991, p. 145) states that:

A syllable that carries a tone will be called a tonic syllable. It has been mentioned several times that tonic syllables have a high degree of prominence; prominence is, of course, a property of stressed syllables.

CONCLUSION

Unlike other languages, the English language follows several rules of intonation. In English, we use a different intonation in every situation. And while other people don't give so much importance to the rules, having the right intonation helps us sound clearer and more natural.

Below are the five benefits of having a very good intonation:

- Incorrect intonation can lead to misunderstandings, unmotivated speakers, and even offence!
- Intonation lets perform in tune. Consequently, the better the tune, the better you can sound as a speaker and be perceived.
- The tone is generally superior and more consistent because you have more control over influencing your air movement to play in tune. When your intonation has confident and typical, you become more confident and naturally. When the intonation is correct, it will be more enjoyable to speak English.

REFERENCES

1. Halliday, M. A. K. (1970). *A course in spoken English: Intonation*. London: OUP
2. Harmer, J. (2002). *The practice of English language teaching*. 3rd Edition. Cambridge: Pearson Education Ltd.
3. Roach, P. (1991). *English phonetics and phonology: A practical course*. 2nd Edition. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Tench, P. (2005) Talking intonation in *Speak Out!* 34: 3-15 ISSN: 1026-4345
5. Nursyamsu, R. & Munif, L. A. (2013). A study of English intonation in Indonesian EFL learners. *English Review: Journal of English Education*, 1 (2),223-230
6. Kobilova, N. R. (2022). Importance of pronunciation in english language communication. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 592-597.



ПАЖЎҲИШИ ВИЖАГИҲОИ УСЛУБИИ ОСОРИ АСАД ГУЛЗОДА ДАР АДАБИЁТШИНОСИИ ТОЧИКИИ ЎЗБЕКИСТОН

Дилшодаи Фарходзод Ҳазраткулиён

Номзади фанҳои филологӣ, дотсенти Донишгоҳи давлатии Самарқанд ба номи Шароф Рашидов, Республикаи Ўзбекистон

dilshoda.31@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Дар мақолаи мазкур ба тарзи фишурда дар бораи вижагиҳои умумии сабки эҷодии шоири бухороӣ Асад Гулзода сухан меравад. Мақсади асосӣ аз баёни вазъи омӯзиши шеъри Гулзода дар адабиётшиносии тоҷикии Ўзбекистон аст. Дар байни қорҳои тадқиқотие, ки дар атрофи шеъри Гулзода анҷом дода шудаанд, мақолаҳои илмии шоири маъруф, олими адабиётшинос Ҷаъфар Муҳаммад арзишмандтару фарогиртар аст.

Калидвожаҳо: Асад Гулзода, шеъри тоҷикӣ, Бухоро, шеъри бачагона, куллиёти шоир, муҳаққиқони адабиёт

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buxorolik shoir Asad Gulzoda ijodiy uslubining umumiy xususiyatlari haqida qisqacha to'xtalib o'tiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – O'zbekiston tojik adabiyotshunosligida Gulzoda she'riyatining o'rganish holatini bayon etish. Gulzoda she'riyati atrofida olib borilayotgan tadqiqot ishlari orasida atoqli shoir, adabiyotshunos olim Ja'far Muhammadning ilmiy maqolalari qimmatliroq va qamrovlroqdir.

Kalit so'zlar: Asad Gulzoda, tojik she'riyati, Buxoro, bolalar she'riyati, shoir ijodi, adabiyotshunos olimlar

АННОТАЦИЯ

В данной статье кратко рассматриваются общие черты творческого стиля бухарского поэта Асада Гулзода. Основная цель - описать статус изучения поэзии Гулзоды в таджикском литературоведении Узбекистана. Среди исследовательских работ, проведенных вокруг поэзии Гулзоды, наиболее ценными и исчерпывающими являются научные статьи известного поэта, литературоведа Джафара Мухаммада.

Ключевые слова: Асад Гулзода, таджикская поэзия, Бухара, детская поэзия, творчество поэта, литературоведы

ABSTRACT

This article briefly discusses the general features of the creative style of Bukhara poet Asad Gulzoda. The main purpose is to describe the status of studying Gulzoda's poetry in Tajik literary studies of Uzbekistan. Among the research works carried out around Gulzoda's poetry, the scientific articles of the famous poet, literary scholar Jaafar Muhammad are more valuable and comprehensive.

Keywords: Asad Gulzoda, Tajik poetry, Bukhara, children's poetry, poet's works, researchers

ДАРОМАД

Дар рӯзи ба нашр омода кардани ин мақола, ки ба мавзӯи пажӯҳиши осори шоири номдори бухорӣ Асад Гулзода дар адабиётшиносии тоҷикии Ўзбекистон бахшида шудааст, аз иттифоқи бад ин суҳангустари тоҷик чашм аз дунё пӯшид. Ба ин хотир мақолаи мазкурро ба посдошти ёди шоир мебахшем.

Дар адабиётшиносии тоҷик дар ҷумҳурии мо ҳусни тавачҷӯҳ ба шеърӣ шоироне ба мисли Асад Гулзодаи Бухорӣ ва омӯзиши вижагӣҳои ашъорӣ онҳо асосан пас аз истиқлолият ба даст овардани кишвар падид омад. Дар ин “оғози тоза” аҳли илму адаб рисолатеро ба дӯши худ эҳсос намуданд, ки акнун бояд дар ин сарзамин дар заминаи мавҷуда ҳаёти адабиро, дар ҳоли ҷонпайвандияш бо адабиёти муосири тоҷики бародарҳамсои Тоҷикистон, дар вучуди кандаю алоҳида, дар Ўзбекистон дубора қавӣ созанд. Бори ин рисолат ба дӯши донишгоҳ, рӯзнома ва маҳфилҳои адабӣ афтада буд. Дар муҳити донишгоҳ (масалан, дар Самарқанд), дар рӯзномаҳои тоҷикии кишвар, дар маҳфилҳои адабии шоирон дар ҳавзаҳои мухталиф кам-кам (дар тӯли беш аз сӣ сол) барои рушди ба истилоҳ “адабиёти замони истиқлол” имкониятҳо ба вучуд омаданд. Интишор ёфтани рӯзномаҳои нав ва дертар ҳатто маҷаллаи тоҷикӣ, ба роҳ гузошта шудани робитаҳои адабӣ бо Тоҷикистону Эрон ва сафарҳои эҷодӣ ба мамолики хориҷӣ, ба вучуд омадани шабакаҳои зиёди тоҷикӣ дар фазои густурдаи интернет, таъбу наشري зиёди маҷмӯаҳои ашъорӣ шоирон, баёзу тазкираҳо, наشري мақолаҳои илмиву тақризҳо ба шеърӣ қиссаҳои адибону шоирон имтиёзе барои инкишофи пешрафти муҳити фарҳангӣ ва нерӯҳои эҷодӣ фароҳам оварданд. Бар пояи заминаи мавҷудаи илмию адабӣ ва фарҳангӣ адабиёте ба гунаи вижа рушд намуд, ки онро ба эътибори ҷуғрофиёӣ “адабиёти тоҷикии Ўзбекистон” ва ё “адабиёти форсиабони Ўзбекистон” (дар манбаҳои илмию адабии форсии имрӯза) меноманд.

Шумори шоирони тоҷикро дар Ўзбекистон ба миқдори гуногун беш аз 200-400 нафар номбар мекунам. Гурӯҳе аз



инҳо шоирони асил, гурӯҳе ҳаваскор, нафароне бузургсол, баъзеҳо ба ин наздикиҳо даргузаштаанд, чандашон шоири дузабона ва дигарон тоза ба майдони адабиёт гом ниҳода ҳастанд. Ашъорашон дар рӯзномаю маҷаллаҳои маҳаллию ҷуҳуриявӣ ва ҳатто хоричӣ, дар баёзу тазкираҳо, шабакаҳои интернетӣ интишор ёфтаанд. Ҳама шоирон ба ҳар сатҳу ба ҳар салиқа шеър мегӯянд.

Дар ин мобайн шеърҳои Асад Гулзода, ки раҳоварди фаъолияти фарҳангии чандин даҳсолаанд, ба туфайли фаровонӣ шонс пайдо карданд, ки дар куллияте фароҳам оянд ва агар хато нашавад, ягона ва якумин шоири муосири тоҷик дар байни шоирони ин сарзамин, ки имкон ёфтааст ашъорашро ба шакли куллият дароварад, Асад Гулзодаи Бухороист. Ҳатман афзун будани чакомаҳо боиси шӯҳрати шоир намегардад, аммо ба ҳар ҳол баромади мунтазам дар матбуот, аз як сӯ ва арзишмандию аҳаммияти мӯҳтавои шеъри ӯ, аз сӯи дигар, метавонад аҳли илмо водор кунад, ки аз рӯи вазифашиносӣ хусусиятҳои ашъорашро биомӯзанд ва ҳарфе оид ба шеъри ӯ бигӯянд.

ҚИСМИ АСОСӢ

Асад Гулзодаи Бухороӣ дар назми тоҷики Ўзбекистон собиқаи зиёди эҷодӣ дорад. Ва мақоми ӯ дар муҳити адабии Бухорои имрӯза ба хотири сермаҳсулии ӯ ва аз сӯи дигар, ба сабаби камшумории суханварони тоҷик дар ин ҳавза мавриди эътибор ва таваҷҷӯҳи адабиётшиносони тоҷик қарор гирифтааст. Ба қавли шоир ва адабиётшиноси маъруф Ҷаъфар Муҳаммад: “Дар бораи кайфияти ашъор ва маҳорати шоирии Асад Гулзода адабиётшиносону забоншиносон, адибон ва рӯзноманигороне чун Ҷ.Ҳамроев, А.Қамарзода, Т.Чориев, А.Авазов ва дигарон рисолаву мақолаҳои ҷолиби диққат навиштаанд. Вале мақому манзалати шоирии Асад Гулзода фаротар аз он аст, ки дидаву шунидаву шинохтаем. Ва маҳбубият пайдо кардани ӯ дар Тоҷикистону Эрон низ далеле бар ин қазия аст” [4,3].

Майл ва эътибори фарҳангии эронӣ ба шеъри Гулзода пеш аз ҳама ҳосили муҳаббаташон ба Бухоро ва “ёрони варорӯдӣ” аст. Ба ин хотир дар донишномаю баёзҳо ва маҷаллаву мақолаҳои алоҳидае, ки дар Эрон мунташир гаштаанд, аз шеъри Асад Гулзода ҳам сухан гуфта, намунаҳои ашъорашро овардаанд. Ва ба хотири он ки маҳз ба туфайли ин шоир ва як-ду нафари дигари чакомасаро дар ин шаҳри қадим – ҳофизу ҳомии дину адабиёт, имрӯз ҳам шеър нафас мекашад, ба чакомаҳои содаи Гулзода эҳтиром мегузоранд, инҳо ки ба шеъри бапирояву хунарӣ арзиши бештарро қойил ҳастанд.

Зимни баррасии мӯхтавои шеъри шоир адабиётшиносон ба ҳамоҳангӣ баланду садодор будани танини ватандӯстиро дар онҳо таъкид мекунам, ки дуруст аст. Дар яке аз охири навистаҳо дар бораи шеъри Гулзода, ки дар шумораи навбатии маҷаллаи маъруфи “Бухоро” яке аз донишмандони эронӣ Масъуди Ҳусайнипур ҳам ин мазмун такрор мешавад, ки гуфта: “Асад ва дар канори ӯ хонум Ҳадя Раҷабова (Ҳадяи Бухорӣ) дар ҳоли ҳозир беҳтарин шуарои шаҳри Бухоро мебошанд. Дар китобҳои шеъри ин ду ба вуфур ба ашъори дар мадҳи Бухоро бармеҳурем. Ба таври кулӣ “ватан”, “шаҳри ман”, “модарватан”, “меҳан” ва... дар китоби (шояд тамоми) шуарои қарни бистуми Осиёи Марказӣ дида мешаванд, ки ин худ нуктаи қобили тааммул аст. Шояд битавон нутфаи ин падидаро ибтидо дар фишори давлати Шӯравӣ барои эҷоди ҳуввияти кишварҳои навсохта (Тоҷикистон, Ўзбекистон, Қирғизистон...), ки бо табартақсим эҷод шуда буданд, фарз кард, вале бо шӯълавар шудани ҷанги ҷаҳонии дувум... истилоҳи “шаҳр”, “ватан”, “меҳан” дар миёни мардуми он сомон бидуни нигариши сиёсӣ маънии ҳақиқии худро ёфт ва боистагии ишора ба он дар китоби кулӣ, девони шеъри варорудиён ҳамчунон бачо мондааст [6,27].

Бале, дарҳақиқат ватансароӣ дар шеъри муосири тоҷик дар чанд марҳила нав ба нав идома гирифтааст: дар назми маорифпарварӣ (оғози асри XX), дар шеъри замони шӯравӣ, дар шеъри худшиносии миллӣ (солҳои 60-ум) ва шеъри замони истиқлоли миллӣ (ки дигар ҳар миллат аз таркиби ҳукумати шӯравӣ давлати соҳибхитӣ шуд). Ватансароӣ бо вижагиҳои васфи бештар аз зодгоҳ, гӯшаҳои ватан, ситоиши ҳар чӣ арзиши фарҳангӣ дар он, ки марбут ба таърихи гузашта, ниёгони бузургвор, шукӯҳи имрӯзаи шаҳрҳо ва ғ. дар шеъри тоҷикии замони истиқлоли миллӣ ба назар мерасад, чунинчи дар ашъори Гулзода зимни овардани номҳои “Ватан”, “Ўзбекистон”, “Бухоро” ва маҳалҳои маъруфи шаҳр, ҳатто силсилае аз шеърҳо дар васфи Тоҷикистон ҳам зикр мешаванд:

Эй Бухоро, чашмаи илҳоми ман,

Эй Бухоро, шӯҳрату ҳам номи ман.

Бо ту гашта шоири овозадор,

Бо ту гашта ширу шаккар коми ман. [3,15]

Муҳаббати беқиёс нисбати зодгоҳ, такрор ба такрор аз меҳру муҳаббати худ ба Бухоро гуфтан, дар ҳақиқат, аз вижагиҳои хоси шеъри Асад Гулзода аст. Воқеан, дар ситоиши Бухоро шоир ҳиммати зиёд мекунад ва сухан дарёғ намедорад ва мисли ин ки Соиб фармудааст, ки “як умр метавон сухан аз зулфи ёр гуфт...”, ҳамеша номи Бухоро вирди забонаш будааст. Мо ба ин муносибат дар мақолае ӯро

“вассофи №1-и Бухоро” гуфтем [5,87], ки ҳақиқат дорад ва умедворем боиси малолӣ хотири отири шоир нагашта бошад.

Дар куллиёти осори шоир, ки дар чаҳор чилд дар байни солҳои 2017-2022 ба таърифи расидаанд, дар сарсуханҳое, ки аз ҷониби доктори илмҳои филологӣ, профессор Таваккал Чориев, ҳамчунин шоир ва олими намоёни адабиётшинос, доктори илмҳои фалсафа, профессор Ҷаъфар Муҳаммади Тирмизӣ навишта шудаанд, доир ба зиндагонӣ ва осори шоир маълумот мавҷуд аст. Дар онҳо Асад Гулзода пеш аз ҳама шоири бачагон ва наврасон муаррифи мешавад. Шоире, ки ба мисли Мирсаид Миршакар, Аминҷон Шукӯҳӣ, Гулҷеҳра Сулаймонова, Убайд Раҷаб, Абдумалик Баҳорӣ, Бобо Ҳочӣ, Наримон Бақозода, Мавҷуда Ҳақимова, Гулруҳсор, Алӣ Бобочон, Муҳиддин Фарҳат, Озод Аминзода, Нуъмон Розик, Меҳмон Бахтӣ, Маҳбуба Неъматзода, Салим Кенча, Бахтиёри Ҷумъа ва Зебунисои Тоҳириён чизҳои хуби хонданӣ навиштааст [1,11]. Воқеан, сабки эҷодии шоир бо содагию раванӣ, бо холигиаш аз мушкилнависию муғлақгӯӣ ва баёни равшану воқеъбинона, барои гуфтани ин навъи ашъор хеле мувофиқ аст. Дар муқаддимаи тӯлонӣ ба чилди дуҷумла куллиёти шоир, ки доир ба шеъри бачагонаи ўст, муаллиф аҳамияти тарбиявӣ доштан, ба эҷодиёти шифоҳии халқ наздик будани забони шеъри шоирро низ гуфта мегузарад [2,12]. Ҷаъфар Муҳаммад ҳам ўро дар эҷоди шеъри бачагона устои беназир ва ашъори бачагонаашро пурмӯхтаво, аз назари иштироқи қаҳрамонҳо ва ашъо сер, зиндаву пурҳаракат доништаанд [4,6]. Баръакси баъзе аз шеърҳои шоир, ки дар мавзӯи соҳтмони Роғун навишта шудааст, шеъри “Муслмони ҳақиқӣ”-яш хеле табиӣ аст ва соҳтагӣ надорад:

Бобои ман, ки диндор,
Муллои овозадор.
Қуръон аз даст намонанд,
Онро пайваста хонанд.
Намозхонӣ корашон,
Савоби он борашон.
Ҳочӣ Имом номашон,
Баланд аст ихлосашон.
Худотарсу худочӯй,
Бериёяндӯ ҳақгӯй.
Ҳаҷро адо кардаанд,
Зикри Худо кардаанд.
Бобои ман тақводор,
Хушгуфтору хушатвор. [4,107]

Тибқи таърифе, ки Аминҷон Шукуров ба шеъри Гулзода додааст, “Доираи фарохи фикрронӣ, офаридани нақшҳои тозаи руҳан инсонпарваронаи замони истиқлолият ба ӯ имкон додааст, ки ақидаи ватанпарварӣ, инсондӯстӣ ва барқарорӣ маънавияти миллиро бо мазмуни чуқур ва обуранги баланди бадеӣ тараннум намояд” [1,10]. Аммо аз байни муҳаққиқоне, ки ба омӯзиши хусусияти сабку услуб дар шеърҳои Асад Гулзода чиддан рӯй овардаанд, шоир ва олими намоёни адабиётшинос Ҷаъфар Муҳаммади Тирмизӣ, ки аз зумраи таҳиягарони ашъори шоир барои куллиёти ӯ будааст, бештар ҳиммат варзида, барои дар шакли густурдатар пардохтан ба пажӯҳиши вижагиҳои осори шоир заҳмат кашидааст. Бо така бар пӯиш бар забони содаи шеърҳо - бо калимаҳои маънусу маъмул дар забони адабии тоҷикӣ, баёни равшани воқеъбин, равонии сухан, ки шеърро матбуъ гардонидаст, муҳаққиқ Гулзодаро шоири суннатгарои пайрави сабки устод Рӯдакӣ медонад. Ӯ, ки ба пироясозӣ ба шеър камтар мекӯшад, мазмунофариро бар он бартар медонад - он ҳам мазмуновариӣ воқеӣ. Аз ин ҷо шоири воқеъгарост.

Бо вучуди ин ки Ҷаъфар Муҳаммад ба баъзе камбудихо аз қабиле сактаҳову ҳашвҳо, ноҷӯриву таҳриби қофияҳо дар шеър, гоҳо бо кинояте пинҳону гоҳо равшан, ишорат мекунад, боз ҳам рози дилписандии ашъори ин шоирро дар содагию равонӣ, самимияту отифа, риояти таносуби калом ва оҳанг, тасвирпардозӣ ва сужасозӣ медонад. Ва хулосаҳояшро доир ба шеъри Гулзода ба як-ду сухан чунин баён мекунад: “Ҳуҷҷати шоирии Асад Гулзодаи Бухороӣ низ шеъри ӯст: шеъри зинда, гӯё, гуфтугӯкунанда, таҳаррукдиханда, сода, равон, самимӣ, рост, дилнишин, хотирнишин, андешаомез, дардошно ва ҳаёлангез. Мунтақидоне, ки фикр мекунанд ҳастии шеър мубтанӣ бар вазну қофия аст, зоҳирро мебинанд, вале ба дунёи ботинии шеър сар фуру намебаранд” [5,5].

Бад-ин тартиб, Асад Гулзода ба мисли Ҳадяи Бухороӣ аз шоирони фидокори ҷафокашу заҳматписанд дар тангнои муҳити адабии Бухорост, ки сода ва зиёд менависад, то сухани волои тоҷикӣ ниғаҳдорӣ шавад ва ба гӯши дигарон бирасад. Ӯ мефармояд:

Қадри шоир дафтари ашъори ӯст,
Мисли ганҷи бебаҳо гуфтори ӯст.
Дарди халқаш бар забон орад мудом,
Дар сухан ҳар бурди ӯ, бозори ӯст [4,80].

Омӯзиши хусусиятҳои шеъри Асад Гулзодаи Бухороӣ идома дорад ва умедвор ҳастем, ки дар арафаи синни

QISHLOQ XO‘JALIGIDA GLOBAL G.A.P (GOOD AGRICULTURAL PRACTICES) STANDARTLARINI JORIY ETISH TIZIMI VA AHAMIYATI

Mirzamad Isayevich Odinayev

Toshkent davlat agrar universiteti q.x.f.f.d. (PhD)

mirzamad_odinayev@mail.ru

Shoxruh Baxodir o‘g‘li To‘xtasinov

Toshkent davlat agrar universiteti Magistri

Shaxzod Baxodir o‘g‘li Egamberdiyev

Toshkent davlat agrar universiteti PhD

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishda qo‘llanilib kelinayotgan birinchi darajali GLOBAL GAP standarti haqida qisqacha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Eng maqbul qishloq xo‘jaligi amaliyoti standartining avzalliklari, yunalishlari, talablari dunyo bo‘yicha etishtirilayotgan mahsulot turlari va ularning ulishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek ushbu standartni joriy qilishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi Klaster, fermer xo‘jaliklarining eksport saloxiyatini ta‘minlash va oshirishda asos bo‘luvchi talablar majmuyidan iborat bo‘lgan normatev hujjat xalqaro standart to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Global G.A.P., EUREP GAP, ISO 9001 standarti, SMT, Nazorat nuqtalari, muvofiqlik ko‘rsatkichlari, bir necha modullar, meyoriy hujjat, xavf-xatarlar, Litsenziyalash, Individual sertifikatlashtirish, Tuproq, Urug‘/ko‘chatlarga oid materiallar, O‘g‘itlash tizimi, Sug‘orish.

ABSTRACT

This article provides a summary of the GLOBAL GAP Level 1 standard, which is used in the cultivation of agricultural products in more than 130 countries around the world. Information is presented on the benefits, directions, requirements of the best agricultural practice standard for types of products grown around the world, and their distribution. Also, in the introduction of this standard, brief information is provided on the normative document of the international standard, which consists of a set of basic



requirements for ensuring and increasing the export potential of agricultural production clusters and farms.

Keywords: Global G.A.P., EUREP GAP, ISO 9001 standard, SMT, Control points, conformity indicators, several modules, normative document, risks, Licensing, Individual certification, Soil, Seed/seedling materials, Fertilization system, Watering.

KIRISH


Respublikamizda keyingi yillarda qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlari, jumladan saqlash va qayta ishlash tarmog‘ini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlash, bo‘yicha Respublika Hukumati tomonidan bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 maydagi 5995-sonli PF “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni imzolangan.

